LAW, POLICY AND SOCIETY

ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО

HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT

ILMIY-TAHLILIY JURNAL

5/2025



ISNN 2202-2152

UZ NAUKA

SCIENCE REVEALS THE TRUTH

MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЯ – CONTENT

1. Abdumalikov Otabek
AXBOROT OLISH HUQUQINI TA'MINLASHNING MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI: BMT VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI HAMKORLIK……1

2. Ashurov Alisher
SAYLOV JARAYONLARIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL…….....10

3. Алиакбаров Алиакбар
ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ НАРУШЕНИЙ АНТИДОПИНГОВЫХ ПРАВИЛ ДЛЯ СПОРТСМЕНОВ УЗБЕКИСТАНА…...……..…….....….29

4. Rustamov Akrom
FAROBIYNING ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI……...43

5. Ergashev Azamat
PROBLEMS OF DIGITAL RELATIONS AND THEIR CONFLICT- OF-LAW REGULATION IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW……..…….....49

6. Amirqulova Dilrabo
BRICS VA XALQARO XAVFSIZLIK: KO'P QUTBLI DUNYO SARI HARAKAT…….……..61

7. Миразимов Ҳусан
ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ТЕРГОВДАГИ ТИЗИМЛИ КАМЧИЛИКЛАРГА БАРҲАМ БЕРИШ ЗАРУРИЯТИ…….....….....70

8. Abdurazzoqova Zarina
JINOYAT VA JAZO TIZIMINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI..……75

9. Dauletbaeva Nodira
O'ZBEKISTON VA CHET DAVLATLARIDA QO'SHIMCHA JAZOLARNI TAYINLASH VA IJRO ETISH MUAMMOLARI…….....87

10. Sanetullaeva Muslihima
JINOYAT QONUNINING AMAL QILISH DOIRASI ……..……..……...95

11. Haydarov Jaloliddin
VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING KRIMINOLIGIK JIHATLARI.....……..102

12. Azlarov Azizxuja
TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARIGA RIOYA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QOIDALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI…….…...…....110

13. Ramazonov Nodir, Berdiyev Ibrohim
BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH…….……..121

14. Тухтаев Мардонбек
ТИНЧЛИК ВА ИНСОНИЯТГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР……...…126

15. Baxriddinov Sevinchbek
KIBER JINOYATLARNI TERGOV QILISH MUAMMOLARI……..…..……133

16. Khalikov Mukhriddin
ENHANCING UZBEKISTAN'S GLOBAL HUMAN CAPITAL: IN-DEPTH ANALYSIS OF PRESIDENTIAL DECREE PD-77 ON SUPPORTING TALENTED PROFESSIONALS IN INTERNATIONAL EDUCATION AND SKILLS DEVELOPMENT…….....141

17. Khikmatov Farrukh

STRENGTHENING EARLY CRIME PREVENTION AND SAFE ENVIRONMENTS IN UZBEKISTAN'S COMMUNITIES: A STUDY OF THE 2025 PRESIDENTIAL DECISION……148

18. Abdumutalimov Asadbek
KIBER JINOYATCHILIK – GLOBAL XAVF: DUNYO QONUNCHILIGI SHARHI……...155

19. Anvarov Asrorjon
KRIPTOVALYUTANI TARTIBGA SOLISH: XALQARO TAJRIBA VA HUQUQIY PROGNOZ……..…162

20. Komilov Is'hoq
JINOYAT-SUDLOV ISHLARIDA HIMOYA INSTITUTI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR……...169

21. Isroilov Ikrom
YASHIL SUG'URTA: EKOLOGIK JIHATLAR VA FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH……....176

22. O'narboyev Samandar
QONUNIY AJRAMASDAN UYLANSA QANDAY JAVOBGARLIK BOR?.....191

23. Baratova Sabina
TOVAR BELGILARIDAN TIJORAT MAQSADIDA FOYDALANISHDA UNING HUQUQIY MAQOMI…….196

24. Ro'zimboyeva Kumushoy
YURTIMIZDA MAVJUD BO'LGAN "MAHALLA YETTILIGI" FAOLIYATI TAHLILI…...203

25. Karimova Kamola
IJRO ETUVCH HOKIMYAT ORGANLARINING VAZIFA VA FUNKSIYALARINI TAQSIMLASH MEXANIZMLARI……207

26. Otamirzayeva Laylo
SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN MUNOSABATLAR ISTE'MOLCHILARI VA ULAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH……217

27. Махмудов Жахонгир
ОСНОВНЫЕ СУБЪЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ…….225

28. Мухторов Акобирмирзо
ПРИНЦИП ТЕРРИТОРИАЛЬНОСТИ ПРАВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: ВЫЗОВЫ ДЛЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРОВ В КОНТЕКСТЕ УЗБЕКИСТАНА…….233

29. Бурхонова Шахноза
МАЪМУРИЙ СУДЛАРДА МАЪМУРИЙ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРНИНГ ОЧИҚЛИК, ШАФФОФЛИК ВА ТУШУНАРЛИЛИК ПРИНЦИПИНИ ҚЎЛЛАШ АСОСЛАРИ……..252

30. Хазиева Марьямбону
МОБИЛЬНОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА……258

31. Xudaibergenova Dilnoza
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MULK HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MEXANIZMLARINI YANGILASH……...276

32. Komilov Asadbek
RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING HUQUQIY JIHATLARI……..298

33. Давронов Сардор

ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА ҲАКАМЛИК СУДИНИНГ ҲАЛ ҚИЛУВ ҚАРОРЛАРИ ЮЗАСИДАН НИЗОЛАШИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ……..316

34. Миркомилова Мадинабону
ВОЗМЕЩЕНИЕ ВРЕДА, ПРИЧИНЕННОГО ПОТРЕБИТЕЛЯМ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ…….327

35. Baratova Sabina
TOVAR BELGILARIDAN TIJORAT MAQSADIDA FOYDALANISHDA UNING HUQUQIY MAQOMI…….339

36. Davronov Otabek
ELEKTRON TIJORATDA SHAXSGA DOIR MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI……..…346

37. Otamirzayeva Laylo
SUN’IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN MUNOSABATLAR ISTE’MOLCHILARI VA ULAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH…….....358

38. Хазиева Марьямбону
ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ НА ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА……..372

39. Meliboyev Asqar
O‘ZBEKISTONDA XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH……..…380

40. Safarova Maftunabonu
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALAR VA ULARNING TEXNOLOGIK UZATMALARGA TA’SIRI……...……392

41. Абдумаликова Маржона
ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ И АДМИНИСТРАТИВНЫЕ ДОКУМЕНТЫ: КАК ЗАКОНЫ НА БУМАГЕ РЕГУЛИРУЮТ НАШУ ЖИЗНЬ?.....401

42. Maxamatumarova Mohigul
ELEKTRON TIJORATDA BITIMLARNI TUZISH TARTIBI VA ASOSLARI……..410

43. Axmadaliyev Xurshid
MAQSADLI MOLIYAVIY SANKSIYALARNI QO‘LLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI…….....422

44. Sattorov Javohir
TADBIRKORLIK HUQUQI SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA……...431

45. Аминов Шохрух
ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИГА ОИД ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИ ПРЕДМЕТИ ВА ОБЪЕКТИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ…….……447

46. Миркаримов Расулбек
АНАЛИЗ ПРАВОВЫХ АСПЕКТОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБЛАСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА, А ТАКЖЕ В СФЕРАХ СПОРТИВНОГО МЕНЕДЖМЕНТА И МАРКЕТИНГА……...469

47. Kunishev Otabek
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANK XIZMATLARINI MA’MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI……...…480

48. Rahmatova Dilorom
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANUVCHI IS’TEMOLCHILAR HUQUQLARINING XAVF OSTIDA QOLISH HOLATLARI VA HUQUQIY MUAMMOLAR…….500

49. Ne’matov Umidjon
XORIJIY DAVLATLAR VA MARKAZIY OSIYO INVESTITSIYA QONUNCHILIGI: QIYOSIY TAHLIL……513

50. Qadamov Javohirbek
IJTIMOIY TARMOQLARDA SODIR ETILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI……...524

51. Karimov Jasur
O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA KO‘RA VOYAGA YETMAGAN BOLALAR UCHUN ALIMENT UNDIRISH ASOSLARI, TARTIBI VA MIQDORI……..…532

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

AXBOROT OLISH HUQUQINI TA'MINLASHNING MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLARI: BMT VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI HAMKORLIK

Otabek Abdumalikov
Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi
oabdumalikov892@gmail.com

***Annotatsiya**: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro BMT tashkiloti o'rtasida axborot olish huquqini ta'minlash, fuqarolarning axborot olishdagi xavfsizligini ta'minlash huquqiy standardlarining ahamiyati va hamkorlik samaradorligi haqida tadqiq etiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mazkur jarayondagi roli tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** BMT, Konstitutsiya, xalqaro qonunchilik, milliy huquqiy hujjatlar, axborot olish huquqi, huquqiy standardlar, Filter Fubble, tabiiy huquq.*

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА ИНФОРМАЦИЮ: СОТРУДНИЧЕСТВО МЕЖДУ ООН И УЗБЕКИСТАНОМ

Отабек Абдумаликов
Ташкентский государственный юридический университет
Факультет магистратуры и заочного образования
Студент факультета права СМИ
oabdumalikov892@gmail.com

***Аннотация:** в статье рассматривается значение правовых норм и эффективность сотрудничества Республики Узбекистан с ООН по обеспечению права на информацию, безопасности граждан при получении информации. Анализируется роль Всеобщей декларации прав человека ООН в этом процессе.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ключевые слова: *ООН, Конституция, международное право, национальные правовые инструменты, право на информацию, правовые стандарты, Filter Fubble, естественное право.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda fuqarolik jamiyatining axborot izlash, olish, foydalanish, tarqatish huquqlari hamda so‘z erkinligi kabi shaxsiy huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlar sezilarli darajada rivojlandi. Bu jarayon ayniqsa ta’lim, siyosat va jurnalistika sohasida keng imkoniyatlarni ochdi va fuqarolarning har tomonlama to‘g‘ri axborot olish madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu huquqni xalqaro miqyosda ta’minlash, insonlarning axborot, so‘z va ifoda erkinligini to‘laqonli ta’minlash, shu bilan birgalikda senzuraga qarshi kurashish va axborotni cheklash kabi holatlarning oldini olish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Evropa Ittifoqi (YI) turli qonun hujjatlari ishlab chiqdi. Masalan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda Yevropa Ittifoqining “Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Konvensiyasi” inson huquqlarini shu jumladan xalqaro miqyosida fuqarolarning so‘z va axborot erkinligini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamlar bo‘ldi. Ushbu qonun hujjatlari va undagi aniq belgilab qo‘yilgan huquqiy me’zonlar insonlarning shaxsiy erkinligi bo‘lgan axborot va ma’lumotlardan (taqiqlangan axborotlardan tashqari) erkin foydalanishda, o‘z fikrini erkin va tazyiqlarsiz ifoda etishi kerak ekanini va bunda ularga to‘laqonli imkoniyatlar yaratib berish kerakligini e’tirof etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi 2017-yildan boshlab, hukumatning ochiqlik, oshkoralik

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

siyosati, davlat tashkilotlarining fuqarolar oldida javobgarlik hissini oshirishi, olib borilayotgan har bir faoliyat ommaviy axborot vositalarining har qanday shaklidan foydalangan holda fuqarolarni xabardor qilishi kerakligi kabi islohot va tashabbuslarning samarasi o‘laroq vujudga keldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti e’tirofiga ko‘ra, O‘zbekiston milliy qonunchilikni isloh etishda BMT va uning inson huquqlarini himoya tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladigan taklif va tavsiyalarni to‘liq inobatga olishni boshlaganini aynan shu yildan boshlagan. Hamda 2017-yildan to shu kunga qadar inson huquqlarini ta’minlash, axborot, so‘z, ifoda erkinligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun yetarli shart sharoitlar yaratish to‘g‘risidagi maslahat va tavsiyalarini hukumat qonunchiligi darajasida ko‘rib chiqdi.

Hozirgi kunga qadar, konstitutsion o‘zgarishlar qilinganda ham xalqaro qonunchilik bunda andoza vazifasini bajargani, unda inson qadri, uning huquq va erkinliklari prinsipi asosida qayta ishlab chiqilgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholandi.

Ushbu maqolada, O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlikni, bunda inson huquqlarini - axborot olish, tarqatish, izlash va foydalanish, so‘z erkinligini - himoya qilish borasidagi amaliy ishlarni, mutaxassislarning bu boradagi fikrlarini tahlil qilishga qaratilgan, muallifning taklif va tavsiyalari keltirilgan.

USLUBLAR

Ushbu tadqiqotda, axborot olish erkinligi borasida O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik, olib borilayotgan islohotlar hamda axborot olish erkinligining xalqaro va ichki huquqiy himoyasini o‘rganishga qaratilgan yondashuvlar qo‘llaniladi. Tadqiqot sifatida

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

huquqiy tahlil (legal analysis usulidan foydanalildi, bu milliy va xalqaro huquq normalari, BMT rezolutsiyalari, huquqshunos olimlarning fikr hamda axborot erkinligini ta’minlashda qilgan yangiliklari va boshqa rasmiy hujjatlarni o‘rganish orqali amalga oshirildi. Ushbu huquqiy tahlil davomida yoritilgan ishning natijasini ko‘rsatish uchun aniq raqamlar va ko‘rsatgichlar bilan dalillash (statistic) uslubidan ham ma’lum darajada foydalanish tanlandi. Asosiy e’tibor, 2023-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (yangi tahriri) ga, 2002-yilgi “Axborot erkinligi prinsiplari kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Axborot olish kafolatlari va erkilingi to‘g‘risida”gi qonunlarga, 1948-yilgi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga, “O‘zbekiston - 2030 va Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga qaratildi. Shuningdek, tahlil uchun ikkilamchi manbalar - ilmiy maqolalar, ekspert fikrlari, statistik ma’lumotlardan ham foydalanildi. Amerikalik huquqshunos, yozuvchi va jurnalistlarning fikrlari o‘rganildi, Filter qopqog‘i (Filter Bubble) nomli tushuncha alohida tahlil qilindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqaro huquq tizimida, xususan, axborot va so‘z erkinligini ta’minlashda va fuqarolarning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlashda O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida tizimli hamkorlik shakllanib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida qabul qilingan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risidagi qonun respublika hududida yashayotgan barchaning, millati, dini, irqi, kelib chiqishi va ijtimoiy holatidan qat'iy nazar axborotdan erkin foydalanish, izlash, olish va tarqatish kabi shaxsiy huquqini taminlashda huquqiy asos bo‘lgan bo‘ldi. Undan keyin “Axborot erkinligi to‘g‘risidagi qonun” vaziyatni yanada yaxshiladi va axborot huquqi borasida aniq

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

huquqiy me’zonlarni belgiladi. Ushbu qonunning 3-moddasida, har bir fuqaro uchun axborot olish huquqin kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi deya qat’iy belgilangan. 2023-yilda qayta tahrirdan chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa axborot olish huquqini ta’minlash, unga nisbatan g‘ayriqonuniy aralashuv va cheklovlarga nisbatan ancha aniq va majburiy moddani kiritdi. Uning 33-moddasida, nafaqat axborotni olish va tarqatish erkinligi davlat zimmasida ekani va balki Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishini o‘z zimmasida ekanini belgilagan. Bu esa, axborot ko‘lamini, istemolchilik va axborot madaniyatini, axborot hajmi, foydalanuvchilar xatti-harakatlarini yanada barqaror monitoring qilish, ularning har tomonlama huquqiy muhofazasini ham ta’minlash imkonini bera boshladi.

Tadqiqot shuningdek, 2020-yil 22-iyuldagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha HRC44 rezolyutsiyasi orqali inson huquqlarini targ‘ib qilishda, axborot erkinligini nafaqat ofline holatda, va endilikda online platformalardagi jarayonlarda ham ta’minlash, ularni dizinformatiyalar tahdididan himoyalash choralarini ishlab chiqish, 19-moddaga ayni shu qismi qo‘shimcha qilish borasida amaliy ishlar olib bordi. Sababi, hozirgi kunda, eng ko‘p axborot aynan internet tarmoqlaridan iste’mol qilinmoqda.

Undan tashqari, 2017-2024-yillar oralig‘ida, BMT inson huquqlari va O‘zbekiston Respublikasining axborot olish huquqi masalasidagi yakdil harakatlari va hamfikrlik holatlari keskin rivoj topdi. Xususan, BMT tomonidan taklif etilgan tavsiyalar, xalqaro me’yoriy standardlar milliy qonunchilikda o‘z ifodasini ko‘rsatdi. Jamiyatimizdagi har bir inson shaxsiy erkinliklari muhofazasining

ta’minlovi davlat zimmasida va xalqaro tashkilotlar tomonidan himoya etilishi e’tirof etila boshlandi. O‘zbekiston dunyoga har tomonlama ochildi va oshkoralik siyosati, axborot manbaalarini ochiqlash borasida Markaziy Osiyo mamlakatlariga o‘rnak bo‘la boshladi. Axborot erkinligi rivoj topishi, raqamlarda o‘z aksini ko‘rsatdi. 2016-yilda, Press Freedom (OAV erkinligi) Indexida 166-o‘rinni qayd etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib, 11 pog‘ona tushishga qaramay 148-o‘rinni egallan turgani ham, sezilarli o‘sish deb baholasa bo‘ladi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Axborot olish huquqini mustahkamlashda so‘nggi yillarda qilimayotgan ishlar va amaliy chora-tadbirlar, xalqaro hamkorlik anchayin samarali yo‘l ekani tadqiqot davomida isbotlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ham xalqaro ham milliy qonunchilikdagi o‘zgarishlar, zamonaviy tendensiyalar, internet va online platformalarning kirib kelishi bilan bog‘liq. Shu sababdan ham, hali yana qayta bu borada nazariy hamda amaliy tadqiqot ishlarini olib borish, internet orqali uzatiladigan axborotlarni turlarga ajratib chiqish, axborotni cheklash holatlari hali chuqur tahlillarga muhtoj ekanini ko‘rsatdi. 2020-yilda BMT rezolutsiyasi, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Evropa Konvensiyasida belgilangan qoidalarga ko‘ra, axborotni uni uzatuvchi shaklidan qat'iy nazar olish huquqi belgilangan. Bu o‘z navbatida insonlarga axborotdan har qanday shaklda - audio, video, matn va visual shaklda olish imkonini berdi. Biroq, internetdagi va matbuot orqali uzatilayotgan ma’lumotlarning hajmi keskin ortib ketishi, ularni butkul nazorat qilish imkonini yo‘qotishga olib keldi. Bu esa, dizinformatsiya, feyk xabarlar oqimini kengaytirib yubordi. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda Konstitutsiyaga qo‘shimcha o‘zgarishlar kiritilgan bir davrda, xalqaro

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qonunchilikdan andoza olgan holatda internet tarmog‘idan foydalanish hamma uchun shaxsiy huquq etib belgilanishi ushbu huquqning mustahkam etib belgilanishida tub burilishlar yasay oldi. Jamiyatning har bir bo‘g‘ini nafaqat axborotdan foydalanish va balki unga egalik qilish darjasiga erishdi. Bu davlatning ochiqlik siyosatini va jahondagi nufuzini anchayin oshirdi. Biroq, Amerikalik yozuvchi, tadbirkor va media faol Eli-Pariserning “Filtr qopqog‘i” (Filter Bubble) nazariyasiga ko‘ra, endilikda tarmoq foydalanuvchilarining axborotdan o‘zlari bilmagan holatda cheklanishi keng miqyosda kuzatilmoqda. Ya’ni, axborotni olish mobaynida, fuqarolar qiziqishlari ustiga qurilgan tarmoq algoritmlari, odamlarni muhim axborotlarni berishga emas, qiziqishlari ko‘ra juda tor doirada ma’lumot taqdim etishi, insonlarning axborot olishga bo‘lgan huquqini buzilishi deb qaramoqda. Demak, hali axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda yangi nazariyalarni ilgari surish va xalqaro tajriba asosida, mavjud va joriy qilinayotgan xalqaro huquqiy asos va normalarni milliy qonunchilikka moslash va amaliyotda tatbiq etish dolzarb vazifadir.

Tavsiyalar :

1. **Huquqiy uyg‘unlikni ta’minlash:** Axborot olishda, unda yuzaga kelayotgan muommolarni qayta tasniflash, axborot cheklovining aniq asoslarini belgilash.
2. **Axborot turlarini aniqlash:** Axborotning qonunda belgilangan uch toifasidan tashqari, mavjud axborotlarni qayta nomlash, ularni foydalanish mumkin yoki ta’qiqlangan axborot toifasiga kiritish;

3. **Axborot madaniyatini shakllantirish:** Fuqarolar o‘rtasida avvvalo tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish, unda axborotlarga nisbatan immunitet va madaniyatni shakllantirish.

4. **Axborot huquqini fundamental huquq etib belgilash:** Axborot inson to tug‘ilganidan boshlab qabul qilar ekan, bu uning ajralmas huquqidir. Axborot shaxsiy va professional sohalarda insonning rivojlanishida katta hissa qo‘shar ekan, axborot nafaqat shaxsiy va balki jamiyatdagi istalgan sohada qo‘llanilishi zaruriy talab ekanini inobatga olib, axborotsiz biror faoliyat yuritish mumkin emasligini hisobga olib, uni fundamental huquq darajasiga olib chiqish.

Xulosa qilib aytganda, axborot olish huquqini to‘laqonli ta’minlash, uning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlash davlatning, jamiyatning va fuqarolarning xalqaro maydonda yuksalishining asosiy mehanizmidir. Bu yo‘lda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, milliy qonunchilikni aniq holatga keltirish va amaliy jihatdan muvofiqlashtirish asosiy vazifalar sanaladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Inson huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. - URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml.

2. Inson huquqlari bo‘yicha Evropa konvensiyasi. 4-noyabr 1950-yil imzolangan:

https://uz.wikiaro.ru/wiki/European_Convention_on_Human_Rights

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo‘yicha HRC44 rezolyutsiyasi. 2020-yil 22-iyul.

https://www.article19.org/resources/hrc44-un-resolution-on-freedom-of-expression/#:~:text=The%20resolution%20reaffirms%20that%20the,other%20human%20rights%20and%20freedoms.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). 33-moddasi. http://lex.uz//uz/docs/-6445145.

5. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘irisida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.1997 yildagi 400-I-son:

http://lex.uz//docs/-1319 .

6. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son: http://lex.uz//docs/-52268.

7. O‘zbekiston - 2030 strategiyasi. 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni:

http://lex.uz//ru/docs/-6600413.

8. Raqamli O‘zbekiston - 2030 5.10.2020 yildagi PF-6079-son farmoni:

https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/raqamli_uzbekiston-2030_strategiyasi_qabul_qilindi.

9. An information society: free or feudal. Lawrence Lessig

https://www.itu.int/net/wsis/docs/pc2/visionaries/lessig.pdfIPC.

10. Uzbekistan and UNO partnership. (2017)

https://upr-info.org/sites/default/files/country-document/2023-11/A_HRC_WG.6_44_UZB_1_EN.pdf.

11. Kun.uz report. Press Freedom Index. (2024.05.03) https://kun.uz/en/news/2024/05/03/uzbekistan-drops-11-lines-in-press-freedom-index.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

SAYLOV JARAYONLARIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Ashurov Alisher G‘ulom o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: *ushbu maqolada saylov kampaniyasida ommaviy axborot vositalari (OAV) ishtirokini tartibga soluvchi huquqiy normalar tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksidagi OAV faoliyatiga doir qoidalar (xususan, saylovoldi tashviqoti bo‘yicha 9-bob moddalari) Germaniya federativ qonunchiligidagi tegishli me’yorlar (Federal saylov qonuni, media erkinligi to‘g‘risidagi qonunlar, sud qarorlari va amaliy tajriba) bilan qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida OAVning saylovdagi huquqiy maqomi, roli, cheklovlar va erkinliklar, hamda saylovda tenglik prinsiplarining amalga oshirilishi har ikki mamlakat misolida tahlil etiladi. Munozara qismida O‘zbekiston va Germaniya tajribasining o‘xshash va farqli jihatlari yoritilib, O‘zbekistonda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.*


Kalit so‘zlar: *saylov qonunchiligi, ommaviy axborot vositalari, saylovoldi tashviqoti, media erkinligi, huquqiy tartibga solish, qiyosiy tahlil, tenglik prinsipi.*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Ашуров Алишер Гулом угли
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация: *в статье анализируются правовые нормы, регулирующие участие средств массовой информации в предвыборной кампании. Изучались положения Избирательного кодекса Республики Узбекистан о деятельности средств массовой информации (в частности,*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



статьи главы 9 о предвыборной агитации) в сравнении с соответствующими нормами федерального законодательства Германии (Федеральный закон о выборах, законы о свободе СМИ, судебные решения, практический опыт). Результаты исследования анализируют правовой статус, роль, ограничения и свободы средств массовой информации на выборах, а также реализацию принципов равенства на выборах в обеих странах. В рамках дискуссионной секции будут рассмотрены сходства и различия между опытом Узбекистана и Германии, а также разработаны предложения по совершенствованию действующего законодательства Узбекистана.

Ключевые слова: *избирательное законодательство, средства массовой информации, избирательная кампания, свобода СМИ, правовое регулирование, сравнительный анализ, принцип равенства.*

LEGAL REGULATION OF THE ACTIVITIES OF THE MASS MEDIA IN ELECTION PROCESSES: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Ashurov Alisher Gulom ugli
Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the legal norms regulating the participation of the mass media (mass media) in the election campaign. The provisions on mass media activities in the Election Code of the Republic of Uzbekistan (in particular, the articles of Chapter 9 on election campaigning) are studied comparatively with the relevant norms of German federal legislation (Federal Election Law, laws on freedom of the media, court decisions and practical experience). The results of the study analyze the legal status of the mass media in elections, their role, restrictions and freedoms, as well as the implementation of the principles of equality in*

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

elections on the example of both countries. The discussion section will highlight the similarities and differences between the experiences of Uzbekistan and Germany, and develop proposals for improving the current legislation in Uzbekistan.

Keywords: *election legislation, mass media, election campaign, media freedom, legal regulation, comparative analysis, principle of equality.*

Kirish. Ommaviy axborot vositalari demokratik saylov jarayonining ajralmas qismidir. OAV saylov kampaniyasi davomida saylovchilarni nomzodlar va siyosiy partiyalar haqidagi axborot bilan ta’minlab, jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shu bois, saylov jarayonining adolatliligi va oshkoraligini ta’minlashda OAV faoliyatini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Media erkinligini kafolatlash bir tomondan, hamma nomzodlar uchun teng axborot maydonini yaratish va axborotdan foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish boshqa tomondan, davlat zimmasidagi vazifadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddasida ommaviy axborot vositalari erkin ekani va qonunga muvofiq faoliyat yuritishi belgilangan [1; 81-mod.], ya’ni davlat demokratik jamiyatda so‘z va axborot erkinligini ta’minlashga mas’ul. Xuddi shunday, Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy Qonunining (Grundgesetz) 5-moddasida matbuot va axborot tarqatish erkinligi kafolatlanib, senzura taqiqlanishi mustahkamlangan [2; 5-mod.]. Ammo OAV erkinligi cheklanmagan mutlaq huquq emas – ayniqsa saylov davrida uni suiiste’mol qilish, biror nomzodga nohaq imtiyoz berish yoki boshqalarga nisbatan noto‘g‘ri axborot tarqatish xavfi mavjud. Shu sababli ko‘plab davlatlar saylov kampaniyasi davrida OAVning rolini va cheklovlarini maxsus qonunlar bilan tartibga soladilar. O‘zbekistonda 2019-yilda qabul qilingan yagona Saylov kodeksi saylovoldi tashviqotida OAV ishtirokini

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

batafsil tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga oldi (Kodeks 9-bobi) [1; 44–46-moddalar]. Germaniyada esa ommaviy axborot vositalari faoliyati asosan Konstitutsiya prinsiplariga, “*Medienstaatsvertrag”* kabi media to‘g‘risidagi normativ hujjatlarga va Federal Konstitutsiyaviy sudning qarorlariga asoslanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda saylov qonunchiligini demokratik talablar asosida takomillashtirishga intilish kuchaymoqda. Saylov jarayonida OAVga erkinlik berish bilan birga, barcha siyosiy subyektlar uchun teng imkoniyatlar kafolatlanishi lozim. Xalqaro tajribani o‘rganish, xususan Germaniya kabi demokratik davlatlar amaliyotini tahlil qilish, O‘zbekiston saylov qonunchiligini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada ilmiy asos sifatida xalqaro huquqiy hujjatlar (masalan, YXHT 1990-yilgi Kopengagen hujjati) va milliy qonunchilik o‘rtasidagi talablar solishtirilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil metodologiyasidan foydalanildi. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi hamda Germaniya saylov va media qonunchiligiga doir normativ hujjatlar matni tahlil qilindi. O‘zbekistondagi huquqiy bazaning asosiy elementlari – saylovoldi tashviqoti tartibi, OAVga berilgan huquq va majburiyatlar, cheklov choralari – aniqlanib, ular Germaniyadagi tegishli normalar bilan qiyosiy ravishda o‘rganildi. Qonunchilik normalarini solishtirishda funksional yondashuv qo‘llanilib, har ikki tizimda OAVning saylov jarayonidagi roli va huquqiy maqomi qanchalik o‘xshash funksiyani bajarishi yoki farqli ekaniga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, tadqiqotda huquqiy hujjatlar tahlilini boyitish maqsadida xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ekspert xulosalari o‘rganildi. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) Demokratik institutlar va

inson huquqlari bo‘yicha byurosi (DIIHB)ning O‘zbekiston va Germaniyadagi saylovlarga doir kuzatuv hisobotlaridan foydalanildi. Bu hisobotlar OAV erkinligi va teng imkoniyatlarini amaliy nuqtayi nazardan baholab, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi [4; B. 29]. Shu bilan birga, Germaniyada konstitutsiyaviy nazorat organlari (Bundesverfassungsgericht) qarorlari tahlil qilindi, zero, aynan ana shu sud praktikasida OAVning saylov kampaniyasidagi vazifalari va cheklovlariga oid muhim huquqiy mezonlar shakllangan. Tadqiqot davomida olingan natijalar O‘zbekiston va Germaniya qonunchiligi bandma-band taqqoslash orqali umumlashtirildi. Qonun hujjatlaridagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanib, ularning sabab va oqibatlari huquqiy mantiq nuqtayi nazaridan izohlandi. Olingan ilmiy xulosalar asosida O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro demokratik standartlar darajasida rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar. O‘zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalarining saylov jarayonidagi ishtiroki maxsus normalar bilan tartibga solingan. Eng avvalo, O‘zbekiston Konstitutsiyasi OAV erkinligini kafolatlab, ularni faqat qonunda belgilangan tartibda cheklash mumkinligini nazarda tutadi [1; 81-mod.]**.** Shu konstitutsiyaviy prinsip asosida Saylov kodeksi va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun normalari OAV faoliyatiga doir umumiy huquqiy maydonni belgilaydi. Xususan, Saylov kodeksi 35-moddasiga muvofiq, OAV vakillari saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga doir barcha tadbirlarni yoritish hamda saylov kuni ovoz berish xonalari va ovozlarni sanash jarayonida bevosita hozir bo‘lish huquqiga ega[3; 35-mod.]. Ya’ni, qonun OAVni saylov jarayonining rasmiy kuzatuvchisi sifatida tan olgan va ularga keng vakolat bergan. OAV vakillarini akkreditatsiya qilish Markaziy saylov komissiyasi va

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

hududiy komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi, ular belgilangan namunadagi guvohnoma bilan ta’minlanadi. Bu norma saylovlarning oshkoraligini ta’minlashga xizmat qiladi, chunki jurnalistlar nomzodlarni ro‘yxatga olishdan tortib ovozlarni sanashgacha bo‘lgan bosqichlarni erkin yoritishi mumkin.

Saylovoldi tashviqotini olib borishda OAVning o‘rni va majburiyatlari O‘zbekiston Saylov kodeksining 9-bobida batafsil bayon etilgan. 44-modda saylovoldi tashviqotiga ruxsat beriladigan davrni belgilaydi: nomzodlar va partiyalar ro‘yxati rasmiy ro‘yxatga olingan kundan boshlab tashviqotga start beriladi va ovoz berish kuni hamda uning oldidagi kun (tinchlik kuni) tashviqot olib borish taqiqlanadi [3; 44-mod.]. Ushbu qoida OAVga ham tegishli bo‘lib, saylov kuniga bir kun qolganida va saylov kunida hech qanday tashviqot xabar yoki materiallarini tarqatmaslik talab qilinadi. Demak, qonun bo‘yicha “sukut kuni” joriy etilib, saylovchilar ovoz berishdan avvalgi so‘nggi kunda har qanday targ‘ibot ta’siridan holi bo‘lishlari ko‘zda tutilgan. Bu prinsipsiz OAV saylov kuni biror nomzod foydasiga axborot berib, boshqa nomzodlarga nisbatan nomutanosiblik keltirib chiqarmasligi ta’minlanadi.

Saylovoldi tashviqotini OAV orqali olib borish tartibi 46-moddada mustahkamlangan. Unga ko‘ra, davlat ommaviy axborot vositalarida nomzodlar va partiyalarga teng hajmda va bir xil sharoitlarda efir vaqti hamda nashr maydoni ajratilishi lozim [3; 46-mod.]**.** Bunda davlat OAVi nomzodlarga bepul asosda belgilangan hajmdagi efir vaqtini taqdim etadi. Ya’ni, barcha ro‘yxatga olingan siyosiy partiyalar (yoki nomzodlar) davlat teleradiokanallarida va matbuot nashrlarida bir xil vaqt va joyni reklama uchun hech qanday to‘lovsiz olish huquqiga ega bo‘ladilar. Shu tariqa, qonun saylovda ishtirok etayotgan tomonlar orasida axborot sohasida tenglik prinsipini ta’minlashga intiladi. Davlat OAV bilan

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

bir qatorda, tijorat (nodavlat) ommaviy axborot vositalarida ham efir vaqti yoki gazeta-jurnal maydoni berilishi mumkin, ammo bu pullik asosda bo‘lsa ham, barcha uchun teng shartlarda bo‘lishi kerak. Bu norma, masalan, biror telekanal saylovoldi reklamasi uchun muayyan tarif belgilagan bo‘lsa, barcha partiyalarga bir xil tarifni taklif etishi lozimligini anglatadi – ya’ni muxolifat vakilidan yuqoriroq narx talab qilish yoki kam vaqt taklif qilish qonunga xilof bo‘ladi.

Bundan tashqari, Saylov kodeksi siyosiy partiyalarga davlat OAVidan bepul foydalanish tartibi va hajmini belgilash vakolatini tegishli saylov komissiyasiga yuklaydi [3; 46-mod.]. Markaziy saylov komissiyasi (yoki tegishli okrug saylov komissiyalari) partiyalarning taklif va fikrlarini inobatga olgan holda, radio va televideniyeda bepul chiqishlar jadvalini tuzadi. Amaliyotda, masalan, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi orqali partiyalarning saylovoldi dasturlarini taqdim etish uchun bir xil davomdagi roliklarni efirga uzatish grafigi tuziladi va har bir partiyaga teng vaqt oralig‘ida ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, davlat matbuot nashrlari (masalan, “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetalarida) partiyalar uchun bir xil hajmdagi maqola joylashtirish imkoniyati beriladi. Bunday bepul efir vaqti va nashr maydonidan tashqari, agar partiyalar qo‘shimcha ravishda pullik reklama qilishni xohlasa, bu ham qonunda man etilmagan – faqat yuqorida ta’kidlanganidek, pullik asosdagi axborot ko‘rsatuvlari ham barcha subyektlar uchun teng shart-sharoit asosida bo‘lishi talab etiladi.

Saylovoldi tashviqotining mazmuniy cheklovlari ham qonunda belgilangan. Masalan, Saylov kodeksi 44-moddasida tashviqot davrida saylovchilarni tovlamachilik qilish – ularga pul yoki qimmatbaho sovg‘alar tarqatish, bepul (yoki imtiyozli) xizmatlar ko‘rsatish kabi usullar taqiqlanishi qayd etilgan [3; 44-mod.]. Bu bevosita OAVga tegishli bo‘lmasa-da, axborot tarqatish

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

shaklida ham saylovchilarni haq evaziga o‘ziga og‘dirish man etiladi. Shuningdek, umumiy tartibda OAV orqali tarqatilishi mumkin bo‘lmagan noqonuniy materiallar (milliy, irqiy, diniy adovat qo‘zg‘atuvchi chaqiriqlar, zo‘ravonlikka undovchi har qanday targ‘ibot) saylovoldi tashviqoti doirasida ham man etiladi – bu normalar bevosita Saylov kodeksida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, O‘zbekiston jinoyat va ma’muriy qonunchiligida belgilangan. Saylov kodeksi 8-modda va boshqa qator normalarda saylov jarayonida so‘z erkinligi va axborotning erkin tarqalishi prinsipi e’tirof etilgan bo‘lsa-da, u Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan muvofiqlikda talqin etiladi [3; 8-mod.].

O‘zbekiston saylov qonunchiligi OAVga nafaqat huquqlar balki mas’uliyat ham yuklaydi. Agar ommaviy axborot vositalari saylov to‘g‘risidagi qonun talablarini buzsa – masalan, belgilangan tartibga xilof ravishda tashviqot materiallarini berish, tenglik prinsipini buzish, sukut kunida targ‘ibot qilish va hokazo – ular belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Saylov kodeksining 103-moddasi saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik borligini eslatib o‘tib, bunday holatlarda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 51^{2}–51^{11}-moddalariga murojaat qilish lozimligini ko‘rsatadi [3; 103-mod.]. Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksda saylov jarayonida OAVga oid qoidalarni buzish (masalan, noqonuniy tashviqot, soxta axborot tarqatish, belgilangan joylardan tashqarida tashviqot plakatlari osish va h.k.) uchun jarima kabi jazo choralari belgilangan. Shuningdek, agar OAV vakili saylov natijalarini soxtalashtirishga yoki ovoz berishga aralashgan bo‘lsa, ehtimol u jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin – Jinoyat kodeksining 146-moddasi saylov huquqlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi [5; 146-mod.]. Shunga qaramasdan, amalda

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekistonda OAV tomonidan saylov qonuni buzilgani uchun sud tartibida jazo qo‘llash holatlari deyarli uchramagan; aksincha, OAV ko‘proq hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlashga moyil bo‘lgani uchun, saylovlarda nomzodlar o‘rtasida noxolis yoritish kabi muammolar xalqaro kuzatuvchilar tomonidan tilga olinadi. Masalan, YXHT DIIHBning 2024-yil Oliy Majlis sayloviga doir yakuniy hisobotida “OAVdagi cheklovlar saylovchilarning turli nuqtayi nazarlar haqidagi ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini sezilarli ravishda chekladi” degan xulosa bildirilgan [4; B. 2]. Bu shuni ko‘rsatadiki, qonunchilikda teng huquq va erkinliklar e’lon qilingan bo‘lsa-da, ularni amalda ta’minlash uchun OAV mustaqilligi va plyuralizmini kuchaytirish zaruriyati mavjud.

Germaniyada ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy tamoyillar Konstitutsiya (Grundgesetz) darajasida belgilangan. Asosiy Qonunning 5-moddasi so‘z erkinligi, matbuot erkinligi va axborot tarqatish erkinligini kafolatlar ekan, davlat nazoratini (senzurani) taqiqlaydi. Shuningdek, 21-modda siyosiy partiyalar xalqning siyosiy irodasini shakllantirishda ishtirok etishini konstitutsiyaviy vazifa sifatida qayd etadi [2; 21-mod.]. Ushbu ikki norma birgalikda shuni anglatadiki, siyosiy partiyalar o‘z g‘oyalarini erkin axborot maydonida targ‘ib qilish huquqiga ega va davlat ularga imkon qadar teng sharoit yaratib berishi lozim, lekin ayni vaqtda davlat OAV mazmuniga noo‘rin aralashmasligi kerak.

Germaniya federativ tuzilishga ega bo‘lib, OAV bo‘yicha qonunchilik vakolati asosan yerlar (ya’ni, mahalliy shtatlar)ga berilgan. Shu bois mamlakatda yagona “Matbuot to‘g‘risida” yoki “OAV to‘g‘risida” umumfederal qonun yo‘q; uning o‘rniga har bir yerning matbuot haqidagi qonunlari va butun Germaniya bo‘ylab amal qiluvchi *Medienstaatsvertrag* (2020-yilda qabul qilingan Media

to‘g‘risidagi davlatlararo shartnoma) mavjud. *Medienstaatsvertrag* barcha jamoat (davlat) va xususiy tele-radio tarmoqlari faoliyatining umumiy qoidalarini belgilaydi. Xususan, jamoat teleradiokompaniyalari (masalan, ARD, ZDF) axborot dasturlarida “obyektivlik va xolislik tamoyillariga rioya etishi, mavzular va fikrlar rang-barangligini iloji boricha muvozanatli aks ettirishi” shart qilib qo‘yilgan [6; B. 192]**.** Ushbu talab, aslida, jamoat eshittirishlarining demokratik jamiyatdagi o‘rni – erkin va jamoat manfaatiga xizmat qiluvchi fikrlar minbarini ta’minlash – vazifasidan kelib chiqadi. Konstitutsiyaviy sud o‘zining bir qancha tarixiy qarorlarida radio va televideniyeni “ommaviy kommunikatsiyaning alohida ahamiyatga ega sohasi” deb atab, u orqali barcha ijtimoiy guruhlar fikrlari eshitilishiga sharoit yaratish zarurligini ta’kidlagan. Masalan, 1961-yilgi bir qarorida sud shunday degan edi: “Radio eshittirishlar – bu shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki demokratik jarayonda fuqarolarning erkin fikr shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi; shu sababli, konstitutsiyaviy tartibda himoya qilinadi va har qanday bir tomonlama nazoratdan xoli bo‘lishi lozim” [6; B. 200]. Bu prinsip saylov davrida yanada dolzarb bo‘ladi, chunki saylov – bu xalq irodasini erkin ifodalash jarayoni, OAV esa bu jarayonni bevosita ta’sirlovchi omildir.

Germaniyada siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqoti uchun ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa radio va televideniyeda, keng imkoniyatlar beriladi. Muhimi, bu imkoniyat qonuniy majburiyat tarzida ta’minlanadi: har bir efirga ruxsat olgan tele-radio kompaniyasi saylov oldidan partiyalarning reklamaviy roliklarini bepul efirga uzatishi shart. *Medienstaatsvertrag*ning 68-moddasi va unga muvofiq yerlarning media qonunlariga asosan, Bundestag (federal parlament) saylovi va Yevropa parlamenti saylovi oldidan barcha umumfederativ tele-radio

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

kanallari partiyalarga “adolatli ulushda” efir vaqtini berishi lozim [7; B. 1]. Bu ulush qanday taqsimlanishi masalasi qonunda aniq foizlarda belgilanmagan bo‘lsa-da, Konstitutsiyaviy sud qarorlari bilan ishlab chiqilgan mezonlarga ko‘ra hal etiladi. Sud “partiyalarning imkoniyatlarda tengligi prinsipi”dan kelib chiqib, *abgestufte Chancengleichheit* deb atalgan tamoyilni joriy qilgan. Ushbu “darajali tenglik” tamoyiliga binoan, har qanday saylovda qatnashishga ruxsat etilgan partiya efirda ishtirok etish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas, biroq partiyalarning mazkur efirdagi ko‘rinishlari ularning jamiyatdagi o‘rniga muvofiq ravishda differensiallashishi mumkin [6; B. 203]. Boshqacha aytganda, juda kichik yoki yangi partiyalar ham televideniye va radio orqali o‘z dasturini targ‘ib qilish uchun vaqt oladi, lekin yirik partiyalar (o‘tgan saylovlarda ko‘proq ovoz olgan, parlamentda fraksiyaga ega bo‘lgan va h.k.) kattaroq ulushda vaqt olishga haqli. Sud bunday differensial yondashuvni oqlovchi bir necha omilni sanab o‘tgan: partiyaning avvalgi saylovdagi natijalari, siyosiy maydondagi faoliyati davomiyligi, a’zolar soni, tashkilot tarmog‘i, parlamentlarda vakilligi, hokimiyatda ishtiroki kabi mezonlar inobatga olinishi mumkin [6; B. 221]. Misol tariqasida, agar mamlakatda yirik an’anaviy partiyalar qatorida yangi tashkil topgan kichik partiya ham saylovda qatnashayotgan bo‘lsa, televideniye uning roligiga ham vaqt ajratishi shart, ammo efir vaqti taqsimotida yirik partiyalar 10 daqiqadan, kichik partiya esa 5 daqiqa olishini sud adolatli deb topishi mumkin – chunki bu farq partiyalarning jamiyatdagi ahamiyati va saylovchilarga ta’siridan kelib chiqadi.

Demak, Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qonuniy tartibga solish bilan bir qatorda OAVning professional va mustaqil bo‘lishi, o‘z ichki me’yorlariga ega ekani saylov jarayonining haqqoniy yoritilishi uchun katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat yuritar ekan, ayni

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

paytda partiyalar orasida muayyan muvozanat va hammani eshitish imkoniyati (oppozitsiya partiyalarini ham qatnashishi) tamoyili jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Shu bois, Germaniyada davlat hokimiyati saylov davrida OAV faoliyatini cheklashga emas, balki asosan facilitate (ko‘maklashish) qilishga, ya’ni barcha siyosiy subyektlar media maydonda ishtirok etishiga sharoit yaratib berishga urg‘u beradi.

Tahlil. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, O‘zbekiston va Germaniya saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solish borasida bir qator o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lsa-da, tizim va yondashuv nuqtayi nazaridan jiddiy farqlar ham mavjud. Avvalo, o‘xshashliklarni ta’kidlash lozim. Har ikki mamlakat qonunchiligida saylov davrida OAVning erkin axborot tarqatish huquqi tan olinadi va saylov kampaniyasining ochiqligi prinsipi e’lon qilingan. O‘zbekiston Saylov kodeksi va Germaniya Asosiy Qonuni ham saylovlarda axborot olish va tarqatish erkinligini demokratik saylovlarning ajralmas sharti sifatida e’tirof etadi. Masalan, O‘zbekiston qonunchiligida jurnalistlar saylov uchastkalarida hozir bo‘lib, kuzatuv o‘tkazishi qonunan mustahkamlangan bo‘lsa [3; 35-mod.], Germaniyada ham akkreditatsiyadan o‘tgan OAV xodimlari saylov kunini erkin yoritadi (hatto ayrim shtatlarning saylov kodekslarida jurnalistlarning uchastkalardagi faoliyatini osonlashtirish ko‘zda tutilgan). Shuningdek, ikki davlat ham saylovoldi tashviqotida siyosiy subyektlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga intiladi. Bu borada O‘zbekiston davlat OAV orqali *bepul va teng efir vaqti* berishni qonun darajasida joriy qilgan bo‘lsa[3; 46-mod.], Germaniya ham barcha tele-radio eshittirish tashkilotlarini *bepul siyosiy reklama vaqtini* ajratishga majbur qiladi [7]. Ya’ni, nomzodlar va partiyalarni axborot maydonida teng ko‘rinish olishini huquqiy jihatdan kafolatlash prinsipi har ikki yerda mavjud.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Yana bir o‘xshash jihat – saylovoldi tashviqotining noqonuniy shakllarini cheklashdir. O‘zbekiston qonunchiligi saylovchilarni sotib olish (ovoz evaziga pul yoki sovg‘a berish)ni taqiqlaganidek [3; 44-mod.], Germaniyada ham bunday harakatlar noqonuniy hisoblanib, hatto Jinoyat kodeksi bilan taqiqlanadi (masalan, saylovchini tovlamachilik yo‘li bilan ovoz berishga undash – jinoyat). Shuningdek, har ikki mamlakatda ham ekstremistik chaqiriqlar, zo‘ravonlikka da’vat va yolg‘on xabarlar tarqatish umumiy qonunlar orqali man etilgan – bu normalar, albatta, saylov davridagi OAVga ham tegishlidir.

Shunga qaramasdan, farqlar tahlili bizga OAV faoliyatini tartibga solishdagi yondashuv va amaliyotdagi tafovutlarni ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, siyosiy va media tizimlarining farqli ekanligi huquqiy tartibga solishda aks etgan. O‘zbekistonda OAVning aksariyati davlatga qarashli yoki davlat ko‘magida faoliyat yuritadi, mustaqil va muxolif axborot manbalari nisbatan cheklangan. Shu sababli, qonunchilikda formallashgan tenglik prinsipiga qaramay, axborot maydoni monopolizatsiyasi kuzatilishi mumkin – ya’ni, amalda barcha partiyalar teng efir vaqtini olishsa-da, davlat OAVning yangiliklar, tahliliy dasturlarida odatda hukmron partiya va amaldagi hukumat uchun ko‘proq ijobiy yoritilish beriladi. YXHT kuzatuvchilari bir necha saylovlarda O‘zbekiston televideniyesi va bosma matbuoti xabarlarida tanqidiy yoki muxolif fikrlar deyarli eshitilmasligini qayd etganlar – bu axborot muhitining bir tomonlama ekani tashqi bahodir [4; B. 2]. Germaniyada esa media bozori ancha plyuralistik: ko‘plab xususiy telekanallar, minglab mustaqil gazeta-jurnallar faoliyat ko‘rsatadi, jamoat teleradiokompaniyalari esa mustaqil tahririyat siyosatiga ega. Shu sababdan, nemis qonunchiligi OAVga nisbatan ko‘proq ishonch bildirish va o‘zini o‘zi tartibga solishga tayanuvchi yumshoq yondashuvni ko‘ramiz. Masalan, Germaniyada

bosma matbuot yoki internet nashrlarida barcha partiyalarga bir xil joy berish majburiy emas – tahririyatlarning o‘z xohishiga ko‘ra kimni yoritish, kimni tanqid qilish belgilanishi mumkin, bu senzura hisoblanmaydi. O‘zbekistonda esa de-fakto aksincha, ko‘plab OAV hukumat siyosati bilan uyg‘un kontent tarqatishga harakat qiladi, muxolifatga mustaqil platforma berish amaliyoti sust. Bu farq, albatta, qonunchilik matnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmasligi mumkin, lekin uning amal qilishida seziladi.

Huquqiy mexanizmlardagi farqlardan biri – saylovoldi “sukut kuni” institutidir. O‘zbekiston saylov kodeksi bo‘yicha tashviqot ovoz berish kunidan bir kun oldin to‘xtashi shart [3; 44-mod.], Germaniyada esa bunday qat’iy taqiq yo‘q. Bu, bir tomondan, saylovchilarning so‘nggi qarorini mustaqil shakllantirishga xizmat qilsa (ommaviy targ‘ibot shovqinidan xoli kun berish orqali), boshqa tomondan, axborot oqimini cheklaydi. Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agar OAV erkin va professional bo‘lsa, “tashviqot kuni”da ham qandaydir favqulodda nomutanosiblikka yo‘l qo‘yilmaydi – axborot iste’molchilari turli manbalardan xabar olishda davom etadi, lekin ular bildirayotgan fikrlar yangilik xabarlarida muvozanat saqlanadi.

Axborot makonini tartibga solishning zamonaviy masalasi – **ijtimoiy tarmoqlar va onlayn media** – borasida ham ikki mamlakat o‘rtasida farqli yondashuvlar kuzatiladi. O‘zbekistonda internetdagi faoliyatga doir ayrim cheklovlar mavjud: masalan, xorijdan moliyalashtiriladigan veb-saytlar faoliyatiga ruxsat berilmasligi yoki ba’zi mustaqil saytlarning bloklanishi. YXHT DIIHB O‘zbekistonga media qonunchiligini, xususan internet resurslariga qo‘yilgan cheklovlarni xalqaro standartlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni tavsiya etgan [4; B. 30]. Germaniyada esa internetda siyosiy reklama erkin, faqat

To remedy this, Uzbekistan must invest in both capacity-building and institutional innovation. Judicial cooperation agreements with countries experienced in digital law, joint training programs with international organizations (UNCITRAL, UNIDROIT), and pilot courts for digital dispute resolution would enhance judicial readiness. Without such measures, Uzbekistan may struggle to keep pace with the rapid digitalization of international commercial relations.

Case Studies and Hypothetical Scenarios. Blockchain-Based Sales Contract between Uzbekistan and the EU. Consider a scenario in which an Uzbek buyer purchases a non-fungible token (NFT) from a French digital artist via a decentralized blockchain platform. The transaction is automated through a smart contract, which initiates the transfer of digital ownership once the buyer's

cryptocurrency payment is received. However, due to a technical glitch, the artwork is not transferred correctly, and the buyer suffers financial loss.

The case raises critical PIL questions: What is the applicable law—the law of the seller's residence (France), the buyer's (Uzbekistan), or the blockchain jurisdiction (which may not even exist physically)? Which court has jurisdiction? The decentralized nature of the transaction makes it difficult to identify a governing legal framework. Under current Uzbek law, these questions remain unanswered, as there is no explicit provision for blockchain-based transactions or decentralized autonomous organizations. This legal uncertainty creates significant risk for Uzbek citizens participating in international digital commerce.

Cross-Border AI-Powered Contract Generation. Imagine an Uzbek entrepreneur using an AI-based legal tech platform located in Singapore to generate a service contract with a Dutch freelancer. The AI platform suggests contractual terms, fills in details, and finalizes the agreement with minimal human intervention. Later, a dispute arises regarding performance obligations and deliverables.

This hypothetical raises several unresolved PIL issues. First, was the contract legally formed if the AI, rather than a natural person, handled the negotiation? Second, can the AI be considered an agent under Uzbek or Dutch law? Third, what law governs the contract—Uzbek, Dutch, or Singaporean? Finally, which court has jurisdiction?

Uzbekistan's legal system provides no clear guidance on the use of AI in contract formation or on attributing legal responsibility to AI systems. As such technologies become mainstream, failing to modernize conflict-of-law rules will

increase transactional risks and reduce Uzbekistan's competitiveness in the digital economy.

These scenarios highlight the urgent need for updated legislation that directly addresses the peculiarities of digital relations within the framework of private international law. The longer such reform is delayed, the greater the legal fragmentation and uncertainty for individuals and businesses operating across borders.7. Reform Proposals and Strategic Recommendations

Modernizing Conflict-of-Law Rules. Uzbekistan and similar jurisdictions should adopt conflict-of- law provisions tailored to digital relations. These should include:

- Rules for determining the applicable law in smart contracts.
- Mechanisms for addressing AI-generated legal acts.
- Clear provisions on the legal status of decentralized platforms.

To address the increasing complexity of digital cross-border transactions, Uzbekistan should prioritize participation in international legal instruments that support the harmonization of conflict-of-law rules in the digital domain. Specifically, accession to the 2005 Hague Convention on Choice of Court Agreements and the 2019 Hague Judgments Convention would facilitate mutual recognition and enforcement of foreign judgments—particularly relevant for digital disputes involving smart contracts, AI systems, and data transfers. These conventions also promote predictability and legal certainty in cross-border litigation. Furthermore, Uzbekistan should consider ratifying the UNCITRAL Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts (2005), which establishes a framework for the legal validity of electronic communications in international transactions.

In addition to joining existing instruments, Uzbekistan should advocate for the development of new multilateral agreements that reflect the technological advancements of the digital age. These may include treaties covering blockchain governance, cross-border AI liability, and international data flow regulation. Uzbekistan's active participation in UNCITRAL and The Hague Conference working groups can strengthen its voice in shaping global digital law and aligning domestic legislation with international standards. Ultimately, these steps would reinforce Uzbekistan's credibility as a secure and reliable jurisdiction for digital commerce and legal cooperation.

Strengthening Uzbekistan's Legal Infrastructure. Legal harmonization must be complemented by institutional and structural reforms at the national level. Uzbekistan should undertake a strategic overhaul of its legal infrastructure to prepare for the influx of digital legal disputes and to align with global legal standards. First, the establishment of specialized judicial chambers or courts with jurisdiction over digital and technology-related disputes is imperative. These bodies would be staffed with judges trained in private international law and digital technologies, enabling more informed and consistent decisions.

Second, legal education and professional development must integrate modules on digital law, international e-commerce, data protection, and legal informatics. Bar associations, judicial training centers, and universities should collaborate to develop certification programs and continuing legal education tailored to emerging legal technologies. Third, Uzbekistan must formulate a comprehensive national strategy on digital legal transformation. This strategy should include objectives such as:

- digitalization of court procedures and case management;

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- creation of a centralized case law database for digital disputes;
- promotion of legal tech startups and legal research in digital governance.

By enhancing institutional capacity, Uzbekistan can effectively respond to the increasing volume and complexity of digital legal interactions and strengthen its role in the international legal order.

Adopting Lex Digitalis. The concept of Lex Digitalis, proposed by Koops (2020), envisions a transnational normative framework for regulating digital interactions across borders. Unlike traditional legal systems anchored in national sovereignty, Lex Digitalis is defined by technological environments, network architectures, and algorithmic governance. It offers a model for legal regulation in cyberspace that transcends state-centric approaches.

For Uzbekistan, embracing Lex Digitalis would require recognizing the need for a hybrid legal regime that incorporates both national and transnational norms. This could take the form of:

- adopting principles of interoperability between national digital laws and international standards;
- recognizing legal personality for digital agents such as smart contracts and autonomous AI systems under controlled conditions;
- enacting legislation that governs the use of distributed ledger technologies and ensures technological neutrality in digital dispute resolution.

Furthermore, Lex Digitalis promotes a risk-based regulatory framework where laws adapt dynamically to technological developments. Uzbekistan's legal system must become more agile and open to cross-border legal innovation. This

transformation would position the country as a forward-thinking legal jurisdiction that not only regulates digital activity but also fosters its responsible growth.

Conclusion. Digital relations have irreversibly transformed the scope and substance of Private International Law. Traditional conflict-of-law rules, developed in an era of physical transactions and state-centric interactions, are now being tested by borderless, algorithmic, and decentralized legal realities. In this rapidly evolving landscape, legal certainty and coherence depend on the ability of states to modernize their legal frameworks and coordinate internationally.

For Uzbekistan, this means reimagining its Private International Law in light of digital transformations. Acceding to international conventions, modernizing domestic legal instruments, enhancing institutional capacities, and embracing innovative regulatory paradigms like Lex Digitalis are essential steps. Without such reform, Uzbekistan risks legal fragmentation, uncertainty in cross-border transactions, and diminished participation in the global digital economy.

The path forward lies in a synergistic approach—combining national innovation with international harmonization—to build a future-proof legal order that can effectively manage the complexities of digital relations under Private International Law.

REFERENCES

1. Bradshaw, S., Millard, C., & Walden, I. (2021). Cloud computing law. Oxford University Press.
2. Bygrave, L. A. (2017). Internet governance by contract: The rise of a new contractual order for regulating online behavior. Oxford University Press.
3. European Court of Justice. (2014). Google Spain SL, Google Inc. v Agencia Española de Protección de Datos (AEPD), Mario Costeja González.

Case C-131/12.

4. Koops, B.-J. (2020). The concept of Lex Digitalis. Computer Law & Security Review, 36, 105– 117.

5. Kuner, C. (2020). Transborder data flows and data privacy law. Oxford University Press.

6. UNCITRAL. (1996). Model Law on Electronic Commerce.

7. UNCITRAL. (2005). United Nations Convention on the Use of Electronic Communications in International Contracts.

8. Uzbekistan. (2004). Law on Electronic Commerce.

9. Uzbekistan. (2013). Law on Private International Law.

10. Uzbekistan. (2019). Law on Personal Data.

11. Hague Conference on Private International Law. (2005). Convention on Choice of Court Agreements.

12. Hague Conference on Private International Law. (2019). Judgments Convention.

13. UK Jurisdiction Taskforce. (2019). Legal Statement on Crypto-assets and Smart Contracts.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

BRICS VA XALQARO XAVFSIZLIK: KO‘P QUTBLI DUNYO SARI HARAKAT

Amirqulova Dilrabo Sanaqul qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Xalqaro munosabatlar va jahon siyisati mutaxassiligi
2-bosqich magitranti
amirqulovadilrabo@gmail.com
+998974099819
Ilmiy rahbar: s.f.d., prof. S. Saidolimov

Annotatsiya. *Ushbu maqolada BRICS tashkilotining xalqaro xavfsizlik sohasidagi o‘rni, tashabbuslari va global siyosiy tartibga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. BRICS doirasidagi hamkorlik, ko‘p qutbli tizimga o‘tish jarayonida muhim vosita sifatida qaralib, BMT xavfsizlik kengashining islohoti, terrorizmga qarshi kurash, kiberxavfsizlik, va harbiy-siyosiy barqarorlik masalalari kontekstida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar. *BRICS, xalqaro xavfsizlik, ko‘p qutbli dunyo, global tartib, xavfsizlik tashabbuslari, BMT islohoti.*

Annotation. *This article analyzes the role, initiatives, and impact of the BRICS organization on international security and the global political order. Cooperation within BRICS is examined as a key mechanism in the transition to a multipolar world, particularly in the context of UN Security Council reform, counterterrorism, cybersecurity, and geopolitical stability.*

Keywords: *BRICS, international security, multipolar world, global order, security initiatives, UN reform.*

Аннотация*. В статье анализируется роль и инициативы организации БРИКС в сфере международной безопасности и её влияние на глобальный политический порядок. Сотрудничество в рамках БРИКС*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

рассматривается как важный инструмент перехода к многополярному миру, особенно в контексте реформы Совета Безопасности ООН, борьбы с терроризмом, кибербезопасности и геополитической стабильности.

Ключевые слова: *БРИКС, международная безопасность, многополярный мир, глобальный порядок, инициативы в области безопасности, реформа ООН.*

Kirish

XXI asr global siyosiy maydonida muhim geosiyosiy siljishlar davri bo‘lib, bu davrda xalqaro munosabatlarning an’anaviy G‘arb markazli tizimi o‘rniga ko‘p qutbli va ko‘p markazli tuzilma shakllanmoqda. Aynan shunday sharoitda BRICS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) tashkiloti global siyosat va xalqaro xavfsizlik sohalarida muqobil institutsional model sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolada BRICSning xalqaro xavfsizlik tizimidagi roli, u tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar va global tartibga ta’siri tahlil qilinadi. BRICSning asosiy maqsadlaridan biri mavjud geosiyosiy nomutanosibliklarni bartaraf etish va rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro siyosatda ovozini kuchaytirishdan iborat bo‘lib, bu yo‘nalishdagi faoliyat ayniqsa xavfsizlik sohasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Global xavfsizlik bugungi kunda an’anaviy harbiy tahdidlar bilan bir qatorda gibrid urushlar, terrorizm, kiberxavfsizlik, strategik infratuzilmalarning himoyasi kabi murakkab masalalarni qamrab oladi. BRICS davlatlari ushbu tahdidlarni oldini olish va ularni bartaraf etish yo‘lida o‘zaro muvofiqlashtirilgan siyosat yuritishga intilmoqda. Shu ma’noda, BRICS ko‘p qutbli dunyo sari intilishda nafaqat iqtisodiy hamkorlik balki xavfsizlik sohasida ham muhim geosiyosiy o‘yinchiga aylanmoqda.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

BRICS tashkiloti dastlab iqtisodiy hamkorlik platformasi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunda u xalqaro xavfsizlikning turli jihatlari bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surayotgan global aktorga aylangan. Ayniqsa, 2010-yillardan boshlab BRICS sammitlarida xavfsizlik masalalari barqaror muhokama qilinib, tashqi tahdidlarga nisbatan umumiy pozitsiya shakllantirilmoqda. Misol uchun, 2013-yildagi Durban sammitida BRICS davlatlari global xavfsizlik masalalarida mustaqil pozitsiyani ilgari surish va BMT Xavfsizlik Kengashi islohotlariga doir birdam fikr bildirgan edilar[1].

Xalqaro xavfsizlikka oid yondashuvlarda BRICS a’zolari o‘z suverenitetini saqlab qolgan holda, kollektiv xavfsizlik tushunchasini ilgari suradi. Bu yondashuv G‘arbning harbiy bloklarga asoslangan xavfsizlik modelidan farq qiladi. BRICSda hech bir a’zo davlat ikkinchisining suveren qarorlarini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga urinmaydi; bu esa hamkorlikka asoslangan, “yumshoq kuch”ga tayanuvchi xavfsizlik modeli sifatida qaraladi[2].

Ko‘p qutbli xavfsizlik tizimining shakllanishi bugungi dunyoda mavjud bo‘lgan kuch markazlarining diversifikatsiyalanishi, AQSH va NATOga nisbatan muqobil platformalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. BRICS aynan shunday o‘ziga xos pozitsiyani egallab, global janubning manfaatlarini ilgari suruvchi geosiyosiy blok sifatida harakat qilmoqda. Ayni paytda, Xitoy va Rossiyaning global xavfsizlik masalalarida yetakchi rol o‘ynashi BRICS doirasidagi xavfsizlik tashabbuslariga geostrategik og‘irlik kiritmoqda[3].

[1] Durban Declaration, Fifth BRICS Summit, South Africa, 2013.
[2] Stuenkel O. *Post-Western World: How Emerging Powers Are Remaking Global Order*. Cambridge: Polity Press, 2016. – B. 88–90.
[3] Lukin A. “The BRICS and Global Governance: Challenges of the Multipolar World.” *Global Governance*, Vol. 25, No. 3, 2019, pp. 409–428.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Bundan tashqari, BRICS mamlakatlari BMTning isloh qilinishini, xususan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilishini talab qilmoqda. BRICSning pozitsiyasiga ko‘ra, bu kengashda Hindiston va Braziliya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning doimiy a’zoligi global adolat tamoyiliga mos keladi[4]. Shu bilan birga, har bir BRICS davlati o‘z mintaqaviy xavfsizlikka oid tashabbuslari orqali umumiy global xavfsizlikka hissa qo‘shmoqda. Masalan, Braziliya Janubiy Amerika xavfsizligida, Janubiy Afrika esa Afrika Ittifoqi doirasida muhim rol o‘ynaydi.

BRICS davlatlarining xavfsizlik sohasidagi hamkorligi, ilk navbatda, milliy xavfsizlik va suverenitet tamoyillariga asoslangan bo‘lib, ular o‘zaro intervensiyasiz, tenglik va o‘zaro manfaat prinsiplariga tayanadi. Tashkilot doirasida har yili o‘tkaziladigan Milliy xavfsizlik kengashi kotiblari uchrashuvlari orqali strategik muvofiqlik masalalari muhokama qilinadi. Bu uchrashuvlarda umumiy xavf-xatarlar – transmilliy jinoyatchilik, narkotrafik, terrorchilik, biologik xavfsizlik va kiberxavfsizlik bo‘yicha koordinatsiya masalalari ko‘tariladi[4].

Ahamiyatlisi shundaki, BRICS xavfsizlik bo‘yicha o‘zini harbiy blok sifatida emas, balki siyosiy-muloqot va kelishuv platformasi sifatida ko‘rsatmoqda. Bu unga an’anaviy geosiyosiy kuch markazlaridan farqli tarzda, yumshoq kuch orqali xavfsizlikni ta’minlash vositasi sifatida faoliyat yuritish imkonini beradi.

BMT Xavfsizlik Kengashining zamonaviy global tartibga mos bo‘lmagan strukturasini tanqid qilgan holda, BRICS davlatlari ushbu organning islohotini yoqlab chiqishmoqda. Ayniqsa, Hindiston va Braziliya kengaytirilgan tarkibda

[4] BRICS National Security Advisors Meetings Joint Statements (2016–2023). See: BRICS India 2021 Official Website – “Joint Statement by the National Security Advisors of the BRICS Countries.” www.brics2021.gov.in

doimiy a’zolikni qo‘lga kiritish niyatida. Bu borada BRICS mamlakatlari 2015-yildan boshlab o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi deklaratsiyalar qabul qilishmoqda[5].

BRICSning bu yo‘nalishdagi tashabbuslari global janub davlatlariga xalqaro qaror qabul qilish tizimida ko‘proq ovoz berilishi tarafdori ekanini anglatadi. Bu, o‘z navbatida, dunyo xavfsizlik tizimining yanada adolatli va inkluziv bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu maqsadda BRICS doirasida turli ekspert guruhlar va siyosiy-muloqot platformalari faoliyat yuritmoqda.

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberxavfsizlikni xalqaro xavfsizlikning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. BRICS davlatlari bu masalaga dolzarb yondashib, 2017-yilda Xitoyning Szyamen shahrida o‘tgan sammitda “Kiberxavfsizlik hamkorligi to‘g‘risidagi deklaratsiya”ni qabul qildilar[6]. Bu hujjatda BRICS davlatlari internet suverenitetini saqlash, global internet boshqaruvini demokratlashtirish va axborot maydonida gibrid tahdidlarga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

BRICS a’zolari har biri alohida-alohida katta texnologik infratuzilmaga ega bo‘lib, birgalikda kiberhujumlarning oldini olishda real salohiyatga ega. Misol uchun, Xitoy va Hindiston dunyoning eng yirik IT-bozorlariga ega bo‘lish bilan birga, o‘z raqamli suverenitet siyosatini yuritmoqda. BRICS doirasidagi axborot xavfsizligi bo‘yicha ekspertlar guruhi esa strategik koordinatsiyani mustahkamlab boradi.

Terrorizmga qarshi kurash BRICSning xavfsizlik yo‘nalishidagi asosiy ustuvorliklaridan biridir. Tashkilot bu borada xalqaro huquq normalariga tayangan holda, “ikkiyuzlama” yondashuvlarga qarshi chiqadi. BRICS davlatlari ayrim

[5] BRICS Ministers of Foreign Affairs Joint Communiqués, 2015–2023. See: BRICS Brazil 2019 – “Joint Communiqué of the BRICS Ministers of Foreign Affairs/International Relations.” www.brics2019.itamaraty.gov.br
[6] BRICS Leaders Xiamen Declaration, September 4, 2017. See: BRICS 2017 China – “BRICS Leaders Xiamen Declaration.” www.brics2017.org

davlatlarning siyosiy raqiblarini “terrorchi” deb atab, ularni kuch bilan bostirish amaliyotlarini rad etadi va universal yondashuvga chaqiradi[7].

BRICS sammitlarida, xususan 2021-yilda Hindistonda o‘tgan yig‘ilishda, terrorizmga qarshi kurashda BMTning markaziy roli alohida ta’kidlandi. Bundan tashqari, radikallashuv, ekstremistik mafkuralarning tarqalishi, diniy adovat keltiruvchi omillarga qarshi kurashish borasida keng qamrovli hamkorlik strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu esa BRICS doirasida xavfsizlik muammolariga murakkab, ko‘p qirrali yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Bugungi xalqaro siyosiy tizim tobora murakkablashib, ko‘plab tahdidlar va chaqiriqlar bilan yuzlashar ekan, BRICS tashkiloti global xavfsizlik muammolariga muqobil, o‘ziga xos yondashuvni taklif qilmoqda. Mazkur maqolada ko‘rib chiqilganidek, BRICS xavfsizlik sohasida muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda: BMT Xavfsizlik Kengashining islohoti, terrorizmga qarshi kurashda universal tamoyillarni ilgari surish, kiberxavfsizlik va strategik barqarorlik masalalarida muvofiqlashtirilgan yondashuv buning yaqqol misolidir.

BRICSning xalqaro xavfsizlikdagi pozitsiyasi bir tomondan G‘arb harbiy bloklaridan farq qiluvchi suverenitet, tenglik va aralashuvsiz hamkorlik tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, boshqa tomondan, global janubning manfaatlarini ilgari suruvchi strategik platforma sifatida shakllanmoqda. Shu jihatdan, BRICSning xavfsizlik siyosati kuch ishlatishga emas, balki muloqot va kooperatsiyaga asoslangan “yumshoq kuch” strategiyasini namoyon etmoqda.

Yaqin istiqbolda BRICSning xalqaro xavfsizlikdagi roli quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chuqurlashishi mumkin:

[7] BRICS Counter-Terrorism Strategy, adopted at the XII BRICS Summit, Moscow, November 17, 2020. See: Official BRICS Russia 2020 Website – “BRICS Counter-Terrorism Strategy.” www.brics-russia2020.ru

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

a) **Raqamli xavfsizlik bo‘yicha ko‘p tomonlama platformalarni yaratish**, axborot suverenitetini saqlashda BRICS davlatlarining o‘zaro texnologik integratsiyasini kuchaytirish;

b) **Terrorizm va ekstremizmga qarshi universal tamoyillarga asoslangan hamkorlikni chuqurlashtirish**, diniy va etnik radikalizmning ildiziga qarshi tizimli choralarni ishlab chiqish;

c) **Xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan xavfsizlik tashabbuslarini BMT bilan uyg‘unlashtirish**, ayniqsa global xavfsizlik boshqaruvida rivojlanayotgan davlatlarning rolini oshirish;

d) **Geosiyosiy xavflar oldida o‘zaro strategik maslahatlashuvlarni institutsionallashtirish**, yangi a’zolar (BRICS+)ni ham jalb qilgan holda xavfsizlik bo‘yicha keng doirali muloqot maydonini shakllantirish.

BRICS xalqaro xavfsizlik masalalarida tobora faol va muhim geosiyosiy institut sifatida shakllanmoqda. Tashkilotning universal, barqaror, ko‘p qirrali xavfsizlik tartibotiga intilishi – kelajakda ko‘p qutbli va adolatli global tizimning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, BRICS tashkiloti bugungi murakkab va o‘zgaruvchan xalqaro xavfsizlik tizimida o‘ziga xos va muqobil model sifatida shakllanmoqda. Tashkilotning global xavfsizlikka doir yondashuvi kuch ishlatish emas, balki suverenitet, tenglik, muloqot va o‘zaro manfaat tamoyillariga asoslangan. BRICS tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar – BMT Xavfsizlik Kengashining islohoti, terrorizmga qarshi universal kurash, kiberxavfsizlikda hamkorlik va geosiyosiy barqarorlikka xizmat qiluvchi siyosiy-muloqot

mexanizmlari – bugungi global tartibda ko‘p qutbli yondashuvni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, BRICS xalqaro xavfsizlikning nafaqat iqtisodiy, balki strategik jihatlarini qamrab olgan holda, rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlarini himoya qilishda samarali institutga aylanish yo‘lida dadil qadamlar tashlamoqda. Kelajakda BRICS+ formatining rivojlanishi va ko‘p tomonlama xavfsizlik mexanizmlarining chuqurlashuvi, ushbu tuzilmaning jahon xavfsizlik me’yorlarida mustahkam o‘rin egallashiga xizmat qilishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Durban Declaration, Fifth BRICS Summit, South Africa, 2013.
2. Stuenkel O. *Post-Western World: How Emerging Powers Are Remaking Global Order*. Cambridge: Polity Press, 2016. – B. 88–90.BRICS Leaders Xiamen Declaration, 2017.
3. Lukin A. “The BRICS and Global Governance: Challenges of the Multipolar World.” *Global Governance*, Vol. 25, No. 3, 2019, pp. 409–428.
4. BRICS National Security Advisors Meetings Joint Statements (2016–2023). See: BRICS India 2021 Official Website – “Joint Statement by the National Security Advisors of the BRICS Countries.” www.brics2021.gov.in
5. BRICS Ministers of Foreign Affairs Joint Communiqués, 2015–2023. See: BRICS Brazil 2019 – “Joint Communiqué of the BRICS Ministers of Foreign Affairs/International Relations.” www.brics2019.itamaraty.gov.br
6. BRICS Leaders Xiamen Declaration, September 4, 2017. See: BRICS 2017 China – “BRICS Leaders Xiamen Declaration.” www.brics2017.orgBRICS Think Tank Council Reports (2015–2023).

7. BRICS Counter-Terrorism Strategy, adopted at the XII BRICS Summit, Moscow, November 17, 2020. See: Official BRICS Russia 2020 Website – "BRICS Counter-Terrorism Strategy." www.brics-russia2020.ru

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ТЕРГОВДАГИ ТИЗИМЛИ КАМЧИЛИКЛАРГА БАРҲАМ БЕРИШ ЗАРУРИЯТИ

Миразимов Ҳусан Бурибоевич
Судьялар Олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби Жиноят ҳуқуқи ихтисослиги тингловчиси

Аннотация: *Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексида дастлабки тергов жараёнида учрайдиган тизимли камчиликлар, тергов жараёнини амалга оширишдаги мавжуд муаммолар, уларнинг сабаблари ва оқибатлари, шунингдек, ривожланган хорижий давлатларнинг жиноят-процессуал қонунчилигида учрайдиган камчиликларнинг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *жиноят-процессуал кодекс, дастлабки тергов, тизимли камчиликлар, терговчи хатолари, терговни такомиллаштириш, қонун устуворлиги.*

НЕОБХОДИМОСТЬ УСТРАНЕНИЯ СИСТЕМАТИЧЕСКИХ ДЕФЕКТОВ В РАССЛЕДОВАНИИ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ПЕРВОНАЧАЛЬНОГО ПРОЦЕССА РАССЛЕДОВАНИЯ

Миразимов Хусан Бурибоевич
студент специальности «Уголовное право» Высшей школы судей при Верховном Совете судей.

Аннотация: *в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан рассматриваются системные недостатки в процессе предварительного расследования, имеющиеся проблемы в осуществлении следственного процесса, их причины и последствия, а также практика развитых зарубежных стран. Анализируются отдельные аспекты недостатков уголовно-процессуального законодательства.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ключевые слова: *уголовно-процессуальный кодекс, предварительное расследование, систематические недостатки, ошибки следователя, совершенствование расследования, верховенство закона.*

THE NEED TO ELIMINATE SYSTEMIC DEFICIENCIES IN THE INVESTIGATION IN IMPROVING THE PRELIMINARY INVESTIGATION PROCESS

Mirazimov Husan Buriboevich
student of the Criminal Law Department of the Higher School of Judges under the Supreme Council of Judges

Abstract: *the article analyzes the systemic shortcomings of the preliminary investigation process in the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan, the existing problems in the implementation of the investigative process, their causes and consequences, as well as the specific aspects of the shortcomings in the criminal procedural legislation of developed foreign countries.*

Keywords: *criminal procedure code, preliminary investigation, systemic shortcomings, investigatory errors, improvement of the investigation, rule of law.*

Сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикасида суд-ҳуқуқ ислоҳотлари кенг миқёсда амалга оширилмоқда. Бундай шароитда дастлабки тергов жараёнининг самарадорлиги ва адолатли юритилиши муҳим аҳамият касб этади. Аммо амалиётда бу босқичда тизимли камчиликлар мавжудлиги, улар жиноят ишлари терговининг ҳаққонийлигини таъминлашга салбий таъсир кўрсатаётгани аниқланмоқда.

Дастлабки терговдаги асосий тизимли камчиликлар сифатида терговчи фаолиятидаги юқори юклама, процессуал қонун нормаларини ноаниқ талқин қилиш, кадрлар тайёргарлигидаги муаммолар, техник таъминланишдаги етишмовчиликлар ва назорат органлари фаолиятидаги самарасизликларни кўрсатиш мумкин.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Мазкур муаммоларни бартараф этиш мақсадида, тергов органлари ишини рақамлаштириш, яъни жиноят ишларини автоматлаштирилган тақсимлаш тизимини жорий этиш орқали манфаатлар тўқнашувини камайтириш мумкин. Шунингдек, терговчилар учун узлуксиз малака ошириш дастурларини амалга ошириш, жумладан хорижий тажриба асосида ишлаш механизмларини жорий этиш муҳим саналади.

Масалан, Германия, Франция, Япония каби ривожланган мамлакатларда тергов фаолиятида мутахассислашув юқори даражада ташкил этилган. Бунда терговчилар фақат белгиланган турдаги жиноятлар бўйича иш юритади ва назорат-мониторинг тизими мустақил органлар орқали амалга оширилади. Бу эса коррупция, камчилик ва адолатсиз қарорлар эҳтимолини камайтиради.

Миллий амалиётимизда ҳам мазкур тажрибаларни ҳисобга олган ҳолда, ҳуқуқий асослар ва амалиётни такомиллаштириш, кадрларни адолатли танлаш, фаолият натижадорлигини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш талаб этилади.

Дастлабки тергов жараёнида тизимли камчиликлар нафақат жиноят ишларининг ҳал этилишига, балки фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларига ҳам жиддий таъсир кўрсатади. Шу боисдан, бу борадаги ҳар қандай ислоҳот кенг жамоатчиликнинг ишончини мустаҳкамлашга хизмат қилиши лозим.

Бундан ташқари, тергов жараёнида инсон ҳуқуқлари ва адолат тамойилларини таъминлашнинг ҳуқуқий механизмларини кучайтириш зарур. Бунинг учун айбловга нисбатан далиллар тўплашда холислик ва шаффофлик, ҳимоя ҳуқуқининг амалий кафолатлари, адвокат иштирокининг тўлиқ таъминланиши устувор вазифа сифатида белгиланиши керак.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Шунингдек, дастлабки терговда иштирок этувчи субъектлар ўртасида самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш, жиноят-процессуал муносабатларда очиқлик ва ҳисобдорликни таъминлаш орқали тизим самарадорлигини ошириш мумкин. Мазкур вазифаларни амалга оширишда давлат органлари, фуқаролик жамияти институтлари ва ОАВ ўртасидаги мулоқот ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Қонун устуворлиги ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятини тубдан ислоҳ қилиш бўйича қабул қилинган қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 14 январдаги ПФ–6155-сон Фармонида тергов жараёнларини такомиллаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга доир чора-тадбирлар белгилаб берилган.

Бундан ташқари, Жиноят-процессуал кодексига киритилган сўнгги ўзгартиш ва қўшимчалар айбловни исботлаш мажбуриятининг фақат айбловчи томонга юклатилиши, судгача иш юритув жараёнида айбланувчининг ҳуқуқлари кафолатланишини таъминлашга қаратилган. Бу ўзгаришлар халқаро стандартларга мос равишда амалга оширилаётганини кўрсатади.

Хорижий давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, дастлабки тергов жараёнидаги тизимли муаммоларни ҳал қилиш фақатгина норматив ўзгаришлар билан чекланиб қолмайди. Яъни амалий татбиқ, ижро интизоми, фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини ошириш ва жамоатчилик назоратини кенгайтириш ҳам зарур омиллар сирасига киради.

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Шу асосда хулоса қилиш мумкинки, тергов жараёнини такомиллаштириш нафақат ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг самарали ишлаши, балки умумий ҳуқуқий маданият, фуқароларнинг давлатга ишончи ва адолат принципларини таъминлашга бевосита боғлиқдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон// https://lex.uz/uz/docs/6445145.

2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. (911 — 914-моддалар Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 23 майдаги ЎРҚ-542-сонли Қонунига асосан киритилган — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон).

3. Судялар одоби кодекси. Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашининг 2024 йил 15 майдаги 1903-сон қарори билан тасдиқланган.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991-2024. –Тошкент: Адолат.

5. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. - М: Объединенная редакция МВД России, 2002. -288 с.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

JINOYAT VA JAZO TIZIMINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: GLOBAL TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Abdurazzoqova Zarina Hakim qizi
S.H.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik litseyi o‘quvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola jinoyat va jazo tizimining zamonaviy yondashuvlarini global tajriba va O‘zbekiston amaliyoti nuqtai nazaridan o‘rganishga qaratilgan. Maqolada global tendensiyalar, ularning mazkur jarayonga ta’siri va sud-tizimni modernizatsiya qilishda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat siyosati, probatsiya, muqobil jazolar, qamoq jazosi, jinoyatning retsidivi, xalqaro jazo standartlari, Nelson Mandela qoidalari.*

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА

Абдураззокова Зарина Хаким кизи
Учащийся Республиканского академического лицея имени С.Х. Сирожиддинов


Аннотация: *целью данной статьи является изучение современных подходов к уголовно-исполнительной системе с точки зрения мирового опыта и узбекской практики. В статье анализируются мировые тенденции, их влияние на этот процесс, а также проблемы, стоящие перед модернизацией судебной системы.*

Ключевые слова: *уголовная политика, пробация, альтернативные наказания, тюремное заключение, рецидивизм, международные стандарты назначения наказаний, Правила Нельсона Манделы.*

MODERN APPROACHES TO THE CRIME AND PUNISHMENT SYSTEM: GLOBAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN PRACTICE

Abdurazzoqova Zarina Hakim qizi
Student of the Republican Academic Lyceum named after S.H. Sirojiddinov

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



Abstract: *this article is aimed at studying modern approaches to the crime and punishment system from the perspective of global experience and Uzbek practice. The article analyzes global trends, their impact on this process and the problems arising in the modernization of the judicial system.*

Keywords: *criminal policy, probation, alternative punishments, imprisonment, recidivism, international penal standards, Nelson Mandela Rules.*

Kirish

Jinoyat va jazo tizimi har bir davlatning huquqiy tizimida markaziy o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda dunyo bo‘yicha jinoyatchilikka qarshi kurashish, jazolarning insonparvarligini oshirish va ijtimoiy reintegratsiyani ta'minlash borasida yangi, samarali yondashuvlar shakllanmoqda. Xususan, jinoiy javobgarlikni differensiallashtirish, muqobil jazolarni keng qo‘llash, probatsiya xizmatlarining rivojlanishi hamda retsidiv jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan strategiyalar global miqyosda keng tatbiq etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ham jinoyat va jazo tizimini isloh qilish jarayonida xalqaro tajribadan faol foydalanmoqda. Oxirgi yillarda ushbu sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jazoni ijro etish muassasalarining inson huquqlariga moslashtirilishi, probatsiya institutining joriy etilishi – bularning barchasi zamonaviy yondashuvlarning amaliyotda namoyon bo‘layotganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda jinoyat va jazo tizimiga zamonaviy yondashuvlar global miqyosda jiddiy ilmiy va amaliy e’tibor markaziga aylandi. Xususan, BMTning 1990 yildagi *“Mahbuslarga nisbatan muomala qilishning minimal standart qoidalari”* (Nelson Mandela Qoidalari) xalqaro miqyosda insonparvar jazo

siyosatini shakllantirishda asosiy huquqiy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu hujjat jazo ijrosining shaffofligi, mahkumlarning huquqlarini ta’minlash, ularni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilish zaruratini ta’kidlaydi (UNODC, 2015). Yevropa Ittifoqi va AQShda jinoyatga qarshi kurashda sanksiyalar differensiallashuvi, ijtimoiy xavfi past jinoyatlar uchun muqobil jazolar (probatsiya, jamoat ishlari, majburiy maslahatlashuv) keng joriy etilgan. AQShda “community-based sentencing” tizimi orqali jazoni ozodlikdan mahrum qilmasdan ijro etish holatlari 1980-yildan 2020-yilgacha 200% ga oshgani qayd etilgan (Bureau of Justice Statistics, 2021). Norvegiya, Shvetsiya, Niderlandiya kabi mamlakatlar jazoni inson huquqlariga asoslangan tarzda ijro etish tajribasiga ega bo‘lib, u yerda qamoqxonalar “ochiq turdagi” bo‘lib, qayta ijtimoiylashuvni birinchi o‘ringa qo‘yadi (Pratt, 2008).

O‘zbekiston Respublikasida ham 2017-yildan boshlab jinoyat va jazo siyosatini liberallashtirish, jazo turlarini optimallashtirish va retsidiv jinoyatchilikni kamaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. 2019-yil 1-iyuldan boshlab yangi tahrirdagi Jinoyat-ijroiya kodeksining kuchga kirishi bilan jazoni o‘tash shartlari yengillashtirildi, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo‘lgan jazo turlari soni oshirildi. Ayniqsa, 2020 yildan boshlab amalda bo‘lgan **Probatsiya xizmati** faoliyati samaradorligi ortib bormoqda. Adliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda 12 mingdan ortiq shaxs jazoni ozodlikdan mahrum etmasdan, probatsiya tartibida o‘tagan [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Jinoyat kodeksining 2022-yilgi tahririda jazo individualizatsiyasi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tamoyillari mustahkamlandi. Bu esa xalqaro mehnat va inson huquqlari standartlariga uyg‘un

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tarzda milliy jinoyat siyosatini shakllantirishga xizmat qilmoqda (Konstitutsiyaviy islohotlar konsepsiyasi, 2023).

Tahlillardan ko‘rinadiki, zamonaviy jinoyat va jazo siyosatining ustuvor yo‘nalishlari – inson huquqlarini ta’minlash, jazoni ijtimoiy reabilitatsiya vositasi sifatida ko‘rish, qamoqxonalarni so‘nggi chora sifatida qo‘llash g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan. O‘zbekiston bu yo‘nalishda xalqaro standartlarga mos keluvchi huquqiy va institutsional mexanizmlarni shakllantirishda faol harakat qilmoqda.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda jinoyat va jazo tizimidagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish hamda O‘zbekiston amaliyotidagi islohotlar samaradorligini baholash maqsad qilingan. Shu sababli, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuv qo‘llandi va quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2022-yilgi tahrir), Jinoyat-ijroiya kodeksi (2019), “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonun (2019), shuningdek, BMTning Nelson Mandela qoidalari (UNODC, 2015), Yevropa Kengashining “Mahbuslar bilan muomala qilish standart qoidalari” (2006) kabi xalqaro huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Bu hujjatlar jinoyat va jazo tizimida inson huquqlari va zamonaviy standartlarning qamrab olinishi darajasini o‘rganish uchun asos bo‘ldi [3].

2. Taqqoslash (komparativ) usuli – AQSh, Norvegiya, Germaniya, Niderlandiya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston tajribalari O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslab o‘rganildi. Xususan, bu davlatlardagi jazo turlarining diferensiallashuvi, probatsiya institutining rivojlanish darajasi va retsidiv jinoyatchilikka qarshi choralar ko‘rib chiqildi (Pratt, 2008; BJS, 2021).

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

3. Statistik tahlil usuli – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga asoslanib 2018-2023-yillar oralig‘ida jinoyat darajasi, jazoni ijro etish shakllari va probatsiya tizimi qo‘llanilish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning (UNODC, World Prison Brief) ma’lumotlari asosida xalqaro taqqoslama o‘tkazildi.

4. Sotsiologik usul elementlari – ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar va ekspert intervyulari (jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokuratura huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti nashrlari) o‘rganildi. Bu orqali jinoyat siyosatidagi tendensiyalar va ularning amaliy ifodasi aniqlashtirildib[4].

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar tizimli ravishda uyg‘unlashtirildi va ularning har biri alohida komponent sifatida umumiy ilmiy xulosalarni shakllantirishda xizmat qildi. Ushbu yondashuv jinoyat va jazo tizimidagi islohotlarni chuqur tahlil qilish hamda xalqaro tajriba asosida baholash imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot davomida jinoyat va jazo tizimining zamonaviy yondashuvlari bo‘yicha xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti o‘rtasidagi o‘xshashliklar, farqlar va transformatsion jarayonlar chuqur tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda jinoyat va jazo siyosatini liberallashtirishga qaratilgan huquqiy islohotlar (masalan, Jinoyat kodeksining yangi tahriri, probatsiya institutining joriy etilishi, muqobil jazolar spektrining kengaytirilishi) BMTning inson huquqlari bo‘yicha standartlari, xususan Nelson Mandela qoidalari, Tokio qoidalari (1985) hamda Yevropa Kengashi tavsiyalariga

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

muvofiqligini ko‘rsatmoqda. Bu esa jazo institutining repressiv emas, balki ijtimoiy-tarbiyaviy vosita sifatida qayta shakllanayotganini bildiradi [1].

2019-yildan joriy etilgan probatsiya instituti orqali jinoyatchilikni individuallashtirish va ijtimoiy reintegratsiya qilish yo‘lga qo‘yildi. Adliya vazirligi hisobotlariga ko‘ra, 2023-yilda 12 300 nafardan ortiq shaxs jazoni ozodlikdan mahrum qilinmagan holda probatsiya tartibida o‘tagan. Ularning 87% holatida retsidiv jinoyatchilik aniqlanmagan. Bu esa muqobil jazolarning ijtimoiy samaradorligini ko‘rsatadi. Probatsiya tizimi xalqaro tajribalarda – xususan AQSh, Norvegiya va Germaniyada – muvaffaqiyatli qo‘llanilayotgan “rehabilitativ yondashuv” modeliga yaqinlashayotganini tasdiqlaydi [6].

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston jinoyat siyosatida ozodlikdan mahrum qilish jazosi oxirgi chora sifatida qo‘llanilishini ta’minlashga harakat qilmoqda. Bu prinsip xalqaro huquqda tan olingan **ultima ratio** tamoyiliga muvofiqdir. Jumladan, Jinoyat kodeksining 2022-yilgi tahririda ayrim jinoyat turlariga nisbatan yengilroq jazo turlarining qo‘llanilishi nazarda tutilgan (masalan, moddiy zarar qoplanganda yoki pushaymonlik bildirilganda ozodlikdan mahrum etishsiz jazo choralarini tanlash imkoniyati mavjud) [8].

O‘zbekiston jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini demokratlashtirish yo‘lida qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Jumladan, 2020-yildan boshlab ochiq turdagi koloniyalar soni oshirildi, mahkumlarning oilaviy va ijtimoiy aloqalarini saqlash imkoniyatlari kengaytirildi. Bu esa Yevropa Kengashining “Mahbuslar bilan muomala qilish qoidalari” (2006) bilan muvofiqdir. Biroq, hali ham jazoni ijro etish muassasalaridagi shart-sharoitlar, tibbiy xizmat sifati va monitoring tizimlari bo‘yicha xalqaro standartlarga to‘liq muvofiq kelmaydi[10].

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Tahlil qilingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-2023-yillar oralig‘ida qayta jinoyat sodir etish holatlari 14 foizga kamaygan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda ijtimoiy profilaktik choralar (probatsiya nazorati, psixologik yordam, mehnatga joylashtirish)ning ta’sirchanligini tasdiqlaydi. Bu borada Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog‘istondagi o‘xshash tajribalar bilan qiyoslaganda, O‘zbekiston bu yo‘nalishda izchil va me’yoriy asoslangan islohotlarni amalga oshirayotgani aniqlandi.

So‘nggi o‘n yillikda ko‘plab davlatlarda jazo tizimi repressiv emas, balki ijtimoiy reabilitatsiyaga yo‘naltirilgan modelga o‘zgartirilmoqda. Masalan, **Norvegiyada** mahkumlar uchun ochiq turdagi koloniyalar (Bastøy Prison) joriy etilgan bo‘lib, u yerda mahkumlar mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi, sport bilan mashg‘ul bo‘lishi va ijtimoiy aloqalarni saqlashi mumkin. Bu model orqali Norvegiyada retsidiv jinoyatchilik darajasi atigi **20%** ni tashkil etadi [11].

Probatsiya instituti jinoyatchilikka qarshi kurashda asosiy vositalardan biriga aylangan. **AQShda** 2020-yil holatiga ko‘ra, jazoni ijro etayotganlarning **3,5 milliondan ortig‘i** probatsiya tizimi doirasida nazorat ostida bo‘lgan (Bureau of Justice Statistics, 2021). **Buyuk Britaniyada** esa har besh mahkumdan biri ozodlikdan mahrum qilinmagan holda, jamiyatga moslashtirish dasturlari orqali jazoni o‘tagan. **Gollandiyada**, umuman olganda, qamoqxona aholisining keskin kamayishi natijasida 2016-yildan 2020-yilgacha **19 ta qamoqxona yopilgan** (Dutch Ministry of Justice, 2021), bu esa muqobil jazo siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi [12].

Zamonaviy jinoyat siyosati jinoyatchining shaxsiy holatini hisobga olgan holda jazo belgilashga asoslanmoqda. **Germaniya Jinoyat kodeksi** 46-moddasiga ko‘ra, jinoyatchining yoshi, ijtimoiy ahvoli, jinoyat sodir etish sabablari va qilgan

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

zararni qoplashi jazo turini tanlashda asosiy mezon hisoblanadi. Bu tamoyil inson huquqlari va adolatli sudlov kafolatlariga asoslanadi (Grundgesetz, Art. 1 & 20).

Ko‘plab davlatlar jazo institutlarini qisqartirish, resurslarni sog‘lom jamiyat qurishga yo‘naltirish strategiyasiga o‘tmoqda. **Finlandiyada** 2020-yilda aholining har 100 ming kishisiga 51 mahkum to‘g‘ri kelgan bo‘lib, bu Yevropadagi eng past ko‘rsatkichlardan biridir. Bunda jinoyatchilarga psixologik yordam, ijtimoiy xizmatlar va ishga joylashtirish dasturlari orqali jazodan ko‘ra, reabilitatsiya ustuvor hisoblanadi (Council of Europe Annual Penal Statistics, 2021).

BMTning UNODC, Yevropa Kengashi, va Penal Reform International kabi tashkilotlari jazo tizimlarini isloh qilishda ko‘maklashmoqda. Masalan, **UNODC tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Mandela Qoidalari** asosida 90 dan ortiq mamlakatda jazoni ijro etish tizimi inson huquqlariga muvofiqlashtirildi. Ushbu hujjatlar jinoyatga javob choralarini insoniylik, nisbiylik va qayta ijtimoiylashuv tamoyillari asosida belgilashni tavsiya qiladi.

Muhokama

Zamonaviy jinoyat va jazo tizimi masalalari nafaqat ichki davlat siyosatining, balki xalqaro huquqning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jazo siyosatini insonparvarlashtirish, differensiallashtirish va ijtimoiy reintegratsiyaga yo‘naltirish tendensiyasi global miqyosda ortib bormoqda. Xususan, qamoq jazosi endi "ultima ratio" – ya’ni, eng so‘nggi va zaruriy choraga aylanishi kerakligi ko‘plab davlatlarning jinoyat siyosatida ustuvor tamoyil sifatida qaralayotgani kuzatildi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan jinoyat-huquqiy islohotlar (Jinoyat kodeksining 2022-yilgi tahriri, Probatsiya to‘g‘risidagi

qonun va tegishli ijro mexanizmlari) zamonaviy huquqiy standartlarga mos holda shakllanmoqda. Xususan, **jazoni individuallashtirish** tamoyili amaliyotda tobora keng qo‘llanilmoqda. Jinoyatchining shaxsiy va ijtimoiy portreti, pushaymonlik darajasi, yetkazilgan zarar qoplanishining mavjudligi jazoni yengillashtirishda asosiy omillardan biri sifatida e’tiborga olinmoqda. Bu holat Jinoyat kodeksining 57, 60 va 71-moddalarida bevosita mustahkamlangan.

Probatsiya tizimining joriy etilishi esa jazo institutining zamonaviy modelga moslashayotganidan dalolat beradi. Mazkur institut jinoyat sodir etgan shaxsni jamoatchilikdan uzilmagan holda ijtimoiy nazorat ostida tuzatish g‘oyasiga asoslanadi. Bu esa BMTning “Tokio Qoidalari” (1985) va “Nelson Mandela Qoidalari”da bayon etilgan xalqaro tamoyillarga muvofiqdir. Ayni vaqtda, O‘zbekistonning bu sohadagi tajribasi hali ham shakllanish bosqichida bo‘lib, inson resurslari, monitoring tizimi va jamiyat bilan uzviy aloqadorlik jihatidan muayyan muammolar saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, jazoni insoniylashtirish faqat jazoni yengillashtirish emas, balki u orqali ijtimoiy xavfsizlik, jinoyatchining reabilitatsiyasi va jamiyatga moslashuvi kabi ko‘p qirrali maqsadlarni ko‘zlaydi. Misol uchun, Norvegiya, Germaniya, Gollandiyada jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarni kelajakda jinoyat sodir etmaslikka ijtimoiy tayyorlov maydoniga aylantirilgan. Ushbu davlatlarda retsidiv jinoyatchilik darajasi 20-30% atrofida bo‘lsa, repressiv modeldagi davlatlarda (masalan, AQSh yoki Rossiya) bu ko‘rsatkich 60–70% ga yetmoqda (World Prison Brief, 2022).

Shuningdek, jinoyat va jazo tizimining demokratik nazorati muhim masala sifatida ko‘tarilmoqda. Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyotida (masalan, *Kalashnikov v. Russia*, 2002) qamoqxonalardagi shart-sharoitlar va jazoni ijro

etishning gumanitar mezonlarga muvofiqligi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida baholanadi. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda ijobiy siljishlar bor (ochiq koloniyalar sonining ortishi, ombudsman instituti monitoring vakolatlari), biroq xalqaro standartlarga to‘liq moslik hali ham tizimli islohotlarni talab qiladi [15].

Umuman olganda, jinoyat va jazo tizimidagi zamonaviy yondashuvlar faqat huquqiy emas, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston mazkur tizimni global rivojlanish tendensiyalariga uyg‘unlashtirish yo‘lida muhim qadamlarga erishmoqda. Biroq bu yo‘l yakunlangan emas: inson huquqlarini to‘liq ta’minlovchi, samarali va adolatli jinoyat siyosatini barpo etish uchun monitoring mexanizmlarini kuchaytirish, ochiqlik va hisobdorlikni oshirish, ijtimoiy xizmatlarni jazo tizimi bilan integratsiyalash kabi yo‘nalishlarda qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, zamonaviy jinoyat va jazo tizimi insonparvarlik, adolat va ijtimoiy reintegratsiya tamoyillariga asoslanayotgan yangi bosqichga kirib bormoqda. Xalqaro tajriba jinoyatga javob choralarini faqat repressiv usullar bilan emas, balki profilaktika, ta’sirchan ijtimoiy dasturlar va muqobil jazolar orqali amalga oshirish mumkinligini yaqqol ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar ushbu global yo‘nalishlarga mos tarzda shakllanmoqda. Ammo tizimning to‘laqonli samaradorligini ta’minlash uchun huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlarni yanada chuqurlashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Конституция Республики Узбекистан (новая редакция от 30.04.2023 г.) // Национальная база данных законодательства. – www.lex.uz.

2. Уголовный кодекс Республики Узбекистан (в ред. 2022 г.). – Ташкент: Юридическая литература, 2022.

3. Закон Республики Узбекистан «О пробации» от 11.01.2019 г. №ЗРУ–512 // www.lex.uz.

4. Уголовно-исполнительный кодекс Республики Узбекистан. – Ташкент: Адлия нашриёти, 2019.

5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). The United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules). – New York: UNODC, 2015.

6. United Nations Standard Minimum Rules for Non-custodial Measures (The Tokyo Rules). – UN General Assembly Resolution 45/110, 14 December 1990.

7. Bureau of Justice Statistics (BJS). Probation and Parole in the United States, 2020. – U.S. Department of Justice, Office of Justice Programs, December 2021. – URL: https://bjs.ojp.gov.

8. Council of Europe. European Prison Rules. Recommendation Rec(2006)2 of the Committee of Ministers to member states. – Strasbourg: Council of Europe, 2006. – URL: https://rm.coe.int.

9. World Prison Brief – Institute for Crime & Justice Policy Research (ICPR), University of London. – URL: https://www.prisonstudies.org

10. Pratt, J. Scandinavian Exceptionalism in an Era of Penal Excess: Part I: The Nature and Roots of Scandinavian Exceptionalism. *British Journal of Criminology*, Vol. 48, Issue 2, 2008, pp. 119–137.

11. Kalashnikov v. Russia, Application no. 47095/99, Judgment of the European Court of Human Rights, 15 July 2002.

12. Ministry of Justice and Security of the Netherlands. Custodial Institutions Agency Annual Report. – The Hague, 2020. – URL: https://www.dji.nl

13. Penal Reform International. Global Prison Trends 2022. – London: PRI, 2022. – URL: https://www.penalreform.org

14. Adliya vazirligi hisobotlari: 2023-yil uchun statistik ma'lumotlar. – URL: www.minjust.uz

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborot xizmati: sud amaliyoti va jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha 2022-yilgi hisobot. – URL: www.supcourt.uz

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘ZBEKISTON VA CHET DAVLATLARIDA QO‘SHIMCHA JAZOLARNI TAYINLASH VA IJRO ETISH MUAMMOLARI

Dauletbaeva Nodira Baxadir qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: *mazkur maqolada O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida jazo tushunchasi, jazo tizimi, qo‘shimcha jazolar, ularning ahamiyati, turlari va ularni tayinlash hamda ijro etishdagi amaliy muammolar tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor qo‘shimcha jazolar tushunchasining huquqiy mohiyati va ularning turlariga qaratilgan. Shuningdek, qo‘shimcha jazolarni tayinlashda O‘zbekiston bilan solishtirganda chet davlatlar qonunchiligidagi tajribasi ko‘rib chiqiladi. Xulosa qismida qo‘shimcha jazolarni tayinlash va ijro etishdagi mavjud muammolar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar*: jazo turlari, asosiy jazolar, qo‘shimcha jazo, aralash turdagi jazo, muayyan huquqdan mahrum qilish.*

ПРОБЛЕМЫ НАЗНАЧЕНИЯ И ИСПОЛНЕНИЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ НАКАЗАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Даулетбаева Нодира Бахадир кизи
Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в статье анализируются понятие наказания в уголовном праве Узбекистана, система исполнения наказаний, дополнительные наказания, их значение, виды, а также практические проблемы их назначения и исполнения. Основное внимание уделено правовой сущности понятия дополнительных видов наказания и их видам. Также при назначении дополнительных мер наказания учитывается опыт зарубежных стран в законодательстве, в сравнении с Узбекистаном. В заключении*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

изложены существующие проблемы в применении и исполнении дополнительных наказаний.

Ключевые слова: *виды наказаний, основные наказания, дополнительные наказания, смешанные наказания, лишение определенных прав.*

PROBLEMS OF ASSIGNMENT AND ENFORCEMENT OF ADDITIONAL PUNISHMENTS IN UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES

Dauletbaeva Nodira Bakhadir kizi
Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the concept of punishment in the criminal legislation of Uzbekistan, the punishment system, additional punishments, their significance, types and practical problems in their assignment and execution. The main attention is paid to the legal essence of the concept of additional punishments and their types. Also, the experience of foreign countries in the assignment of additional punishments in comparison with Uzbekistan is considered. The conclusion presents existing problems in the assignment and execution of additional punishments.*

Keywords: *types of punishment, main punishments, additional punishment, mixed type of punishment, deprivation of a certain right.*

Jinoyat qonunchiligida jazo tushunchasi - jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazoni tanlash va uning qo‘llanishidan ko‘zlanayotgan maqsad mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy

faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Jinoyat huquqida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jazolar tizimi odatda asosiy va qo‘shimcha jazolardan iborat. Qo‘llanish va ijro etish mustaqilligi darajasi bo‘yicha jazo turlari uch xil kichik tizimlarga, asosiy, qo‘shimcha va aralash kichik tizimlarga bo‘linadi, bular esa ham asosiy, ham qo‘shimcha jazo tizimlari sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Asosiy jazolar – jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish – bularning barchasi faqat mustaqil jazo turlari sifatida tayinlanishi mumkin va ularni davlat majburlovining boshqa choralariga qo‘shib tayinlash mumkin emas.

Qo‘shimcha jazo esa – asosiy jazoga qo‘shimcha ravishda qo‘llaniladigan chora bo‘lib, jazoni kuchaytirish yoki maqsadga muvofiq yo‘naltirish uchun tayinlanadi. Ya’ni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazo chorasi davlat majburlovining asosiy jazo choralariga qo‘shiladi va mustaqil tarzda qo‘llanishi mumkin emas. U asosiy jazodan keyin yoki asosiy jazo bilan birga qo‘llanilib, jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsni kengroq nazorat qilish, unga bo‘lgan ta’sirni kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston jinoyat qonunchiligining jazo tizimida keltirilgan jazolarning yana bir turi, bu aralash toifadagi jazo bo‘lib, ya’ni JK maxsus qismining muayyan moddalarida keltirilgan sanksiyalar tuzilishiga bog‘liq holda muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham asosiy, ham qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llaniladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 45-moddasi 1-qismi mazmuni bo‘yicha, muayyan huquqdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazo chorasini tayinlashda taqiqlash faqat muayyan lavozimni egallashga yoki muayyan faoliyatni amalga oshirishga taalluqli bo‘ladi. Aynan shu moddaning 2-qismida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilganda – bir yildan uch yilgacha, asosiy jazo sifatida esa bir yildan besh yilgacha muddatga tayinlanishi nazarda tutilgan. Mazkur jazoning qo‘llanishi asosiy jihatdan, egallagan lavozimi yoki amalga oshiriladigan faoliyati bilan bog‘liq holda mavjud imkoniyatlarni suiste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarni sodir etadigan shaxslar tomonidan mazkur jinoyatlarni qayta sodir etilishining oldini olish zaruriyati bilan shartlanadi. [1] Aybdor o‘zi egallagan lavozim yoki xizmat faoliyati bilan bevosita bog‘liq holda jinoyat sodir etgan har bir holda, sud jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib, mahkumni u yoki bu mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish masalasini muhokama qilishi shart. Bunday jazoni tayinlash paytida hukmning qaror qismida sudlanuvchi shug‘ullanishi mumkin bo‘lmagan mansab xarakteri yoki faoliyat turi aniq ko‘rsatilishi kerak. Hukm chiqarilayotgan paytda mahkum jinoyat sodir etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan mansabni egallamasligi yoki faoliyat turi bilan shug‘ullanmasligi holati qo‘shimcha jazo qo‘llash uchun to‘siq bo‘lmaydi.[2]

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, muayyan huquqdan mahrum qilish – jazoning aralash turi bo‘ladi, ya’ni u ham asosiy jazo shaklida, ham qo‘shimcha jazo shaklida bo‘lishi mumkin. Ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, ushbu jazoni asosiy

[1] Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli qarori, 45-band.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

jazo sifatida qo‘llash faqat u JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan holatlarida mumkin bo‘ladi. Muayyan huquqdan mahrum qilishning qo‘shimcha jazo sifatida belgilanishi esa JK 45-moddasi 3-qismiga muvofiq, har qanday holatda, hatto uning qo‘llanishi JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko‘rsatilmagan holatlarida ham mumkin bo‘ladi. Bunda shu turdagi jazoning qo‘llanishi albatta hukmning asoslovchi qismida JK 45-moddasi 3-qismiga havola qilingan holda tavsiflanishi lozim. Muayyan huquqdan mahrum qilishning moddaning sanksiyasida u asosiy jazo sifatida nazarda tutilgan holatlarda qo‘shimcha jazo sifatida belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Keyingi qo‘shimcha jazo – harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish bo‘lib, u mustaqil tarzda qo‘llanilmaydi, balki faqat asosiy jazo bilan birgalikda tayinlanishi mumkin. Bu jazoning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u eng avvalo tegishli unvon yoki mukofotlarga ega bo‘lgan mahkumlar uchun mo‘ljallangan muayyan huquqlar yoki imtiyozlardan mahrum qilish orqali unga ma’naviy-ruhiy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan. JK 52-moddasi 1-qismiga muvofiq, «Harbiy yoki maxsus unvonga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan mazkur unvondan mahrum qilinishi mumkin» - deb ko‘rsatilgan. Ushbu moddaning 2-qismida, «Oliy harbiy yoki maxsus unvonga yoxud O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotiga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinganida sudning hukm asosida kiritadigan taqdimnomasiga binoan mazkur unvon yoki mukofotdan mahrum qilinishi mumkin» - deb ta’kidlab o‘tilgan.

Yuqoridagi moddada, oliy harbiy yoki maxsus unvonlar, shuningdek, davlat mukofotlari yuzasidan sud faqat tegishli unvonni yoki mukofotni bergan organga jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsni undan mahrum qilish

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

to‘g‘risidagi taqdimnoma kiritishga haqli ekanligi kelib chiqadi. Shunday qilib, unvon yoki mukofotdan mahrum qilish masalasini hal qilish faqat ushbu shaxsga tegishli unvon yoki mukofot bergan organga yuklatiladi.

Rossiya jinoyat qonunchiligidagi qo‘shimcha jazolar kontseptsiyasining O‘zbekiston jinoyat qoninchiligi bilan o‘xshash taraflari ham bor bo‘lib, amaldagi Jinoyat kodeksining 44-moddasida jazo tizimi ko‘rsatilgan bo‘lib, unda 13 turdagi jazo turlari sanab o‘tilgan. Ushbu kodeksning 45-moddasida esa jazolar 3 turga: birinchisi asosiy, ikkinchisi aralash (ya’ni ham asosiy ham qo‘shimcha jazo sifatida tayinlanadigan jazolar), uchinchisi faqat qo‘shimcha jazolarga bo‘lingan. Rossiya jinoyat qonunchiligida asosiy jazo turlari qo‘shimcha jazo sifatida harakat qilishi mumkin, masalan, jarima ham asosiy jazo turi, hamda qo‘shimcha jazo sifatida ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

Amaliyotda qo‘shimcha jazolarni tayinlashda bir qator kamchiliklar va muammolar aniqlangan. Birinchidan, sudlar tomonidan qo‘shimcha jazolarga yetarli e’tibor qaratilmasligi keng tarqalgan masala hisoblanadi.

Qo‘shimcha jazolarni ijro etish jarayonida ham bir qator muammolar yuzaga keladi. Avvalo, mazkur jazolar ijrosi nazariy va amaliy jihatdan boshqacha soha bo‘lgani uchun, ularni qanday tartibda kuzatish va bajarish masalasi noaniq. Masalan, O‘zbekiston JK 61-moddasiga binoan ilgari tayinlangan, ammo ijro etilmagan qo‘shimcha jazolar sudlanuvchiga nisbatan chiqarilgan yangi hukmga asosiy jazo bilan birga qo‘shib tayinlanadi. Bu qoida sodir bo‘layotgan voqealarga moslashtirilmagan va murakkab vaziyatlar keltirib chiqaradi: mahkum birinchi hukmni hali o‘tagunicha, ikkinchi jinoyat uchun yana jazo oladi. Bunday holatda ilgari tayinlangan qo‘shimcha jazo muddatini sud qanday o‘tkazishni aniq belgilab qo‘yishi qiyin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Umuman olganda, qo‘shimcha jazolarni ijro etishda nazorat, axborot almashuvi va xodimlar tayyorgarligi masalalari hal etilmagan. Mazkur muammolarni yengish uchun maxsus yo‘riqnomalar qabul qilish, tashkiliy choralar ko‘rish hamda xizmatda yordam beruvchi mutaxassislarni tayyorlash zarur.

Xulosa

Maqolada O‘zbekiston va chet davlatlardagi qo‘shimcha jazolarni tayinlash hamda ijro etish masalalari taqqoslab o‘rganildi. Natijada aniqlanishicha, yuridik madaniyat va huquqiy an’analarga ko‘ra bu jarayonlarda ba’zi o‘ziga xos vaziyatlar bor. O‘zbekiston amaliyotida sudlar qo‘shimcha jazolarga yetarli darajada e’tibor bermayotgani, qonunchilik ayrim masalalarni hujjatlashtirishi lozimligi aniqlandi. Chet davlatlar tajribasi va amaliy o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, mazkur muammolarni hal etish uchun ilmiy asoslangan takliflar joriy etilishi kerak. Xususan, JKga kiritilayotgan yangilanishlar doirasida qo‘shimcha jazolar ro‘yxatini kengaytirish (chet el fuqarolarini deportatsiya qilish) va ularning ijrosiga oid yangi mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, sud-huquq amaliyotini yaxshilash maqsadida qo‘shimcha jazolarni sudlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilash usullari ishlab chiqilishi, sudlar uchun metodik qo‘llanmalar va Plenum tavsiyalari asosida muntazam treninglar tashkil etilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlar O‘zbekistonning chet el tajribasi bilan solishtirilgan holda qo‘shimcha jazolar institutini takomillashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlarda amalda qo‘llanilayotgan usullarni integratsiya qilish orqali, jazolar tizimida insonga hurmat tamoyiliga yanada mos keladigan holat barpo etish mumkinligi ta’kidlandi. Hujjatda ko‘rsatilgan tavsiyalar

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

bajarilsa, qo‘shimcha jazolarning huquqiy asoslari aniq va ravshan bo‘lib, ularning ijrosi ham samarali nazoratga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.

2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.

3. Дементьев С.Р., Дьяченко Р.А., Трахов А.И. Уголовное наказание: содержание, виды, назначение и исполнение. – Краснодар: 2000. – 31 Б.

4. Уголовный кодекс Российской Федерации: федер. закон от 13.06.1996 № 63-ФЗ (ред. от 01.07.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.12.2021) // Собрание законодательства РФ. 1996. № 25. Ст. 2954.

5. Уголовный кодекс Республики Казакистан. (с изменениями и дополнениями по состоянию на 05.04.2025 г.)

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

JINOYAT QONUNINING AMAL QILISH DOIRASI

Sanetullaeva Muslihima Nagmetulla qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti” mutaxassisligi magistri
muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqolada jinoyat qonunining amal qilish uslubiyoti, uning hudud, vaqt bo‘yicha amal qilishi va uning istisno holatlar doirasida qo‘llanish qoidalari yoritib beriladi. Jinoyat kodeksining tushunchasi, amal qilish doirasi, uning mazmuni va vazifalari, shuningdek jinoyat qonunining o‘rni bayon etilgan ushbu maqolada o‘quvchilar qidirgan jinoyat qonuniga tegishli barcha ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat qonuni, jinoyat, qonun, manba, hudud, fuqaro, chet el fuqarosi, vaqt.*

ОБЛАСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ УГОЛОВНОГО ПРАВА

Санетуллаева Муслихима Нагметулла кизи
Степень магистра по специальности «Теория и практика применения уголовного права» Ташкентского государственного юридического университета
muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Аннотация: *в статье рассматриваются вопросы методологии применения уголовного закона, его территориального и временного действия, а также правила его применения в исключительных случаях. В данной статье, в которой описывается понятие Уголовного кодекса, сфера его применения, его содержание и функции, а также роль уголовного права, представлена вся информация по уголовному праву, которую искали читатели.*

Ключевые слова: *уголовное право, преступление, закон, источник, территория, гражданин, иностранный гражданин, время.*

SCOPE OF APPLICATION OF CRIMINAL LAW

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Sanetullaeva Muslimhima Nagmetulla qizi
Master's degree in "Theory and Practice of Criminal Law Application" Tashkent State University of Law
muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotation: this article discusses the methodology of application of criminal law, its application in terms of territory, time, and the rules of its application in exceptional cases. This article, which describes the concept of the Criminal Code, the scope of application, its content and tasks, as well as the role of criminal law, provides all the information related to criminal law that readers are looking for.

Keywords: criminal law, crime, law, source, territory, citizen, foreign citizen, time.

KIRISH

Jinoyat qonunchiligining qo‘llanilishi masalasi juda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa hozirgi ko‘plab siyosiy nizolar avj olayotgan davrda. Fuqarolarning kundalik hayotidagi ijtimoiy munosabatlar ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bo‘ladi. Fuqaro tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishi natijasida bunday munosabatlarning shakllanishi ham istisno emas. Jinoyat sodir etilgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi esa jinoyat huquqi hisoblanadi.

O‘zbekistonda jinoyat qonunining amal qilish masalalariga oid normalarni takomillashtirish zarurati mavjud, asosan qonunning hudud bo‘yicha amal qilishi bo‘yicha sababi, xususan, xorijiy davlatlar jioyat sodir etgan O‘zbekistonga kirib kelgan shaxslarning aybliligi masalasini hal etish, uni horij davlatining yoki mamlakatimizning qonunlari asosida jazoga tortish masalalari bo‘yicha

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qonunchilikda bo‘shliqlar mavjud bo‘lib, bu bo‘yicha tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

Jamiyatimizda jinoyatchilikni kamaytirish va bartaraf etish uchun jinoiy-huquqiy normalarni takomillashtirish va huquqiy tadbirlar o‘tqazishga qaratilgan islohatlar ortidan salmoqli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, agar barcha birdek harakat qilib, oilalar muammolaridan to‘liq xabardor bo‘lib, ularni hal etishga ko‘maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish choralarini ko‘rganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo‘lardi. Ammo, jinoyatchi shaxslar va jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko‘rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo‘lsa ham jinoyat sodir etilishi hammamizni tashvishga solishi kerak.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jinoyat qonuni deb Konstitutsiyaga muvofiq qabul qilingan, jinoyat-huquqiy munosabatlarni, ya’ni jinoyat va unga nisbatan javobgarlikni tartibga soluvchi normativ hujjat tushuniladi. Mamlakat hududida amal qilayotgan yagona jinoyat qonuni — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hisoblanadi. Jinoyat javobgarligini ko‘zda tutuvchi yangi qonunlar faqat Jinoyat kodeksiga kiritilishi lozim, aks holda ular qo‘llanilmaydi.

Jinoyat huquqi sohasi boshqa huquq tarmoqlari ichida o‘z manbalarining konkretligi bilan alohida ajralib turadi. Yuridik fanlar doktori, professor I.Rustamboyev jioyat huquqi tushunchasini quydagicha, 1) ma’lum bir qonun

[1] 2018-yil 27-iyuldagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas’uliyatini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishi murojaatnomasi. // O`zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi // xabar.uz.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

sohasi; 2) sohaviy huquq tarmog‘i; 3) fanning bir tarmog‘i; 4) nazariy o‘quv predmeti ma’nolarida qo‘llanilishini keltirib o‘tgan.[2]

Jinoyat Kodeksining 1-moddasiga ko‘ra jinoyat to‘g‘risidagi milliy qonun hujjatlari Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslangan hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan iboratdir.

Quyida biz jinoyat qonuni asosida uning amal qilish doirasini ko‘rib chiqamiz. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining II bobi kodeksnining amal qilish doirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unga 11,12,13-moddalar kiradi va bu moddalarda jinoyat qonunining hudud va vaqt bo‘yicha amal qilishi haqida tushunchalar keltirilgan.

Jinoyat sodir etilgan vaqt oqibatlarning boshlanish vaqtidan qat’i nazar, ijtimoiy xavfli harakatni (harakatsizlikni) sodir etish vaqti deb tan olinadi. Jinoyat qonunining amal qilish muddati uning kirishi va bekor qilinishi o‘rtasidagi davr bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, qonun kuchga kirgandan keyin faqat bir muddat amal qiladi. Qonun o‘tmishdagi harakatlarga taalluqli emas, ya’ni orqaga qaytmaydi. Uch turdagi qonunlar orqaga qaytish kuchiga ega. Bu qonunlar, (1) jinoyatni bartaraf etuvchi, (2) jazoni yengillashtiruvchi va (3) jinoyat sodir etgan shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilovchi.

NATIJALAR

Chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

[2] Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. –7-bet.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi bergan ma’lumotga ko‘ra, 2022-yil davomida O‘zbekiston hududida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etgani uchun 96 ta holatlar bo‘yicha xorijiy davlatlarning 99 nafar fuqarosi hibsga olingan. Jumladan, 12 nafar Afg‘oniston, 32 nafar Tojikiston, 25 nafar Qirg‘iziston, 14 nafar Qozog‘iston, 8 nafar Rossiya, 5 nafar Turkiya, 1 nafar Fransiya, 1 nafar AQSH va 1 nafar Belarus fuqarolaridir. Ulardan 539,3 kg giyohvandlik vositalari va 1921 dona psixotrop moddalar hamda 7928 dona kuchli ta’sir qiluvchi dori prepraratlari musodara qilingan.[3]

MUHOKAMA

Xorij ilmiy va jinoyat huquqi adabiyotida oddiy tarkibga ega bo‘lgan yakunlangan jinoyatning sodir etilgan joyini aniqlashga oid to‘rt xil yondashuv taklif qilingan:

Birinchidan, jinoyatni sodir etish joyini faqatgina harakat (yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan joyiga qarab aniqlashni taklif etiladi, ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelgan joyiga qaramay.

Ikkinchidan, forma tarkibiga ega bo‘lgan jinoyatni sodir etish joyini harakat (yoki harakatsizlik) amalga oshirilgan joyida aniqlash, material tarkibiga ega bo‘lgan jinoyatni esa ijtimoiy xavfli oqibatlarning yuzaga kelgan joyiga qarab aniqlash taklif qilinadi.

Uchinchidan, forma tarkibiga ega bo‘lgan jinoyatni Rossiya Federatsiyasining hududida sodir etilgan deb hisoblashni, material tarkibiga ega

[3] https://daryo.uz/2023/06/26/ozbekiston-hududida-giyohvandlik-vositalari-bilan-bogliq-jinoyatlarni-sodir-etgan-chet-el-fuqarolari-soni-malum-qilindi.

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

bo‘lgan jinoyatni esa jinoyatchi Rossiya hududida harakat (yoki harakatsizlik) qilgan yoki ijtimoiy xavfli oqibatlar Rossiya hududida yuzaga kelgan holatda hisoblash taklif qilinadi.

Va nihoyat, to‘rtinchidan, jinoyat faqatgina harakat (yoki harakatsizlik) va ijtimoiy xavfli oqibatlar, jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi barcha elementlar Rossiya hududida sodir bo‘lganda, jinoyat Rossiyada sodir etilgan deb tan olinishi taklif etiladi.

Ushbu yondashuvlarning har biri turli mamlakatlarning jinoyat-huquqiy tizimlarida turlicha talqin qilinadi va jinoyat yurisdiktsiyasini belgilashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, har bir yondashuv o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo‘lib, ular jinoyat-huquqiy siyosatning umumiy yo‘nalishi, suverenitet masalalari va xalqaro huquq normalari bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa.

Maqolada muallif tomonidan jinoyat qonunchiligining amal qilish doirasi bilan bog‘liq ba’zi mulohazalar bo‘yicha berilgan ba’zi sharhlar tasvirlangan. Muallif, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi milliy jinoyat qonunchiligining hududiy ko‘lamini belgilashini ta’kidladi. Unda ko‘rsatilgan qoidalar hududiylik prinspini ifodalaydi, ya’ni jinoyat sodir etilgan bir davlatning Jinoyat kodeksini qo‘llash prinspi ko‘rsatilgan. Shunga muvofiq, O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etgan barcha shaxslar qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, faqat O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bo‘yicha javobgar bo‘ladi.

Jinoyatni sodir etish vaqti va joyi o‘ta chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular faqat bitta shart-sharoitga asoslanib aniqlanishi kerak. Ushbu pozitsiyaning

asoslanishiga quyidagi omillar kiritiladi: mantiq, sog‘lom tafakkur va falsafiy nuqtai nazar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Белобородов, В. Б. "Территориальный принцип действия уголовного закона: место совершения преступления как место наступления общественно опасных последствий." Вестник Московского университета. Серия 11. Право 3 (2018): 89-101.

2. Perkins, Rollin M. "The territorial principle in criminal law." Hastings LJ 22 (1970): 1155.

3. Rustambayev, M. X. "O’zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi." T.:“Ilm Ziyo 5 (2011).

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O‘TKAZISH JINOYATINING KRIMINOLIGIK JIHATLARI

Haydarov Jaloliddin Hamza o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universitetining 3-bosqich doktoranti
E-mail: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish jinoyati kriminoligiyasi tahlil qilinadi. Natijada jinoyatchi shaxsi, uni bu turdagi jinoyat sodir qilishga undovchi omillar muhokama qilinadi. Valyutaviy jinoyatlarda jinoyatning umumiy kriminologiyasi, jinoyat sodir etishga undovchi motiv muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *valyuta qimmatliklari, jinoyat, predmet, jinoyatning subyektiv tomoni, motiv.*

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННОГО С НЕЗАКОННЫМ ПРИОБРЕТЕНИЕМ ИЛИ ПЕРЕВОДОМ ВАЛЮТНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Хайдаров Джалолиддин Хамза угли
Докторант 3-го курса Ташкентского государственного юридического университета
Электронная почта: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Аннотация: *в статье анализируется криминология преступления незаконного получения или перевода валютных ценностей. В результате обсуждаются личность преступника и факторы, побудившие его совершить данный вид преступления. Рассматриваются общая криминология валютных преступлений и мотивы совершения преступления.*

Ключевые слова: *валютные ценности, преступление, субъект, субъективная сторона преступления, мотив.*

CRIMINOLOGY ASPECTS OF THE CRIME OF ILLEGAL ACQUISITION OR TRANSFER OF CURRENCY VALUABLES

Haydarov Jaloliddin Hamza ugli

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

3rd year doctoral student of Tashkent State University of Law
E-mail: haydarovjaloliddin9@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the criminology of the crime of illegal acquisition or transfer of currency valuables. As a result, the identity of the criminal, the factors motivating him to commit this type of crime are discussed. The general criminology of the crime in currency crimes, the motive for committing the crime is discussed.*

Keywords: *currency valuables, crime, subject, subjective side of the crime, motive.*

KIRISH

Valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish jinoyatining kriminologik jihatlarini ochib berish bevosita ushbu turdagi jinoyatlarning oldini olish, jinoyat yuzaga kelishiga imkoniyat yaratuvchi sabab va sharoitlarini aniqlash hamda ijtimoiy holatlarning ilmiy jihatdan baholanishi jinoyatchilik darajasining kamayishiga xizmat qiladi.

Kriminolog olimlar ta’kidlaganidek, jinoyatchilik kelib chiqishini yaqqol tushuntirib beruvchi bosh, asosiy sababi bo‘lmaydi, aksincha ular ko‘p va xilma-xil bo‘lib, bir-biri bilan hamda jinoyatchilik shart-sharoitlari bilan uzviy, chambarchas bog‘liq holda mavjud bo‘ladi hamda shunga ko‘ra jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlari majmui haqida gapirish o‘rinli bo‘ladi. Shu bilan birga jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlari ayrim hollarda o‘rni bilan almashishi ham mumkin: ayni bir holat bir vaziyatda jinoyatni sodir etishga turtki bo‘lishi, boshqa vaziyatda esa, faqatgina sharoit yaratishi mumkin. V.N.Kudryavtsev va V.E.Eminov ta’kidlaganidek, “jinoyatchilik sabablari majmui deganda o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo etuvchi hamda umumiy tabiati asosida birlashgan salbiy ijtimoiy hodisalar

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tushunilib, ularning zamirida jinoyat sodir etish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keladi. Ular sirasiga birinchi navbatda iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning ma'naviy holati, huquqiy tartibga solish sohasidagi kriminogen hodisalar kiradi" [1, 55-b].

Olimlarning qayd etishicha, jinoyatchi shaxsi "jinoyat" va "shaxs" tushunchalari birikmasidan tarkib topgan. Bu birikmadagi jinoyatchi huquqiy, shaxs esa ijtimoiy tushuncha hisoblanadi.

"Jinoyatchi shaxsi" tushunchasi keng ma'nodagi ijtimoiy tushuncha bo'lgan "inson shaxsi" tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, jinoyatchi shaxsi tushunchasiinson shaxsi haqidagi falsafiy ta'limotlarga asoslangan holda o'rganiladi.

Kriminologiya nuqtayi nazaridan, valyutaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni o'rganish uchun, dastlab, jinoyatchi shaxsining psixologik tomonlari va jinoyatni sodir qilishga undovchi ichki sabablarni keltirishimiz mumkin.

Valyutaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslar psixikasining umumiy jihatlari sifatida quyidagilarni aytib o'tishimiz mumkin:

1. G'arazli niyatda valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish jinoyatini sodir qiladi;
2. Qonunlarga nisbatan mensimaslik ruhining shakllanganligi yoki qonunlarga nisbatan qasd mavjudligi [2, 474-b].

Yuqorida qayd etilganlar, valyutaviy jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchi shaxsining umumiy psixologik tomondan ko'rinishi hisoblanadi. G'arazli niyatda yoxud qonunlarga nisbatan hurmatsizlik maqsadida valyutaviy jinoyatlar sodir etiladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Valyuta jinoyatlari kriminologik nuqtai nazardan o‘ziga xos xususiyatlarga ega, shu jumladan motiv, maqsad, amalga oshirish usullari va oqibatlari valyutaviy jinoyatlarning kriminologiyasida muhim ahamiyat kasb etadi [2, 474-b].

Valyutaviy jinoyatlarni sodir etishda motiv, ya’ni bu turdagi jinoyatni sodir qilishga undovchi vosita katta ahamiyat kasb etadi. Valyuta jinoyatlari moliyaviy foyda bilan bog‘liq bo‘ladi. Jinoyatchilar noqonuniy daromad olishga, soliq to‘lashdan qochishga, pul yuvishga, boshqa jinoiy harakatlarni moliyalashtirishga yoki noqonuniy faoliyatdan foyda olishga intilishlari mumkin [3, 43-b].

Valyutaviy jinoyatlarni sodir qilish usullari bilan ham bir-biridan farq qilib turadi. Jumladan, aldash va manipulyatsiya orqali ham valyutaviy jinoyatlar sodir etiladi. Bunga hujjatlarni qalbakilashtirish, buxgalteriya manipulyatsiyasi, soxta kompaniyalar yaratish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni yashirishning boshqa usullari kiradi, masalan, qalbaki hujjati orqali qimmatli qog‘ozlarni o‘tkazish yoki olish, soxta kompaniyalar ochib, ularning hisob raqamiga kriptovalyutada pul o‘tkazish.

Valyutaviy jinoyatlarni sodir qilish usuli sifatida global va o‘zaro chegara aspektlarini olishimiz mumkin, ya’ni bu turdagi valyuta jinoyatlari chegaralarni kesib o‘tishi mumkin, chunki zamonaviy moliyaviy tizimlar mamlakatlar o‘rtasida pulni tez va oson ko‘chirishga imkon beradi. Bu bunday jinoyatlarni aniqlash va ta’qib qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Valyuta qimmatligini kriptovalyutada boshqa bir shaxsning hisobiga o‘tkazishi, ikkinchi taraf esa bu mablag‘ni yuboruvchining hisobiga o‘tkazilishi natijasida jinoyatni, jinoyatchini aniqlash murakkablashadi. Natijada latent jinoyatchilik kelib chiqadi.

Xalqaro normalar va kelishuvlar: xalqaro moliyaviy jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro kelishuvlar va normalar mavjud. Biroq, bunday

me’yorlarga rioya qilish va samarali qo‘llash davlatlarning faol hamkorligini talab qiladi [3, 43-b].

Global va o‘zaro faoliyat jihatlari valyuta jinoyatlarini yanada murakkablashtiradi va ushbu turdagi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish uchun xalqaro strategiyalarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Texnologik innovatsiyalar valyuta jinoyatlari kriminologiyasida, jinoyatlarning o‘zini sodir etishda ham, ularni oldini olish, aniqlash va tergov qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Jinoyatchilar o‘zlarining usullarini takomillashtirish va himoya choralarini chetlab o‘tish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanadilar, huquqni muhofaza qilish organlari esa valyuta jinoyatlariga qarshi kurashish uchun eng yangi texnologiyalardan foydalanishga harakat qilishadi.

NATIJA

V.N. Kudryavtsev ta’kidlaganidek, “ma’naviy muhit buzilgan jamiyatda jinoyat sodir etmagan bo‘lsa-da, uni sodir etishga tayyor bo‘lgan ko‘pchilik odamlar bo‘ladi: ular salbiy qadr-qimmatlarni qo‘llab-quvvatlaydi, lekin qulay imkoniyat bo‘lmagani sababli uni amalga oshirmaydi” [4, 139-b]. Latent jinoyatlar jinoyat sodir etilgandan boshlab, vakolatli davlat organi tomonidan rasmiy hisobga olinganiga qadar bo‘lgan davr latent jinoyatchilik deb hisobalanadi. Rasmiy hisobga olinmagan jinoyatni latent jinoyatdan farqlash lozim. Rasmiy hisobga olinmagan jinoyatda muayyan davlat organlari tomonidan aniqlanagn bo‘lsada, hisobga olinmaydi. Latent jinoyatchilikda esa hisobga olish darajasiga ham borilmaydi. Sodir etilgan qilmishning rasmiy hisobga olinmasligiga, ya’ni latent bo‘lib qolishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

1. Jabrlanuvchining huquqiy ongi va madaniyati pastligi natijasida o‘ziga nisbatan sodir etilgan qilmishni jinoyat deb hisoblamasligi;
2. Mas’ul shaxsning sodir etilgan qilmishni ijtimoiy xavfli emas deb baholashi natijasida qilmish rasmiy hisobga olinmasligi;
3. Sodir etilgan qilmishning rasmiy davlat organlari tomonidan aniqlanma- ganligi;
4. Sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, vakolatli davlat organlari-ga xabar berilmasligi;
5. Jabrlarnuvchi o‘izga nisbatan sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, turli sabablar bilan vakolatli davlat organlariga xabar bermasligi;
6. Vakolatli shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish qasddan muayyan manfaat efaziga jinoyat sfatida qayd etilmasligi.

Yuqoridagilarga asoslanib, sodir etilgan jinoyatlarning latent bo‘lib qolishini quyidagi guruhlarga ajratishimiz lozim:

- obyektiv tomondan rasmiy hisobga olinmagan jinoyatlar;
- subyektiv tomondan latent bo‘lib qolgan jinoyatlar.

Obyektiv tomondan rasmiy hisobga olinmagan jinoyatlarga jabrlanuvchining huquqiy ongi va madaniyati pastligi natijasida o‘ziga nisbatan sodir etilgan qilmishni jinoyat deb hisoblamasligi, mas’ul shaxsning sodir etilgan qilmishni ijtimoiy xavfli emas deb baholashi natijasida qilmish rasmiy hisobga olinmasligi, sodir etilgan qilmishning rasmiy davlat organlari tomonidan aniqlanmaganligi, sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, vakolatli davlat organlariga xabar berilmasligi kirsa, subyektiv tomondan jabrlarnuvchi o‘ziga

nisbatan sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsa-da, turli sabablar bilan vakolatli davlat organlariga xabar bermasligi huquqbuzarlikning latent bo‘lib qolishiga imkoniyat yaratdi.

MUHOKAMA

Biz tahlil qilayotganimiz valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish sodir etilgan qilmish jinoyat ekanligini bilsada, vakolatli davlat organlariga xabar berilmaganligi sababli ham latent jinoyat hisoblanadi. Ushbu qilmish haqida vakolatli davlat organlariga xabar berilmasligiga, bizningcha, quyidagilar sabab bo‘ladi:

1. Valyuta almashtirish qora bozorda byurokratiya kamroq, kun-u tun ishlashi sababli ham o‘zining jozibadorligini yo‘qotmaydi;

2. Tijorat banklari tomonidan valyuta almashtirish ish kunlari taklif qininganligi oqibatida doimo chet el valyutasini almashtirish imkonsiz;

3. Tijorat banklari shubhali deb topgan chet el valyutasini qo‘shimcha to‘lov evaziga almashtirib berishi;

4. Yirtilgan yoki shikastlangan chet el valyutasi qo‘shimcha to‘lov evaziga almashtirilishi.

Yuqoridagilar sababli ham valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish latent jinoyatligicha qolmoqda.

Ushbu holatda Turkiya va boshqa Yevropa davlatlari tajribasini o‘rganishimiz maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Jumaladan, Turkiyada va boshqa ko‘plab xorijiy mamlakatlarda (masalan, AQSH, Yevropa davlatlari, BAA va boshqalar) xususiy kompaniyalar ham valyuta ayirboshlash bilan shug‘ullanishi mumkin. Turkiyada bu shaxobchalar “Döviz Bürosu” yoki “Exchange Office” deb ataladi. Ular albatta litsenziya olishadi va Markaziy Bank yoki moliya nazorat

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

organlari tomonidan tartibga solinadi, lekin ular to‘liq mustaqil biznes subyekti sifatida ishlaydi. Ba’zilari hatto banklarga qaraganda yaxshi kurslar taklif qiladi.

Soliq qonunchilgidagi bo‘shliqlardan foydalanish - jinoyatchilar noqonuniy ravishda olingan pulni yashirish uchun soliqlari past va maxfiy bank tizimlari bo‘lgan davlatlardan boshpana sifatida foydalanishlari mumkin. Transmilliy jinoiy tashkilotlarni moliyalashtirish orqali sodir etiladi, ya’ni valyuta jinoyatlari narkokartellar, terroristik guruhlar va kontrabanda tarmoqlari kabi transmilliy jinoiy tashkilotlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, valyuta jinoyati moliyaviy barqarorlik, qonuniylik va jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Bunday jinoyatlarga qarshi kurashish huquqni muhofaza qilish organlari, moliya institutlari va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida samarali hamkorlikni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кудрявцев В.В., Эминов В.Е. Причины преступности в России. Криминологический анализ. – М., 2006. – С.55.

2. Кримнология: Дарслик/ З.С. Зарипов, Ю.С.Пулатов, Г.А. Аванесов ва бошқ.; проф З.С. Зарипов таҳрири остида. – Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2006. – 474 б

3. Петросян О.Ш. Уголовно-правовые и криминологические основы обеспечения финансовой безопасности государства : автореф дис. … д-ра юрид. наук : 12.00.08 / О.Ш. Петросян. — М., 2011. — 43 с.

4. Кудрявцев В.Н. Преступность и нравы переходного общества. – М., 2002. – С. 139.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARIGA RIOYA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QOIDALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azlarov Azizxuja Azimxuja o‘g‘li
Toshkent Davlat Transport universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti
“Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasi “Yurisprudensiya” yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar:
Egamberdiyeva Nargiza Xalimbayevna
Xalqaro ommaviy huquq kafedrasi yuridik fanlar nomzodi PhD, dotsent

Annotatsiya: *transport vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilishni tartibga soluvchi qoidalarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Yakunda, muallif tomonidan mavzu yuzasidan tegishli taklif va xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *transport vositalari, normativ-hujjatlar, tartibga soluvchi normalar, javobgarlik.*

ОСОБЕННОСТИ ПРАВИЛ, РЕГУЛИРУЮЩИХ СОБЛЮДЕНИЕ ПРАВИЛ ПОЛЬЗОВАНИЯ ТРАНСПОРТНЫМИ СРЕДСТВАМИ

Азларов Азизхужа Азимхужа угли
Ташкентский государственный транспортный университет, экономический факультет
Студент кафедры международного публичного права, специальность «Юриспруденция»
Эгамбердиева Наргиза Халимбаевна
Кандидат юридических наук, доцент кафедры международного публичного права

Аннотация: *анализируются особенности норм, регламентирующих соблюдение правил эксплуатации транспортных средств. Наконец, автор дает соответствующие предложения и выводы по теме.*

Ключевые слова: *транспортные средства, нормативные документы, нормативные акты, ответственность.*

SPECIFIC FEATURES OF THE RULES GOVERNING THE COMPLIANCE OF THE RULES FOR THE USE OF TRANSPORT VEHICLES

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Azlarov Azizkhuja Azimkhuja ugli
Tashkent State Transport University, Faculty of Economics
Student of "Jurisprudence" direction of the Department of "Public International Law"
Egamberdiyeva Nargiza Khalimbayevna
Candidate of Legal Sciences, Associate Professor, Department of Public International Law

Abstract: *the specific features of the rules governing the compliance with the rules for the use of transport vehicles are analyzed. In conclusion, the author gives relevant proposals and conclusions on the topic.*

Keywords: *vehicles, regulatory documents, regulatory norms, responsibility.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda hech birimiz hayotimizni transport vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz, uydan ko'chaga otlandikki barchamiz harakat ishtirokchisiga aylanamiz. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra har yil dunyo bo'ylab yo'l-transport hodisalari natijasida 1 milliondan ziyod fuqarolar halok bo'lmoqda. Tashkilotning 2024-yil bo'yicha hisobotlarida keltirilishicha, bugungi kunda avtovariyalar dunyodagi 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'rtasida eng asosiy ko'p salmog'ini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda yurtimizda avtomobil sanoatining rivojlanishi shuningdek transport vositalarining importiga joriy etilayotgan imtiyozlar ketidan 2024-yil davomida avtomobil transport soni respublikamizda 600 mingtaga ko'paydi. Bundan tashqari, barchamizning xabarimiz bor o'tgan yili mamlakatimiz aholisi qariyb 1 million nafarga ko'paydi. Mazkur omillar yo'llarda harakat qatnashchilari soni oshishiga ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa-da lekin respublikadagi umumiy yo'l-transport hodisalari sonining kamayish dinamikasi bugungi kunda saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga mustaqil davlatlar ham do'stligiga a'zo davlatlar

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

o‘rtasida har 100 ming aholiga nisbatan qayd etilgan avtoavariyalar reytingi e’lon qilindi. Qayd etilishicha 2024-yil yakuniga ko‘ra respublikamiz mustaqil davlatlar hamdo‘stligi respublikalari orasida Ozarbayjon respublikasidan keyin ikkinchi o‘rinda qayd etildi. Bu so‘nggi bor 2019-yilda qayd etilganda beshinchi o‘rinda bo‘lgan endi.[1]

Barchamizga ma’lum yo‘l harakati xavfsizligi xizmati bugungi kunda yo‘l transport hodisalarni oldini olish ayniqsa bolalar bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l transport hodisalarni oldini olishga juda qattiq kirishilgan. Xususan Fransiya tajribasi Turkiya tajribasi o‘rganilgan holda maktablar oldida qavariq piyodalar o‘sish joylarini joriy etish masalasi, qarorlarga yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish kiritilgan holda tajriba bugungi kunda qo‘llanayapti.

Transport sohasi global iqtisodiyotning muhim tayanchi bo‘lib xizmat qiladi, tovarlar va odamlarning uzoq masofalar bo‘ylab harakatlanishini osonlashtiradi. Biroq, uning tez o‘sishi ko‘plab muammolarni, jumladan, xavfsizlik masalasi, atrof-muhit muammolarini keltirib chiqardi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun transport vositalaridan foydalanishni tartibga soluvchi aniq qoidalar mavjud bo‘lib, ushbu qoidalarga rioya qilish nafaqat yo‘llarda xavfsizlikni ta’minlash, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va samarali transport tizimlarini rivojlantirish uchun ham muhimdir.

ASOSIY QISM

Transport vositalaridan foydalanish xavfsizlik, samaradorlik va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks qoidalar bilan tartibga solinadi. Ushbu qoidalar transport vositalarini ishlatish, saqlash va nazorat qilishni tartibga solish uchun zarurdir. Qoidalarga rioya qilish nafaqat jamiyatning farovonligini

[1] Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshlig‘i polkovnik Ibragimov Sherzod Shokirovichning matbuot anjumanida so‘zlagan nutqidan foydalanilgan.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ta’minlaydi, balki transport tizimlarining umumiy samaradorligini ham oshiradi.[2] Aytaylik, transport vositalaridan foydalanishda yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzish. Bu modda huquqbuzarliklarning ko‘pgina turlari (guruhlari) va ularning muayyan ko‘rinishlarini qamrab oladi. Huquqbuzarliklarning bu turlari (guruhlari), birinchidan, transportning turi bilan, ikkinchidan, bu huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yiladigan ob’ektlar (poezd, samolyot, vokzal, port, ombor va hokazolar)ga bog‘liq qoidalar bilan oldindan belgilab chiqilgan. Muayyan huquqbuzarliklar turli harakatlarda, masalan, vagonlarda,samolyotlarda, kayutalarda kerosin, benzin va boshqa oson alanga oladigan va yonilg‘i moddalar tashishda; yuqorida sanab o‘tilgan transport vositalaridan ularning korpusiga tok o‘tayotgan holda foydalanishga ruxsat etishda; samolyotni baklari to‘ldirilgan holda angarga kiritishda; dvigatel qurilmalari ishlab turgan transport vositalarining yonilg‘i-moylash materiallari, neft quyish kemalari va hokazolar yaqinida turishda ifodalanadi. Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzishning obyektiv tomoni faqat faol harakatlarda emas, shu bilan birga, harakatsizlikda ham ifodalanishi mumkin. Bunday harakatsizlik transport ob’ektlaridagi yong‘in xavfsizligining muayyan qoidalarida nazarda tutilgan. Ularga, masalan, chekish joylarining aniqlanmaganligi, atrofi o‘rab qo‘yilmaganligi va hokazolar kiritilishi mumkin. Modda bo‘yicha javobgarlik biron-bir mulkiy zarar yetkazilishi bilan bog‘lanmaydi. O‘rtacha og‘irlikdagi yoki og‘ir tan jarohati yetkazilgan takdirda bu huquqbuzarliklar JKning 259-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin. Subyektiv tomondan ushbu moddada ko‘rsatib o‘tilgan yong‘in xavfsizligi qoidalarining buzilishi ham qasddan, ham ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan

[2] Такмакова, Ю. В. (2020). Некоторые проблемы использования средств видеофиксации нарушений правил дорожного движения. Вестник Восточно-Сибирского института МВД России, (2 (93)), 218-226.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

bo‘lishi mumkin. Huquqbuzarlik sub’ekti ham fuqaro, ham mansabdor shaxs bo‘lishi mumkin.

Transport vositalarini tartibga soluvchi qoidalarning asosiy xususiyatlaridan biri xavfsizlikdir. Qoidalar yo‘ldan foydalanish bilan bog‘liq xavflarni minimallashtirish, tezlikni cheklash, transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish talablari va haydovchilarning xatti-harakatlari kabi muammolarni hal qilish uchun o‘rnatiladi. Xavfsizlik qoidalari ko‘pincha transport vositalarini belgilangan standartlarga muvofiqligini ta’minlash uchun ularni muntazam tekshirishni talab qiladi. Bugungi davr talabidan kelib chiqgan holda avtomobil yo‘llarida vatandoshlarimiz hayoti va salomatligini asrash maqsadida joriy yilning 20 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi 1033-sonli Qonun qabul qilindi. Qonun qabul qilishda, ishlab chiqishda Ozarbayjon, Rossiya, Belarusiya, Xitoy Turkiya, Qozog‘iston kabi 50 dan ortiq davlatlarning tajribalari ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Davlat yo‘l harakati xavfsizlik xizmati boshlig‘i o‘rinbosari polkovnik Bozorov Erali Xabibullayevichning so‘zlariga ko‘ra, respublikamizda o‘tkazilgan “Xavfsiz va sog‘lom yurt” tadbiri doirasida davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati oldiga yo‘l-transport hodisalarning barvaqt oldini olish eng dolzarb masala etib qo‘yilgan. Tadbir davomida transport vositalari bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha 113 mingdan ortiq targ‘ibot tashviqot ishlari olib borilgan 40 mingdan ortiq profilaktik suhbatlar o‘tkazilgan 126 mingdan ortiq bukletlar tayyorlanib haydovchilarga tarqatilgan. Tadbir davomida 590 mingdan ortiq yo‘l harakati qoidabuzarliklari aniqlangan 67 mingdan ortiq transport vositalari jarima maydonlariga joylashtirilgan. Shuningdek tadbir

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

davomida 3 mingdan ortiq haydovchi transport vositalarini most holda boshqarganlik, 1900 ta haydovchi xodimlarning qonuniy talablariga boysunmaslik, 700 dan ortiq haydovchi transport vositalari noqonuniy jihozlar ya'ni sirena, migalka kabi jihozlarni o'rnatganlik, 48 mingdan ortiq shaxs transport vositalarini tegishli hujjatlarsiz boshqarganlik holatlari aniqlanib tegishli ma'muriy jazo choralari qo'llanilgan.[3]

Qoidalarining yana bir muhim xususiyati bu ijro etuvchi tizim ekanligi hisoblanadi. Vakolatli idoralar talablarga rioya qilmaslik uchun qattiq jazo choralarini belgilaydi, ular jarimadan tortib litsenziyani bekor qilishgacha bo'lishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar qonunbuzarliklarning oldini olishga va belgilangan qoidalarga rioya qilishga yordam beradi. Amalga oshirish samaradorligi ko'p jihatdan nazorat qiluvchi organlarga ajratilgan resurslarga va ularning rioya etilishini ta'minlash majburiyatlariga bog'liq.[4] Ayniqsa yo'l-transport hodisalari oqibatida yuzlab insonlar jumladan yosh bolalarning halok bo'layotganligi bugun butun jamiyatimiz uchun eng og'riqli nuqtalaridan bir bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatdan olingan ma'lumotlarga ko'ra **2024** yilda **9364** ta yo'l transportni hodisalari sodir etilishi oqibatida **2203** nafar inson halok bo'lgan **8901** nafar inson tan jarohati olgan.[5] Ushbu yo'l transport hodisalarining sodir bo'lishiga asosan fuqarolar tomonidan qonunchilikda belgilangan javobgarlikni mensimaslik bo'lsa, ikkinchidan amaldagi yo'l harakati qoidalarini bilmasligi sabab bo'lmoqda. Yo'l transport hodisalarini oldini olish bilan birga fuqarolarimizning hayoti va sog'ligini asrab qolish esa har birimizning

[3] Xafsiz va sog'lom yurt tadbiri doirasida Davlat yo'l harakati xavfsizlik xizmati boshlig'i o'rinbosari polkovnik Bozorov Erali Xabibullayevichning so'zlagan nutqiga asosan yozilgan.
[4] Ковалева, В. А. "Административные правонарушения на морском и внутреннем водном транспорте: понятие и особенности квалификации." Вестник магистратуры 7-1 (58) (2016): 143-147.
[5] https://parliament.gov.uz/news/avtomobil-transporti-va-avtomobil-yollari-bilan-bogliq-qonunchilikka-kiritilgan-ozgartirishlar#!.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

burchimiz va vazifamizdir. O‘tkazilgan o‘rganishlar tahlili yo‘l harakati qoidabuzarliklar uchun amaldagi qonun hujjatlarida tasir ko‘rsatuvchi omillar mavjud emasligini va bu bilan jazo muqarrarligini ta’minlamaganligi yo‘l-transportni hodisalari ko‘payishining asosiy sabablaridan biri bo‘lmoqda.

Muhokama etilgan qonunda esa yuqoridagi kabi salbiy oqibatlarning oldini olishga xizmat qiluvchi yangi normalar mavjud. Xususan qonun bilan Jinoyat, Jinoyat prosessual hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarga yo‘l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarni sodir etganligi uchun javobgarlik choralari belgilandi. Jumladan Jinoyat kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali transport vositasini takroran mast holda boshqarganligi uchun jinoiy javobgarlik ya’ni uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilandi. Qayd etish lozimki mast holda transport vositalarini boshqarish bilan bog‘liq e’tibor bering 2021-yilda 40 mingta, 2022 yilda 47 mingta va 2023 yilda 41mingta va 2024 yilda 31mingta huquqbuzarlik aniqlangan eng achinarlisi faqatgina o‘tgan 2024-yilda qariyb 8 ming nafar haydovchi mast holda transport vositasini boshqarganligi uchun ma’muriy javobgarlikka tortilgandan so‘ng takroran transport vositasini mast holda boshqarganligini aniqlangan. Mast holda transport vositasini boshqarish oqibatida 2020-2024 yillarda qariyb 6 mingtaga yaqin yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lgan va buning oqibatida ushbu davrda 322 nafar fuqarolarimiz halok bo‘lgan. Bundan tashqari jinoyat kodeksiga avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash shuningdek imtihoni o‘tkazish va haydovchilik guvohnomasini berish tartibini buzganlik transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxsning transport vositasini boshqarganlik siqilgan tabiiy gazda

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

suyultirgan neft gazida yoki dizel va gazsimon yoqilg‘i aralashmasda ishlaydigan transport vositalaridan foydalanishni xavfsizlik qoidalarini buzganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilandi. Shuningdek qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida transportda bezorilik ya’ni ayrim haydovchilar tomonidan boshqarish madaniyatiga rioya qilmay transport vositasini keskin boshqarish va boshqa harakatlarda ifodalangan agressiv boshqarish drift shaxmat shaklida harakatlanish yo‘llarida to‘siqlarni paydo qilish kabi qoidabuzarliklar uchun javobgarlik belgilandi. Takidlash lozimki o‘tgan 2024-yilda faqatgina foto va video qurilmalari yordamida aniqlangan huquqbuzarliklarning 22 foizi bitta transport haydovchisi tomonidan, 4 tagacha 18 foizi 5 tadan 10 tagacha, 9.5 foizi 11 tadan 20 tagacha, 1.3 foizi 31 tadan 40 tagacha e’tibor bering 01 foiz yoki bo‘lmasa 22 mingta haydovchi esa 100 tadan ko‘p yo‘l harakati qoidabuzarliklarni sodir etgan. Birgana misol 2024-yil 6-dekabr kuni Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida harakatlangan 1976-yilda tug‘ilgan 19 yillik haydovchilik stajiga ega bo‘lgan mersedes benz avtomatotransport vositasi haydovchisi yuqori tezlikda boshqarib ketayotib neksiya ikki rusimni transportni vositasini orqa qismiga borib urilib yo‘l transport hodisasini sodir etgan. Oqibatda bir nafar fuqaro halok bo‘lgan va uch nafar fuqaro bosh miya og‘ir jarohat tashxisi bilan shifoxonaga yotqizilgan. Mersedesbens avtomototransporti vositasi haydovchining oxirgi bir yil davomida sodir etgan qoidabuzarliklari o‘rganib chiqilganda ushbu fuqaro tomonidan bir yil davomida 26 qoidabuzarlik sodir etganligi aniqlangan. Shu tufaylni muhokama qilingan qonun bilan jarima ballari hisoblangan yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy jazo qo‘llash kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilandi.[6]

[6] Senatning Mudofaa va xafsizlikm masalalari qo‘mitasi raysi Kutbidin Nukritdinovich Burxanovning Yo‘l harakati

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xavfsizlikka qo‘shimcha ravishda, transport vositalaridan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalarda atrof-muhit masalalari tobora ko‘proq e’tiborga olinmoqda. Iqlim o‘zgarishi va havo sifati bilan bog‘liq masalalar ortib borayotganligi sababli, transport vositalaridan chiqadigan chiqindilarni cheklash uchun qoidalar o‘rnatilmoqda. Ushbu ekologik standartlarga rioya qilish ko‘pincha toza texnologiyalar va yoqilg‘idan foydalanishni, shuningdek, chiqindilarni muntazam ravishda sinovdan o‘tkazishni talab qiladi. Bu o‘zgarish nafaqat sog‘lom muhitni targ‘ib qiladi, balki ko‘plab mamlakatlar qabul qilayotgan kengroq barqarorlik maqsadlariga ham mos keladi.

Qonunga rioya qilishda aholining xabardorligi ham muhim rol o‘ynaydi. Fuqarolar haydovchi sifatidagi mas'uliyatini tushunishlari uchun transport vositalaridan foydalanish qoidalari haqida xabardor bo‘lishlari kerak. Xavfsiz haydash usullari, atrof-muhitni muhofaza qilish va transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish muhimligiga e’tibor qaratilayotgan ommaviy kampaniyalar ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Haydovchilar qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlarini - bu jarima yoki baxtsiz hodisalar xavfini tushunsalar, ular qoidalarga ko‘proq rioya qilishadi.

Qonunga rioya qilmaslikning ta’siri muhim xususiyatga ega bo‘lib, nafaqat shaxsga, balki butun jamiyatga ta’sir qiladi. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik natijasida sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar katta iqtisodiy xarajatlarga, shu jumladan sog‘liqni saqlash xarajatlariga va ishlab chiqarishning yo‘qolishiga olib keladi.[7] Bundan tashqari, ekologik huquqbuzarliklar aholi salomatligi va

xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida so‘zlagan nutqidan olingan.

[7] Дремлюга, Роман Игоревич, Александра Витальевна Крипакова, and Андрей Александрович Яковенко. "Регулирование тестирования и использования беспилотного автотранспорта: опыт США." Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения 3 (2020): 68-85.

ekotizimlarga uzoq davom etadigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, transport tizimlarida muvofiqlik madaniyatini rivojlantirish ushbu xavflarni minimallashtirish va barqaror amaliyotlarni ilgari surish uchun juda muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, transport vositalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilishni tartibga soluvchi qoidalar ko‘p bir qancha xususiyatga ega bo‘lib, xavfsiz, samarali va ekologik jihatdan kamchiqim transport tizimini ta’minlashda hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Bu kabi qoidalar asosan subyekttiv jihatda qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi. Barcha subyektlar ushbu qoidalarni tushunishlari va ularga rioya qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarda faol ishtirok etishlari shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Такмакова, Ю. В. (2020). Некоторые проблемы использования средств видеофиксации нарушений правил дорожного движения. Вестник Восточно-Сибирского института МВД России, (2 (93)), 218-226.

2. Ковалева, В. А. "Административные правонарушения на морском и внутреннем водном транспорте: понятие и особенности квалификации." Вестник магистратуры 7-1 (58) (2016): 143-147.

3. Дремлюга, Роман Игоревич, Александра Витальевна Крипакова, and Андрей Александрович Яковенко. "Регулирование тестирования и использования беспилотного автотранспорта: опыт США." Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения 3 (2020): 68-85.

4. https://parliament.gov.uz/news/avtomobil-transporti-va-avtomobil-yollari-bilan-bogliq-qonunchilikka-kiritilgan-ozgartirishlar#.

5. https://senat.uz/.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH

Nodir Ramazonov
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti
Berdiyev Ibrohim
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada bola huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishning huquqiy asoslari, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va monitoring mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bola huquqlarini ta’minlashdagi dolzarb muammolar va ularni hal etish bo‘yicha xalqaro amaliyotlar o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar*: bola huquqlari, BMT, Konvensiya, xalqaro huquq, inson huquqlari, monitoring, UNICEF.*

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ

Нодир Рамазонов
Заведующий кафедрой узбекского языка и литературы, доктор философии (PhD) по филологии, доцент Ташкентского государственного юридического университета
Бердиев Ибрагим
Студент Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в статье анализируются правовые основы защиты прав детей на международном уровне, международные договоры, конвенции и механизмы мониторинга. В нем также изучаются актуальные проблемы обеспечения прав детей и международная практика их решения.*

Ключевые слова: *права детей, ООН, Конвенция, международное право, права человека, мониторинг, ЮНИСЕФ.*

INTERNATIONAL LEGAL PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS

Nodir Ramazonov
Head of the Department of Uzbek Language and Literature, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor, Tashkent State Law University
Berdiyev Ibrohim
Student of Tashkent State University of Law

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Abstract: *this article analyzes the legal framework for the international protection of children's rights, international treaties, conventions and monitoring mechanisms. It also studies current problems in ensuring children's rights and international practices in solving them.*

Keywords: *children's rights, UN, Convention, international law, human rights, monitoring, UNICEF.*

Bola – jamiyatning eng himoyasiz qatlamidir. Shu bois, bola huquqlari masalasi dunyo miqyosida alohida e’tibor talab etadigan dolzarb ijtimoiy-huquqiy masalalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yilda qabul qilingan **“Bola huquqlari to‘g‘risida”**gi Konvensiya bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish sohasida asosiy hujjat hisoblanadi.[1] Ushbu maqolada xalqaro huquq normalarining bola huquqlarini kafolatlashdagi o‘rni, ularning bajarilishini ta'minlash mexanizmlari va milliy qonunchilik bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi.

Bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish – bu bolalarning asosiy inson huquqlarini xalqaro darajada tan olish, himoya qilish va ilgari surishni nazarda tutuvchi mexanizmlar, konvensiyalar, institutlar va tashabbuslar yig‘indisidir. Bu tizim bolalarning hayoti, sog‘ligi, ta'lim olishi, zo‘ravonlikdan himoyalanishi, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi kabi sohalarda huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1989) BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 54 moddadan iborat bo‘lib, bolalarning barcha sohalardagi huquqlarini belgilaydi. Asosiy prinsiplari: kamsitmaslik (har qanday

[1] Воронова, В. Н. (2020). Международно-правовая защита прав детей. In Актуальные вопросы научных исследований. Материалы Международной (заочной) научно-практической конференции (p. 105).

diskriminatsiyaga qarshi), bola manfaatlari ustuvorligi, hayot va rivojlanish huquqi, bola fikrini hurmat qilish.[2]

Bola huquqlari – har bir bola (18 yoshga to‘lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashlarsiz ega bo‘lishi lozim bo‘lgan huquq va erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi.

Bola huquqlarining ta’rifi mantiqan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining asosiy g‘oyalaridan kelib chiqadi. Uning alohida moddasi bolalarga bag‘ishlangan. Unda aytilishicha, "Onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam olish huquqini beradi". Shunday qilib, deklaratsiyada e’lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo‘shimcha yordam va qo‘llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Ya’ni, bolalar o‘zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatasiya va suiiste’molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo‘shimcha huquqlarga ega.

10 yil davomida (1979-yildan 1989-yilgacha) BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko‘plab mamlakatlari mutaxassislari bola huquqlari to‘g‘risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Shu bilan barcha mamlakatlar butun dunyo bo‘ylab bolalar oldida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixdagi eng ko‘p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo‘yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo‘ylab bolalar

[2] Маркелова, М. Н. (2019). Международно-правовая защита прав детей в условиях вынужденной миграции. Москва.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

hayotining o‘zgartirishga yordam berdi. O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992 yil 9 dekabrda qo‘shilgan.

O‘zbekiston Respublikasi 2008-yil 11-dekabrda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokolni, 2008-yil 12-dekabrda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni ratifikatsiya qilga

Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shimcha protokollar

Bolalarni qurolli mojarolarda ishtirok etishdan himoya qilish. Bolalar savdosi, fohishabozlik va pornografiyaga qarshi kurash.

Xalqaro institutlar va mexanizmlar:

BMTning Bola huquqlari qo‘mitasi.

Konvensiyaga a’zo davlatlarning yillik hisobotlarini ko‘rib chiqadi.

Tavsiyalar va tanqidiy baholar beradi.

Shikoyatlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega (agar davlat uchinchi protokolni ratifikatsiya qilgan bo‘lsa).

Xalqaro huquqiy mexanizmlar bola huquqlarining buzilishining oldini olish va himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ayrim mamlakatlarda, ayniqsa, qurolli mojarolar, migratsiya, bolalar mehnatidan foydalanish yoki majburiy nikohlar holatlarida bola huquqlari jiddiy buzilmoqda. BMT va UNICEF ushbu muammolarni yengillashtirish uchun qator global dasturlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston bu borada sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, hali ham bolalar zo‘ravonligi, mehnat ekspluatatsiyasi, nogironligi bor bolalarga bo‘lgan e’tibor va ularga inklyuziv yondashuv masalalarida islohotlar davom etmoqda.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish tizimi – bu bolalarning or-nomosini, hayoti va kelajagini himoya qilish uchun yaratilgan eng muhim mexanizmlardan biridir. U davlatlardan o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishni, bolalarning haq-huquqlarini hurmat qilishni va global miqyosda bolalarga barobar imkoniyatlar yaratishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Воронова, В. Н. (2020). Международно-правовая защита прав детей. In Актуальные вопросы научных исследований. Материалы Международной (заочной) научно-практической конференции (p. 105).

2. Маркелова, М. Н. (2019). Международно-правовая защита прав детей в условиях вынужденной миграции. Москва.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ТИНЧЛИК ВА ИНСОНИЯТГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР

Тухтаев Мардонбек Тура ўғли
Тошкент давлат юридик университети 4-бошқич талабаси

Аннотация: *ушбу мақолада тинчлик ва инсониятга қарши жиноятларнинг халқаро ҳуқуқий тусдаги енг оғир жиноятлар сифатида еътироф етилиши, уларнинг тарихий шаклланиши, ҳуқуқий-меъёрий асослари ва амалий оқибатлари чуқур таҳлил қилинган. Хусусан, агрессив уруш бошлаш, инсониятга қарши тизимли қирғин, геноцид, экоцид, апартеид каби ҳаракатлар халқаро жиноятлар қаторида кўриб чиқилади ва улар учун давлатлар ва жисмоний шахсларнинг жавобгарлиги асослантирилади.*

Калит сўзлар: *тинчликка қарши жиноятлар, инсониятга қарши жиноятлар, геноцид, апартеид, терроризм, халқаро жиноят ҳуқуқи.*

ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРОТИВ МИРА И ЧЕЛОВЕЧНОСТИ

Тухтаев Мардонбек Тура угли
Студент 4 курса Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в статье глубоко анализируются признание преступлений против мира и человечности наиболее тяжкими преступлениями по международному праву, их историческое становление, нормативно-правовые основы и практические последствия. В частности, такие действия, как развязывание агрессивной войны, систематическое истребление человечества, геноцид, экоцид, апартеид, рассматриваются в качестве международных преступлений, и обосновывается ответственность государств и отдельных лиц за них.*

Ключевые слова: *преступления против мира, преступления против человечности, геноцид, апартеид, терроризм, международное уголовное право.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

CRIMES AGAINST PEACE AND HUMANITY

Tukhtaev Mardonbek Tura ugli
4th year student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article deeply analyzes the recognition of crimes against peace and humanity as the most serious crimes in international law, their historical formation, legal and normative foundations and practical consequences. In particular, such actions as the launch of an aggressive war, systematic extermination against humanity, genocide, ecocide, apartheid are considered as international crimes and the responsibility of states and individuals for them is substantiated.*

Keywords: *crimes against peace, crimes against humanity, genocide, apartheid, terrorism, international criminal law.*

Тинчлик ва инсониятга қарши жиноятлар – энг оғир халқаро жиноятлар ҳисобланади. Халқаро ҳарбий трибунал устави квалификацияси бўйича, агрессив урушни режалаштириш, унга тайёргарлик кўриш, бундай урушни очиш ва олиб бориш ёки халқаро шартномалар, битимлар, аҳдлашувларни бузган ҳолда урушда бирон-бир тарзда қатнашиш тинчликка қарши жиноят ҳисобланади. БМТ Бош Ассамблеясининг 1947 йил 3 ноябрдаги резолюциясига кўра, урушни тарғиб қилиш ҳам шундай жиноят ҳисобланади. Халқаро ҳуқуққа кўра, тинчликка қарши жиноят учун жавобгарликка тортиш муддатини қўллаш мумкин эмас (яъни, белгиланган вақт ўтгандан кейин ҳам жиноий жавобгарликдан озод қилинмайди). Инсониятга қарши жиноятлар миллат ва давлатларнинг яшаш асосларига, уларнинг прогрессив тараққиёти ва тинч халқаро алоқа қилишига хавф солишда ифодаланади. Мустамлакачилик, геноцид, апартеид, атмосфера ёки

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

денгизларни ёппасига ифлослантириш (экоцид) шундай жиноят сирасига киради. Давлатлар, халкаро ташкилотлар ва жисмоний шахслар инсониятга қарши жиноят субъектлари ва бундай жиноятни қилганлик учун жавобгарлик субъектлари бўлиши мумкин. Тинчлик ва инсониятга қарши жиноятлар учун давлатлар сиёсий ва моддий жавобгарликка, конкрет жисмоний шахслар эса – якка тартибда жиноий жавобгарликка тортиладилар. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида тинчлик ва хавфсизлика қарши жиноятлар учун алоҳида бўлим ажратилган бўлиб ушбу бўлимнинг VII боби тинчлик ва инсониятнинг хавсизлигига қарши жиноятлар деб номланади. Ўз.Рес ЖК бўйича урушни тарғиб қилиш, яъни бир мамлакатни иккинчи мамлакатга нисбатан қўзғатиш учун турли шаклдаги қарашлар, ғоялар ёки чақириқлар тарқатиш, босқинчилик урушини режалаштириш ёки унга тайёргарлик кўриш, шунингдек шу ҳаракатларни амалга оширишга қаратилган фитнада қатнашиш, босқинчилик урушини бошлаш ва уни олиб бориш, тинч аҳолини ёки ҳарбий асирларни қийнаш, жисмонан қириб юбориш, тинч аҳолини мажбурий ишларга ёки бошқа мақсадларда ҳайдаб кетиш, халқаро ҳуқуқ билан тақиқланган уруш олиб бориш воситаларини қўллаш, шаҳарлар ва аҳоли яшаш жойларини беҳуда вайрон қилиш, мулкни талон-торож қилиш, шунингдек, бундай ҳаракатларни қилишга буйруқ беришда ифодаланган уруш қонун ва удумларини бузиш, геноцид, яъни миллий, этник, ирқий ёки диний мансублигига қараб, бир гуруҳ шахснинг жисмонан тўла ёки қисман қирилиб кетишига олиб келадиган турмуш шароитини қасддан яратиш, бундай шахсларни жисмонан тўла ёки қисман қириб юбориш, бола туғилишини зўрлик билан камайтириш ёхуд болаларни ана шу одамлар гуруҳидан олиб, бошқасига топшириш, шунингдек, бундай

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ҳаракатлар содир этиш тўғрисида буйруқ бериш, ёлланиш, яъни низолашаётган давлатнинг фуқароси ёки ҳарбий хизматчиси ҳисобланмаган ёхуд назорат қилиниб турган низолашаётган давлат ҳудудида доимий яшамайдиган ёки ҳеч қандай давлат томонидан қуролли кучлар таркибида расмий топшириқни бажариш ваколати берилмаган шахснинг моддий манфаатдорлик ёки бошқа бирон шахсий манфаатни кўзлаб, ўзга давлат ҳудудида ёки унинг тарафини олиб қуролли тўқнашувда ёхуд ҳарбий ҳаракатларда қатнашиш учун ёлланиши, ёлланма шахсни ёллаш, ўқитиш, молиялаштириш ёки унга бошқа моддий таъминот бериш, худди шунингдек ундан ҳарбий тўқнашув ёки ҳарбий ҳаракатларда фойдаланиш, Ўзбекистон Республикаси фуқаросининг чет давлатларнинг ҳарбий хизматига, хавфсизлик, полиция, ҳарбий адлия органлари ёки шунга ўхшаш бошқа органларига хизматга кириши, терроризм — халқаро муносабатларни мураккаблаштириш, давлатнинг суверенитетини, ҳудудий яхлитлигини бузиш, хавфсизлигига путур етказиш, уруш ва қуролли можаролар чиқариш, ижтимоий-сиёсий вазиятни беқарорлаштириш, аҳолини қўрқитиш мақсадида давлат органини, халқаро ташкилотни, уларнинг мансабдор шахсларини, жисмоний ёки юридик шахсни бирон бир фаолиятни амалга оширишга ёки амалга оширишдан тийилишга мажбур қилиш учун зўрлик, куч ишлатиш, шахс ёки мол-мулкка хавф туғдирувчи бошқа қилмишлар ёхуд уларни амалга ошириш таҳдиди, вазиятни беқарорлаштириш ёки давлат органлари томонидан қарор қабул қилинишига таъсир кўрсатиш ёхуд сиёсий ёки бошқа ижтимоий фаолиятга тўсқинлик қилиш мақсадида давлат ёки жамоат арбоби ёхуд ҳокимият вакилининг давлат ёки жамоатчилик фаолияти муносабати билан унинг ҳаётига суиқасд қилиш ёки унинг баданига шикаст етказиш,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

террорчилик фаолиятини амалга ошириш учун ўқувдан ўтиш ёки террорчилик фаолиятида иштирок этиш учун хорижга чиқиб кетиш ёхуд Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали ҳаракатланиш мақсадида шахсларни ёллаш, терроризмни молиялаштириш, яъни террорчилик ташкилотининг мавжуд бўлишини, фаолият кўрсатишини, молиялаштирилишини, террорчилик фаолиятида иштирок этиш учун хорижга чиқиб кетишни ёки Ўзбекистон Республикаси ҳудуди орқали ҳаракатланишни таъминлашга, террорчилик ҳаракатини тайёрлаш ва содир этишга, террорчилик ташкилотларига ёхуд террорчилик фаолиятига кўмаклашаётган ёки бундай фаолиятда иштирок этаётган шахсларга бевосита ёки билвосита ҳар қандай маблағ-воситаларни, ресурсларни беришга ёки йиғишга, бошқа хизматлар кўрсатишга қаратилган фаолият, миллий, ирқий, этник ёки диний адоватни тарғиб қилувчи материалларни тарқатиш мақсадида тайёрлаш, сақлаш ёки тарқатиш, миллий, ирқий, этник ёки диний мансублигига қараб, аҳоли гуруҳларига нисбатан адоват, муросасизлик ёки нифоқ келтириб чиқариш мақсадида миллий шаън-шараф ва қадр-қимматни камситишга, диний эътиқодига ёки дахрийлигига қараб, фуқароларнинг ҳис-туйғуларини ҳақоратлашга қаратилган қасддан қилинган ҳаракатлар, шунингдек миллий, ирқий, этник ёки диний мансублигига қараб, фуқароларнинг устунлигини ёки нуқсонли эканлигини тарғиб қилиш, худди шунингдек миллий, ирқий, этник мансублигига ёки динга муносабатига қараб, фуқароларнинг ҳуқуқларини бевосита ёки билвосита чеклаш ёхуд уларга бевосита ёки билвосита афзалликлар бериш жиноятлари тинчлик ва инсониятнинг хавфсизлигига қарши жиноятлар этиб белгиланган. Ушбу

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

жиноятларнинг субъекти 16 ёшга тўлган ақли раси жисмоний шахс бўлиши мумкин.

Инсониятга қарши жиноятлар – муайян аҳоли гуруҳларига қарши йўналтирилган, кенг кўламдаги тизимли зўравонлик ҳаракатларидир. Бундай жиноятларга қуйидагилар киради: Қотиллик, қуллик, қийноқ ва таъқиблар, ирқий, диний, миллий асосда таъқиб қилиш, мажбурий кўчириш, зўрлаш ва инсон шаънини таҳқирловчи бошқа жиноятлар. Инсониятга қарши жиноятларга мисол қилиб, нацизм режими даврида (1939-1945) Германияда яҳудийларга қарши амалга оширилган геноцид – Холокост, Руандада 1994 йилда тутсиларга қарши геноцид, Босния урушида Сребреница қатлиоми (1995)ни олишимиз мумкин.

Халқаро жиноятлар учун жавобгарлик Халқаро Жиноий Суд ва махсус трибуналлар орқали амалга оширилади. Жиноят содир этган шахслар шахсан жавобгар ҳисобланади ва давлат раҳбарлари ҳам масъулиятдан озод этилмайди. БМТ, Халқаро Жиноий Суд (МУС), Халқаро Одиллик Судлари ва бошқа ташкилотлар тинчликни сақлаш, жиноятларни тергов қилиш ва адолатни тиклашда муҳим роль ўйнайди. II жаҳон урушидан сўнг ташкил этилган Нюрнберг суди, Руанда геноциди (1994), Босния ва Герцеговинадаги Сребреница қатлиоми (1995) – инсониятга қарши жиноятлар бўйича халқаро суд амалиётининг ёркин мисолларидир.

Инсониятга қарши жиноятларни тергов қилиш ва жазолаш халқаро ҳамжамият олдида долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Айрим ҳолларда сиёсий босим ёки халқаро ҳамкорлик етишмаслиги туфайли бундай жиноятлар эътибордан четда қолмоқда. Шунингдек, инсониятга қарши жиноятлар содир этилганида, кўп ҳолларда қурбонлар адолатга эриша

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

олмаяпти. Шу сабабли, халқаро ҳамжамиятнинг янада фаол ва мустаҳкам механизмларини ишлаб чиқиш зарур. Тинчлик ва инсониятга қарши жиноятларга қарши курашиш учун халқаро ҳамкорликни кучайтириш, суд органлари фаолиятини мустаҳкамлаш ва таълим-тарбия тизимини яхшилаш лозим. Инсоният тарихидан сабоқ олиб, келажакда бундай жиноятларни олдини олиш — барчамизнинг бурчимиз.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, тинчлик ва инсониятга қарши жиноятлар нафақат тарихий, балки бугунги кунда ҳам жиддий муаммо ҳисобланади. Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, зўравонликка қарши курашиш ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш бу борадаги асосий вазифалардан ҳисобланади. Ҳар бир давлат ва фуқаро тинчликни асрашга ўз ҳиссасини қўшиши лозим.тинчлик ва инсониятга қарши жиноятлар энг оғир жиноятлар ҳисобланади, бундай жиноятлар жамиятда чуқур жароҳатлар қолдиради ва ушбу жиноятлар содир этилса уларнинг қурбонлари бегуноҳ гўдаклар, тинч аҳоли, ота-оналар ва қариялар бўлади. Инсон энг олий неъмат, Ватан эса бизниг онамиз! Ўз онасига хиёнат қилган фарзанд эса ҳеч қачон кечирилмайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси.
2. Рим статути (1998).
3. БМТ Устави.
4. Женева конвенциялари.
5. “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси”.
6. Халқаро ҳуқуқ асослари. Дарслик. Тошкент, 2021.
7. www.un.org.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

KIBER JINOYATLARNI TERGOV QILISH MUAMMOLARI

Baxriddinov Sevinchbek Zavqiddin o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-bosqich talabasi
sevinchbekk200316@gmail.com

Annotatsiya*: ushbu maqolada kiber jinoyatlarni tergov qilish muammolari tahlil qilingan bo‘lib, unda tergov faoliyati, tergovchi, surishtiruvchi hamda ekspert va mutaxassis faoliyati bilan bog‘liq ayrim muammo va kamchiliklar bayon etilgan. Bundan tashqari jinoyatchilikni oldini masalalari, jinoyatlarni sodir etish mexanizmi, ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish va fosh etish bilan shug‘ullanuvchi tergovchi va mutaxassislarga qo‘yilgan malaka talablari hamda tergov va sud amaliyoti materiallarini tizimlashtirishning o‘ziga xos jihatlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada ushbu tergov jarayonining prosessual normalarga nisbatan nomufiqligi, ekspertiza xulosalarining murakkab jihatlari, ilmiy-nazariy jihatdan sohaga oid xususiy kriminalistik uslubiyotlarni ishlab chiqish va ushbu sohaga tegishli mutaxassislarni tayyorlash masalalari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kiber jinoyat, raqamli ekspertiza, virtual makon, meta-ma’lumotlar, ekspert, mutaxassis, maxsus bilim.*

ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ

Бакриддинов Севинчбек Завкиддин угли
Ташкентский государственный юридический университет
Студент 4 курса факультета уголовного правосудия
sevinchbekk200316@gmail.com

Аннотация: *в статье анализируются проблемы расследования киберпреступлений, описываются некоторые проблемы и недостатки, связанные с оперативно-розыскной деятельностью, деятельностью следователей, дознавателей, экспертов и специалистов. Кроме того,*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

освещаются вопросы профилактики преступлений, механизм совершения преступлений, квалификационные требования к следователям и специалистам, привлекаемым к расследованию и раскрытию данного вида преступлений, а также особенности систематизации материалов следственной и судебной практики. В статье также рассматриваются вопросы несоответствия данного следственного процесса процессуальным нормам, сложности экспертных заключений, разработки научно-теоретических специальных криминалистических методик в этой области, подготовки специалистов в этой области.


Ключевые слова: *киберпреступность, цифровая криминалистика, виртуальное пространство, метаданные, эксперт, специалист, специальные знания.*

PROBLEMS OF INVESTIGATING CYBER CRIMES

Bakhriddinov Sevinchbek Zavqiddin ugli
Tashkent State University of Law
4th year student of the Faculty of Criminal Justice
sevinchbekk200316@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the problems of investigating cyber crimes, describes some problems and shortcomings related to investigative activities, the activities of investigators, inquiry officers, experts and specialists. In addition, the issues of crime prevention, the mechanism of committing crimes, the qualification requirements for investigators and specialists involved in the investigation and disclosure of this type of crimes, and the specific aspects of systematization of materials from investigative and judicial practice are described. The article also discusses the inconsistency of this investigative process with procedural norms, the complex aspects of expert opinions, the development of scientific and theoretical approaches to the field of criminalistics and the training of specialists in this field.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



Keywords: *cybercrime, digital forensics, virtual space, metadata, expert, specialist, special knowledge.*

Kirish. Axborot texnologiyalari, raqamli qurilmalar va Internet tarmog‘ining keng joriy etilishi davlatning iqtisodiy-siyosiy faoliyati, jamiyat va fuqarolarning faol va samarali rivojlanishi uchun yangi, noyob imkoniyatlar yaratdi. Butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham axborot texnologiyalarining rivojlanishi kundalik turmushimizda mobil texnologiyalar, ular orqali amalga oshiriladigan to‘lovlar, bank tizimlarining butunlay Internet tarmog‘iga bog‘liqligi, bank mobil ilovalari orqali pul o‘tkazmalarini qo‘llash ko‘lamini kengaytirishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarning jadal rivojlanishi ulardan jinoiy maqsadlarda foydalanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Natija. Vaqt o‘tgani sayin, texnik taraqqiyot jinoyatlarning yangi turlarini rivojlanishiga olib kelmoqda. Ulardan biri kiber jinoyatchilik, ya’ni virtual makonda sodir etilgan jinoyatlar majmuidir. Ushbu turdagi jinoyatlarning ko‘pligi hamda latentlik darajasining yuqori ekanligi yangi turdagi ekspertiza – raqamli ekspertizaning vujudga kelishiga olib keldi.

Xalqaro axborot xavfsizligigi sohasidagi asosiy tahdid raqamli texnologiyalardan foydalanish, shu jumladan zararli kompyuter dasturlarini yaratish, ulardan foydalanish va tarqatish orqali kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirish bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilishidir. Ko‘rinib turibdiki, kiber jinoyatchilik va raqamli texnologiyalar sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash faoliyatiga global tus berilmoqda.

Materiallar va usullar. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jinoyatchilikni oldini olish jarayoni ikki tomonlama harakatlar

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

majmuini o‘z ichiga oladi. Birinchidan, tergov amaliyotini rivojlantirish ya’ni jinoyatchilar ularni aniqlashlari kerakligiga ishonch hosil qilishlari lozim. Ikkinchidan, jinoyatchilarda jazoning mutlaqo qattiq bo‘lishidan qo‘rquv hissi bo‘lishi kerak.

O‘z navbatida, ushbu jinoyatning sodir etish mexanizmining murakkabligi va jinoyatchining maxsus sub’yekt ekanligi, shuningdek mutaxassis tayyorlash tizimi hamda nazariya va amaliyotga nisbatan texnologik taraqqiyotni tezligi sababli, kiber jinoyatlar tobora ko‘payib, o‘ta xavfli tus olmoqda.

Muhokama. Jinoyat sodir etish usuli jinoyatni tayyorlash, sodir etish va uni yashirish bo‘yicha jinoyatchining belgilangan harakatlari majmuidan iborat. Odatda, jinoyatchilar ushbu harakatlarni amalga oshirib, ma’lum izlarni qoldiradilar, bu keyinchalik sodir bo‘lgan voqeaning asl mohiyatini tiklashga, jinoyatchining jinoiy xatti-harakatining o‘ziga xosligi, uning shaxsiy ma’lumotlari haqida tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi. Binobarin, kompyuter ma’lumotlari nafaqat jinoiy tajavvuzning ob’yekti bo‘lishi mumkin, balki kompyuter ma’lumotlari jinoiy tajavvuzning dalili sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Tarmoq yoki qurilmalarda “raqamli izlar”ning doimiy mavjudligi, faqat raqamli axborotni qayta ishlash va uzatishning muqarrar yoki tabiiy natijasi emas. Bu narsa raqamli ekspertiza uchun ham ham emas, balki kiber ta’sir o‘tkazish maqsadida qasddan qabul qilingan muhandislik qarorlari natijasidir [1, b. 150].

Kiberjinoyatlarni tergov qilishdagi muammolardan biri ularni aniqlash va fosh etish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning malakasi yetarli emasligidir. Aksariyat tergovchilar (surishtiruvchilar) da kiber jinoyatlarni tergov qilish uchun raqamli texnologiyalar borasidagi bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligini ta’kidlashadi. Ko‘plab mutaxassislarning fikriga ko‘ra, ushbu muammoni hal qilish

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

uchun kiber jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha maxsus fanlarni joriy etish, o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish, shuningdek, raqamli dalillar va ular bilan ishlovchi texnologiya va dasturlarni o‘rgatish bo‘yicha seminarlar tashkil etilishi kerak.

Shu narsani tan olishimiz kerakki, kiber jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aksariyat xodimlari uchun juda qiyin vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu qisman tergov va sud amaliyoti materiallarining tizimli umumlashtirilmaganligi, ushbu turdagi jinoyatlar bo‘yicha tergovni tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarning yo‘qligi, aniq tergovchi va surishtiruvchilarning raqamli shaklda dalillar (elektron xabarlar, metama’lumotlar, tarmoqdagi izlar va h.k.) ning aniq manbalari bo‘yicha tajribasi kamligi bilan bog‘liq. Raqamli dalillar bilan ishlashning uslubiy qoidalari barcha prosessual huquq sohalari uchun bir xil majburiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu qoidalar shaxsning huquq va erkinliklari bilan bevosita bog‘liq. Qolaversa, huquqni qo‘llash amaliyotida raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha shakllangan turli amaliyotlarni unifikatsiya qilish ehtiyoji mavjud. Shu bois, mazkur qoidalar muayyan vakolatli sub’yekt tomonidan tasdiqlanishi hamda xalqaro amaliyot va standartlarga moslashtirilishi maqsadga muvofiqdir [2, b. 259].

Ilmiy-nazariy jihatdan soxaga oid xususiy kriminalistik uslubiyotlarni ishlab chiqish masalasi O‘zbekiston sharoitida kam tadqiq etilgan yo‘nalishlardan biridir. Bu borada, mamlakatimiz kriminalist olimlari tomonidan sohaning ayrim aspektlar o‘rganilgan bo‘lsada, ammo monografik tadqiqotlar deyarli o‘tkazilmagan. Ushbu holatlar huquqni qo‘llash amaliyotida turli prosessual va taktik xatoliklarni yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lmoqda [3].

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida tegishli mutaxassislik bo‘yicha kadrlarni tayyorlashning yetarli darajada emasligi ham ushbu sohadagi muammolarni asosiy sabablaridan biridir.

Ayni paytda virtual makonda saqlanadigan ma’lumotlar miqdori juda katta tezlikda oshib bormoqda, bu esa kiberjinoyatlarni tergov qilishda ulkan ma’lumotlar miqdori bilan ko‘plab qiyinchiliklar olib kelmoqda. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan dastlabki tergov muddati ushbu jinoyatlarni tergov qilish va ekspertiza uchun yetarli bo‘lmaydi. Bu esa ushbu sohaning murakkabligi va o‘rganilmaganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Bundan tashqari, tergov va sud amaliyoti materiallarini kiber jinoyatlarning har bir turi bo‘yicha umumlashtirish juda qiyinligi; jinoiy harakatlarni tergov qilishni tashkil etish bo‘yicha ham, tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasi bo‘yicha ham uslubiy tavsiyalarning yo‘qligi; jinoyatlarni tergov qilishda ishtirok etayotgan shaxslarda maxsus bilimlarning etishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan ekspert xulosasining keyingi idrok etilishi. [4]

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz kiberjinoyatlarni tergov qilishning asosiy muammolari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

✓raqamli texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi;

✓mavjud mutaxassislarning malakasi yetarli darajada emasligi;

✓tergovga rasmiy (protsessual) yondashuvning mushkulligi;

✓ekspertiza natijalarini izohlashning murakkabligi.

Xulosa. Yuqoridagi muammolarni hal qilish va kiberjinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirish uchun quyidagilar zarur:

- maxsus bilimga ega mutaxassislar sonini ko‘paytirish va ularni kiberjinoyatlarni tergov qilishga jalb etish zarur. Shuningdek, ushbu mutaxassislarning malakasini oshirish imkoniyatini ta’minlash lozim bo‘ladi;

- ushbu soha eksperti, mutaxassislari va tergovchilarining maxsus bilimlarga ega ekanligini inobatga olgan holda, xato va noaniqliklarni hamda qonun talablarini buzish yoki undan chetga chiqishlarni bartaraf etish uchun ularning faoliyati ustidan puxta nazorat o‘rnatish zarur. Prokuratura organlarida kiber jinoyatlar tergov ustidan maxsus nazorat boshqarmasi tashkil etish lozim;

- muammolarni hal qilish uchun tegishli ekspert xulosalari bilan bevosita ishlovchi shaxslarning axborot sohasidagi savodsizlikni bartaraf etish ham muhim ahamiyatga ega;

- ushbu toifadagi ishlarni tergov qilish uchun tergovchilarni (surishtiruvchilarni) tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish;

- kompyuter texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlarga ixtisoslashgan mutaxassislarning texnik imkoniyatlarini oshirish;

- kiberjinoyatlarni tergov qilishning amaliy jihatlari bo‘yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar hajmini oshirish.

Hozirgi vaqtda ushbu turdagi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, kiberjinoyatlarni fosh qilish qiyin vazifa bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов Бобуржон. "Научно-теоретические вопросы категории цифровых доказательств" Review of law sciences, vol. 5, no. Спецвыпуск, 2020, p. 150. doi:10.24412/2181-919X-2020-149-153.

2. Астанов И., Хамидов Б. (2021). Общетеоретические вопросы, связанные с электронными или цифровыми доказательствами: проблема и решение. Общество и инновации, 2(7/S), 259–278. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss7/S-pp259-278.

3. Khamidov Bakhtiyor Khamidovich et al. “General Theoretical Issues of Improving Private Forensic Methods In The Field Of Combat Against Cybercrime”. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(1): 2705-2712 DOI: https://doi.org/10.17762/pae.v58i1.1153.

4. Михайлов Я. Компьютерно-технические экспертизы // Юридический блог. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://http://www.fin-lawyer.ru/.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ENHANCING UZBEKISTAN'S GLOBAL HUMAN CAPITAL: IN-DEPTH ANALYSIS OF PRESIDENTIAL DECREE PD-77 ON SUPPORTING TALENTED PROFESSIONALS IN INTERNATIONAL EDUCATION AND SKILLS DEVELOPMENT

Khalikov Mukhriddin Sadulla ugli
Independent researcher and Specialist of the International Cooperation Department at Tashkent State University of Law
xalikov.m95@gmail.com

Abstract: *on December 27, 2024, the President of the Republic of Uzbekistan signed Presidential Decree No. PD-77, titled "On Additional Measures to Support Talented Specialists in Receiving Education Abroad, Developing Their Professional Skills and Incentivizing Them." The decree outlines a comprehensive approach to cultivating a globally competent workforce through targeted scholarships, structured reintegration programs, and digital talent management infrastructure. This policy responds to urgent national needs for qualified specialists in priority development sectors, such as technology, medicine, education, and administration. Through comparisons with global models, extensive statistical data, and an analysis of implementation challenges and opportunities, this article offers a complete review of PD-77 and its place within Uzbekistan's 2030 national development framework.*

Keywords: *human capital, talent development, Uzbekistan, international education, innovation, brain drain, education policy, workforce development, reintegration.*

Introduction

In recent years, the Republic of Uzbekistan has embarked on a far-reaching journey of political, economic, and social reform. A major pillar of this transformation has been the prioritization of education, science, and innovation as strategic assets for national development. Recognizing the direct link between

Himoyachi qonunga ko‘ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki uning qonuniy vakili tomonidan, shuningdek, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining iltimosi yoki roziligi asosida boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ish bo‘yicha bir necha himoyachi taklif etishi mumkin [6].

Bu o‘rinda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi himoyachini erkin tanlash huquqiga ega. Surishtiruvchi, tergovchi, sud (sudya) ish bo‘yicha tayinlov asosida davlat hisobidan himoyachi ishtirok etayotgan taqdirda ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan taklif etilgan himoyachining ishda qatnashishiga monelik qilishga haqli emas.

Davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun jismoniy shaxslar eksterritoriallik prinsipi asosida maxsus vakolatli davlat organiga og‘zaki, yozma yoki elektron shaklda murojaat qiladi [7].

Jismoniy shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun quyidagilarni taqdim etadi:

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- davlat hisobidan yuridik yordam olish to‘g‘risidagi ariza;
- davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsning pasportiga oid ma’lumotlar (identifikatsiyalovchi ID-karta);
- davlat hisobidan yuridik yordam olish to‘g‘risidagi ariza davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsning vakili tomonidan berilgan taqdirda — jismoniy shaxsning vakiliga berilgan ishonchnoma va (yoki) uning vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs va uning vakili o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ariza ruhiy holati buzilgan, psixiatriya yordami ko‘rsatilayotgan jismoniy shaxsning qonuniy vakili yoki psixiatriya muassasasi tomonidan berilgan taqdirda — psixiatriya yordami ko‘rsatuvchi psixiatriya muassasasining jismoniy shaxsga psixiatriya yordami ko‘rsatilayotganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi;
- ariza o‘z huquqlari buzilgan, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan jismoniy shaxs tomonidan berilgan taqdirda — xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi bilan bog‘liq ish sudda ko‘rib chiqilayotganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomadan iborat bo‘lishi lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. O‘zbekistonning eng ulug‘ maqsadi, avvalo, xalqimiz manfaatlari ko‘zlangan islohotlarni amalga oshirishga

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qaratilgani bilan e’tiborlidir. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va Qonunlar bilan himoya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tulaganova G.Z., Bazarova D.B., Uralov S.S., Maxmudov S.A. “Jinoyat-protsessual huquqi” fanidan o‘quv qo‘llanma.- Toshkent: TDYU nashriyoti.. 2021 y.-342 bet.

2. Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2017. – 520 bet.

3. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y. – 648 bet. (M.X.Rustamboyevning umumiy tahriri ostida).

4. Уралов, С., & Утаров, К. (2025). ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИНИНГ СУДГАЧА БЎЛГАН БОСҚИЧИДА РАҚАМЛИ ИШ ЮРИТИШ. Modern Science and Research, 4(2), 159–167. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/65334.

5. Уралов, С. «Исбот қилиш предмети ва доираси». Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи, т. 1, вып. 1, январь 2022 г., сс. 142-7, https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-activity-courts/article/view/16610.

6. Uralov S. Specific aspects of proof //TSUL Legal Report International electronic scientific journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 96-102.

7. Suyunova D. Preparation of the Case for Trial //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 182-188.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

YASHIL SUG'URTA: EKOLOGIK JIHATLAR VA FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Isroilov Ikrom Ilhom o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada "yashil sug'urta" tushunchasi va uning nazariy asoslari, ekologik sug'urta mexanizmlarining ahamiyati hamda ularni fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar va ekologik xavflar misolida yashil sug'urtaning dolzarbligi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Xalqaro tajribada (Yevropa Ittifoqi, AQSh hamda qo'shni davlatlar misolida) ekologik sug'urtani joriy etish amaliyoti va huquqiy asoslari tahlil qilinib, O'zbekiston qonunchiligidagi holat bilan qiyosiy solishtirildi. Natijada O'zbekistonda yashil sug'urta institutini rivojlantirish va qonunchilikka tegishli o'zgartishlar kiritish zarurligi asoslab berildi. Maqola yakunida ekologik sug'urtani huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *yashil sug'urta; ekologik sug'urta; iqlim xatarlari; fuqarolik javobgarligi; huquqiy tartibga solish; xalqaro tajriba; O'zbekiston qonunchiligi.*

ЗЕЛЕНОЕ СТРАХОВАНИЕ: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ

Исроилов Икром Илхом угли
Студент 4 курса Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в статье рассматриваются понятие «зеленое страхование» и его теоретические основы, значение механизмов экологического страхования, а также вопросы их гражданско-правового регулирования. В исследовании подчеркивается актуальность зеленого страхования на основе статистических данных на примере стихийных бедствий и экологических рисков, вызванных изменением климата. Проведен*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

анализ практики и правовых основ внедрения экологического страхования в зарубежном опыте (на примере Евросоюза, США и соседних стран), а также сравнение с ситуацией в законодательстве Узбекистана. В результате обоснована необходимость развития института зеленого страхования в Узбекистане и внесения соответствующих изменений в законодательство. В заключение статьи сформулированы конкретные предложения и практические рекомендации по совершенствованию правового регулирования экологического страхования.

Ключевые слова: *зеленое страхование; экологическое страхование; климатические риски; гражданская ответственность; правовое регулирование; международный опыт; Законодательство Узбекистана.*

GREEN INSURANCE: ENVIRONMENTAL ASPECTS AND CIVIL-LEGAL REGULATION

Isroilov Ikrom Ilhom ugli
4th-year student of Tashkent State University of Law

Abstract*: this article examines the concept of "green insurance," its ecological aspects, and issues of civil-legal regulation. The theoretical foundations of green insurance are discussed, highlighting its relevance amid the increase in climate change-induced natural disasters and environmental risks, supported by statistical data. International experience (using examples from the European Union, the United States, and neighboring countries) in implementing environmental insurance and its legal basis is analyzed and compared with the legislation of Uzbekistan. The study substantiates the need to develop the green insurance institution in Uzbekistan and to introduce corresponding amendments into national legislation. In conclusion, concrete proposals and practical*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

recommendations are offered to improve the legal regulation of environmental insurance.

Keywords: *green insurance; environmental insurance; climate risks; civil liability; legal regulation; international practice; Uzbekistan legislation.*

Kirish

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar ko‘lami ortib bormoqda. Masalan, faqat 2023-yilda AQSh hududida ekstremal ob-havo hodisalari keltirgan iqtisodiy zarar 92,9 milliard AQSh dollariga yetdi, sug‘urtalangan mulkka to‘lovlar esa 78,8 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bunday sharoitda risklarni boshqarish va zararlarni qoplashning innovatsion mexanizmlaridan biri sifatida “yashil sug’urta” tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil sug‘urta ekologik xavf va iqlim xavf-xatarlarini moliyaviy jihatdan qoplashga yo‘naltirilgan sug‘urta mahsulotlarini anglatadi. U korxonalarni atrof-muhitni ifloslantirish, yirik texnogen avariyalar yoki iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga keladigan tabiiy ofatlar tufayli yetkazilgan zararlar uchun moliyaviy javobgarlikdan himoya qiladi va shu bilan birga “yashil” tashabbuslarni rag‘batlantiradi. Xususan, ayrim sug‘urta kompaniyalari quyosh panellari va shamol turbinalarini qurish kabi qayta tiklanuvchi energetika loyihalarini sug‘urta qilish orqali barqaror energiya rivojini qo‘llab-quvvatlamoqda. Dunyo bo‘ylab yashil sug‘urta bozori jadal rivojlanmoqda – ekspertlarning prognoziga ko‘ra, yaqin 5 yil ichida global ekologik sug‘urta bozorining aylanmasi 148 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda.

Yashil sug‘urtaning ahamiyati nafaqat tabiatga yetkazilgan zararni qoplash, balki uning oldini olishga investitsiyalarni rag‘batlantirish bilan ham bog‘liq. Jumladan, Ceres tashkilotining hisobotida qayd etilishicha, so‘nggi

yillarda misli ko‘rilmagan kuchli bo‘ronlar, o‘rmon yong‘inlari kabi tabiiy ofatlar soni ortib, ulardan ko‘rilgan zararlar rekord darajaga yetdi. Bu esa sug‘urtalovchilarni yuqori xavfli hududlardan voz kechish va sug‘urta mukofotlarini oshirishga majbur qilmoqda. Ceres tomonidan ishlab chiqilgan “10 ta tavsiya” rejasida sug‘urtachilar va davlat regulyatorlari uchun iqlim xatarlarini baholash, zararlarni qoplash hamda barqarorlikni mustahkamlash yuzasidan aniq choralar belgilangan. Shunday qilib, yashil sug‘urta iqlim o‘zgarishiga moslashuvni ta’minlash, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish va katta ekologik talafotlar oqibatida yuzaga keladigan xarajatlarni yengillashtirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – yashil (ekologik) sug‘urta institutining nazariy negizlari va xorijiy tajribasini o‘rganish hamda O‘zbekiston sharoitida uni joriy etishning huquqiy asoslarini tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda, avvalo, yashil sug‘urtaning konseptual mazmuni va xususiyatlari yoritiladi. So‘ngra ekologik sug‘urtaning fuqarolik-huquqiy jihatlari, ya’ni zararlarni sug‘urta yo‘li bilan qoplash va javobgarlikni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajriba misolida rivojlangan davlatlar va qo‘shni mamlakatlarda ushbu institutning qanday huquqiy yechimlari mavjudligi tahlil qilinib, milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Yakunda O‘zbekiston uchun xulosa va takliflar ilgari suriladi.

Yashil sug’urtaning tushunchasi va nazariy asoslari

Yashil sug‘urta iqtisodiyot va moliya sohasida nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, uning negizida atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan sug‘urta xizmatlari yotadi. Boshqacha aytganda, yashil sug‘urta — bu ekologik tavakkallar va iqlim xatarlarini

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

moliyalashtirishga yo‘naltirilgan maxsus sug‘urta mahsulotlari majmuasidir. An’anaviy sug‘urta turlaridan farqli o‘laroq, yashil sug‘urta polislarida qoplanadigan hodisalar asosan ekologik tusdagi favqulodda holatlar (masalan, ifloslanish, ekologik avariyalar, tabiiy ofatlar) bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, bunday polislar shartlarida atrof-muhit bo‘yicha belgilangan talablarga rioya qilmagan sug‘urtalanuvchi zarar qoplamasini ololmasligi kabi maxsus normalar ham ko‘zda tutiladi. Yashil sug‘urtaning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

- **Ekologik e’tibor.** Yashil sug‘urta polisi qamrovi atrof-muhitga aloqador xavf-hodisalarni (masalan, kimyoviy ifloslanish, yirik avariya yoki tabiiy ofat) qamrab oladi va bunday hodisalar sodir bo‘lganda zararlarni qoplashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, polis shartlarida sug‘urtalanuvchi tomonidan ekologik me’yorlarga rioya qilmaslik sug‘urta tovonini to‘lashdan bosh tortish uchun asos bo‘lishi mumkin.
- **“Yashil” imtiyozlar va bonuslar.** Sug‘urtalanuvchining ekologik xavfsizlik talablari va barqarorlik tamoyillariga amal qilishi rag‘batlantiriladi. Masalan, agar kompaniya allaqachon energiya tejamkor yoki kam uglerodli texnologiyalarni joriy etgan bo‘lsa, sug‘urta mukofotidan chegirmalar berilishi mumkin. Ayrim xorijiy sug‘urta kompaniyalari rekonstruksiya yoki qayta qurilish polislarida ekologik jihatdan samarali materiallar qo‘llanilishini rag‘batlantirish uchun ham chegirmalar joriy etgan.
- **Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg‘unlik.** Yashil sug‘urta mahsulotlari global iqlim siyosati va BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang bo‘lib, iqlim o‘zgarishini yumshatish, energiya tejamkorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, ekologik toza texnologiyalarni qo‘llagan holda ishlab chiqarish yoki qayta tiklanadigan

energetika loyihalarini sug‘urtalash – bu nafaqat sug‘urta himoyasini, balki keng ijtimoiy foyda keltiruvchi “ikkilamchi effekt”ni ham ta’minlaydi. Yashil sug‘urta konseptsiyasi hozirda jahon miqyosida keng tarqalgan ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga mos keladi – ya’ni sug‘urta kompaniyalari faqat moliyaviy natijalargagina emas, balki ekologik va ijtimoiy mas’uliyatga ham e’tibor qaratadi.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, sug‘urta sohasi iqlim o‘zgarishi ta’siriga eng ko‘p duchor bo‘layotgan tarmoqlardan biridir. So‘nggi yillarda yirik sug‘urta kompaniyalari tobora ko‘proq ekologik va iqlim xavflarini o‘z portfellarida inobatga olmoqda, ba’zilari esa yuqori xatarlilik darajasiga ega hududlarda faoliyatini chekistirmoqda. Boshqa tomondan, yashil sug‘urta nafaqat risklardan himoyalanish, balki barqaror innovatsiyalarni rag‘batlantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Xususan, yashil sug‘urta polislariga ega korxonalar nazorat organlari va jamoatchilik oldida o‘z faoliyatining barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli ekanligini namoyish eta oladi. Bu esa bizneslar uchun qo‘shimcha imidj va investitsion jozibadorlik omilidir.

Ekologik sug’urta va fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari

Sug‘urta faoliyatini huquqiy tartibga solish asosan fuqarolik-huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta munosabatlari Fuqarolik kodeksi hamda maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Xususan, Fuqarolik kodeksida sug‘urta shartnomasining asosiy unsur va tushunchalari, sug‘urtalanuvchi va sug‘urtalovchi huquq va majburiyatlari belgilangan. Bundan tashqari, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa tegishli me’yoriy hujjatlar turli sug‘urta turlari bo‘yicha alohida talab va qoidalarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, yuklarni sug‘urtalash munosabatlari xalqaro

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

konvensiyalar va milliy qonunlar bilan tartibga solinadi, uzoq muddatli hayot sug‘urtasi va pensiya sug‘urtasi kabi yo‘nalishlar esa moliya bozori to‘g‘risidagi qonunchilik normalari bilan ham qamrab olinadi. Umuman olganda, mamlakatimizda sug‘urta faoliyati 1996-yildan buyon qonun darajasida tartibga solinib kelinmoqda va bu borada litsenziyalash, moliyaviy barqarorlik kafolatlari hamda davlat nazorati tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, ekologik sug‘urta yoki yashil sug‘urta munosabatlarini bevosita tartibga soluvchi maxsus normalar hozirgi O‘zbekiston qonunchiligida deyarli mavjud emas. Ya’ni, atrof-muhitga zarar yetkazilishi xavfi bilan bog‘liq fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish bo‘yicha alohida qonun yoki kodeks moddalari kiritilmagan. Bu esa ushbu sohadagi huquqiy bo‘shliq sifatida qayd etilishi mumkin. Natijada, korxona va tashkilotlar faoliyatidan kelib chiqadigan potensial ekologik zararni qoplashning sug‘urta orqali ishlaydigan aniq mexanizmlari yo‘qligi, sud amaliyotida ekologik sug‘urta bilan bog‘liq da’volarning deyarli uchramasligi va tadbirkorlik subyektlarining bu boradagi huquqiy savodxonligi pastligi kuzatilmoqda. Bunday holat, tabiiyki, ekologik xavflarni boshqarish va jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash masalalarida qiyinchiliklar tug‘diradi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ekologik sug‘urtani joriy etishga oid tashabbuslar avval ham ko‘tarilgan. Xususan, 2011-yilda hukumat tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida ekologik sug‘urta to‘g‘risida”gi alohida me’yoriy hujjat loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan edi. Biroq oradan o‘tgan yillarda bu yo‘nalishda sezilarli siljish bo‘lmadi – ekologik sug‘urta instituti hali ham to‘liq shakllanmagan bo‘lib qolmoqda. Faqat ayrim sohalarda ekologik xavflarni qisman qoplaydigan sug‘urta elementlari uchraydi, xolos. Jumladan,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli qarori bilan tasdiqlangan kompleks chora-tadbirlarda ilk bor “yashil sug‘urta” mahsulotlarini joriy etish vazifasi qo‘yildi. Mazkur qarorga muvofiq, yuridik shaxslarning ko‘chmas mulkini tabiiy va texnogen ofatlardan majburiy sug‘urta qilish tizimini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi yangi sug‘urta mahsulotlarini (yashil sug‘urta) ishlab chiqish belgilandi. Qarorda shuningdek 2025-yilga qadar majburiy va yashil sug‘urta tartibini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilgan.

Yuqoridagi huquqiy hujjatda belgilangan vazifalardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston yaqin yillarda yashil sug‘urta institutini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratmoqchi. Ayni paytda milliy qonunchilikda ekologik sug‘urta bo‘yicha mustaqil normalar yo‘qligi, aksariyat xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida majburiy ekologik sug‘urtaga ehtiyoj sezilmayotgani hamda davlat organlari tomonidan bu borada talab qo‘yilmagani sababli, mavjud risklar asosan tadbirkorlarning o‘z zimmasida qolmoqda. Bunda, masalan, yirik zavod yoki korxona faoliyati natijasida ekologiyaga zarar yetkazilsa, jabrlangan tomonlar zarar qoplamini faqat sud orqali undirishi mumkin, bu esa ko‘p vaqt va resurs talab qiladi. Agar ekologik javobgarlik majburiy sug‘urtasi joriy etilganida edi, zarar ko‘rganlarga tovon puli sug‘urta jamg‘armalari hisobidan tezroq to‘lanishi va ko‘proq kafolatlangan bo‘lardi.

Shu o‘rinda ijobiy misol sifatida 2024-yilda amaliyotga kiritilgan ayrim qoidalarni keltirish mumkin. Jumladan, yuqorida tilga olingan PQ-108-son qarorga binoan, endilikda xavfli ishlab chiqarish obyektlarida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarga va atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

javobgarligini majburiy sug‘urta qilish joriy etilmoqda. Ya’ni, kon sanoati, geologiya va sanoat xavfsizligi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar favqulodda avariya sodir bo‘lsa, uchinchi shaxslarga (jismoniy shaxslar va tashkilotlar) hamda atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlar bo‘yicha javobgarligini sug‘urtalashga majbur bo‘ladi. Ushbu yangi talab, aslida, ekologik sug‘urtaning bir ko‘rinishi bo‘lib, yurtimizda birinchi marta qonunchilik darajasida ifodalangan deyish mumkin. Biroq bunday qoidalar hanuz juda kam sonli va parokanda holatda bo‘lib, kompleks ekologik sug‘urta tizimini shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli, ekologik (yashil) sug‘urtaning huquqiy asoslarini mustahkamlash va uni tartibga soluvchi normalarni yagona tizimga keltirish zarurati tobora kuchaymoqda.

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston qonunchiligi: qiyosiy tahlil

Xalqaro tajriba. Ko‘plab rivojlangan davlatlar va qo‘shni mamlakatlar ekologik xavflarni sug‘urta orqali qoplashga qaratilgan maxsus mexanizmlarni joriy etgan bo‘lib, ularning huquqiy bazasi O‘zbekiston uchun foydali qiyosiy material bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, Yevropa Ittifoqida atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyili asosida hal etiladi. 2004-yilda qabul qilingan Atrof-muhit uchun javobgarlik to‘g‘risidagi Direktivada (2004/35/EC) a’zo davlatlarga ekologik zararlarni oldini olish va qoplash maqsadida moliyaviy ta’minot vositalarini (jumladan, sug‘urtani) rivojlantirish choralari ko‘rish tavsiya etilgan. Ya’ni, Yevropa huquqida kompaniyalar faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni qoplash uchun oldindan moliyaviy kafolat bo‘lishi (masalan, sug‘urta polisi yoki bank kafolati tarzida) rag‘batlantiriladi. Garchi Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida ekologik javobgarlik sug‘urtasi ixtiyoriy tarzda rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

davlatlar bu borada majburiy talablar ham joriy qilgan. Masalan, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Portugaliya kabi davlatlar III-ilovada sanab o‘tilgan xavfli faoliyat turlari uchun ekologik sug‘urtani yoki boshqa moliyaviy ta’minotni majburiy etib belgilagan. Umuman Yevropa Komissiyasi a’zo mamlakatlarda moliyaviy kafolat tizimining joriy etilishi yuzasidan monitoring olib boradi va ehtiyojga ko‘ra kelgusida umumiy majburiy mexanizm taklif qilinishi mumkinligini bildirgan.

AQSh tajribasida ham qator qonun hujjatlari orqali ekologik javobgarlikni sug‘urta qilish tartibi yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 1980-yilda qabul qilingan Atrof-muhitni muhofaza qilish, kompensatsiya va javobgarlik to‘g‘risidagi qonun (CERCLA) yirik ifloslanish o‘choqlari uchun javobgarlikni kuchaytirgan holda “qo‘shma va bir necha” javobgarlik prinsipini o‘rnatdi, ya’ni atrof-muhitga zarar yetkazgan har bir polluter to‘liq zarar uchun javob beradi. Mazkur qonun va unga aloqador me’yorlar doirasida ayrim xavfli faoliyat turlari uchun majburiy sug‘urta ham joriy etilgan; xususan, xavfli chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar ekologik javobgarlik sug‘urtasiga ega bo‘lishi talab etiladi. AQShda ekologik sug‘urta bozori 20-asr oxiridan boshlab shakllangan bo‘lib, hozirgi kunda uning yillik hajmi taxminan 1 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. So‘nggi o‘n yilliklarda bu ko‘rsatkich barqaror o‘smoqda, chunki ko‘proq kompaniyalar o‘zlarining ekologik xatarlarini sug‘urta qilishga intilmoqda.

Yuqori rivojlangan mamlakatlar qatori, sobiq ittifoq hududida joylashgan yaqin qo‘shnilarimiz ham ekologik sug‘urta institutini joriy eta boshlagan. Jumladan, Qozog‘iston Respublikasi 2005-yilda maxsus “Majburiy ekologik sug‘urta to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilgan bo‘lib, unga muvofiq “atrof-muhit uchun yuqori xavf tug‘diruvchi faoliyat turlari” bilan shug‘ullanuvchi barcha

yuridik va jismoniy shaxslar fuqarolik javobgarligini majburiy tartibda sug‘urta qilishi shart. Qozog‘istonda majburiy ekologik sug‘urta atrof-muhitga avariya oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan bo‘lib, unga parallel ravishda ixtiyoriy ekologik sug‘urta ham rivoj topgan (korxonalar o‘z xohishiga ko‘ra qo‘shimcha himoya polislarini olishi mumkin). Turkmanistonda esa 2013-yil bahoridan boshlab barcha mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar uchun davlat ekologik sug‘urtasi joriy etildi. Mazkur majburiy sug‘urta Turkmanistonning “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi hamda “Sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunlari talablari asosida amalga oshirilib, davlatning ekologik xavfsizlikni ta’minlash siyosatining bir qismi sifatida qaralmoqda. Ozarbayjon Respublikasida ham amaldagi milliy qonunchilikka ekologik sug‘urta normalari integratsiya qilingan bo‘lib, majburiy sug‘urta turlari tizimida ekologik xavflar alohida qo‘shimcha sifatida ko‘zda tutilgan. Rossiya Federatsiyasida esa bir necha yildan buyon “Majburiy ekologik sug‘urta to‘g‘risida”gi federal qonun loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Umuman olganda, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ekologik xavf yuqori bo‘lgan sohalarda majburiy sug‘urtani joriy etish davlat byudjeti zimmasidagi zararlarni qoplash yukini yengillashtiradi hamda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish uchun mustaqil moliyaviy manba yaratadi. Masalan, Qozog‘iston va Turkmaniston tajribasi majburiy ekologik sug‘urta orqali yirik avariyalardan keyingi tiklash xarajatlarini qisman bo‘lsa-da sug‘urta kompaniyalari hisobidan qoplash imkoni yaratilganini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston qonunchiligidagi holat. Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekistonda hozircha ekologik (yashil) sug‘urtaga oid mustaqil qonun hujjati yoki kodeks moddasi yo‘q. Amaldagi Fuqarolik kodeksi va “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda ekologik xavflarni sug‘urtalash bevosita tilga olinmagan.

Faqat ayrim normativ hujjatlarda uning unsurlarini ko‘rish mumkin (masalan, xavfli obyektlarning javobgarligini sug‘urtalash haqidagi talablar). Bu holat, yuqorida qayd etilganidek, ekologik sug‘urta institutining samarali ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda. Chunki, agar yirik ekologik xavf manbalari bo‘lgan korxonalarda avariya yuz bersa, hozirgi tizimda davlat byudjeti yoki korxonaning o‘zi zararni qoplashga majbur. Majburiy ekologik sug‘urta tizimi yo‘lga qo‘yilganda edi, bu mas’uliyatning bir qismi sug‘urtalovchilarga o‘tgan bo‘lar va jabrlanganlarga tovon to‘lash tezlashgan bo‘lar edi.

Xalqaro tajribani va milliy qonunchilikdagi bo‘shliqni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda yashil sug‘urta bo‘yicha huquqiy bazani shakllantirish masalasi kun tartibiga qo‘yilishi zarur. Quyida shu boradagi xulosa va takliflar bayon etiladi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, yashil sug‘urta nafaqat ekologik xavflardan moliyaviy himoya vositasi, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim institutdir. U atrof-muhitga yetkazilgan zarar oqibatlarini yengillatish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini rag‘batlantirish hamda iqtisodiyotda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq O‘zbekiston sharoitida ushbu institutni shakllantirish va rivojlantirish uchun huquqiy zaminni mustahkamlash talab etiladi. Shu bois, mazkur ilmiy ish doirasida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga maxsus norma kiritish.** Fuqarolik kodeksining sug‘urta shartnomasiga oid bobida yangi 914^1-modda – “Ekologik (yashil) sug‘urta shartnomasi”ni kiritish taklif etiladi. Ushbu moddada ekologik sug‘urtaning huquqiy mohiyati, taraflari, sug‘urta hodisasi va

sug‘urta to‘lovi kabi muhim jihatlar aniq belgilanishi lozim. Natijada, fuqarolik qonunchiligida atrof-muhitga zarar yetkazilishi xavfi bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari aks etgan bo‘lar edi.

2. **“Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga ekologik sug‘urta bo‘yicha bob qo‘shish.** Amaldagi sug‘urta to‘g‘risidagi Qonunda majburiy sug‘urta turlari orasida ekologik sug‘urta tilga olinmagan. Taklifimizga ko‘ra, mazkur qonunga alohida bob yoki bo‘lim sifatida “Ekologik sug‘urta” munosabatlarini tartibga soluvchi normalar kiritilishi kerak. Unda ekologik sug‘urtaning majburiy va ixtiyoriy turlari, ularni amalga oshirish tartibi, sug‘urta qoplamasining chegaralari hamda davlat nazorati masalalari batafsil belgilanishi maqsadga muvofiq. Xususan, qaysi toifadagi xo‘jalik subyektlari majburiy ekologik sug‘urtaga tortilishi, sug‘urta summasining minimal miqdorlari, sug‘urta hodisasiga doir standartlar kabi jihatlar qonun darajasida mustahkamlansa, ushbu institut samarali faoliyat ko‘rsatishi ta’minlanadi.

3. **Amaliy mexanizmlar va targ‘ibot.** Yuqoridagi qonunchilik tashabbuslarini hayotga tatbiq etish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar ham zarur. Xususan, ekologik sug‘urtani joriy etish bilan bog‘liq tizimli targ‘ibot va tushuntirish ishlarini kuchaytirish, biznes subyektlari uchun o‘quv seminarlar tashkil etish lozim. Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlikda pilot loyihalarni amalga oshirib, ba’zi korxonalarda ixtiyoriy ekologik sug‘urtani sinov tariqasida yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu tajriba keyinchalik majburiy tartib joriy etilganda qo‘l keladi. Bundan tashqari, hukumat huzurida Ekologik sug‘urta jamg‘armasi yoki maxsus kompensatsiya fondini tuzish ham taklif etiladi. Ushbu jamg‘arma majburiy sug‘urtadan tushadigan badallarni to‘plab, yirik ekologik

avariyalardan jabrlanganlarga tezkor to‘lovlar amalga oshirish va atrof-muhitni tiklash ishlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishiga, atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga hamda xalqaro talablarga mos ilg‘or sug‘urta mexanizmlarini joriy etishga xizmat qiladi. Yashil sug‘urta institutini huquqiy jihatdan shakllantirish va rivojlantirish natijasida, ekologik xavfsizlikning yangi moliyaviy mexanizmi vujudga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolar va tadbirkorlarning ekologik mas’uliyatini oshirishga, yirik ekologik talafotlarning oldini olishga va yuzaga kelgan zararlarni adolatli qoplashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-108-son qarori (01.03.2024) – “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Qarorda yashil sug‘urta mahsulotlarini joriy etish va 2025-yilgacha majburiy sug‘urta tartibini takomillashtirish vazifasi belgilangan.

2. Marsh (2012) – *Liability for Environmental Damage*. Yevropa Ittifoqining Atrof-muhit uchun javobgarlik Direktivasi bo‘yicha moliyaviy ta’minot (sug‘urta) masalalari tahlili.

3. Azernews (2016) – *Turkmen companies receive environmental insurance*. Turkmanistonda 2013-yildan barcha korxona va tashkilotlar uchun majburiy ekologik sug‘urta joriy etilgani haqida xabar.

4. JIDPTS ilmiy jurnali (2021) – *Environmental Insurance: What should be the legal basis?*

5. Chambers & Partners: Environmental Law – Kazakhstan (2024). Qozog‘iston Respublikasida ekologik sug‘urtaning huquqiy asoslari, 2005-yilda qabul qilingan majburiy ekologik sug‘urta to‘g‘risidagi qonun talablari bayon etilgan.

6. Xabar.uz (04.03.2024) – *Sug‘urta polislari endi qog‘oz shaklida rasmiylashtirilmaydi*. O‘zbekiston prezidentining PQ-108-son qarori mazmun-mohiyati yoritilgan; xavfli obyektlarda avariya bo‘lsa, uchinchi shaxslar va atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni majburiy sug‘urtalash talabi kiritilgani keltirilgan.

7. Ceres (2021) – Iqlim tavakkallarini sug‘urtalash bo‘yicha tavsiyalar. Ceres hisobotida ekstremal ob-havo hodisalari ko‘payishi sug‘urta bozoriga ta’siri va regulyatorlar uchun 10 ta tavsiya bayon etilgan.

8. Lex.uz – Milliy qonunchilik ma’lumotlari bazasi. O‘zbekistonning amaldagi qonun hujjatlarida sug‘urta faoliyati (Fuqarolik kodeksi, “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun va b.) normalari, 2011-yilda ekologik sug‘urta to‘g‘risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish vazifasi kabi ma’lumotlar olindi.

9. Global Climate Risk Statistics (2023). AQShda 2023-yilgi tabiiy ofatlar statistikasi: 92,9 mlrd. dollarlik zarar, 78,8 mlrd. dollarlik sug‘urta to‘lovlari. Mazkur ko‘rsatkichlar iqlim xavflarining sug‘urta sohasiga ta’sirini tasdiqlaydi.

10. O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflar (2025). Fuqarolik kodeksi va “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga ekologik sug‘urta bo‘yicha qo‘shimchalar kiritish takliflari. (Muallif ishlanmalari).

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

QONUNIY AJRAMASDAN UYLANSA QANDAY JAVOBGARLIK BOR?

O‘narboyev Samandar
Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida nikohdan o‘tishning va ajrashishning qonuniy tartibi, qonuniy ajramasdan turib shariy nikoh asosida boshqa ayol bilan turmush qurishning huquqiy oqibatlari, shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo choralari muhokama etilgan. Shu bilan birgalikda ayrim statistik ma’lumotlar va nikoh qurishning shar’iy qonun qoidalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *shar’iy nikoh, qonuniy nikoh, “Niso” surasi, ko’p xotinlilik, jinoiy javobgarlik, umumiy ro’zg’or, ma’muriy javobgarlik, “muallaq ayol”, dekriminalizatsiya.*

КАКОВА ОТВЕТСТВЕННОСТЬ, ЕСЛИ БРАК НЕ ЯВЛЯЕТСЯ ЮРИДИЧЕСКИМ РАЗВОДОМ?

Онарбаев Самандар
Студент 4 курса факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в статье рассматриваются правовая процедура заключения и расторжения брака в Республике Узбекистан, правовые последствия вступления в брак с другой женщиной на основе шариатского брака без законного развода, а также применяемые к физическим лицам санкции. Одновременно были проанализированы некоторые статистические данные и положения шариата о браке.*

Ключевые слова: *шариатский брак, законный брак, сура «Ниса», многоженство, уголовная ответственность, общее имущество,*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

административная ответственность, «подвешенная женщина», декриминализация.

WHAT IS THE RESPONSIBILITY IF A MAN MARRIES WITHOUT A LEGAL DIVORCE?

Onarboyev Samandar
4th year student of the Faculty of Criminal Justice, Tashkent State University of Law

Abstract: *this article discusses the legal procedure for marriage and divorce in the Republic of Uzbekistan, the legal consequences of marrying another woman without a legal divorce, and the penalties applied to individuals. At the same time, some statistical data and the provisions of Sharia law on marriage are analyzed.*

Keywords: *Sharia marriage, legal marriage, Surah "Nisa", polygamy, criminal liability, common property, administrative liability, "suspended woman", decriminalization.*

Avvalambor, nikoh so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, “nikoh” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, lug‘atda “Qo‘shilish”, “Yaqinlik” ma'nolarini anglatadi [1]. Hozir kunda ushbu so‘zga sifat berilgan holda “qonuniy nikoh” va “shar’iy nikoh” kabi tushunchalar shakllantirilgan. Ushbu tushunchalarning ma’nosi barchamizga ma’lum va alohida izoh berishga hojat yo‘q deb o‘ylaymiz.

Bir kishi xotini, ya’ni qonuniy nikohida turmush o‘rtog‘i bo‘la turib boshqa ayolga qonuniy yo‘l bilan uylana olmaydi. Negaki O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 16-moddasida loaqal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishi mumkin emasligi ko‘rsatilgan [2]. Sodda qilib aytganda ayol kishi ham, erkak kishi ham boshqa shaxs bilan tuzilgan nikohidan qonuniy tartibda ajramasdan boshqa shaxs bilan

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qonuniy turmush qura olmaydi. Hozirgi kunda erkak kishilar qonuniy nikohida ayoli bo‘la turib boshqa ayol bilan shar’iy nikohdan o‘tib yashashi holatlarini yurtimizda yetarlicha mavjud ekanligi hech birimizga sir yokida yangilik bo‘lmasa kerak.

Shu o‘rinda barchada “Qonuniy nikohdan ajramasdan turib boshqa ayol bilan shar’iy nikoh tuzib, bir oila bo‘lib yashash mumkinmi?” degan savol vujudaga kelishi mumkin. Javob esa – yo‘q, mumkin emas. Bu uchun qonunda jabgarlik bor. Aniqroq qilib ayatdigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (Keyingi o‘rinlarda – JK) 126-moddasiga muvofiq, ko‘p xotinli bo‘lish, ya’ni umumiy ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash jinoyat hisoblanadi va ushbu modda bilan aybdor deb topilgan shaxsga quyidagi jazolardan biri berilishi mumkin: bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish [3]. Ushbu modda bilan shaxs qachonki ikki yoki undan ortiq ayolga uylansa va ikki va undan ortig‘ini moddiy jihatdan ta’min etib, pul mablag‘lari sarfi ayni bir xo‘jilkdan bo‘lsa shaxs aybdor deb topiladi. Xususan, “ro‘zg‘or” so‘zining etimologiyasiga qarasak, ushbu so‘z fors tilidan kelib chiqqan bo‘lib “ro‘z” – kun hamda g‘or – bu qadimda qabilalar (insonlar) uchun uy, ombor, qisqasi xo‘jalik yuritadigan joy bo‘lgan. Hozirgi kunda “ro‘zg‘or” - bu kun kechirish uchun sarf-xajatlarning umiy ma’nosidir.

Shu bilan birgalikda aytish joizki, qonuniy nikohdan o‘tmagan shaxslarni diniy (shar’iy) jihatdan nikohlagan shaxslar ham javobgar bo‘ladi bunda avval ular dastlab ma’muriy javobgarlikka tortiladilar [4] hamda bir yil ichida ayni shu

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qilmishni takror sodir etsalar jinoiy javobgarlikka ham tortilishlari qonunchilikda belgilangan.

Yuqoridagi normalar bilan davlatimiz xalq vakillarini ko‘p xotinli bo‘lishlikdan qaytaradi va bu ishni qoralaydi. Biroq davlatimiz aholisining asosiy qismi Islom diniga e’tiqod qiladi. Xususan ayrim manbalarda O‘zbekiston aholisining 96%dan ortiq qismi [5] Islom diniga etiqod qilishini ko‘rsatmoqda. Bu ma’lumot aynan to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin, biroq deyarli aniq, ya’niki mamlakatimiz aholisining kamida 94% Islom dini vakillari deb aytishimiz mumkin. Islom dinining asosi va muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimning “Niso” surasi 3-oyatida Alloh taolo aytadiki: “Bas o‘zingiz xush ko‘rgan ayollardan ikki, uch, to‘rtini nikohlab oling. Agar adolat qila olmaslikdan qo‘rqsangiz, bittani”. Demak, agar adolat qilishiga ishonchi komil bo‘lsa va shu majburiyatni bo‘yniga olishga qodir bo‘lsa bir erkak to‘rttagacha ayolni o‘z nikohiga olishiga Alloh izm bergan va bunga chek qo‘yish va qarshi gapirish musulmonlar uchun mutlaqo mumkin emasdir. “Xotinlar o‘rtasida adolat - ko‘p xotinli erning xotinlariga nisbatan qalbidagi muhabbati borasidadir. Ya’ni, ko‘nglingizda muhabbati o‘rnashgan ba’zi xotiningizga bir yo‘la moyil bo‘lib ketib, xotinlaringizning ba’zisini muallaq ayolga o‘xshatib qo‘ymang. “Muallaq ayol” deb xotin bo‘lib xotin emas, boshi ochiq bo‘lib, boshi ochiq emas, arosat bir holda qolgan ayolga aytiladi. Bunday muallaqlik azob, shuning uchun oyati karima (“Niso” surasi 129-oyat) erni bu masalada adolatli bo‘lishga chorlamoqda. Ko‘p xotinli er yaxshi ko‘rgan xotini bilan doimo birga bo‘lib, boshqasini tark etsa, shariatga hech to‘g‘ri kelmaydi”. Ko‘p xotinlikning taqiqlanishida har kim ham adolat qila olmasligi, aholining demografik jihatlari va ayollarning haq-huquqlari muhim ro‘l o‘ynagan deb bilamiz. Balkim keyinchalik bu norma o‘zgarishi va

Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlanishi (dekriminalizatsiya) va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdan o'rin olishi ham mumkin, negaki ko'pchilik aynan shunday bo'lishini taklif qilishmoqda va taxmin qilishmoqda. Qolaversa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasiga ko'ra davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi qayd etilgan [6]. Ko'p xotinlikning davlat tomonidan taqiq etilish jamiyatning xohish-irodasi ekanligini va ko'pchilikning fikri kamchiliknikidan ustun ekanligi ko'p xotinli bo'lishning jinoyat deb belgilanishining asosiy sababidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. https://lex.uz/docs/-104720#-158639.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/-111453#-262088.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. https://lex.uz/ru/docs/-97664#-198010.
4. https://countrymeters.info/ru/Uzbekistan.
5. https://quronvasunnat.uz/quron?sura=4.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://lex.uz/docs/-6445145#-6445717

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

TOVAR BELGILARIDAN TIJORAT MAQSADIDA FOYDALANISHDA UNING HUQUQIY MAQOMI

Baratova Sabina Maxkamovna
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri
Email: sabinabaratova99@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida tovar belgilaridan tijorat muomalasida foydalanish borasida ayrim masalalarning xalqaro va xorijiy tajribalar asosida chuqur tahlil qilish hamda mazkur sohadagi qonunchilikni qo‘llash bilan bog‘liq kamchiliklarni aniqlash, jahon standartlariga moslashtirish imkoniyatlari tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tovar belgisi, tijorat muomalasi, intellektual mulk, talabnoma, konvensiya, firma.*

ПРАВОВОЙ СТАТУС ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ В КОММЕРЧЕСКОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ

Баратова Сабина Махамовна
Магистр Ташкентского государственного юридического университета
Электронная почта: sabinabaratova99@gmail.com

Аннотация: *целью данной статьи является проведение глубокого анализа некоторых вопросов, связанных с использованием товарных знаков в коммерческом обороте в Республике Узбекистан на основе международного и зарубежного опыта, выявление недостатков в применении законодательства в этой сфере, а также исследование возможностей его адаптации к мировым стандартам.*

Ключевые слова: *товарный знак, коммерческая практика, интеллектуальная собственность, заявка, конвенция, фирма.*

THE LEGAL STATUS OF USING TRADEMARKS FOR COMMERCIAL PURPOSES

Baratova Sabina Maxkamovna
Master's student of Tashkent State University of Law

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Email: sabinabaratova99@gmail.com

Abstract: *the purpose of this study is to conduct an in-depth analysis of certain issues related to the use of trademarks in commercial transactions in the Republic of Uzbekistan, based on international and foreign experience, and to identify shortcomings in the application of relevant legislation.*

Keywords: *Trademark, commercial turnover, intellectual property, application, convention, company.*

Mamlakatimizda shaxsga tegishli har qanday mulk, shu jumladan, intellektual mulkni himoya qilish va uning huquqiy muhofazasi ustuvordir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq intellektual mulkning qonun bilan muhofaza qilinishi aniq belgilangan. Shunday ekan, tijorat muomalasida tovar belgilarini ro‘yhatdan o‘tkazish va unga nisbatan mutlaq huquqlarga egalik qilish tadbirkorlar uchun kundan-kunga muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1967-yil 14-iyul tovar belgilaridan xalqaro doirada foydalanish va uning muhofazasini ta’minlashda Stokgolmda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston 1991-yil 25-dekabrda mazkur tashkilotga a’zolikka qabul qilingan. Tovar belgilari bilan bog‘liq jarayonlarni xalqaro standart normalariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida davom etib, mamlakatimiz tovar belgilarini xalqaro talablar doirasida tartibga solish va muhofaza qilishda Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasiga (1883-yil 20-martda qabul qilingan), Madridda imzolangan “Belgilarni xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Madrid bitimiga doir Bayonnoma”ga (1989-yil

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

27-iyunda), shuningdek, “Tovar belgilariga doir qonunlar to‘g‘risidagi Shartnoma”ga (1994-yil 27-oktabrdagi) a’zo bo‘lgan.[1]

Tovar belgilari mutlaq huquqlar doirasida tartibga solinib, bunda xizmat ko‘rsatish belgisi, firma nomi, domen nomida ham qo‘llaniladi. Bunga binoan, tovar belgisidan tijorat muomalasida foydalanish unga nisbatan mutlaq huquqni keltirib chiqarishi va muhofaza qilinishi intellektual mulkka nisbatan tatbiq qilinadigan umumiy qoidalarga asosan belgilanadi.[2]

O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi beshinchi qismiga muvofiq, tovar belgilari tasvirlar, so‘zlar, muayyan shakllar tarzidagi belgilar va boshqa belgilar oki ularning istalgan bir rangdagi yoki turli rangdagi jamlama ifodasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin. Ro‘yxatga olish xususiyatiga ko‘ra, tovar belgisini turli xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkinligi ro‘yhatdan o‘tkazuvchining xohish-istagi, biznes menejment usuli va yo‘nalishi, marketing va sotuv qobiliyatlari bilan bog‘liqdir. Bu fikrga kelishda Olim Melnikov fikriga qo‘shilamiz sababi tovar belgisining turliligi xaridorning bir tovardan boshqa bir tovarni ajratishida va tovar ishlab chiqaruvchisini aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olim A.Felitsina ta’kidlashicha, tovar belgisining turli ko‘rinishida mahsulotda namoyon bo‘lishi har bir ishlab chiqaruvchi shu orqali o‘z mahsulotining har doimgidan ko‘ra ommalashgan va o‘ziga tortuvchi xususiyatini oshirishga qaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan tovar

[1] O‘zbekiston Respublikasi mazkur Shartnomaga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-maydagi 630-I-sonli qaroriga muvofiq qo‘shilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 1998. – №5-6. 111-modda.
[2] Felisina S.B., Juravleva V.V. Sladkiy aromat tovarnogo znaka // Patent i Litsenzii. – №5. – S.68.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

belgilarini turli shaklda ro‘yxatga olish mumkinligi belgilangan. Xususan, qonun 3-moddasi beshinchi qismida “tasvirlar, so‘zlar, muayyan shakl tarzidagi belgilar va boshqa belgilar yoki ularning istalgan bir rangdagi yoki turli rangdagi jamlama ifodasi tovar belgilari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin”ligi belgilangan Amaliyotda mazkur belgilar aksariyat holatda reallik uchun mo‘ljallanganligiga guvoh bo‘lamiz. Noreal, boshqacha aytganda, virtual maydonda tovar belgilari sifatida tovushlar va harakatdagi tasvirlar ham tushuniladi. Misol keltirsak, hozirda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniyada tovushlar bilan muayyan tovar belgisini ommaga uzatuvchi xizmat turlari ham amalda. “Allo, diqqat, allo, Toshkentdan gapiramiz!”, “O‘zbekiston radiosining chorlovi” kabi tovushlar shular jumlasidandir. Radio kanallar va shu kabi ommaviy axborot vositalari orqali novizual eshittirishlarda tovar belgilari tovush shaklida tinglovchilarga tanitiladi, ya’ni reklama qilinadi. Demak, tovar belgilari kundalik hayotimizda virtual maydonda tovushlar orqali ham ifoda qilinishi mumkin ekan. Fikrimizga misollarni yuqorida radio kanallarda eshittirishlarda ommaga mashhur iboralarni tovar belgilari sifatida uzaltilayotgani orqali tushuntirib berishga harakat qildik.

Qonunda belgilangan tovar belgilari shakllari visual-an’anaviy usulda namoyon bo‘lishi belgilangan. Bu birinchidan, vizuallik – ko‘rish, tomosha qilish, ikkinchidan, sezish bilan bog‘liqlik ya’ni turli naqsh, figuralar, shakl va yozuvlar, rang-tasvir va shu kabilar.[3] Ta’kidlash muhimki, tovar belgisining bunday visual shaklda ifodalanishining qonun bilan belgilanishida aholining faqat sog‘lom qatlami hisobga olingandek go‘yo, sababi vizual tarzda namoyon etiladigan tovar belgisini anglash, tanish uchun ko‘rish qobiliyati talab etiladi. Biroq, rasmiy

[3] Melnikov V.M. Tovarniy znak ili promыshlennыy obrazes // Patent i Litsenzii. – №5. – S.126.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

statistikaga murojaat qilsak, O‘zbekistonda 2024-yil holatiga ko‘ra 845 300 nafar yoki umumiy aholi sonining 2.3%ini tashkil etuvchi imkoniyati cheklangan nogironlar ro‘yhatga olinganidan kelib chiqsak, demak, ko‘rish qobiliyati buzilgan (cheklangan) ko‘zi ojizlar ham mana shu raqamlar ichida. Demak, amaldagi qonunchilik normasi bilan ko‘zi ojizlarning ko‘rish imkoniyati cheklanganligi inobatga olinmagan. Rang-tasvirga ega tovar belgilari ko‘zi ojizlar uchun hech qanday mazmun-mohiyat yoki anglash kasb etmaydi.

Tovar belgilari orqali muayyan tovar, ishlab chiqarilgan mahsulotning boshqa shu kabi tovardan ajralib turishini ta’minlash va ayniqsa undan tijorat maqsadida foydalanishda biznes yurituvchi subyektning tovarini ommaga brend sifatida tanitish maqsad qilingan ekan, toki tovar belgilari vizual tasvir sifatida ro‘yhatdan o‘tar ekan, aholining barcha qatlamini qamrab olomaydi va jamiyatda tenglik yo‘qolishiga ham sabab bo‘ladi. Bu iste’molchilar huquqining tanlov qilish bo‘yicha mustaqilligiga ham salbiy ta;sir o‘tkazishi mumkin, sababi ko‘zi ojiz bo‘lgan iste’molchi o‘ziga ma’qul tovarni boshqa tovardan Tovar belgisi orqali ajratib olishi imkonsiz bo‘ladi.

Yuqoridagi amaliyotdan misollarni hamda virtual maydonning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tovar belgilarini ro‘yhatdan o‘tkazish bo‘yicha parametrlarni qayta ko‘rib chiqish, iste’molchilarning tovarni tanish va sotib olish bo‘yicha huquqlaridan foydalanishda tenglikni ta’minlash, vizuallik (ko‘rish) va ovoz-tovush (eshitish) orqali ifoda qilinishi mumkinligi alohida urg‘u berilishi lozim. Tovar belgisidan tijorat maqsadida foydalanishda ayniqsa iste’molchi o‘ziga ma’qul tovarni o‘z shaxsiy imkoniyatlaridan foydalangan holda eshitish, ko‘rish, his etish kabi sezgir organlaridan foydalanish cheklanmagan holda tanlashi muhim hisoblanadi. Tovar belgilari doktrinasini belgilashda zarur

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

jismoniy xususiyatlar, albatta, inobatga olinishi kerak. Xususan, xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga murojaat qilsak, 1995-yil 1-yanvardagi Germaniyaning “Tovar belgilari va boshqa belgilarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 1-bobi uchinchi qismida, Ispaniyaning 2002-yil 31-iyuldagi “Tovar belgilari to‘g‘risida”gi Qonunining 1-bobi to‘rtinchi qismida 1994-yil 21-iyulda qabul qilingan Buyuk Britaniyaning “Tovar belgilari to‘g‘risida”gi Qonunining 1-moddasida, 1983-yil 1-martdagi Xitoy “Tovar belgilari to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasida tovar belgilari turlari imperativ xususiyatdagi norma sifatida konkret belgilab berilgan. Bu shuni anglatadiki, ro‘yhatda sanalgan turlardagina tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin, mavjud emaslarni ro‘yhatdan o‘tkazish qonun bilan taqiqlanadi.

TAKLIF

Yuqoridagi amaliy misollar va rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, milliy sohani tartibga soluvchi qonunchilik normasiga quyidagicha o‘zgartrish kiritishga taklif beramiz:

O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonunini 3-moddasi beshinchi qismi: “vizual tasvirlar, so‘z va so‘z birikmalari, iboralar, shaxs nomlari va ularning tasvirlari, ranglar, tovushlar, talaffuz usuli, raqamlar, harflar, tovarlar shakli va o‘rami, ramzlar tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkaziladi”.

Fikrimizcha, qonundagi bu aniqlik tovar belgilarini huquqiy muhofaza etishda ham muhimdir. Shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarida talabnoma beruvchilar uchun tovar belgisining o‘ziga xos belgi, xususiyatlarini aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Tovar belgilarini ro‘yhatdan o‘tkazish aniq belgilarining qonun bilan belgilanishi tijorat muomalasida mazkur Tovar belgisidan

foydalanishda uning individualligini, shu kabi tovarlardan ajratuvchi xususiyatlarini, qolaversa, unga nisbatan mutlaq huquqdan foydalangan holda huquqiy muhofazasini ta'minlashda, unga nisabatan huquqlarni to'liq oshirishda ko'mak beradi. Sohani asosiy tartibga soluvchi qonunm mujmallik, nokonkretlikdan holi bo'lsa kelgusida uni qo'llash bilan bog'liq nizolar kelib chiqishini oldini olishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAANN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi mazkur Shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 1-maydagi 630-I-sonli qaroriga muvofiq qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – 1998. – №5-6. 111-modda.

2. Melnikov V.M. Tovarniy znak ili promыshlennыy obrazes // Patent i Litsenzii. – №5. – S.126.

3. Felisina S.B., Juravleva V.V. Sladkiy aromat tovarnogo znaka // Patent i Litsenzii. – №5. – S.68.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

YURTIMIZDA MAVJUD BO‘LGAN “MAHALLA YETTILIGI” FAOLIYATI TAHLILI

Ro‘zimboyeva Kumushoy Shodlik qizi
Toshkent davlat yuridik universitetining Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi
Rozimboyevakumush34@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqolada yurtimizda mavjud bo‘lgan “mahalla yettiligi” faoliyati tahlili olib boriladi. Yakunda, muallif tomonidan sohani rivojlantirishga doir tegishli xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, jamiyat, siyosat, davlat, mahalla yettiligi.*

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ «СОСЕДСКОЙ СЕМЕРКИ» В НАШЕЙ СТРАНЕ

Рузимбоева Кумушой Шодлик кизи
Студент 3 курса факультета Частного права Ташкентского государственного юридического университета
Rozimboyevakumush34@gmail.com

Аннотация: *в статье анализируется деятельность «соседской семерки» в нашей стране. В заключение автор приводит соответствующие выводы относительно развития отрасли.*

Ключевые слова: *район, общество, политика, государство, район семь.*

ANALYSIS OF THE ACTIVITY OF THE “NEIGHBORHOOD SEVEN” EXISTING IN OUR COUNTRY

Ruzimboyeva Kumushoy Shodlik qizi
3rd year student of the Faculty of Private Law, Tashkent State University of Law
Rozimboyevakumush34@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the activity of the “neighborhood seven” existing in our country. In conclusion, the author gives relevant conclusions on the development of the field.*

Keywords: *mahalla, society, politics, state, mahalla seven.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-dekabrdagi 293-sonli Prezident farmonida Farmonga ko‘ra, oldin mavjud bo‘lgan **mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektoridan** iborat “mahalla beshligi” yangi soliq inspekori va ijtimoiy xodimning qo‘shilishi natijasida “mahalla yettiligiga” aylantirildi. Quyida ushbu yettilikning vakolatlari bilan qisqacha tanishamiz:

- mahalla raisi – ehtiyojmand oilalarga uy-joyini yaxshilashga ko‘maklashish;
- hokim yordamchisi – ishsizlarga ish topishga ko‘maklashish;
- yoshlar yetakchisi – yoshlarni sport, musiqa va to‘garaklarga jalb etish;
- xotin-qizlar faoli – ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilikka jalb qilish;
- profilaktika inspektori Mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta’minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;
- soliq xodimi – mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirishga hamda o‘zini o‘zi band qilganlarga kichik biznes toifasiga o‘tishga ko‘maklashish;
- ijtimoiy xodim – yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi aniq vazifalar bilan shug‘ullanish.

Ko‘rinib turibdiki, “mahalla yettiligi” aholining ijtimoiy,iqtisodiy, madaniy va boshqa shu kabi birlamchi huquqlarini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu uyushmadagi jismoniy shaxslarni daftarlarga kiritish, shuningdek, daftarlar hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish vakolatlarining mavjudligi uyushmaning aholi foydasi uchun naqadar ijtimoiylashgan tuzilma ekanligini anglatadi. Shuningdek, aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ularga ipoteka krediti ajratish “mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida amalga oshirilishi yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 691-son qaroriga ko‘ra yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan to‘rt foiz yuqori stavkada 120 million so‘mgacha miqdorda, 20 yilgacha muddatga ipoteka kreditlarini ajratish, ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan kreditning 15 foizi miqdorida hamda foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash uchun kredit muddatining birinchi besh yili davomida 12 foizdan oshgan qismiga subsidiya to‘lab berish amaliyotining barchasi **“Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida amalga oshiriladi.**

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyevning 2023- yil 25-oktabr kuni **“Xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi” doirasida “Bundan olti yil oldin mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 24 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 12−13 foizga tushganini alohida ta’kidlab o‘tgani e’tiborga loyiqdir.** Haqiqatan kam, bugungi kunga kelib “Mahalla yettiligi”ning vakolatlari aholi foydasiga ancha kengaytirilgan. Endilikda fuqarolar o‘zlarining ijtimoiy sohada vujudga kelgan muammolarining deyarli barchasini ortiqcha ovoragarchiliklarsiz o‘zlari yashab turgan hududdagi “Mahalla yettiligiga” murojaat qilishlari orqali yechim topishlari mumkin. Bundan tashqari bugungi mahalla tizimida mahalla budjeti tashkil qilingan bo‘lib, ushbu majblag‘lar jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan

mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizi, mahalla idoralari orqali ko‘rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig‘imning 10 foizi, mahalladagi hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini hokim yordamchisining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag‘lar, baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va boshqa mablag‘lar aholi to‘lagan soliqlar hisobiga amalga oshiriladi.

Ushbu “Mahalla budjeti” xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har oy yakunlari bo‘yicha “Ochiq budjet” axborot portalida keyingi oyning 5-sanasigacha e’lon qilingan portalda bilib olishimiz mumkin. Bu esa “Mahalla bujdeti” mablag‘larining to‘g‘ri va shaffof tarzda yo‘naltirilayotganligini kuzatishga imkon yaratib, budjetning nazoratini amalga oshiradi. Jamg‘armaning joriy yilda foydalanilmagan mablag‘lari esa jamg‘arma ixtiyorida qoladi hamda kelgusi yilda foydalaniladi. Shu orqali mahalla instituti alohida o‘z budjetiga ega tuzilma sifatida xalqimizga xizmat ko‘rsatadi.

Bu kabi o‘zgarishlar, albatta, xalq farovonligini yaxshilash, aholi turmush tarzini takomillashtirish, shuningdek, aholining davlat organi vakillari bilan ijtimoiy sohada yuzaga keladigan munosabatlarini qulay tarzda olib borish maqsadida yaratilgan bo‘lib, barcha islohotlar xalqning yashash farovonligini barqarorlashtirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://lex.uz/docs/6705763. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-dekabrdagi 293-sonli Prezident farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

IJRO ETUVCH HOKIMYAT ORGANLARINING VAZIFA VA FUNKSIYALARINI TAQSIMLASH MEXANIZMLARI

Karimova Kamola Akmal qizi
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Magistratura bosqichi Davlat boshqaruvi huquqi mutahasisligi talabasi
E-mail: kkarimova382@gmail.com

Annotatsiya*: ushbu maqolada ijro etuvchi hokimyat organlari, ularning vazifalari, funksiyalari va ularning taqsimlash masalalari tahlil qilinib, mazkur tizimdagi kamchiliklarni oldini olish va qanday natijalarga erishish tahlil qilib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijro etuvchi hokimyat, Vazirlar Mahkamasi, vazifalarni vertikal va gorizontal taqsimlash, elektron hukumat.*

МЕХАНИЗМЫ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ЗАДАЧ И ФУНКЦИЙ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ

Каримова Камола Акмаль кизи
Ташкентский государственный юридический университет, магистрант по специальность «Право государственного управления»
Электронная почта: kkarimova382@gmail.com

Аннотация: *в статье анализируются органы исполнительной власти, их задачи, функции, вопросы их распределения, а также анализируются пути предотвращения недостатков в этой системе и достижения результатов.*

Ключевые слова: *исполнительная власть, Кабинет Министров, вертикальное и горизонтальное разделение полномочий, электронное правительство.*

MECHANISMS OF DISTRIBUTION OF TASKS AND FUNCTIONS OF EXECUTIVE AUTHORITY BODIES

Karimova Kamola Akmal kizi
Tashkent State University of Law,
Master's degree in Public Administration Law

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz


E-mail: kkarimova382@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the executive authorities, their tasks, functions and issues of their distribution, and analyzes how to prevent shortcomings in this system and achieve results.*

Keywords: *executive authority, Cabinet of Ministers, vertical and horizontal distribution of tasks, e-government.*

Kirish. Demokratik huquqiy davlatning muhim xususiyatlaridan biri hokimiyat organlari o‘rtasida funksiya va vazifalarning samarali taqsimlanishi hisoblanadi. Ayniqsa, ijro etuvchi hokimiyat tizimida bu masala alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ijro hokimiyati davlat boshqaruvining asosiy “harakatlantiruvchi kuchi” hisoblanadi. Zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitida ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi murakkablashib, ularning vazifa va funksiyalari kengayib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida ushbu organlar o‘rtasida funksiyalarni aniq taqsimlash va ularning samarali hamkorligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifa va funksiyalarini taqsimlash masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, u davlatning konstitutsiyaviy qurilishi, boshqaruv shakli, siyosiy an’analari va huquqiy tizimining xususiyatlariga bog‘liq. Mazkur taqsimot mexanizmlari davlat boshqaruvining barqarorligi, samaradorligi va qonuniyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ijro hokimiyati faoliyatining shaffofligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan samarali nazorat qilishga xizmat qiladi.Ijro etuvchi hokimiyat organlari funksiyalarini taqsimlash mexanizmlarining nazariy asoslari va amaliy jihatlarini o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



Asosiy qism. Ijro etuvchi hokimiyat - davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyat va sud hokimiyati kabi mustaqil tarmoqlaridan biri. Joriy qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga asoslanib, boshqaruv vazifalarini bajaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hujjatlarini ijro etish maqsadida o'z qaror va farmoyishlarini qabul qiladi, odatda, davlat boshlig'i (prezident) ning bevosita rahbarligi va nazorati ostida ish ko'radi. Ijro etuvchi hokimyat mintaqaviy va mahalliy darajada mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari (hokim, oqsoqol, gubernator, mer, prefekt) tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zbekiston Respublikasida hukumat — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat xokimiyatining oliy ijrochi va boshqa-ruvchi organi hisoblanadi. U iqtiso-diyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyat ko'rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining bajarilishiga rahbarlikni ta'minlaydi. Mahalliy Ijro etuvchi hokimyat organlari O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradi. Viloyat, tuman va shaharlarda ijro etuvchi hokimyatni hokim boshchiligidagi viloyat, tuman va shahar hokimliklari boshqaradi. Ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i – ijro hokimiyatining boshlig'i qoidaga ko'ra, prezidentlik respublikalarida prezident (AQSH Konstitutsiyasining 2-moddasi) hisoblanadi . Parlamentar respublikalarda ijro etuvchi hokimiyatning oliy o'rgani bo'lgan hukumatning boshlig'i Bosh vazir hisoblanadi. Ko'pchilik davlatlar Konstitutsiyalariga ko'ra ijro hokimiyatining boshlig'i davlat boshlig'i, ya'ni prezident yoki monarx (masalan, AQSHda) hisoblanadi. Yarim prezidentlik, yarim parlamentlar respublikalarda hukumat boshlig'i-Bosh vazir, kansler deb qaraladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Parlamentlar respublikalarda qoidaga ko‘ra, ijro hokimiyatining boshlig‘i etib davlat rahbari tomonidan parlamentda ko‘pchilik o‘ringa ega bo‘lgan partiyaning sardori yoki koalitsion hukumat tarkibidagi partiyalar sardorlaridan biri tayinlanadi” [1].

1. O‘zbekiston Respublikasi da ijro etuvchi hokimyat organlari tizimining huquqiy asoslari quyidagi normativ-huquqiy hujjatlardan iborat. Birinchi navbatdagi eng asosiy qonunchilik hujjati bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Konstitutsiyamizning 11-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimyat tizimi- hokimyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, va sud hokimyatiga bo‘linish prinspiga asoslanishini belgilab bergan”[2]. Bundan tashqari konstitutsiyamizning 114-moddasida Vazirlar Mahkamasi Ijro etuvchi hokimyatni amalga oshirishi aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Normaning keying bandida Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri uning o‘rinbosari va vazilardan iborat deb belgilangan. Asosiy qonundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi 25.10.2024 yildagi O‘RQ-982- sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar bu sohadagi asosiy normativ-huquqiy asoslarni tashkil etadi. Ijro etuvchi hokimyat organlari ana shu qonuniy asoslarda ko‘rsatilgan talab va me’yorlarga amal qilgan holda o‘z faoliyatlarini olib boradilar.

2. Ijro etuvchi hokimyat organlarining tizimi. bu davlatning ijro etuvchi vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqaruv organlari majmui hisoblanadi. Bu tizim davlat boshqaruv vazifalarini bajarish, qonunlarni ijro etish va davlat siyosatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan. Ijro etuvchi hokimiyat tizimining

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijro_etuvchi_hokimiyat.
[2] 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/-6445145.

asosiy xususiyatlari: Tashkiliy tuzilishi - vertikal bo‘ysunuv asosidagi ierarxik tizim shakliga ega, davlat boshqaruvining barcha sohalarini qamrab oladi, qonun chiqaruvchi hokimiyat qabul qilgan qonunlarni hayotga tatbiq etadi. Ko‘pchilik davlatlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi quyidagi asosiy bo‘g‘inlardan iborat:

- Oliy ijro etuvchi organ (prezident ma’muriyati, hukumat, vazirlar mahkamasi);
- Markaziy ijro etuvchi organlar (vazirliklar, davlat qo‘mitalari);
- Hududiy ijro etuvchi organlar (viloyat, tuman, shahar hokimliklari);
- Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari.

Bu organlar o‘rtasidagi munosabatlar subordinatsiya (bo‘ysunish) va koordinatsiya (muvofiqlashtirish) tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Ijro etuvchi hokimiyat tizimi davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish va jamiyat hayotini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Ijro etuvchi hokimyatining yagona tizimiga raxbarlik qiladigan kollegial organi bu O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi.

3.Vakolatlar, funksiyalar va vazifalarni taqsimlash mexanizmlari. Ijro etuvchi hokimiyatda vakolatlar, vazifalar va funksiyalarni taqsimlash mexanizmlari bu davlat boshqaruvi tizimida hokimiyatning ijro etuvchi tarmog‘i ichida huquqlar, majburiyatlar va mas'uliyatlarni ma’lum bir tizim asosida taqsimlash jarayonini anglatadi. Bu mexanizmlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Vertikal va gorizontal taqsimlash yuqori organlardan quyi organlarga va bir darajadagi organlar o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash hisoblanadi. Markazlashtirish va nomarkazlashtirish qarorlar qabul qilish va ijro etish vakolatlarini markaziy

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

hokimiyat va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida taqsimlashni anglatadi. Sohaviy yoki funktsional bo‘linish vazirliklar, qo‘mitalar va boshqa davlat boshqaruvi organlari o‘rtasida vakolatlarni ma’lum sohalar yoki faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlashdir. Kollegial va yakka tartibdagi boshqaruv qarorlarni guruh yoki yagona shaxs tomonidan qabul qilish va ijro etish tartibini belgilash mexanizmini o‘z ichiga oladi. Nazorat va hisobdorlik mexanizmlari ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish va ularning o‘z vakolatlari doirasida javobgarligini ta’minlashga qaratilgan. Bu mexanizmlar davlat boshqaruvining samaradorligini ta’minlash, vakolatlar to‘planib qolishining oldini olish va demokratik davlatchilik tamoyillarini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Vertikal taqsimlashda, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida vakolatlar, vazifalar va funksiyalar vertikal tarzda quyidagi darajalarda taqsimlanadi: Markaziy darajada — Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va agentliklar. Hududiy darajada — viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari va ularning boshqarmalari, Mahalliy darajada — mahalla fuqarolar yig‘inlari va boshqa o‘zini o‘zi boshqarish organlar "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq: “Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlarini amalga oshirishda vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, idoralar hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi va yo‘naltiradi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining faoliyati ustidan qonunchilikda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirishi belgilab berilgan”[3].

4. Vazirlar Mahkamasining vakolatlar, vazifalar va funksiyalarni taqsimlashdagi ro‘li. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat tizimida

[3] O‘RQ-982-сон 25.10.2024. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida https://www.lex.uz/uz/docs/-7172667.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Vazirlar Mahkamasi markaziy o‘rin egallaydi. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi O‘RQ-982-sonli Qonunga asosan, Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat vazifalarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi hokimiyat vazifa va funksiyalarini taqsimlash mexanizmlaridagi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining hukumati bo‘lib, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida faoliyat yuritadi. Vazirlar Mahkamasining tarkibi: Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari va boshqa davlat organlarining rahbarlari kiradi.

5. Ijro etuvchi hokimyat organlarida vazifalarni taqsimlash masalasi mavzusida qo‘shimcha ma’lumotlar va misollar bilan sizga yordam beraman. Vakolatlar, vazifalar va funksiyalarni taqsimlashda mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidagi islohotlar va kelajak istiqbollari. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida vakolatlarni, vazifalarni va funksiyalarni taqsimlash mexanizmlari mustaqillik yillarida sezilarli darajada takomillashtirildi. Bu jarayonning rivojlanish yo‘li murakkab va serqirra bo‘lib, davlat boshqaruvi tizimining barcha bo‘g‘inlarini qamrab oldi. Dastlabki islohotlar davomida ijro hokimiyati tizimida vazirliklar va qo‘mitalar tuzilishi shakllantirildi, ularning vazifalari va vakolatlari aniqlashtirildi, davlat boshqaruvining huquqiy asoslari yaratildi. Qonunchilik bazasining mustahkamlanishi, xususan “Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunlarning

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qabul qilinishi ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqomi, vakolatlari va mas'uliyatini aniq belgilab berdi.Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar davomida ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi bir necha bor optimallashtirilib, ortiqcha byurokratik bosqichlar qisqartirildi. Masalan, 2017-2021 yillar davomida davlat boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan islohotlar natijasida bir qator vazirliklar va idoralar birlashtirildi yoki qayta tashkil etildi. Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi faoliyati qayta ko‘rib chiqildi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi vakolatlari aniqlashtirilib, funksiyalari taqsimlandi. Bu esa davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirishga, qarorlar qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga xizmat qildi.Davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha ham muhim qadamlar tashlandi. 2017-yilda Davlat xizmatlari agentligi tashkil etilishi bilan “yagona darcha” tamoyili asosida faoliyat yurituvchi davlat xizmatlari markazlari barpo etildi. Bu markazlar fuqarolarga va tadbirkorlik subyektlariga turli idoralarning xizmatlarini bir joyda, soddalashtirilgan tartibda olish imkoniyatini yaratdi. Hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab 200 dan ortiq davlat xizmatlari markazlari faoliyat yuritmoqda va ular orqali 150 dan ortiq turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Natijada fuqarolarning davlat xizmatlaridan mamnuniyati oshdi, korrupsiya xavfi kamaydi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. “Elektron hukumat” tizimi doirasida ko‘plab elektron davlat xizmatlari ishga tushirildi, idoralararo elektron hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Prezidentning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu strategiyada davlat xizmatlarining sifatini oshirish, davlat organlarining ochiqligini ta’minlash, “elektron hukumat” tizimini yanada

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyili asosida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi takomillashtirilmoqda. Davlat organlari o‘rtasida elektron ma’lumot almashishni yo‘lga qo‘yish, fuqarolardan davlat organlarida mavjud ma’lumotlarni talab qilmaslik bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatlari markazlarining vakolatlari kengaytirilmoqda, yangi xizmat turlari joriy etilmoqda. Ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida davlat organlarining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq e’lon qilish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari bilan muloqot qilish yangi mexanizmlari joriy etilmoqda. Vazirliklar va idoralarning veb-saytlari doimiy ravishda yangilanib, ochiq ma’lumotlar portali orqali ko‘plab ma’lumotlar e’lon qilinmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari rasmiy sahifalari ochilmoqda, virtual qabulxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Davlat xizmatchilarining malakasini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Davlat xizmatchilari malakasini oshirish markazlari faoliyati takomillashtirilmoqda. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, strategik rejalashtirish, qaror qabul qilish jarayonlari bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, ularning vakolatlarini kengaytirish, mustaqilligini oshirish bo‘yicha ham muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Viloyat, tuman va shahar hokimliklarining moliyaviy mustaqilligi kuchaytirilmoqda, mahalliy byudjetlarning daromad bazasi kengaytirilmoqda. Hokimlarning hisobdorligi va javobgarligi oshirilmoqda, ularning faoliyatini baholash mezonlari takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida amalga oshirilayotgan

islohotlar mamlakatning barqaror rivojlanishiga, fuqarolar farovonligini oshirishga, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish va liberallashtirishga xizmat qiladi. Kelajakda bu islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat boshqaruvi tizimini zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Resoublikasi Konstitutsiyasi . – O‘zbekiston 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “ Vazirlar Mahkmasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-982- sonli Qonuni. 25.10. 2024 y.
3. Ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i - Vikipediya https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ijro_etuvchi_hokimiyat_boshlig%CA%BBi.
4. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida https://president.uz/oz/lists/view/5869.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN MUNOSABATLAR ISTE'MOLCHILARI VA ULAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Otamirzayeva Laylo Tohir qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
OAV huquqi yo'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: *mazkur tezisda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi natijasida shakllanayotgan onlayn munosabatlarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar savdo, xizmat ko'rsatish, marketing, mijozlarga xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab raqamli platformalarda keng qo'llanilmoqda. Tezisda xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar orqali O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini inson huquqlari va iste'molchi manfaatlariga zid bo'lmagan holda joriy etish bo'yicha huquqiy, axloqiy va institutsional yondashuvlar ilgari suriladi.*


Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, iste'molchilar, akt, qonun, iste'molchilar, Yevropa Ittifoqi.*

ОНЛАЙН-ВЗАИМООТНОШЕНИЯ С УЧАСТИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЗАЩИТА ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ

Отамирзаева Лайло Тохир кызы
Магистрантка направления «Право средств массовой информации»
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация*: в данной тезисной работе рассматриваются вопросы защиты прав потребителей в условиях формирования онлайн-взаимоотношений с участием технологий искусственного интеллекта. Системы, основанные на ИИ, широко используются в торговле, сфере услуг, маркетинге, обслуживании клиентов и других цифровых платформах. В*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



работе представлены правовые, этические и институциональные подходы к внедрению технологий ИИ в Узбекистане с учетом международного опыта, с тем чтобы это внедрение не противоречило правам человека и интересам потребителей.

***Ключевые слова**: искусственный интеллект, потребители, акт, закон, потребитель, Европейский союз.*

CONSUMERS OF ONLINE RELATIONS INVOLVING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE PROTECTION OF THEIR RIGHTS

Otamirzayeva Laylo Tohir qizi
Tashkent State University of Law
Master's student in the field of Media Law

***Abstract:** This thesis analyzes the issues related to the protection of consumer rights in online interactions emerging as a result of the development of artificial intelligence technologies. AI-based systems are widely used in trade, services, marketing, customer service, and many other digital platforms. Based on international experience, the thesis proposes legal, ethical, and institutional approaches for the implementation of artificial intelligence technologies in Uzbekistan in a way that does not contradict human rights and consumer interests.*

***Keywords:** artificial intelligence, consumers, act, law, consumers, European Union.*

Dunyoni qamrab olgan sun'iy intelekt, shunchalik tez rivojlanib, ommalashib kettiki, virtual olamda ko'rgan ba'zi rasm, videolarimizni real ekaniga ham ishonish qiyin bo'lib qoldi. Sun'iy intellekt inson aqliga sig'mas darajada kontent yaratmoqda. Uni yaratgan esa hammamiz kabi oddiy odam. Sun'iy intellekt hayotimizni qaysidur darajada yengillashtiryapti va shu sababli ham har sohani egallab oldi. U ham psixolog, ham dardkash, ham do'stlik vazifasini

bajarmoqda. Betob bo‘lganda tibbiy, toliqqanda ma’naviy, kerak bo‘lganda moddiy ahvolni yaxshilash uchun maslahatlar bermoqda. Sun’iy intellekt daturlari shunday tuzilganki, u insonlar bilan qo‘pol munosabatda bo‘lmaydi va doim qo‘llab-quvvatlaydi. Balki shuning uchun ham sun’iy intellekt mashxur bo‘lib ketdi. Sun’iy intellekt virtual muhit bilan chambarchas bog‘liq. Sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar orqali foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, avtomatik javoblar, chatbotlar, virtual yordamchilar taqdim etiladi. Ushbu o‘zgarishlar esa iste’molchilar huquqlari, xususan ma’lumotga ega bo‘lish, adolatli munosabat, rozilik va maxfiylik tamoyillariga oid dolzarb yuridik masalalarni yuzaga keltirmoqda.

Sun’iy intellekt inson hayotiga zarar yetkazishi mumkinmi? Undan foydanalgan iste’molchilarni qanday huquqlari mavjud? Undan zarar ko‘rganlarni huquqlari qanday himoya qilinadi? O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonuni qabul qilingan. Unga ko‘ra, iste’molchilar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo‘lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchining (ijrochining, sotuvchining) g‘ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma’naviy zararning o‘rni to‘liq hajmda qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so‘rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish mumkin.[1] Qonunga, hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, iste’molchilarning ma’lumot olish, tanlash huquqi, xavfsizlik, shikoyat qilish huquqi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish huquqi mavjud. O‘zbekisto Respublikasi fuqarolari mahsulot yoki xizmat haqida to‘liq, ishonchli va aniq

[1] O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son.

ma’lumotga ega bo‘lishi, muqobil tovar yoki xizmatlarni erkin tanlashi, hayot va sog‘liq uchun xavfsiz tovar yoki xizmatdan foydalanishi, sifatsiz mahsulot/xizmat yuzasidan murojaat qilish va kompensatsiya talab qilishi, bundan tashqari, onlayn xizmatlar orqali yig‘iladigan ma’lumotlar maxfiy saqlanishini talab qilishi mumkin.[2] Shunday ekan, bu huquqlar sun’iy intellekt tomonidan buzilsa, zarar ko‘rganlar uni sudga beroladimi? Sudga berish imkoni bo‘lsa kim javobgar bo‘ladi? Shunga o‘xshash muommolarga bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan turli xil yechimlar qo‘llanilmoqda. Birinchilardan bo‘lib, Yevropa ittifoqi 2024-yil sun’iy intellektni tartibga solish bo‘yicha keng qamrovli qonunlardan birini qabul qildi. Qonunga ko‘ra, odamlar yoki zaif guruhlarning kognitiv va xulq-atvorga asoslangan boshqaruvi: masalan, bolalarda xavfli xatti-harakatlarni targ‘ib qiluvchi ovozli o‘yinchoqlar, odamlarni ularning xatti-harakati, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki shaxsiy xususiyatlariga qarab tasniflash, biometrik aniqlash va tasniflash; ommaviy joylarda haqiqiy vaqt rejimida uzoqdan biometrik aniqlash (masalan, yuzni tanish texnologiyasi) ta’qiqlandi. Ba’zi istisnolar huquqni muhofaza qilish maqsadida ruxsat etilishi mumkin. “Haqiqiy vaqt” rejimida biometrik aniqlash faqat juda jiddiy holatlarda qo‘llaniladi. “Keyingi” (post) rejimda biometrik aniqlash, ya’ni jinoyat sodir bo‘lganidan keyin aniqlash, faqat sud ruxsati bilan amalga oshiriladi.[3] Qonun mutloq yaratuvchi va iste’molchilar foydasiga qaratilgan bo‘lib, mualliflik huquqidan tortib xavfsizlik tizimigacha yortilgan. AQSH davlatlarida hali bu bo‘yicha qonun qabul qilinmagan bo‘lsa-da, ayrim shtatlarda insonlar xavfsizligini himoya qilish maqsadida sun’iy intellekt nazorat ostiga olingan. O‘zbekistron Respublikasida ham sun’iy intellekt yutuqlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, fuqarolarimizning huquq va

[2] https://lex.uz/docs/-4704.
[3] https://www.europarl.europa.eu/portal/en.

erkinliklarini ta’minlash maqsadida undan foydalanish chegaralarini belgilash uchun sohaning huquqiy asoslarini yaratish zarurati mavjud. Hozirga qadar mamlakatimizda sun’iy intellekt sohasidagi munosabatlar 5 ta tarqoq holdagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda. Ushbu hujjatlar bilan sun’iy intellekt texnologiyalari sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisodiyot, ijtimoiy va davlat boshqaruvi kabi sohalarga tatbiq etilishi belgilandi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va sohadagi xalqaro standartlarni mamlakatimiz davlat standartlari sifatida qabul qilish ko‘zga olingan. Mamlakatimizda sun’iy intellekt shiddat bilan rivojlanib borib, unga talab ortayotganiga qaramasdan, sohadagi yagona davlat siyosati, maxsus vakolatli davlat organ faoliyati, sun’iy intellekt texnologiyalariga nisbatan davlat standartlari va ularni qo‘llash mumkin bo‘lgan sohalar yagona qonun hujjati doirasida tartibga solinmagan. Qonunchilkda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash natijasida yuzaga kelgan huquqbuzarlik holatlari uchun javobgarlik belgilanmagan. Bu esa, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda qanday holatlar huquqbuzarlik hisoblanishi va mazkur huquqbuzarlik holatlari sodir etilganda, asl huquqbuzarni aniqlash va uni javobgarlikka tortish imkonini bermaydi.[4] Hozirda bu bo‘yicha chet davlatlarda qonunchilik loyihalari ishlab chiqilmoqda. Milliy qonunchiligimizda bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida bizda ham bu mavzu eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Bizning fikrimizcha birinchi navbatda, inson xavfsizligi ta’minlanishiga qaratilgan qonun loyihalarini ko‘rib chiqishimiz kerak. Sun’iy intellekt aslida minimal darajada xavf keltirib chiqaradi. Lekin bu masalani ham nozik jihatlari bor. Masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul

[4] https://parliament.gov.uz/.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qilingan aktda sun’iy intellekt ilovalari ta’qiqlanadi. Bunday ilovalarga insonlar yoki muayyan zaif guruhlarning kognitiv-harakat manipulyatsiyasi: masalan, bolalarni xavfli xatti-harakatlarga undaydigan ovozli o‘yinchoqlar kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy reyting beruvchi sun’iy intellekt: insonlarni ularning xatti-harakati, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki shaxsiy xususiyatlariga asoslanib baholaydigan, insonlarni biometrik aniqlash va toifalarga ajratish, real vaqt rejimidagi va masofaviy biometrik aniqlash tizimlari, masalan, jamoat joylarida yuzni aniqlash kabi vazifalarni bajaradigan ilovalar man etiladi. Ba’zi istisnolar huquqni muhofaza qilish maqsadlarida ruxsat etilishi mumkin. Real vaqtli masofaviy biometrik aniqlash faqat og‘ir holatlarda cheklangan tarzda ruxsat etiladi. Post-biometrik aniqlash tizimlari (ya’ni aniqlash kechiktirilgan holda amalga oshiriladigan tizimlar) esa faqat jinoiy ishlarni tergov qilish uchun va sud ruxsati bilan ruxsat etiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt tizimlarida shaffoflik va xabardorlik, diskriminatsiyadan himoya, ma’lumotlarni himoya qilish kabi bo‘shliqlar mavjud. Sun’iy intellekt iste’molchilar huquqlarini buzilmasligini oldini olish uchun, aniq va tushunarli axborot taqdim etishi, ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlashda maxfiylik tamoyillariga rioya qilishi, u taqdim etayotgan qarorlar nazorat ostiga olinishi kerak. O‘zbekiston Respublikasida “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Rivojlangan mamlakatlar misolida Yevropa Ittifoqi tomonidan GDPR (Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish) kabi qonunlar ishlab chiqilgan. Bu qonunlarga teskari ketmaslik uchun ham, sun’iy intellekt qonuniylashtirilishi kerak. Bu masalani hal qilish maqsadida, normativ-huquqiy asosni kuchaytirish, ya’ni sun’iy intellekt bilan bog‘liq xizmatlar uchun alohida yuridik me’yorlar ishlab chiqilishi lozim. Iste’molchilar huquqlarini buzuvchi SI xizmatlari ustidan murojaat qilish va

shikoyat kiritish uchun maxsus vakolatli organlar tashkil etilishi kerak. Iste'molchilar sun'iy intellekt qanday ishlashi, qanday ma'lumotlar ishlatilayotgani, qanday huquqlarga egaligi haqida doimiy ravishda xabardor qilinishi kerak.

Sun'iy intellekt ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha judayam ko'plab rivojlangan davlatlar, Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Sinagpur, Yaponiya va Janubiy Koreya qonun-loyihalar ustida ish olib bormoqdalar.[5] Turli mamlakatlarda sun'iy intellekt sohasida qonunchilikni shakllantirish turli rivojlanish bosqichlarida turadi. Ushbu davlatlarda shakllanayotgan huquqiy tartibga solishni ko'rib chiqishda, faqat etik jihatlar emas, balki texnik tartibga solish elementlarining ham vaqti-vaqti bilan huquqiy tizimga "qo'shilayotganini" e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu holat, texnik standartlarning chiqarilishi va ular asosida normativ-huquqiy hujjatlar sifatida qabul qilinishi orqali namoyon bo'lmoqda yoki ular mavjud qonunchilikni rivojlantiruvchi shaklda ishlab chiqilmoqda. Qat'iy yondashuv tarafdorlari asosan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'lib, ular inson huquqlarini texnologiyalar orqali boshqarilayotgan dunyoda samarali himoya qilishni maqsad qilganlar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar iste'molchilarga qulaylik yaratgani holda, ularning asosiy huquqlariga tahdid soluvchi yangi xavf va ehtimollarni ham yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun shaffoflik, adolat, nazorat va rozilik tamoyillari asosida huquqiy mexanizmlar yaratilishi, regulyator nazorati kuchaytirilishi, xalqaro standartlarga mos yondashuv qo'llanilishi zarur. Bu orqali sun'iy inmtellekt xizmatlaridan foydalanishda iste'molchilarning huquqiy himoyasi ta'minlanadi va ularda ishonch va qoniqish darajasi oshiriladi. Bugungi

[5] Ranking Table. The Global AI Index 2024. URL: https://www.tortoisemedia.com/intelligence/global-ai/#rankings (10.12.2024).

raqamli asrda, onlayn savdo va raqamli xizmatlarning kengayishi bilan birga, iste'molchilar huquqlari ko'proq e'tiborga muhtoj bo'lib bormoqda. Shuning uchun davlat nazorati kuchaytirilishi, tadbirkorlarning mas'uliyati oshirilishi, iste'molchilarning huquqiy savodxonligi yuksaltirilishi va xalqaro standartlar asosida qonunchilik moslashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son.
2. https://lex.uz/docs/-4704.
3. https://www.europarl.europa.eu/portal/en.
4. https://parliament.gov.uz/.
5. Ranking Table. The Global AI Index 2024. URL: https://www.tortoisemedia.com/intelligence/global-ai/#rankings (10.12.2024).

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ОСНОВНЫЕ СУБЪЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ

Махмудов Жахонгир Махмуд угли
Магистр Ташкентского государственного юридического университета
maxmudov.johongir602@gmail.com

Аннотация: *цифровая трансформация финансового сектора сопровождается ростом киберугроз, особенно в отношении банковской инфраструктуры. В данных условиях особое значение приобретает формирование эффективной системы правового и институционального обеспечения кибербезопасности. В статье рассматриваются ключевые субъекты, вовлечённые в обеспечение кибербезопасности в банковской сфере, а также определяются их функции, полномочия и сферы ответственности.*


Ключевые слова: *кибербезопасность, банковская система, регуляторы, субъекты, правовое регулирование, Центральный банк, киберугрозы.*

MAIN ENTITIES IN ENSURING CYBERSECURITY IN THE BANKING SECTOR

Makhmudov Jakhongir Makhmud ugli
Master's student of Tashkent State University of Law
maxmudov.johongir602@gmail.co

Abstract*: the digital transformation of the financial sector is accompanied by an increase in cyber threats, especially in relation to the banking infrastructure. In these conditions, the formation of an effective system of legal and institutional support for cybersecurity is of particular importance. The article examines the key entities involved in ensuring cybersecurity in the banking sector, and defines their functions, powers and areas of responsibility.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



Keywords: *cybersecurity, banking system, regulators, entities, legal regulation, Central Bank, cyber threats.*

В условиях стремительной цифровизации финансового сектора вопросы кибербезопасности приобретают первостепенное значение. Современные банки не только хранят и обрабатывают огромные массивы персональных и финансовых данных, но и являются одними из главных целей кибератак. Защита от киберугроз требует комплексного подхода, в котором участвуют как сами банки, так и органы государственной власти, регулирующие структуры, международные организации и частные ИТ-компании.

Изучив соответствующую литературу, был сделать вывод что кибербезопасность представляет собой защиту электронных серверов и сетей, а также персональные данные от криминального вмешательства.

С переходом к цифровой экономике кибербезопасность в банковском секторе становится серьезной проблемой. Использование методов и процедур, разработанных для защиты данных, имеет важное значение для успешной цифровой революции. Эффективность кибербезопасности в банках влияет на безопасность нашей личной информации (PII), будь то непреднамеренное нарушение или хорошо спланированная кибератака. Основной целью кибербезопасности в банковском секторе является обеспечение защиты личных данных и активов клиентов, особенно в условиях растущего онлайн-банкинга и цифровых платежей. Люди совершают транзакции, используя цифровые способы оплаты, такие как

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

дебетовые и кредитные карты, которые должны быть защищены средствами кибербезопасности.[1]

Для начала необходимо рассмотреть, что национальное законодательство предусматривает под субъектом кибербезопасности. Согласно части 8 статьи 3 Закона «О кибербезопасности» Республики Узбекистан, «субъект кибербезопасности — юридическое лицо или индивидуальный предприниматель, имеющий определенные права и обязанности, связанные с владением, пользованием и распоряжением национальными информационными ресурсами и оказанием информационных электронных услуг по их использованию, защитой информации и кибербезопасностью, в том числе субъекты критической информационной инфраструктуры». Таким образом, субъектами являются как физические так и юридические лица, имеющие доступ к определенной информации и возможностью оказывать услуги по их защите.

Известно что, Служба государственной безопасности Республики Узбекистан является уполномоченным государственным органом в сфере кибербезопасности. К его полномочия входит разработка нормативно-правовых актов, осуществление контроля, проведение оперативно-розыскных мероприятий, организация работ по обеспечению кибербезопасности, определение требований по обеспечению кибербезопасности и иные полномочия, указанные в национальной законодательстве, регулирующее кибербезопасность.

[1] БЕЗОПАСНОСТЬ В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ: КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ И РОЛЬ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. Кочаева А.Р. Международный научный журнал «Вестник науки» №1, Том 2. Январь 2024. С. 142

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Субъекты кибербезопасности имеют как права, так и обязанности. В права субъекта входят получение от уполномоченного государственного органа сведения о киберугрозах, получение консультации уполномоченного государственного органа о средствах и методах защиты от кибератак и предотвращение их, а также инициировать методы обеспечения кибербезопасности. Обязанностями являются предотвращение незаконного распространения данных, их хранение и распространение, своевременное уведомление уполномоченных органов об инцидентах кибербезопасности, предоставление уполномоченному государственному органу право доступа в мониторинговые системы и иные обязанности предусмотренные в национальном законодательстве.

Основными субъектами кибербезопасности в настоящее время являются должностные лица государственных органов, органов местного самоуправления, наделенных соответствующими полномочиями, среди которых особо выделяются правоохранительные структуры, а также специальные службы.[2] Перечисленные и другие субъекты кибербезопасности обеспечивают ее посредством правовых, организационных, технических, оперативно-розыскных, кадровых, разведывательных, контрразведывательных, научных, информационно-аналитическихмероприятий.

К основными субъектами обеспечения кибербезопасности в банковской сфере относятся Центральный банк Республики Узбекистан, коммерческие банки и финансовые учреждения, государственные органы и

[2] Кибербезопасность современной россии: теоретические и организационно-правовые аспекты. Ковалев Олег Геннадьевич. Столыпинский вестник 2021.

Janubiy Koreyada raqamli mulk bozorining tez sur’atlarda rivojlanishi bilan birga, bu sohani tartibga soluvchi qonunlar ham doimiy takomillashtirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning muhim qismi hisoblangan raqamli aktivlar, intellektual mulk va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qat’iy va tizimli yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Bu mamlakatda raqamli mulkni qonuniy himoya qilish nafaqat texnologik taraqqiyotga xizmat qilmay, balki fuqarolarning huquq va manfaatlarini kompleks himoya qilishga ham qaratilgan . Janubiy Koreya

[14] U.S. Congress, *Regulation of Crypto Assets and Digital Property Rights*, 2023.
[15] E-Estonia, *Digital Identity and e-Government Solutions*, 2023.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

misolida, raqamli mulkni himoya qiluvchi normativ-huquqiy bazaning raqamli iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab olishi zarurligi aniq ko‘rinadi[16].

Xitoyda raqamli iqtisodiyot va raqamlashtirish jarayonlari yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Ushbu davlatda WeChatPay va Alipay kabi raqamli to‘lov tizimlari keng qo‘llanilib, ular kundalik iqtisodiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, Xitoy sun’iy intellekt va boshqa innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishda yetakchi o‘rinlarni egallab, global miqyosda raqamli iqtisodiyotda raqobatbardosh bo‘lishni maqsad qilgan. TikTok, Huawei va Alibaba kabi yirik kompaniyalar nafaqat Xitoy ichida, balki jahon bozorida ham o‘zining kuchli pozitsiyasini mustahkamladi. Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli mulkni tartibga solish nafaqat qonunchilikni joriy qilish, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Ushbu davlatda raqamli mulkni huquqiy himoya qilish mexanizmlari keng va ko‘p qatlamli bo‘lib, ular raqamli aktivlar, intellektual mulk va shaxsiy ma’lumotlar sohasini birgalikda qamrab oladi [17].

Ushbu mamlakatlarning tajribasi O‘zbekiston uchun raqamli mulk huquqini himoya qilishda konstitutsiyaviy hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda muhim namuna bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish konstitutsiyaviy va fuqaroviy huquqlar, ayniqsa, mulk huquqining mohiyati va mazmunini yangicha talqin qilishga undamoqda. Bu o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, shaxs erkinliklari va davlat suvereniteti o‘rtasidagi muvozanatni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Mulk huquqi endilikda nafaqat an’anaviy jismoniy obyektlarga, balki raqamli va virtual

[16] Financial Services Commission of *Korea, Regulatory Framework for Digital Assets and Intellectual Property,* 2023.
[17] China Academy of Information and Communications Technology (CAICT), *Development Report on Digital Economy and Regulatory Policies,* 2022.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

obyektlarga nisbatan ham tatbiq etilishi kerak. Xususan, raqamli mulkni davlat ro‘yxatiga olish va qonuniy himoya qilish, raqamli aktivlar bozorining barqarorligini ta’minlash, shuningdek, fuqarolarning raqamli iqtisodiyotdagi huquq va manfaatlarini kafolatlash borasida xalqaro tajriba asosida kompleks choralar ishlab chiqish zarur. Bu yo‘nalishda, O‘zbekiston qonunchiligida raqamli mulk huquqini konstitutsiyaviy himoya qilish mexanizmlarini joriy etish, raqamli iqtisodiyotning o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun zamonaviy va integratsiyalashgan normativ-huquqiy bazani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak bugungi kunda raqamlashtirish davri — bu nafaqat texnologik yangilanish, balki huquqiy tizimlarning ham tubdan o‘zgarishini talab qiladigan jarayonlardan biriga aylanmoqda. Mulk huquqi sohasida raqamli transformatsiyalar mulkning mazmuni, shakli va uni himoya qilish usullarini yangi bosqichga olib chiqmoqda shu sababdan bu soxada ko‘plab muammolar kundan-kunga ortib bormoqda. An’anaviy konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar bu o‘zgarishlarga yetarlicha javob bera olmayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, mulk huquqining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini zamonaviy raqamli davrga moslashtirish, uni yangi format va sharoitlarga moslab yangilash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli mulk tushunchasi kengayib, an’anaviy moddiy mulkdan tashqari intellektual va raqamli aktivlar ham mulk huquqi sohasi tasarufiga kirmoqda shunday ekan ularning qonun tomonidan himoya qilinishi va huquqlarini belgilanishi zarur masalalardan biridir. Raqamlashtirish sharoitida mulk ob’yektlari soni kengayishi o‘z navbatida, yangi huquqiy normativ bazani shakllantirishni, amaldagi huquq normalarini takomillashtirish va himoya qilish mexanizmlarini

yangilashni taqozo etmoqda. Shuningdek, raqamli mulk huquqining barqarorligini ta’minlash uchun davlat boshqaruvida yangi yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini bugungi kun talab darajasida yanada takomillashtirish zarur. Yuqorida keltirib o‘tilganlar mulkchilik huquqlarining himoyasini kuchaytirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, mamlakatimiz qonunchiligini raqamli davr talablariga moslashtirish orqali xalqaro standartlarga muvofiq, samarali va adolatli huquqiy tizim yaratish muhim ahamiyatga ega.

Shu boisdan quyidagi tavsiyalarni ham keltirib o‘tamiz.

- **Konstitutsiyaviy va qonuniy bazani modernizatsiya qilish:** Raqamli mulk tushunchasini aniq belgilashimiz, yangi mulk shakllarini qonunlarda aks ettirishimiz hamda mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni raqamlashtirish sharoitlariga moslashtirishimiz zarur. Bu orqali mulkchilik huquqining keng ko‘lamda himoyasi va uning raqamli iqtisodiyotda ishonchli faoliyatini ta’minlagan bo‘lamiz.

- **innovatsion texnologiyalarni huquqiy tizimga integratsiya qilish:** Blokcheyn, sun’iy intellekt, elektron notarial xizmatlar kabi zamonaviy texnologiyalar kundan-kunga rivojlanib bormoqda bu esa mulk huquqini ro‘yxatga olish, kuzatish, tranzaktsiyalarni amalga oshirish va nizolarni hal qilishda samaradorlikni oshiradi. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni qonuniy jihatdan qo‘llash hamda keng joriy etish uchun maxsus huquqiy mexanizmlar ishlab chiqishimiz lozim.

- **xud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning raqamli imkoniyatlarini kengaytirish:** Huquqni muhofaza qilish tizimida raqamli

vositalarni keng joriy qilish orqali mulk huquqini buzilishining oldini olish, tezkor va adolatli sud qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini joriy qilishimiz zarur. Bu maqsadda sudlar va boshqa organlar uchun mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash lozim.

- **xalqaro tajriba va standartlarni o‘zlashtirish:** Raqamli mulk huquqini tartibga solishda ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish hamda uni mamlakatimiz sharoitlariga moslashtirishimiz va joriy qilishimiz kerak. Shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash raqamli mulk huquqining samarali rivojlanishga poydevor yasash zarurdir. Bu esa kelajakda O‘zbekistonda ham chet el tajribalarini o‘zlashtirib o‘z qonunchilik modellarini yaratishga negiz bo‘lishi mumkin hamda mukammal qonunchilik modelini yaratishi mumkin.

- **axborot-kommunikatsiya platformalarini rivojlantirish: Bilamizki bugungi kunda axborot-texnologiya platfo**rmalari yangicha shaklda namoyon bo‘lmoqda bu esa fuqarolarning zamon bilan hamnafas bo‘lishiga undamoqda. Shunday ekan xar bir fuqaro o‘z bilim va savodxonliklarini muntazam ravishda oshirib, yangilab borishi lozim. Bundan tashqari agarda biz axborot-komunikatsiya platformalarini mutlaqo zamon talabiga mos qonunchilik asosida ishlaydigan platforma yaratsak hamda uni qonuniy ishlashini taminlasak bugungu kunda fuqarolar va biznes uchun qulay, xavfsiz va ishonchli raqamli platformalar yaratgan bo‘lamiz. Bu esa mulk huquqi bo‘yicha xizmatlarni yanada takomillashtirishi hamda barcha xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatish orqali huquqiy savodxonlikni oshirish va mulkchilik munosabatlarini yanada shaffof qilish mumkin.

- **huquqiy savodxonlik va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish: Raqamlashtirish davrida yashar ekanmiz aholining bu borada savodxonligini**

oshirib borish dolzarb hisoblanadi. Raqamli mulk huquqi va uning himoyasi bo‘yicha aholiga, biznes sub’ektlariga va huquqni qo‘llovchi organlarga doimiy ravishda ta’lim va targ‘ibot ishlarini olib borish, yangi qonunlar va mexanizmlarning mazmunini tushuntirish zarur. Bu esa kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan turli tushunmovchiliklar hamda muammolarning yuzaga kelishini oldini olgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Toshkent: Adolat nashriyoti.

2. U.S. Congress. *Crypto Regulation Overview – Congressional Research Service*, yangilangan 2023.

3. **European Commission.** *Digital Economy and Society Index Report*. Brussels: EU Publications, 2020.

4. World Bank. *The Role of Digital Government in Strengthening Property Rights*, 2021.

5. Financial Services Commission of Korea. *Guidelines on Virtual Assets and Crypto Regulations*, 2023.

6.China Academy of Information and Communications Technology (CAICT). *White Paper on Digital Economy Development in China*, 2022.

7.. **E-Estonia.** *e-Governance and Digital Society in Estonia*, 2023.

8. Ayupov, R.H. & Boltaboeva, G.R. (2025). *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Namangan: Namangan davlat universiteti.

9. Elliot, C. & Quinn, F. (2016). *Contract Law*. 12th ed. Harlow: Pearson Education Limited.

10. Mirzoev, A. (2022). “Raqamli mulk huquqining rivojlanishi: global va milliy kontekst.” *Huquqshunoslik ilmiy jurnal*, №4, 45–53.

11. Mutaharova, G. (2022). *Mulk huquqi va uning himoyasi: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: Yurist nashriyoti.

12. Samuelson, P. (2000). "Privacy as Intellectual Property?" *Stanford Law Review*, 52(5), 1125–1173.

13.**Tapscott, D. & Tapscott, A.** (2016). *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World*. Penguin Publishing.

14. Zubair, S. (2021). *Digital Property and Constitutional Law: Global Perspectives*. Cambridge: Cambridge University Press.

15. Gulyamov, S.S. “Raqamli huquq va mulk tushunchasining transformatsiyasi.” *Yuridik fanlar axborotnomasi*, 2022.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

RAQAMLI AXBOROT MAKONIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING HUQUQIY JIHATLARI

Komilov Asadbek Maxsudbek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri
E-mail: sozananews@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada raqamli axborot makonida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy jihatlari o‘rganiladi. Global raqamlashtirish jarayonlari OAV faoliyatini tubdan o‘zgartirib, axborot tarqatish tezligi, shakli va ta’sir doirasini kengaytirdi. Shu bilan birga, bu o‘zgarishlar OAV faoliyatining huquqiy asoslarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi va qator xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlil qilinib, raqamli axborot makonida so‘z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, yolg‘on axborot tarqatish va mualliflik huquqlari bilan bog‘liq muammolar yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, OAV faoliyatini raqamli davr talablari asosida tartibga soluvchi yondashuvlar ishlab chiqilishi lozimligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar*: raqamli media huquqi, ommaviy axborot vositalarining huquqiy maqomi, axborot xavfsizligi, raqamli erkinliklar, so‘z va ifoda erkinligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, internet-jurnalistika, yolg‘on axborotning huquqiy oqibatlari, xalqaro medialegislatsiya, O‘zbekiston axborot qonunchiligi.*

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СМИ В ЦИФРОВОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Комилов Асадбек Махсудбек ўғли
Студент Ташкентского государственного юридического университета E-mail: sozananews@gmail.com

Аннотация: *в данной статье рассматриваются правовые аспекты деятельности средств массовой информации в цифровом информационном*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

пространстве. Глобальные процессы цифровизации кардинально изменили деятельность СМИ, расширив скорость распространения информации, её формы и сферы влияния. Вместе с тем эти изменения требуют пересмотра правовых основ функционирования СМИ. В статье проводится анализ законодательства Республики Узбекистан и ряда зарубежных стран, освещаются проблемы, связанные со свободой слова, неприкосновенностью частной жизни, распространением недостоверной информации и авторскими правами в цифровой среде. По результатам исследования обоснована необходимость выработки новых подходов к правовому регулированию деятельности СМИ с учетом требований цифровой эпохи.

Ключевые слова: *право цифровых медиа, правовой статус средств массовой информации, информационная безопасность, цифровые свободы, свобода слова и выражения мнений, защита персональных данных, интернет-журналистика, правовые последствия распространения ложной информации, международное медиазаконодательство, информационное законодательство Узбекистана.*

LEGAL ASPECTS OF MEDIA ACTIVITIES IN THE DIGITAL INFORMATION SPACE

Komilov Asadbek Maxsudbek o‘g‘li
Student of Tashkent state universityof law
E-mail: sozananews@gmail.com

Abstract: *this article examines the legal aspects of mass media activities within the digital information space. The global digitalization process has fundamentally transformed the operations of mass media, significantly increasing the speed, form, and scope of information dissemination. At the same time, these*

changes necessitate a reevaluation of the legal foundations governing media activities. The article analyzes the legislation of the Republic of Uzbekistan and several foreign countries, highlighting key issues such as freedom of speech, privacy rights, the spread of disinformation, and copyright protection in the digital context. Based on the research findings, the article substantiates the need for developing regulatory approaches that align media operations with the requirements of the digital era.

***Keywords**: digital media law, legal status of mass media, information security, digital freedoms, freedom of speech and expression, protection of personal data, online journalism, legal implications of disinformation, international media legislation, information legislation of Uzbekistan.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Axborot zamonida jurnalist kasbining vazifasi ham, mohiyati ham o‘zgarib bormoqda. Bir paytlar jurnalist axborot tayyorlovchi, uzatuvchi va odamlarni voqif qiluvchi shaxs edi. Endi esa u jarayonlar sur’atiga ta’sir o‘tkazuvchi, jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajara boshladi.

Internet tarmog‘ining rivojlanishi va axborotning tezkor tarqalishi tufayli jurnalistning kichkina xatosi alohida bir shaxsning yoki butun boshli davlatning obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Katta nashrlarda e’lon qilingan noto‘g‘ri ma’lumotlar tufayli qimmatbaho qog‘ozlar bozorida narxlar tushishi, jurnalist tomonidan yetkazilgan noxolis axborot sabab begunoh insonlarning jazolanishi, afsuski, tez-tez uchrab turibdi. Endi axborot ham shunchaki axborot emas, balki kuchli bir qurolga aylandiki, axborot xuruji, axborot urushi kabi atamalar paydo bo‘ldi. Ushbu urushning asosiy askarlari esa jurnalistlar bo‘lib qoldilar.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

So‘z va fikr erkinligi jurnalist kasbining ajralmas bir qismidir. Hokimiyatning, muassislarning, u yoki bu guruhning manfaatlariga xizmat qilish, jamiyat manfaatlari va shaxsning konstitutsion huquqlariga zid borish jurnalist etikasining buzilishidir.

Jurnalist axborotning to‘g‘riligi, haqqoniyligi va ishonchliligiga mas’ul ekani hammaga ma’lum. Ammo nima uchundir zamonamiz media-maydonida “toza axborot”ni topish tobora murakkablashib bormoqda. Ba’zida tezkorlik, ba’zida shov-shuv va reyting ortidan quvish eng yomoni esa, ma’lum guruhlarning yoki shaxslarning manfaatini ko‘zlab, axborotni yaxshi tekshirmay yoki atayin buzib tarqatish, buning ortidan keladigan ijtimoiy, huquqiy, ruhiy-ma’naviy va boshqa oqibatlarni o‘ylamaslik hollari ko‘p uchramoqda.

Jurnalist insonning shaxsiy hayotiga daxl qilmasligi, uning sha’ni va obro‘siga putur yetkazmasligi, qonun bilan belgilangan huquqlardan foydalangan holda aynan shu qonun bilan zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni ham his qilishi, bir so‘z bilan aytganda, so‘zga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishi uning professionalizmini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Shunday sharoitda quyidagi savollar tug‘iladi?

1. Jamiyat va fuqarolar manfaatlari birlamchi! Jurnalist buni qanchalik anglayapti? Chiroyli gapirish, tez axborot yetkazish, shov-shuv ko‘tarish kabi tashvishlararo kasb etikasi masalasi chetda qolib ketmayaptimi? 2. Jurnalistning xato qilishga haqqi bormi? 3. Axborot maydonida kasb mas’uliyatining chegaralari qanday? 4. Jurnalistlar faoliyatini tartibga soluvchi axloq me’yorlari yetarlimi? 5. Jurnalistlar o‘z huquq va burchlarini qanchalik biladilar?

Shuningdek, blogerlar faoliyatini tartibga solish masalasi ham bor. Bloger o‘zi kim? O‘z fikrini turli saytlarda xabar deb tarqatadigan va odamlarni ishontirib,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

jamoatchilik fikrini boshqaradigan har qanday shaxs bloger deb atalaveradimi? Blogerning o‘zi tarqatayotgan axborotga nisbatan qanday mas’uliyati bor?

Internet olamida “jurnalist” tushunchasi qonunchilikda ta’riflanganidan ko‘ra kengroq ma’noda qo‘llanadi. Jurnalistlarga yaqin faoliyat bilan internetda blogerlar, “xalq jurnalistlari” va turli saytlarga kontent yozib beruvchilar, ijtimoiy tarmoqda o‘quvchilari ko‘p bo‘lgan shaxslar ham shug‘ullanadi. Ular axborot tarqatishning huquqiy asoslarini biladimi?

Maqolada shu masalalarga zamonaviy voqelikdan kelib chiqib, huquqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baho berish maqsad qilingan.

2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasining 69-moddasida fuqarolik jamiyati institutlari qaysi subyektlar ekani haqida keltirilgan [1]. Bosh qomusimizning yangilangan versiyasida ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari tizimiga kiritilishi, ular faoliyatining takomillashuviga va mas’uliyatining kuchayishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasi jurnalist tekshiruvi deb ataladi [2]. Unga ko‘ra, jurnalist axborot to‘plash va tekshiruv o‘tkazish huquqiga ega. Jurnalist o‘z tekshiruvlarining natijalarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishi, ularni davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarga ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin. Jurnalist tekshiruvi davrida u ko‘lga kiritan materiallar va hujjatlar olib qo‘yilishi yoki ko‘zdan kechirilishi mumkin emas.

Biroq, milliy qonunchiligimizda blogerlar ham xuddi jurnalistlar kabi tekshiruv olib bora olishini yoki blogerlar jurnalistlarga oid barcha huquqlardan foydalana olishini nazarda tutuvchi qoida mavjud emas. Bundan kelib chiqadiki,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ushbu qonunda nazarda tutilgan qoidalar blogerlarga taalluqli emas. Ammo bugungi axborotlashgan davrda blogerlar uchun ham qonun ishlab chiqilishi kerak yoki qabul qilinmay qolgan Axborot kodeksini [3] amalga tatbiq etish lozim. Shunday bo‘lsa-da, Konstitutsiyamizning 33-moddasiga muvofiq, har kim istalgan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. [4] Bunday normalar hatto xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (19-modda), [5] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” (19-modda) [6] hamda “Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risida”gi Yevopa Konvensiyasida (10-modda) [7] o‘z aksini topgan.

Shunday ekan, bloger ham o‘zi istagan axborotni izlashi, olishi, chuqur o‘rganishi va o‘rganish natijalarini ommaga e’lon qilishi mumkin. Faqat amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno [8]. Bunda u ham, jurnalist ham, jamiki OAV vakili va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonun normalariga [9] ham amal qilishi lozim.

Blogerlar o‘zlari tomonidan tarqatilgan noqonuniy axborot/ma’lumotlar, da’vatlar, haqorat va tuhmat yuzasidan boshqa barcha uchun belgilangan umumiy normalar asosida javobgarlikka tortiladi. Masalan, bila turib yolg‘on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatganlik uchun bloger O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 40-moddasiga (tuhmat) binoan eng kam ish haqining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanishi mumkin [10]. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda “tuhmat”(40-modda), “haqorat qilish”(41-modda), “fuqarolarga ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazuvchi ma’lumot tarqatish”(46-modda)ni nazarda tutuvchi ma’lumotlar uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Jinoyat kodeksida[11] esa “tuhmat” (139-modda), “haqorat qilish”(140-modda), “shaxsiy hayot daxlsizligini buzish”(141^1-modda), “urushni targ‘ib qilish”(150-modda), “milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni qo‘zg‘atish”(156-modda), “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz qilish”(158-modda), “konstitutsiyaviy tuzumga xavf soluvchi ma’lumotlar tarqatish”(159-modda), “davlat sirlarini oshkor qilish”(162-modda), “yolg‘on axborot tarqatish”(244^6-modda)ni ko‘zlovchi ma’lumotlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

“Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, jurnalist aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi shart [12]. Binobarin, jurnalist shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi zarur.

“Aybsizlik prezumpsiyasi” xalqaro yuridik termin hisoblanib, u qonunchiligimizda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi[13].

Bloger o‘z blogida faqat o‘zi tomonidan yig‘ilgan/tayyorlangan materiallarni, video va suratlarni e’lon qilishi, agar ular boshqalar tomonidan tayyorlangan bo‘lsa, muallifning ruxsatini olishi yoki manbasini aniq, ko‘rsatishi lozim. Mualliflik huquqini buzganlik (boshqa muallif materiallarini o‘z nomidan o‘ziniki sifatida e’lon qilganlik) uchun blogerlarga nisbatan fuqarolik tartibida da’vo qo‘zg‘atilishi hamda sud blogerga ushbu huquqni buzganlik oqibatida muallifga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklashi mumkin [14].

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Fuqarolik kodeksining 97- 100-, 1095- va 1097-moddalarida konfidensial axborotlar, tijorat siri, ishchanlik obro‘si yoki shaxsiy sirlarga putur yetkazuvchi axborotlarni tarqatishda cheklovlar mavjud [15]. Bunday axborotlar faqat shu axborot va unga tenglashtirilgan manbalarga huquqi bo‘lganlarning ruxsati bilangina e’lon qilish mumkinligi belgilangan. Basharti, fuqaroning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Basharti, bunday ma’lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak. Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi. O‘zining sha’ni, qadr-qimmati yeki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma’lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma’naviy ziyonning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir (1021-, 1022-moddalar) [16]. Ushbu moddadagi fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qoida yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo‘sinda tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, 2020-yil 5-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF–6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon mamlakatda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [17]. Ushbu strategiya doirasida ommaviy axborot vositalari faoliyatini raqamli axborot makoniga moslashtirish, ularning erkinligini ta'minlash, shuningdek, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish borasida ham dolzarb vazifalar belgilab qo‘yilgan. Farmonda belgilanganidek,

davlat organlari faoliyatini ochiq va shaffof yuritish, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda OAVning zamonaviy raqamli platformalardagi ishtirokini kuchaytirish maqsad qilingan. Bu esa, raqamli axborot makonida OAV faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida OAV faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, jurnalistlarning raqamli savodxonligini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash kabi yo‘nalishlarda ham chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

OAV uchun muhim jihatlardan biri – farmonda ochiq ma'lumotlar portallarining rivojlantirilishi va davlat axborot tizimlarining integratsiyasi orqali jurnalistlar va tahlilchilar uchun ishonchli axborot manbalarining kengaytirilishi hisoblanadi. Shu bilan birga, OAVning internet platformalaridagi faoliyati uchun yuridik kafolatlar mustahkamlanmoqda, bu esa ularning mustaqil va erkin faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

“Chegara bilmas muxbirlar” (RSF) tashkilotining 2025 yilgi hisobotida 180 ta mamlakatdagi ommaviy axborot vositalarining holati beshta mezon asosida baholangandi [18]. Ulardan biri aynan huquqiy baza va qonunchilikning amalga tatbiq qilinishi edi. Ushbu davlatlarning 160 tasida OAV barqaror faoliyat yurita olmayapti yoki faqat juda qiyin sharoitda faoliyat yuritmoqda. Qariyb uchdan bir mamlakatda tahririyatlar iqtisodiy sabablar bilan yopilgan, ko‘p hollarda bunga rasmiy bosim sabab bo‘lgan. 46 davlatda OAV faqat bir necha boy shaxslar tomonidan nazorat qilinadi. Rossiya ham shular qatorida tilga olingan. O‘zbekiston ketma-ket ikkinchi yil 148-pog‘onada qolmoqda. Biroq ahvol 2024 yilga nisbatan yomonlashgan. Chunki o‘tgan yili O‘zbekiston OAV erkinligiga 37,27 ball berilgan bo‘lsa, bu yil 35,24 ball berilgan. Ommaviy axborot vositalarining

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

faoliyati yaxshi olib borilishi uchun qonunlar ishlashi kerak, yangi ishlab chiqarilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar esa ularni “bo‘g‘ib qo‘ymasligi kerak”.

2025-yilning 7-may kuni Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tomonidan O‘zbekistonda media sohasini tartibga soluvchi yangi qonun loyihasi ishlab chiqildi [19]. Loyiha ham qonunchilikni liberallashtirishi, ham “tartibga solishdagi mavjud bo‘shliqlar”ni bartaraf etishi aytilmoqda. Veb-sayt egalari uchun O‘zbekistonda faoliyat yuritish shartlari belgilanadi. Qonunchilikka “inflyuyenser” tushunchasini kiritib, oddiy blogerlarga kamroq, inflyuyenser darajasiga chiqqanlarga esa ko‘proq mas’uliyat yuklash taklif etilmoqda. Loyihaning maqsadi – fuqarolarning onlayn platformalar va veb-saytlardan foydalanish sohasidagi huquqlarini qonun darajasida belgilash, ularni yolg‘on axborot, nafrat uyg‘otuvchi, zo‘ravonlik va shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi noqonuniy kontentlardan himoya qilishdan iborat. Unda onlayn platformalar sohasidagi amaldagi qonunchilik sezilarli liberallashtirilib, tartibga solishdagi mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan qator normalar nazarda tutilgan. Qonun loyihasida inflyuyenser va blogerlarning mas’uliyati ajratilib, blogerlar majburiyatlari sezilarli yengillashtirilmoqda.

Qonun loyihasidagi normalarning qabul qilinishi onlayn platformalar foydalanuvchilarining huquqlarini qonun darajasida mustahkamlash, internet tarmog‘ida axborot tarqatish tartiblari borasida huquqiy aniqlik va izchillikni ta’minlash, onlayn platformalar va veb-sayt egalari uchun O‘zbekistonda faoliyat yuritishning aniq shartlarini belgilash, ularning biznes modellari uchun shart-sharoitlarni aniq prognozlash imkoniyatini yaratish, axborot sohasi ishtirokchilari, jumladan, onlayn platformalar, blogerlar, inflyuyenserlar hamda sohani tartibga soluvchi davlat organlari o‘rtasida o‘zaro muloqot va konstruktiv hamkorlik uchun

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

huquqiy asoslarni takomillashtirish, internetdan foydalanish xavfsizligi darajasini oshirish, bolalar sog‘ligiga xavf soluvchi axborotlardan himoya qilish bo‘yicha aniq mexanizmlarni yaratish, foydalanuvchilar o‘z sha’n va qadr-qimmatini kamsituvchi ma’lumotlardan himoyalanish borasida huquqiy kafolatlarga va zarur hollarda vakolatli organning ko‘magidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Axborot tarqatayotganda mas’uliyat, uni iste’mol qilayotganda esa, axborot savodxonligi zarurligini har bir shaxs anglashi kerak. Birgina misol, butun jamiyatni larzaga solgan kattaqo‘rg‘onlik ayol voqeasida taniqli blogerlar tomonidan ayolning farzandlari suratlari tarmoqqa yuklandi. Bu bilan bola huquqlari, shaxsiy daxlsizlik, voyaga yetmaganlarga oid axborotni tarqatish kabi bir nechta me’yorlar buzildi. Yaxshiki, vaqtida hushyorlik ko‘rsatilib, suratlar olib tashlandi. Ammo bunga o‘xshash vaziyat takrorlanmasligiga kafolat bormi? Yoki ijtimoiy tarmoq orqali turli sanksiyalanmagan tadbirlarga, ommaviy tartibsizlikka sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan yig‘ilishlarga da’vat qilinishi, bunday tadbirlarni o‘tkazishning belgilab qo‘yilgan qoidalarini bilmasdan, har xil chaqiriqlar bilan chiqish holatlarini qanday baholash mumkin? Bu yerda mas’uliyat, javobgarlik kimda bo‘ladi? Hozirda bizning qonunlarimizda ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy tarzda noqonuniy xatti-harakatlarga chaqiriqlar e’lon qilganlik uchun alohida javobgarlik belgilanmagan.

Solishtirish uchun jahon tajribasiga murojaat etaylik. Koreya, Xitoy, Rossiya, Belarus Ukraina, Armaniston, Avstriya, Fransiya, Germaniya, Shvesiya kabi davlatlarda ommaviy tartibsizlikka, qonunga bo‘ysunmaslikka, sanksiyalanmagan ommaviy tadbirlarga chaqirish va ularni uyushtirish, jamoat xavfsizligiga xavf soluvchi da’vatlar aks etgan materiallarni tayyorlash va tarqatish uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Masalan, Germaniyada

qonunga qarshi ishlarni sodir etishga chorlovchi bosma materiallarni tarqatganlik uchun 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki katta jarimalar belgilangan [20]. Xitoyda ommani qonunlar va huquqiy hujjatlarda aks etgan me'yorlarga bo'ysunmaslikka chaqirganlik uchun 3 yilgacha qamoq jazosi belgilangan [21].

O'zbekiston qonunchiligida bunday me'yorlar yo'q. Ammo bu ijtimoiy tarmoqlar orqali istalgan da'vatni qilish mumkin, buning uchun javobgarlikka tortilmaydi, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Bizda ijtimoiy tarmoq yoki OAV orqali ommaviy tartibsizliklar, qonunga bo'ysun maslikka chaqiruvlar uchun alohida javobgarlik belgilanmagan bo'lsa-da, bunday holatlar umumiy tartibda ko'rib chiqiladi hamda tegishli tarzda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan har bir shaxs - u jurnalist bo'ladimi, blogermi yo shunchaki oddiy foydalanuvchi o'ziga yarasha axloqiy va qonuniy me'yorlarni bilishi, ularga amal qilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Ushbu tadqiqotda raqamli axborot makonida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Avvalo, normativ-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi axborot sohasi bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari, xususan, O'zbekiston Konstitutsiyasi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun [22], "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonun [23], "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun [24], "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"gi qonun [25], "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun [26], "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun [27], "Jurnalistlik

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun [28] hamda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Fuqarolik kodeksi, shu bilan bir qatorda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni o‘rganildi. Shuningdek, bir qator xorijiy davlatlar – Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Xitoy va Rossiya, qolaversa AQSh kabi mamlakatlarning media qonunchilik tajribalari solishtirma-huquqiy tahlil asosida ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda doktrinal yondashuv (ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish) asosida yetakchi huquqshunos olimlarning maqolalari, xalqaro tashkilotlarning (UNESCO, Freedom House, Reporters Without Borders) hisobotlari va media erkinligiga oid reytinglari o‘rganildi. Bundan tashqari, kontent-tahlil usuli orqali raqamli OAVda tarqatilayotgan axborotlar, xususan yolg‘on ma’lumotlar va ularning huquqiy oqibatlari bilan bog‘liq holatlar o‘rganildi. Mazkur metodologik yondashuvlar orqali raqamli muhitda OAV faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishdagi mavjud muammolar aniqlanib, ular bo‘yicha tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION)

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, blogerlar va yangi media subyektlarining hamda turli xil media kanallarining huquqiy maqomi aniq belgilanmagan bo‘lsa-da, amaliyotda ular OAVga tenglashtirilmagan holda faoliyat yuritmoqda. Bu esa ayrim holatlarda ular uchun huquqiy noaniqliklar keltirib chiqarmoqda.Raqamli axborot makonida OAV faoliyatini tartibga solishda mavjud qonunchilikning asosiy afzalligi – bu axborot olish va tarqatish erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlar asosida mustahkamlanganidir. Amaldagi qonunlar orqali an’anaviy

ommaviy axborot vositalari uchun huquqiy asoslar belgilangan bo‘lsa-da, yangi raqamli platformalardagi media subyektlarining huquqiy maqomi hali to‘liq yoritilmagan. O‘zbekiston hukumati tomonidan ochiq ma’lumotlar portalining ishga tushirilishi, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish, elektron axborot resurslariga kirishni soddalashtirish kabi tashabbuslar OAV uchun axborotga ochiq muhit yaratmoqda. Bu ijobiy holat raqamli jurnalistikani rivojlantirish uchun zamin yaratmoqda. Biroq, shunga qaramay, raqamli axborot muhitida soxta axborot, kiberjinoyatlar va shaxsiy ma’lumotlar buzilishi kabi xavf-xatarlarning ortib borayotgani bu sohada kiberxavfsizlik va axborot etikasini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, raqamli axborot makonida OAVning qonuniy himoyasi bilan bog‘liq amaliyotda ayrim muammolar mavjud. Masalan, ayrim hollarda jurnalistlarning axborotga kirish huquqlari amaldagi qonunchilikka qaramay, to‘sqinliklarga uchrashi holatlari qayd etilgan. Umuman olganda, O‘zbekistonda raqamli axborot makonida OAV faoliyatining huquqiy asoslari mavjud bo‘lib, ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, ayniqsa raqamli media subyektlarini aniq huquqiy maqomga ega qilish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari izchil takomillashtirilmoqda. Bu borada so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida” kabi qonunlar OAVning huquqiy maqomini belgilab berish va ularning erkin faoliyatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga qaramay, zamonaviy raqamli axborot makonining jadal rivojlanishi mavjud qonunchilikni xalqaro standartlar darajasiga moslashtirish, ayniqsa internet-jurnalistika va yangi media subyektlarining maqomini huquqiy jihatdan aniq belgilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jurnalistlarning kasbiy faoliyati davomida axborotga bo‘lgan erkin kirish huquqini kafolatlash, davlat organlari faoliyatining ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolarning axborotdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish – demokratik islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, yuqoridagi vazifalarni izchil hal qilish fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini ta’minlash va axborot erkinligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘ladi. Shu boisdan, O‘zbekistonda raqamli axborot makonida OAV faoliyatini huquqiy jihatdan zamonaviylashtirish, real mexanizmlarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos keluvchi yondashuvni shakllantirish strategik dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. https://lex.uz/docs/-6445145.

2. “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 24.04.1997-yildagi 402-I-son URL: https://lex.uz/docs/-9540.

3. Axborot kodeksi loyihasi:Jamoatchilik nimadan norozi? Gazeta.uz, 2022-yil 28-dekabr URL: https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/28/codex/.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. https://lex.uz/docs/-6445145.

5. Universal Declaration of Human Rights, General Assembly resolution 217 A - III, Paris, 10.12.1948 URL: https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights.

6. Международный пакт о гражданских и политических правах, 2200 A (XXI), 16.12.1966.

7. European Convention on Human Rights and Fundamental Freedoms, 4.11.1950, General Assembly of the United Nations, URL: https://d3n8a8pro7vhmx.cloudfront.net/medium/pages/79/attachments/original/1516353578/Convention_ENG.pdf?1516353578.

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. https://lex.uz/docs/-6445145.

9. “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 27.12.2024 yildagi O‘RQ-1016-son, URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-7282637.

10. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, URL: https://lex.uz/docs/-97664.

11. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, URL: https://lex.uz/docs/-111453.

12. “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 24.04.1997-yildagi 402-I-son URL: https://lex.uz/docs/-9540.

13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. https://lex.uz/docs/-6445145.

14. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, URL: https://lex.uz/docs/-180552.

15. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, URL: https://lex.uz/docs/-180552.

16. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, URL: https://lex.uz/docs/-180552.

17. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 5.10.2022-yildagi PF–6079-sonli, URL: https://lex.uz/ru/docs/-5030957.

18. RSF World Press Freedom Index 2025: economic fragility a leading threat to press freedom, May 2025. URL: https://rsf.org/en/rsf-world-press-freedom-index-2025-economic-fragility-leading-threat-press-freedom?year=2025&data_type=general.

19. Blogerlarning majburiyatlari yengillashtirilmoqda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovasion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi, 7.05.2025-yil.

20. German Criminal Code (Strafgesetzbuch – StGB), 2022, URL: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html.

21. Criminal Law of the People's Republic of China - CECC.gov, 1.07.1979, URL: https://www.cecc.gov/resources/legal-provisions/criminal-law-of-the-peoples-republic-of-china.

22. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 15.01.2007 yildagi O‘RQ-78-son, URL: https://lex.uz/docs/-1106870.

23. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son, URL: https://lex.uz/docs/-52268.

24. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 02.07.2019 yildagi O‘RQ-547-son, URL: https://lex.uz/docs/-4396419.

25. “Axborot olish erkinligi va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 24.04.1997 yildagi 400-I-son, https://lex.uz/docs/-1319.

26. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 11.12.2003 yildagi 560-II-son, https://lex.uz/docs/-83472.

27. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 20.07.2006 yildagi O‘RQ-42-son, https://lex.uz/ru/docs/-1022944.

28. “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni 24.04.1997-yildagi 402-I-son URL: https://lex.uz/docs/-9540.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ИҚТИСОДИЙ СУДЛАРДА ҲАКАМЛИК СУДИНИНГ ҲАЛ ҚИЛУВ ҚАРОРЛАРИ ЮЗАСИДАН НИЗОЛАШИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Давронов Сардор Отабек ўғли
Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби тингловчиси

Аннотация: *ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида иқтисодий судларда ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорлари юзасидан низолашишнинг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган. Мақолада ҳакамлик судининг ҳал қилув қарори низоларни ҳал этишнинг муқобил усули сифатидаги аҳамияти, унинг тарафлар ихтиёрийлиги асосида қабул қилиниши ва қонуний кучга киргандан сўнг тарафлар учун мажбурий тус олиши ёритиб берилган.*

Шунингдек, ҳакамлик муҳокамаси иштирокчисининг мазкур қарорларга нисбатан норозилик билдириш ҳуқуқини амалга оширишнинг процессуал тартиблари ва муддатлари батафсил ўрганилган. Мақола ҳакамлик муҳокамасининг мустақиллигини таъминлаш ва қабул қилинган қарорларнинг қонунийлиги устидан назоратини амалга ошириш ўртасидаги мувозанатни илмий-амалий жиҳатдан асослайди.

Калит сўзлар: *ҳакамлик суди, ҳакамлик қарори, низолашиш, иқтисодий суд, процессуал тартиб, низоларни ҳал этиш, бекор қилиш асослари, ҳуқуқий назорат.*

ОСОБЕННОСТИ ОСПАРИВАНИЯ РЕШЕНИЙ ТРЕТЕЙСКОГО СУДА В ХОЗЯЙСТВЕННЫХ СУДАХ

Давронов Сардор Отабек угли
Слушатель Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан

Аннотация*: в статье анализируются особенности рассмотрения споров по решениям третейских судов в хозяйственных судах Республики*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Узбекистан. В статье подчеркивается значение решения третейского суда как альтернативного способа разрешения споров, его принятие на основе усмотрения сторон и его обязательность для сторон после вступления в законную силу.

Также подробно изучены процессуальные процедуры и сроки реализации права участника арбитража на обжалование указанных решений. В статье научно и практически обоснован баланс между обеспечением независимости арбитражного разбирательства и осуществлением контроля за законностью принимаемых решений.

Ключевые слова: *третейский суд, третейский решение, спор, хозяйственный суд, процессуальный порядок, разрешение спора, основания отмены, правовой контроль.*

SPECIFIC ASPECTS OF DISPUTES OVER REFEREE'S COURT AWARDS IN ECONOMIC COURTS

Davronov Sardor Otabek ugli
Student of the Higher School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *this article analyzes the specific aspects of disputes over referee's court awards in economic courts in the Republic of Uzbekistan. The article highlights the importance of the refere's court award as an alternative method of resolving disputes, its adoption on the basis of the parties' voluntariness and its binding nature for the parties after it enters into legal force.*

Also, the procedural procedures and terms for exercising the right of a participant in the arbitration proceedings to object to these awards are studied in detail. The article scientifically and practically substantiates the balance between

ensuring the independence of the arbitration proceedings and exercising control over the legality of the decisions made.

Key words: *referee's court, arbitration decision, dispute, economic court, procedural order, dispute resolution, grounds for annulment, legal control.*

Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарори моҳиятан низони ҳал қилишнинг муқобил усули сифатида тарафларнинг ихтиёрий розилиги асосида қабул қилинадиган якуний ҳужжат ҳисобланади. Қонуний кучга кирган бундай қарор тарафлар учун мажбурий бўлиб, улар томонидан ихтиёрий равишда ижро этилиши лозим.

Аммо, ҳакамлик суди ҳал қилув қарорига нисбатан норозилик билдирган тараф, қонунда белгиланган асосларга кўра, уни бекор қилиш тўғрисида иқтисодий судга ариза бериши мумкин.

Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарори юзасидан низолашиш - бу ҳакамлик муҳокамаси иштирокчисининг ҳакамлик ҳал қилув қарорининг қонунийлиги ва асослантирилганлигига нисбатан эътирозларини билдириш ҳуқуқини амалга ошириш бўйича процессуал ҳаракатларидир. Бу жараён, бир томондан, ҳакамлик муҳокамасининг мустақиллигини таъминласа, иккинчи томондан ҳакамлик қарорларининг қонунийлигини назорат қилиш механизмини яратади.

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси (бундан буён матнда ИПК деб юритилади)нинг 28-моддасида ҳакамлик муҳокамаси билан боғлиқ ишлар жумласига кирадиган ишлар санаб ўтилган бўлиб, унга кўра:

1) даъвони таъминлаш юзасидан чоралар кўриш тўғрисидаги аризалар бўйича ишлар;

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

2) ҳакамлик судларининг ҳал қилув қарорлари юзасидан низолашиш ҳақидаги аризалар бўйича ишлар;

3) ҳакамлик судларининг ҳал қилув қарорларини мажбурий ижро этиш учун ижро варақалари бериш тўғрисидаги аризалар бўйича ишлар ҳакамлик муҳокамаси билан боғлиқ ишлар жумласига киради.

Иқтисодий судда ҳакамлик судининг ҳал қилув қарори юзасидан низолашиш - бу ҳакамлик муҳокамаси иштирокчисининг ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш усулидир. Низолашиш тартиби ва муддатлари қонун билан қатъий белгиланган бўлиб, уларга риоя қилиш тарафлар учун мажбурийдир. Суд аризани кўриб чиқиш натижалари бўйича ажрим чиқаради, бу ажрим устидан қонунда белгиланган тартибда шикоят қилиниши мумкин. Ҳакамлик суди ҳал қилув қарорини бекор қилиш ёки уни ўз кучида қолдириш суднинг ваколатига киради ва бу ажрим тарафлар учун муайян ҳуқуқий оқибатларни келтириб чиқаради.

Агар иқтисодий суд ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини бекор қилса, бу қарор қонуний кучини йўқотади. Бундай ҳолда, тарафлар низони қайта кўриб чиқиш учун ҳакамлик судига ёки судга мурожаат қилишлари мумкин. Қайта кўриб чиқиш тартиби тарафларнинг келишувига ёки қонунчиликка мувофиқ белгиланади. Агар суд аризани рад қилса ва ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини ўз кучида қолдирса, бу қарор қонуний кучини сақлаб қолади ва тарафлар учун мажбурий бўлади. Бундай қарор ваколатли суднинг ижро варақаси асосида мажбурий тартибда ижро этилиши мумкин.

ИПКнинг 28-бобида ҳакамлик судининг ҳал қилув қарори юзасидан низолашиш тўғрисидаги ишларни юритиш тартиби белгиланган.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ҳакамлик муҳокамаси тарафи ҳакамлик судининг иқтисодий судга тааллуқли низога доир ҳал қилув қарори юзасидан ушбу қарорни олган кундан эътиборан ўттиз кун ичида иқтисодий судга ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини бекор қилиш ҳақида ариза бериш йўли билан низолашиши мумкин.

Ҳакамлик судининг иқтисодий судга тааллуқли низога доир ҳал қилув қарори юзасидан ҳуқуқлари ва мажбуриятлари ҳақида ҳакамлик суди ҳал қилув қарорини қабул қилган, ишда иштирок этишга жалб қилинмаган шахслар ҳам низолашиши мумкин.

Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини бекор қилиш тўғрисида ариза берилганлиги низо бўйича иш юритиш иқтисодий суд томонидан тугаллангунига қадар ҳакамлик суди ҳал қилув қарорининг ижроси бўйича иш юритишни тўхтатиб туради.

Amaldagi qonunchilik doirasida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha davlat nazorati belgilangan bo‘lsa-da, uning yanada samarali amalga oshirilishi uchun quyidagilar taklif etilinishi mumkin:

- **Qonunchilik monitoringini kuchaytirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga oid milliy normativ-huquqiy hujjatlarning xalqaro standartlarga, jumladan, Yevropa Ittifoqining **Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR)** talablariga muvofiqligini doimiy baholash va takomillashtirish mexanizmini joriy etish
- **Tekshiruv mexanizmlarini institutsionallashtirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlovchi subyektlarning axborot xavfsizligi siyosati va maxfiylik standartlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida reja asosida profilaktik tekshiruvlarni tashkil etish.
- **Huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy yig‘ish, qayta ishlash yoki uchinchi shaxslarga uzatish bilan bog‘liq qonunbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik choralarini, jumladan, yirik miqdordagi jarimalar va ma’lumotlarni qayta ishlash faoliyatini cheklash kabi sanksiyalarni kuchaytirish.

2. Ma’lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash talablarini huquqiy jihatdan reglamentatsiya qilish

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlari mamlakat hududida joylashgan serverlarda saqlanishi shartligi bo‘yicha normativ talablarni aniqlashtirish va takomillashtirish zarur. Bunda quyidagilar nazarda tutilishi lozim:

- **Transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvi tartibini aniqlash:** Xorijiy yuridik shaxslarning O‘zbekiston fuqarolariga tegishli ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash majburiyatlarini milliy qonunchilik asosida huquqiy tartibga solish.
- **Mahalliy server infratuzilmasini rivojlantirishga oid majburiyatlarni belgilash:** Elektron tijorat subyektlari uchun ma’lumotlarni lokal serverlarda saqlash shartini bosqichma-bosqich joriy etish va ushbu infratuzilmani yaratish uchun huquqiy rag‘batlantirish choralarini ishlab chiqish.

3. Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun rozilik berish tartibini reglamentlash

Ma’lumotlarni qayta ishlashda shaxslarning roziligini olish bo‘yicha aniq huquqiy me’yorlarni belgilash zarur, jumladan:

- **Rozilik berish tartibini soddalashtirish va shaffoflashtirish:** Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash bo‘yicha rozilik shakllarini foydalanuvchilarga tushunarli va yuridik jihatdan asoslantirilgan shaklda taqdim etish.
- **Maxsus rozilik kategoriyalarini joriy etish:** Ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadiga qarab, foydalanuvchilardan aniq yo‘nalishlar bo‘yicha alohida rozilik olish tizimini qonunchilikda mustahkamlash.

4. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Respublikasining shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga oid qonunchiligini xalqaro tajribaga, ayniqsa GDPR talablariga muvofiqlashtirish uchun quyidagi huquqiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish lozim:

- **Ma’lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asoslarini kengaytirish:** GDPR talablari asosida shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash uchun rozilikdan tashqari boshqa huquqiy asoslarni, jumladan, qonuniy manfaat, jamoat ehtiyojlari yoki shartnoma majburiyatlari asosida qayta ishlash imkoniyatini qonuniylashtirish.
- **Foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlariga oid huquqlarini kengaytirish:** Ma’lumotlar subyektlariga o‘z shaxsiy ma’lumotlarini o‘chirib tashlash (right to be forgotten) yoki boshqa ma’lumotlar operatoriga o‘tkazish (data portability) imkoniyatini ta’minlovchi normalarni qonunchilikka kiritish.
- **Huquqbuzarliklar uchun sanksiyalar tizimini kuchaytirish:** Ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlash yoki maxfiylik qoidalariga rioya qilmaslik uchun kompaniyalarga nisbatan sezilarli miqdordagi jarimalar va ma’muriy choralar ko‘rish mexanizmini ishlab chiqish.

5. Elektron tijorat platformalarida kiberxavfsizlikni kuchaytirish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni joriy etish

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq kiberxavfsizlik choralarini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- **Axborot xavfsizligi bo‘yicha majburiy choralarni belgilash:** Elektron tijorat platformalarida shaxsiy ma’lumotlarni shifrlash, ikki bosqichli autentifikatsiya tizimlarini joriy etish va ma’lumotlar buzilishining oldini olish uchun himoya mexanizmlarini qonuniy ravishda majburiy etib belgilash.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- **Ma’lumotlar buzilishi holatlari bo‘yicha xabar berish majburiyatini joriy qilish:** Agar shaxsiy ma’lumotlar bilan bog‘liq xavfsizlik buzilishi holati yuz bersa, kompaniyalar ushbu holat haqida davlat organlari va jabrlanuvchilarga ma’lum qilishga majbur bo‘lishi kerak.
- **Axborot xavfsizligi bo‘yicha muntazam audit tizimini yo‘lga qo‘yish:** Ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilik talablariga muvofiqlikni baholash maqsadida yirik elektron tijorat subyektlari uchun yillik mustaqil audit o‘tkazish majburiyatini joriy etish.

XULOSA

Umumiy olganda, ushbu tadqiqot davomida elektron tijorat sohasida shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish masalalari batafsil tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda xalqaro standartlar, xususan, Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti bilan taqqoslash orqali mamlakatimiz qonunchiligidagi mavjud kamchiliklar va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohasida normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, uning samarali amalga oshirilishi va xalqaro standartlarga to‘liq moslashuvi uchun hali bir qator muhim o‘zgarishlar zarur. Xususan, ma’lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash tartibini aniq va qat’iy belgilash, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashda rozilik berish mexanizmlarini soddalashtirish va shaffoflashtirish, hamda kiberxavfsizlik choralarini huquqiy jihatdan mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, davlat organlarining nazorat funksiyalarini kengaytirish, qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda elektron tijorat

platformalarida maxfiylik va xavfsizlik standartlarini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishdagi takomillashtirishlar nafaqat iste’molchilar huquqlarini himoya qiladi, balki elektron tijorat subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, elektron tijoratda shaxsga doir ma’lumotlarni huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish va fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini ishonchli himoya qilishda muhim omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. (2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547-son).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021-yil 15-mart, O‘RQ-669-son).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni. (2003-yil 11-dekabr, O‘RQ-560-son, oxirgi o‘zgartirishlar bilan).
4. General Data Protection Regulation (GDPR) – Yevropa Ittifoqining umumiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi reglamenti. (2018-yil 25-may).
5. California Consumer Privacy Act (CCPA) – Kaliforniya iste’molchilarining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni. (2018-yil 28-iyun).
6. Kuner, C. (2013). Transborder Data Flows and Data Privacy Law. Oxford University Press.

7. Bygrave, L. A. (2014). Data Privacy Law: An International Perspective. Oxford University Press.

8. Greenleaf, G. (2014). Asian Data Privacy Laws: Trade and Human Rights Perspectives. Oxford University Press.

9. Schwartz, P. M., & Solove, D. J. (2011). The PII Problem: Privacy and a New Concept of Personally Identifiable Information. New York University Law Review, 86(6), 1814–1894.

10. Svantesson, D. J. B. (2013). Extraterritoriality in Data Privacy Law. Ex Tuto Publishing.

11. Tene, O., & Polonetsky, J. (2012). Privacy in the Age of Big Data: A Time for Big Decisions. Stanford Law Review Online, 64, 63–69.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN MUNOSABATLAR ISTE'MOLCHILARI VA ULAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Otamirzayeva Laylo Tohir qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Annotatsiya: *ushbu maqola sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar doirasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasini o'rganadi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi, algoritmik diskriminatsiya, shaffoflik va javobgarlik kabi huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Maqolada Yevropa Ittifoqining "AI Act", normativ hujjatlar tahlil qilinib, ularning sun'iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab tartibga solish, shaffoflikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvlar sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan birga, iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.*

Kalit sozlar: *sun'iy intellekt, onlayn munosabatlar, iste'molchi huquqlari, shaffoflik, ma'lumotlarni himoya qilish, biometrik identifikatsiya, axborot madaniyati, axborot xavfsizligi.*

ПОТРЕБИТЕЛИ ОНЛАЙН-ОТНОШЕНИЙ С УЧАСТИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЗАЩИТА ИХ ПРАВ

Отамирзаева Лейла Тохир кизи
Магистр Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в статье рассматривается проблема защиты прав потребителей в рамках интернет-отношений с участием искусственного интеллекта. Широкое использование технологий искусственного интеллекта поднимает такие правовые вопросы, как конфиденциальность персональных данных, алгоритмическая дискриминация, прозрачность и*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

подотчетность. В статье анализируется «Закон об искусственном интеллекте» и нормативные документы Европейского союза, рассматриваются их подходы к регулированию систем искусственного интеллекта с учетом риска, обеспечения прозрачности и защиты прав человека. Эти подходы будут способствовать развитию технологий искусственного интеллекта, одновременно защищая права и интересы потребителей.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, онлайн-отношения, права потребителей, прозрачность, защита данных, биометрическая идентификация, информационная культура, информационная безопасность.*

CONSUMERS OF ONLINE RELATIONS WITH THE PARTICIPATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND PROTECTION OF THEIR RIGHTS

Otamirzayeva Laylo Tohir kizi
Master's student of Tashkent State Law University

Abstract: *this article examines the issue of protecting consumers' rights within the framework of online relationships with the participation of artificial intelligence. The widespread use of artificial intelligence technologies raises legal issues such as the confidentiality of personal data, algorithmic discrimination, transparency and liability. The article analyzes the European Union's "AI Act", regulatory documents, and considers their approaches to regulating artificial intelligence systems based on the level of risk, ensuring transparency and protecting human rights. These approaches, while supporting the development of artificial intelligence technologies, serve to protect the rights and interests of consumers.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Keywords: *artificial intelligence, online relationships, consumer rights, transparency, data protection, biometric identification, information culture, information security.*

Kirish

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, sun’iy intellekt kundalik hayotning deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda. Onlayn savdo, xizmat ko‘rsatish, moliya, tibbiyot, ta’lim va hatto huquqiy tizimlarda sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, internet orqali amalga oshirilayotgan munosabatlarda sun’iy intellektning ishtiroki ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish zaruratini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Sun’iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar deganda, insonlar va sun’iy intellekt tizimlari o‘rtasida yoki sun’iy intellekt vositasida amalga oshiriladigan raqamli muloqot va hamkorlik tushuniladi. Bu munosabatlar sun’iy intellektning insonlar o‘rtasidagi muloqotni boshqarishi, o‘zgartirishi yoki yaratishi orqali yuzaga keladi. Masalan, sun’iy intellekt tizimi foydalanuvchi nomidan xabarlar yuborishi yoki javoblar tayyorlashi mumkin. Foydalanuvchilar sun’iy intellekt tizimlari bilan bevosita muloqotda bo‘lishadi. Bu chat-botlar, virtual yordamchilar yoki boshqa sun’iy intellekt tizimlari orqali amalga oshiriladi. Sun’iy intellekt foydalanuvchilarning onlayn kontentini tahrirlaydi yoki yaxshilaydi. Masalan, matnlarni grammatik jihatdan to‘g‘rilash, rasm va videolarga filtrlar qo‘shish yoki avtomatik tarjima qilish kabi funksiyalar. Sun’iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari bilan bir qatorda, ularning noto‘g‘ri ishlashi yoki adolatsiz qarorlar qabul qilishi inson huquqlariga putur yetkazishi mumkin. Masalan, onlayn xaridlar paytida sun’iy intellekt algoritmlarining noto‘g‘ri tavsiyalari, diskriminatsion narx belgilash amaliyotlari

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

yoki shaxsiy ma’lumotlarning himoyasizligi iste’molchilar manfaatlariga zarar yetkazishi ehtimoli mavjud. Mazkur maqolada sun’iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar kontekstida iste’molchilarning huquqlari qanday xavf ostida qolayotgani, mavjud yuridik mexanizmlar va xalqaro tajribalar asosida bu huquqlarni qanday himoya qilish mumkinligi o‘rganiladi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining javobgarlik va shaffoflik tamoyillari asosida ishlashini ta’minlovchi normativ-huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Ushbu jarayonlarda sun’iy intellektning faol ishtiroki, ayniqsa generativ sun’iy intellekt tizimlarining paydo bo‘lishi bilan iste’molchilar va texnologiya o‘rtasidagi aloqalar tubdan o‘zgarmoqda. Biroq, bu yangiliklar bilan birga muammolar ham yuzaga kelmoqda — xususan, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, shaffoflik, rozilik olish va noto‘g‘ri qarorlarning oldini olish masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Metod

Ilmiy maqola xalqaro qonunchilik, AQSh va Yevropa Ittifoqi regulyatorlari hisobotlari hamda akademik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunlari sun’iy intellect tizimlariga zid kelishi, iste’molchilar huquqlariga ta’siri va tartibga solish strategiyalarini tahlil qiladi. Yevropa Ittifoqining sun’iy intellektni tartibga soluvchi birinchi qonunchilik hujjati bo‘lgan Sun’iy intellect to‘g‘risidagi akt, sun’iy intellect tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflaydi va yuqori xavfli tizimlarga qat’iy talablar qo‘yadi. Bu qonun iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, shaffoflikni ta’minlash va sun’iy intellekt tizimlarining xavfsizligini kafolatlashga qaratilgan. Maqolada iste’molchilarinig

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

sun’iy intellektga oid bo‘lgan statistic ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, AQSH, Xitoy davlati qonunchiliklaridan maqolani yoritishda foydalanildi.

Natija

Texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davrda sun’iy intellekt innovatsiyalar asosiga aylangan bo‘lib, sanoatlarni tubdan o‘zgartirmoqda va kundalik hayotimizga chuqur kirib bormoqda. 2025-yil bu borada erishilgan ulkan yutuqlarning timsoli bo‘lib, statistik ma’lumotlar va tendensiyalar sun’iy intellektning keng qamrovli joriy etilishi va ta’sirini yorqin tasvirlab bermoqda. Statistika ma’lumotlari sun’iy intellektning biznesga integratsiyasi, demografik qamrovi, sun’iy intellekt asosidagi ish o‘rinlarining o‘sishi, ta’lim tashabbuslari, tadbirkorlar fikri, iste’molchilar foydalanishi, ishonch muammolari va huquqiy muhokamalar haqida keng ko‘lamli tasavvur beradi. Bundan maqsad sun’iy intellektning hozirgi holati va istiqboli haqida chuqur tushuncha berish, shuningdek, bu o‘zgaruvchan davrda to‘g‘ri harakat qilish uchun amaliy maslahatlar taqdim etishdir. Exploding Topics tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko‘ra:

- Kompaniyalarning 77 foizi sun’iy intellektdan foydalanmoqda yoki undan foydalanishni rejalashtirmoqda;
- Kompaniyalarning 83 foizi sun’iy intellektni o‘z biznes strategiyasida eng muhim ustuvor yo‘nalish deb hisoblaydi.

Sun’iy intellekt endilikda kelajakdagi g‘oya emas, balki hozirgi kundalik qurilmalar va tizimlarga chuqur singib ketgan haqiqatdir. Quyidagi faktlar sun’iy intellektning iqtisodiy ta’siri va global o‘sishini ko‘rsatib beradi:

- Hozir foydalanilayotgan qurilmalarning 77 foizida qandaydir shaklda sun’iy intellekt mavjud;

- 10 ta tashkilotdan 9 tasi raqobatbardoshlik uchun sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlaydi;
- 2030-yilga kelib, sun'iy intellekt global iqtisodiyotga 15,7 trillion AQSh dollari miqdorida hissa qo'shishi kutilmoqda;
- 63% tashkilotlar kelgusi uch yil ichida SI'ni joriy qilish niyatida;
- Sun'iy intellekt bozorining hajmi yiliga kamida 120% o'sishi kutilmoqda;
- Generativ sun'iy intellektni hali ishlatmayotganlarning 88% bu texnologiya ularning hayotiga qanday ta'sir qilishini bilmaydi;
- Iste'molchilarning atigi 1/3 qismi sun'iy intellekt platformalaridan foydalanayotganini o'ylaydi, aslida esa bu ko'rsatkich 77% ni tashkil etadi.[1]

Mijozlarga xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlarida ham SI yordamida sezilarli samaradorlikka erishish mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra:

- 70% iste'molchilar chatbotdan 5 daqiqa ichida javob kutadi;
- 74% iste'molchilar savollariga zudlik bilan javob olishni xohlaydi;
- 75% iste'molchilar chatbotlar oddiy mijozlarga xizmat vazifalarini bajara olishiga rozilik bildiradi, biroq faqat 33% murakkab savollarni chatbotlar hal qilishi mumkin deb hisoblaydi;
- Dunyo bo'yicha 38% iste'molchilar chatbotlardan foydalanishni afzal ko'radi;
- 80% iste'molchilar oddiy ishlar, masalan, hisob balansini tekshirish yoki uchrashuv belgilash kabi vazifalar uchun chatbotlardan foydalanishni ma'qul ko'radi;

[1] https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- 64% biznes egalari sun’iy intellekt mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilashiga ishonadi;
- Kelgusi o‘n yillikda sun’iy intellekt texnologiyalari 15 trillion AQSh dollaridan ortiq daromad keltirishi mumkin.[2]

Sun’iy intellekt keng tarqalib borayotganiga qaraganda, odamlarning unga bo‘lgan munosabati tobora ijobiylashmoqda. Biroq bu texnologiya kamchiliklardan holi emas. Sun’iy intellekt juda ishonchli tarzda yolg‘on ma’lumotlar yaratishi mumkin, bu esa siyosiy ziddiyatlar, yolg‘on yangiliklar va tarafkashliklar avj olgan hozirgi jamiyatda jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Muhim statistikalar:

- 63% odamlar sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentda tarafkashlik yoki noto‘g‘rilik bo‘lishidan xavotirda;
- Zamonaviy iste’molchilarning uchdan ikki qismi sun’iy intellekt mijozlar bilan muloqotni yaxshilashini qo‘llab-quvvatlaydi;
- 52% iste’molchilar sun’iy intellekt shaxsiy ma’lumotlarni himoya qila olishiga shubha bilan qaraydi;
- Iste’molchilarning yarmi ish o‘rinlarining kompyuterlar tomonidan egallanishini hozirgi zamon haqiqat deb hisoblaydi;
- Har 10 iste’molchidan 4 tasi sun’iy intellekt kompaniyalarni mijozlar ma’lumotiga ehtiyotkorroq munosabatda bo‘lishga majbur qiladi deb hisoblaydi;
- Faqat 7% odamlar da’vo arizalarida chatbotlarga ishonadi;
- sun’iy intellekt bozorining ochiqlik darajasining pastligi 75% direktorlarni xavotirga solmoqda;
- Hindiston, Xitoy, G‘arbiy Yevropa va AQShdagi iste’molchilarning 41% sun’iy intellekt hayotni yaxshilaydi deb hisoblaydi;

[2] Authority Hacker, Accenture, Gartner, Forbes. https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/.

- Chatbotlar 38% iste'molchilarda ijobiy taassurot qoldirgan;
- 2023-yilda aholining 48% qismi generativ va suhbatdosh sun'iy intellekt (ayniqsa ChatGPT) texnologiyalariga katta e'tibor qaratgan;
- Foydalanuvchilarning yarmidan kamrog'i sun'iy intellekt qanday ishlashini tushunishini bildirgan;
- 49% iste'molchilar avtomatlashtirishning, ayniqsa tibbiyotda, xavfsizligiga shubha bilan qaraydi;
- 28% odamlar ba'zi vazifalarda inson qo'li tegishi beqiyos ahamiyatga ega deb hisoblaydi;
- 43% korxonalar texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolishdan xavotirda.[3]

Munozara

Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlarning jadal rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Biroq, bu jarayon iste'molchilar huquqlariga doir bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasi, rozilik asosida ma'lumot yig'ish, axborotning aniqligi va shaffoflik kabi huquqlari sun'iy intellekt tizimlari orqali to'laqonli ta'minlanmayapti. Shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan xizmatlar (chatbotlar, tavsiya tizimlari, avtomatlashtirilgan qarorlar) ko'pincha inson ishtirokisiz ishlaydi. Bu esa noto'g'ri ma'lumot, algoritmik tarafkashlik yoki aniqlanmagan xatoliklar sababli iste'molchilarning zarar ko'rish xavfini oshiradi. Natijada, iste'molchilar o'zlariga nisbatan qanday qarorlar qabul qilinayotganini tushunmay qolishlari mumkin — bu esa ularning axborotga egalik

[3] Authority Hacker, Blumberg Capital, Salesforce, PwC, LivePerson, Forbes, Accenture. https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/.

huquqi va o‘zini himoya qilish imkoniyatini cheklaydi. Algoritmik qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflikning yo‘qligi, foydalanuvchi roziligisiz ma’lumot yig‘ilishi yoki noto‘g‘ri xulosa chiqarilishi kabi holatlar bugungi kunda jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Misol uchun, foydalanuvchining moliyaviy reytingi, tibbiy diagnozi yoki kredit olishga yaroqliligi kabi masalalarda sun’iy intellekt tizimlari asosida qarorlar qabul qilinayotgani iste’molchi huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.[4] Xalqaro tajriba, xususan Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi Akti (2024), ushbu muammolarga huquqiy yechim sifatida xavfga asoslangan yondashuvni taklif etadi. Ushbu akt sun’iy intellekt tizimlarining xavf darajasiga qarab ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilar uchun majburiyatlarni belgilaydi. Ko‘plab sun’iy intellekt tizimlari minimal xavf tug‘dirsa-da, ular baholanishi zarur. Aktga ko‘ra, odamlar yoki zaif guruhlarning kognitiv-behavioral manipulyatsiyasi: masalan, bolalarda xavfli xatti-harakatlarni rag‘batlantiruvchi ovozli o‘yinchoqlar ta’qiqlanadi. Ijtimoiy reyting belgilash, odamlarni xatti-harakatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki shaxsiy xususiyatlariga qarab tasniflah, odamlarni biometrik identifikatsiya va tasniflash, jamoat joylarida yuzni aniqlash kabi real vaqtli va masofaviy biometrik identifikatsiya tizimlari man etiladi. Ba’zi istisnolar huquqni muhofaza qilish maqsadlarida ruxsat etilishi mumkin. “Real vaqtli” masofaviy biometrik identifikatsiya tizimlariga faqat jiddiy holatlarda, sud ruxsati bilan, ruxsat beriladi. Masofaviy identifikatsiya tizimlari esa jiddiy jinoyatlarni tergov qilishda, sud tasdig‘i bilan qo‘llanilishi mumkin. Sun’iy intellekt bilan bog‘liq xizmatlarni xavf darajasiga qarab tasniflash va ularni tegishli tartibga solish, masalan, yuqori xavfli tizimlar uchun qat’iy talablar belgilash — bu sohadagi muammolarni yumshatishda

[4] Goodman & Flaxman, 2017.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

samarali yondashuvdir. Bunda sun'iy intellekt tizimlari xavflilik darajasiga ko'ra tasniflanadi va yuqori xavfli tizimlar uchun qat'iy texnik va huquqiy talablar joriy etiladi. Bu yondashuv orqali inson huquqlari ustuvorligini saqlab qolish, hamda texnologik innovatsiyalarni nazorat ostida rivojlantirish mumkin bo'lmoqda.[5]

Yevropa Ittifoqidan keyin sun'iy intellektni tartibga solish borasida eng rivojlangan yondashuv Xitoyga tegishli deb aytish mumkin. Turli reytinglarga ko'ra, Xitoy sun'iy intellekt sohasida AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi, AQSh esa global yetakchilikni saqlab qolmoqda.[6] Biroq, rivojlanish sur'atlari bo'yicha Xitoy AQShni ortda qoldirmoqda, bu esa unga nafaqat global yetakchilikka da'vo qilish, balki yaqin kelajakda bu maqsadga erishish imkonini beradi. Ya'ni, bugungi kunda Xitoy sun'iy intellektni rivojlantirish sur'atlari bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda, rivojlanish darajasi bo'yicha esa AQShdan keyin ikkinchi o'rinda, shuningdek, tartibga solish darajasi bo'yicha Yevropa Ittifoqidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. AQSh iqtisodiy sohada global yetakchi bo'lib, bu mavqeni saqlab qolish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari tinchlik va harbiy sohalarda faol ishlab chiqilmoqda va ularni rivojlantirish milliy texnologik ustuvorlik sifatida belgilangan. Biroq, AQShning sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy tartibga solish darajasi Yevropa Ittifoqi va Xitoydan ortda qolmoqda.[7] AQSh sun'iy intellekt sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga katta e'tibor qaratadi. Masalan, 2022-yilda e'lon qilingan "AI Bill of Rights" (Sun'iy intellekt huquqlari deklaratsiyasi) fuqarolarning raqamli xavfsizligi, shaxsiy hayoti va algoritmik adolatga oid huquqlarini ta'minlashga

[5] https://www.europarl.europa.eu/portal/en.
[6] The Global AI Index, 2024. URL: https://www.tortoisemedia.com/intelligence/globalai/#rankings.
[7] The National Artificial Intelligence Research and Development Strategic Plan, 2016. URL: https://www.nitrd.gov/pubs/national_ai_rd_strategic_plan.pdf.

qaratilgan.[8] Shuningdek, 2023-yilgi Prezident farmoni sun'iy intellekt texnologiyalarining xavfsiz, ishonchli va inson huquqlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. AQShda sun'iy intellekt sohasida yagona, markazlashtirilgan qonunchilik mavjud emas. Buning o'rniga, turli federal agentliklar (masalan, FDA, NHTSA) o'z sohalariga oid sun'iy intellect texnologiyalarini tartibga soladi. Bu yondashuv texnologik innovatsiyalarni tezda qamrab olish imkonini bersa-da, umumiy strategiyaning yo'qligi sababli muayyan bo'shliqlar va nomuvofiqliklar yuzaga keladi. AQSh hukumati sun'iy intellekt sohasida haddan tashqari qat'iy tartibga solishdan saqlanadi, chunki bu innovatsiyalarni to'xtatishi mumkin. Umuman olganda, AQShning sun'iy intellekt sohasidagi yondashuvi inson huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va xavflarni boshqarish o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan.[9] Biroq, yagona va markazlashtirilgan qonunchilikning yo'qligi ba'zi muammolarga olib kelishi mumkin. Kelajakda AQShda sun'iy intellekt sohasida yanada yaxshilangan va muvofiqlashtirilgan tartibga solish tizimi yaratilishi kutilmoqda.

O'zbekistonda ham sun'iy intellektdan foydalangan holda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanmoqda. Bu borada ayrim huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, ular sun'iy intellektning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olmagan. Masalan, "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun ma'lumotni inson to'plagan holatlarga ko'proq mos keladi, sun'iy intellektning avtomatik yig'ish va qayta ishlash imkoniyatlarini esa yetarli darajada tartibga solmaydi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt xizmatlarining shaffofligi va javobgarligi bo'yicha aniq mexanizmlar yo'qligi iste'molchilarning huquqiy himoyasini zaiflashtiradi. Sun'iy

[8] "What is the AI Bill of Rights?" https://www.ibm.com/think/author/tomkrantzhaha.html.
[9] https://www.wiz.io/.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

intellekt bilan bog‘liq munosabatlar uchun alohida regulyativ baza zarur bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda sun’iy intellekt asosida xizmat ko‘rsatadigan onlayn platformalar uchun maxsus qonunchilik hujjatlari, foydalanuvchi roziligi standartlari, va algoritmlarning ochiqligini ta’minlovchi regulyativ mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Bunday yondashuv orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining rivoji bilan birga fuqarolarning huquqiy xavfsizligi ham ta’minlanadi. Hozirda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” qonun mavjud bo‘lib, kibermakonda axborot tizimlarining ishlashida uzilishlarga va (yoki) ulardagi axborotning ochiqligi, yaxlitligi va undan erkin foydalanilishining buzilishiga olib kelgan hodisarni oldininolishga qaratilgan.[10] Sun’iy intellektni tartibga solishda kerakli qonunlarni ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlar loyihalaridan andoza olish mumkin. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi platformalar uchun maxsus qonunchilik asoslari ishlab chiqish, xavf darajasiga asoslangan reglamentlarni joriy qilish, foydalanuvchilarga rozilik asosida xizmat ko‘rsatish standartlarini joriy etish, sun’iy intellekt tizimlarining javobgarlik, shaffoflik va tushuntirish imkoniyatlarini ta’minlovchi mexanizmlarni yaratish kabi yondashuvlar iste’molchilarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Sun’iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar kengayib borayotgan bir paytda, iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasi ilgari hech qachon bo‘lmagan darajada dolzarb bo‘lib bormoqda. Sun’iy intellekt tizimlari orqali amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan qarorlar, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash va algoritmik diskriminatsiya xavfi iste’molchilarning huquq va

[10] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O‘RQ-764-son ; https://lex.uz/ru/docs/-5960604.

manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, iste’molchilarning roziligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va xizmat ko‘rsatishda shaffoflikni oshirish orqali huquqiy barqarorlikka erishish mumkin. Shu sababli, sun’iy intellekt xizmatlari iste’molchilari uchun maxsus reglament va kodekslar ishlab chiqish zarurati mavjud. Shuningdek, iste’molchilar shaxsiy ma’lumotlarining sun’iy intellekt tizimlari tomonidan qayta ishlanishiga rozilik berish yoki rad etish huquqiga ega bo‘lishlari kerak. Bu, ayniqsa, yuqori xavfli sun’iy intellekt tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun muhimdir. Bunday yondashuvlar iste’molchilarning shaxsiy hayotini himoya qilish, adolatli va shaffof sun’iy intellekt tizimlarini yaratish hamda inson huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/.
2. Authority Hacker, Accenture, Gartner, Forbes. https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/.
3. Authority Hacker, Blumberg Capital, Salesforce, PwC, LivePerson, Forbes, Accenture. https://www.authorityhacker.com/ai-statistics/.
4. https://www.europarl.europa.eu/portal/en.
5. The Global AI Index, 2024. URL: https://www.tortoisemedia.com/intelligence/globalai/#rankings.
6. The National Artificial Intelligence Research and Development Strategic Plan, 2016. https://www.nitrd.gov/pubs/national_ai_rd_strategic_plan.pdf.

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

7. “What is the AI Bill of Rights?” https://www.ibm.com/think/author/tomkrantzhaha.html.

8. https://www.wiz.io/.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ НА ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА

Хазиева Марьямбону Амировна
Магистрант направления «Право государственного управления»,
Ташкентский государственный юридический университет
Email: xazievamaryam@gmail.com

Аннотация: *в условиях стремительной цифровой трансформации государственное управление сталкивается с необходимостью адаптации к новым цифровым реалиям. Одним из ключевых инструментов такой адаптации становятся цифровые платформы, обеспечивающие предоставление государственных услуг населению и бизнесу в электронном виде. В статье рассматриваются функционирующие в Узбекистане цифровые платформы, включая ЕПИГУ и систему цифровой идентификации OneID, анализируются нормативно-правовые акты, регулирующие цифровую сферу, такие как стратегия «Цифровой Узбекистан-2030», Указы Президента и профильные законы. Представлены мнения сторонников и критиков концепции технологического детерминизма, рассматриваются вызовы, связанные с цифровым суверенитетом. В заключении даны предложения по совершенствованию правового регулирования и технической инфраструктуры, направленные на повышение эффективности и доступности цифровых платформ в Узбекистане.*

Ключевые слова: *цифровые платформы, электронное правительство, технологический детерминизм, цифровой суверенитет, государственное управление, нормативное регулирование, Узбекистан*

DIGITAL PLATFORM IN PUBLIC ADMINISTRATION THE PRACTICE OF UZBEKISTAN

Khazieva Maryambonu Amirovna
Master of law in the direction «The Law of Public Administration»
Tashkent State University of Law

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Email: xazievamaryam@gmail.com

Abstract: *in the context of rapid digital transformation, public administration faces the need to adapt to new digital realities. One of the key tools of this adaptation is the use of digital platforms that provide electronic services to citizens and businesses. This paper examines the main digital platforms operating in Uzbekistan, such as the Unified Portal of Interactive Government Services (my.gov.uz) and the OneID digital identification system. It also analyzes the national regulatory framework, including the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, presidential decrees, and relevant legislation. The paper discusses both the technological determinism perspective and the concerns regarding digital sovereignty. Finally, a set of conceptual recommendations is proposed to improve legal regulation and technical infrastructure in order to enhance the efficiency and accessibility of digital platforms in Uzbekistan.*

Key words: *digital platforms, e-government, technological determinism, digital sovereignty, public administration, legal regulation, Uzbekistan*

Сегодня цифровые платформы являются одним из основных ключевых факторов возможностей, благодаря которым государство предоставляет различные услуги не только бизнесу, но и населению в электронном формате. В каждой стране имеется свой ряд услуг, web-порталы, мобильные приложения и межведомственные экосистемы, которые опираются на свои собственные законы. Целью настоящего исследования является – показать, какие цифровые платформы функционируют в Узбекистане, который приспосабливает успешные практики международного опыта в рамках национальных проектов.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

По мнению Машевской О., основной частью, развивающейся цифровизации являются цифровые технологии, включающие в себя [1.3. стр. 38]:

- Интернет вещей (Internet of Things – IoT) – сбор данных в самом интернет-пространстве, предназначенные для дальнейшего использования в целях построения моделей и создания прогнозов.

- Большие данные – (Big Data) – совокупность подходов, методов и инструментов для обработки различного вида данных взимаемых с человека, увеличения эффективности и повышения конкурентоспособности.

- Искусственный интеллект и машинное обучение (Machine Learning - MI and Artificial intelligence - AI) – методологический набор подходов и инструментов, благодаря которым мощные компьютерные системы, могут находить в своих массивах памяти данные, раннее не существующие или же неизвестные.

Всё вышеперечисленное преобразовывает традиционные рынки и даже различные отрасли.

По мнению Ватолиной О. и Ничепорук А., цифровые платформы представляют собой «технический продукт с расширяемой кодовой базой, где экосистема включает модули, разрабатываемые сторонними разработчиками» [1.4. стр. 87].

Внедрение цифровых платформ, помимо технологических особенностей, имеет также нормативно-правовые аспекты.

В Республике Узбекистан вопросы, касающиеся цифровизации платформ, регулируются национальным законодательством. Стратегия «Цифровой Узбекистан - 2030» от 2020 года определяет цифровизацию как

комплексное развитие во всех отраслях и сферах, прежде всего в государственном управлении, образовании, здравоохранении и сельском хозяйстве [2.4.]. Указом Президента «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере цифровых технологий в рамках административных реформ» от 2023 года закладывается организация перехода государственных органов на электронный документооборот, а также создание единой цифровой-платформы [2.3.]. Законом «Об информатизации» от 2003 года реализуются права каждого на свободное получение и распространение информации, а также обеспечение доступа к информационным ресурсам, которые закреплены Конституцией [2.1.]. В законе «Об электронной цифровой подписи» от 2022 года говорится о юридической значимости цифровых документов и подписи [2.2.].

Таким образом, нормативная база включает указы Президента «Цифровой Узбекистан - 2030» и «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере цифровых технологий в рамках административных реформ», законы «Об информатизации» и «Об электронной цифровой подписи».

На данный момент ключевыми платформами являются:

- Портал интерактивных услуг (ЕПИГУ) – официальный портал my.gov.uz. Платформа предоставляет пользователям широкий выбор государственных услуг правительства в режиме онлайн. Граждане, используя портал, могут получать, справки и документы, проверять и оплачивать штрафы, подавать заявления в различные государственные органы, регистрировать предприятия и т.д. [3.1.].

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- Единая система цифровой идентификации (ЕСИ) – платформа OneID, предназначенная для лёгкого доступа всех пользователей к различным интернет-сайтам и порталам государственного и хозяйственного управления, органов государственной власти на местах и коммерческих организаций. Портал позволяет использовать цифровые версии удостоверения личности, что заметно облегчает работу государственных органов [3.2.].

Но появляется загвоздка, в которой сторонники «технологического детерминизма» яростно утверждают, что цифровые платформы по своей сути сами и решают проблему бюрократизма. Что такое технологический детерминизм? Согласно определению, технологический детерминизм - это «западная социально-философская концепция, согласно которой технические средства производства (машины, механизмы, компьютеры, работы и т.д.), а также научно-обоснованные технологические знания представляют собой решающий фактор, однозначно определяющий все стороны общественной жизни, характер и направление социального развития» [1.1. стр. 372].

В тоже время критики, а именно группа исследователей указывают, что «институционализация цифрового суверенитета государства включает приоритетные задачи, которые позволяют обеспечить контроль государства над цифровыми технологиями, данными и инфраструктурой» [1.2. стр. 391].

К числу таких задач мы можем отнести: разработку и внедрение законов и нормативно-правовых актов, которые регулируют использование не только простых данных, но и персональных, а также и цифровые права граждан.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

И здесь появляется возможность задуматься, что нам стоит выбрать? Здесь мы можем придерживаться мнения обеих сторон, но во время стремительной глобализации практически во всех сферах, необходимо совмещать правовое и цифровое регулирование всех отраслей государственного управления.

Можем предложить, ряд концептуальных предложений:

Во-первых, необходимо принять отдельный закон «О цифровых платформах» со своими чёткими стандартами безопасности и межведомственным соглашением;

Во-вторых, для отдельных сельских местностей организовать высокоскоростной интернет для работы через частно-государственное партнёрство, используя опыт Сингапура с широкополосным интернетом ConnectSG.

В-третьих, улучшить интерфейс портала my.gov.uz, учитывая практики UX/UI в сфере электронной коммерции, и сделать мультиязычную поддержку.

Таким образом, платформенный подход к цифровизации государственных органов приобретает и становится с каждым годом всё более популярным не только за рубежом, но и в Узбекистане, ведь сегодня цифровые платформы — это не просто популярный тренд, это более справедливое и открытое управление государством.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Учебная литература, диссертации, авторефераты и пособия:

1.1. Данилова К. М. Концепция технологического детерминизма //Закон и общество: история, проблемы, перспективы: мат-лы межвуз. студ. науч. конф./Краснояр. Гос. аграр. ун-т.–Красноярск. – 2013. – С. 372-374. – стр.372

1.2. Институционализация цифрового суверенитета государства в сфере информационной безопасности // Информатизация в цифровой экономике. – 2024. – Том 5. – № 3. С. 385 - 400. – стр.391

1.3. Машевская О. В. Цифровые технологии как основа цифровой трансформации современного общества //Вестник Полесского государственного университета. Серия общественных и гуманитарных наук. – 2020. – №. 1. – С. 37-44. – стр.38

1.4. Ватолина О. В., Ничепорук А. В. СУЩНОСТЬ И ПОНЯТИЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ //Вестник Тихоокеанского государственного университета. – 2025. – №. 1 (76). – С. 85-96 – стр.87

2.Нормативно-правовые акты:

2.1. Закон Республики Узбекистан «Об информатизации» от 11.12.2003 г. № 560-II [Электронный ресурс] // Lex.uz. – Режим доступа: https://lex.uz/docs/82956 (дата обращения: 28.05.2025)

2.2. Закон Республики Узбекистан «Об электронной цифровой подписи» от 12.10.2022 г. № ЗРУ-793 [Электронный ресурс] // Lex.uz. – Режим доступа: https://lex.uz/ru/docs/6234906 (дата обращения: 28.05.2025)

2.3. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере цифровых технологий в рамках административных реформ» от 24.05.2023 г. № УП-76

[Электронный ресурс] // Lex.uz. – Режим доступа: https://lex.uz/uz/docs/6472530 (дата обращения: 28.05.2025)

2.4. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по её эффективной реализации» от 05.10.2020 г. № УП-6079 [Электронный ресурс] // Lex.uz. – Режим доступа: https://lex.uz/ru/docs/5031048 (дата обращения: 28.05.2025)

3.Интернет-ресурсы:

3.1. Единый портал интерактивных государственных услуг [Электронный ресурс]. URL: https://my.gov.uz/ru (дата обращения: 28.05.2025).

3.2. OneID – Yagona Identifikatsiya Tizimi [Электронный ресурс]. Egov.uz, 2016. URL: https://id.egov.uz/ru (дата обращения: 15.05. 2025).

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘ZBEKISTONDA XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Meliboyev Asqar Eshmuratovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi mutaxassisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini takomillashtirish zaruriyati yoritilgan. Tadqiqot davomida AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada har bir mamlakatdagi auditning huquqiy asoslari, tashkiliy shakllari, tashqi va ichki audit talablari, shuningdek, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari tahlil etilgan. O‘zbekistondagi mavjud holat va muammolar tahlili asosida NOTMlarda ichki auditni joriy etish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ichki audit, nodavlat oliy ta’lim, moliyaviy nazorat, xalqaro tajriba, boshqaruv, shaffoflik, audit qo‘mitasi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Мелибоев Аскар Эшмуратович
Специалист Третьего регионального координационного центра ОДСЭ при МВД Республики Узбекистан

Аннотация: *в статье рассматривается необходимость совершенствования системы внутреннего аудита в негосударственных высших учебных заведениях Узбекистана. На основе сравнительного анализа изучен опыт США, Великобритании, Германии и Республики Корея. Анализируются правовые основы, организационные модели, требования к*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

внешнему и внутреннему аудиту, а также принципы финансовой прозрачности и подотчетности. По результатам анализа текущей ситуации в Узбекистане предложены конкретные рекомендации по внедрению эффективной системы внутреннего аудита в негосударственных вузах.

Ключевые слова: *внутренний аудит, негосударственные вузы, финансовый контроль, международный опыт, управление, прозрачность, аудиторский комитет.*

IMPROVEMENT OF INTERNAL AUDIT OF NON-STATE HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

Meliboyev Askar Eshmuratovich
Specialist of the Third Regional Coordination Center of the Internal Affairs Directorate under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *this article discusses the need to improve the internal audit system in non-governmental higher education institutions (NGHEIs) in Uzbekistan. It presents a comparative analysis of best practices from the USA, the United Kingdom, Germany, and South Korea. The paper analyzes the legal frameworks, organizational structures, and internal and external audit requirements of each country, as well as principles of financial transparency and accountability. Based on the assessment of the current situation in Uzbekistan, practical recommendations are proposed for implementing a robust internal audit system in NGHEIs.*

Keywords: *internal audit, non-governmental higher education, financial control, international experience, governance, transparency, audit committee*

Kirish

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston ta’lim tizimida bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruv tizimining joriy etilishi, nodavlat oliy ta’lim muassasalarining (NOTM) ko‘payishi va ularning moliyaviy avtonomiyasini oshirish tendensiyasi ichki nazorat va audit tizimlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunga kelib respublikada 70 dan ortiq nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritib, ularda minglab talabalar tahsil olmoqda. Ushbu muassasalar moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi, budjetdan tashqari mablag‘lar ulushining yuqoriligi, shuningdek, ta’sischilar va investorlar oldidagi hisobdorlik talabining ortishi bilan ajralib turadi. Shu sababli NOTMlarda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, samaradorlikni oshirish va korrupsion xatarlarni kamaytirish uchun ichki audit xizmatlarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylangan.

Hozirgi holat tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda ko‘plab nodavlat OTMlar ichki audit xizmatiga ega emas, mavjudlarining esa faoliyati tizimli tashkil etilmagan. Aksariyat holatlarda moliyaviy nazorat funksiyasi bosh buxgalter, moliya bo‘limi yoki direktor o‘rinbosarlarining zimmasida bo‘lib qolmoqda. Natijada xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, shartnomalarning shaffofligi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi bo‘yicha ichki baholashlar muntazam va professional asosda olib borilmayapti. Bu esa NOTMlarning nafaqat ta’sischilar, balki talabalar, davlat organlari va jamoatchilik oldidagi ishonchliligiga putur yetkazishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimi nodavlat OTMlarda faqat moliyaviy hujjatlarni tekshirish vositasi emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Masalan, AQShda notijorat universitetlar ichki auditni Vasiylik kengashi huzuridagi Audit qo‘mitasi orqali amalga oshirib, COSO modeli va IIA standartlari asosida risklarni baholaydi

va nazorat tizimini mustahkamlaydi. Buyuk Britaniyada OfS (Office for Students) regulyatori har bir universitetda ichki audit faoliyatining mavjudligini va samaradorligini baholash orqali ta’lim sifatini nazorat qiladi. Germaniyada esa ko‘plab universitetlar ixtiyoriy asosda “Interne Revision” xizmatini tashkil etib, jarayonlar samaradorligini oshirish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan tekshiruvlar olib boradi. Janubiy Koreyada esa xususiy OTMlar faoliyati ustidan hukumat auditining kuchaytirilishi ichki nazorat tizimlariga bo‘lgan talabni keskin oshirib yubordi.

O‘zbekiston sharoitida ichki auditning institut sifatida kuchaytirilishi NOTMlar uchun muhim strategik ustunlikni ta’minlashi mumkin. Bu, birinchidan, ularning moliyaviy faoliyati ustidan doimiy ichki nazoratni yo‘lga qo‘yish, ikkinchidan, boshqaruv va qaror qabul qilish sifatini yaxshilash, uchinchidan esa investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ayni paytda, ayrim ilg‘or NOTMlar, jumladan WIUT, Inha University in Tashkent, TEAM University kabi muassasalar xalqaro standartlarga muvofiq ichki audit amaliyotlarini joriy etishga harakat qilmoqda. Biroq bunday yondashuvlar keng ko‘lamda tatbiq etilmayotgani ichki auditni tizimli ravishda takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bois ushbu tadqiqotda AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi asosida NOTMlarda moliyaviy audit va ichki nazorat tizimlarini rivojlantirishning konseptual va amaliy jihatlari o‘rganiladi. O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modelni ishlab chiqish hamda mavjud muammolar yechimiga qaratilgan tavsiyalar shakllantirish ushbu maqolaning asosiy maqsadidir.

Metadalogiya

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlar – AQSh, Buyuk

Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya – tajribasi o‘rganilib, solishtirma tahlil asosida tahlil qilindi. Tadqiqot asosan huquqiy, tashkiliy va metodologik jihatlar nuqtai nazaridan olib borildi. Bunda birinchi navbatda deskriptiv tahlil yondashuvi qo‘llanib, har bir mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlari qanday yo‘lga qo‘yilgani to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar yig‘ildi. Buning uchun rasmiy hukumat hujjatlari, xalqaro tashkilotlar (masalan, IIA, CIIA, DIIR, BAI) tomonidan chop etilgan standartlar, universitetlarning ochiq manbalardagi tuzilmalari va yillik hisobotlaridan foydalanildi.

Keyinchalik, solishtirma tahlil usuli yordamida har bir mamlakatdagi tizim O‘zbekistondagi amaldagi holat bilan qiyoslandi. Solishtirma tahlilda ichki auditning huquqiy maqomi, tashkiliy tuzilmasi, tashqi audit talablari va nazorat mexanizmlari asosiy ko‘rsatkichlar sifatida tanlandi. Ushbu tahlil orqali xorijiy tajribaning ustun jihatlari aniqlanib, ular O‘zbekiston sharoitida qanchalik qo‘llanishi mumkinligi baholandi.

Tadqiqotning amaliy qismida esa O‘zbekistondagi ayrim nodavlat oliy ta’lim muassasalarining (masalan, WIUT, TEAM University, Inha University in Tashkent) amaliyotlari tahlil qilindi. Ularning ichki auditga oid mavjud mexanizmlari, tashqi auditdan o‘tish holatlari, boshqaruv tuzilmasidagi auditga oid pozitsiyalar mavjudligi o‘rganildi. Shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi kabi tegishli idoralar tomonidan berilgan normativ hujjatlar asosida O‘zbekistondagi NOTMlar faoliyatining moliyaviy nazoratiga oid asosiy talablarga baho berildi.

Tadqiqot yakunida xorijiy tajribalarning O‘zbekiston sharoitiga moslashuvi imkoniyatlari tahlil qilinib, ichki audit tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar audit xizmatining huquqiy

maqomini belgilash, tashkiliy tuzilmasini shakllantirish, standart va metodikalarni ishlab chiqish, malakali kadrlar tayyorlash hamda davlat nazorati va hisobotdorlik tizimini kuchaytirishga qaratilgan. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi xorijiy tajribani tahlil qilish, O‘zbekistondagi mavjud holatni baholash va ikkalasini solishtirishga asoslangan kompleks yondashuv asosida tashkil etildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimining joriy etilishi va takomillashtirilishi hozirgi bosqichda hali zaif rivojlangan, bu esa ta’lim sifatini boshqarish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va manfaatdor tomonlar oldidagi ishonchni mustahkamlashda jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda ba’zi ilg‘or nodavlat universitetlar tomonidan xalqaro tajribalar asosida ichki audit va tashqi audit tizimlari joriy etilmoqda. Jumladan, Westminster International University in Tashkent (WIUT) va Inha University in Tashkent yillik moliyaviy hisobotlarini xalqaro auditorlik kompaniyalarida tekshirtirib, universitet boshqaruvi tarkibida audit yoki moliyaviy nazorat bo‘linmalari tashkil etgan. Biroq bu amaliyot barcha NOTMlar uchun umumiy emas.

Xalqaro tajriba tahlili esa shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlar oliy ta’lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazorat tizimlari uzviy tarkibiy qism sifatida qaraladi. AQShda, masalan, ko‘plab notijorat universitetlar ichki audit xizmatini tashkil qilgan bo‘lib, bu xizmat bevosita Vasiylik kengashi tarkibidagi Audit qo‘mitasiga hisobot beradi. Ichki audit IIA (Institute of Internal Auditors) tomonidan tavsiya etilgan professional standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa Office for Students regulyatori tomonidan barcha universitetlar ichki nazorat tizimlariga ega bo‘lishi va ularni muntazam auditdan

o‘tkazib borishi belgilab qo‘yilgan. Universitetlar Audit qo‘mitasi orqali ichki audit faoliyatini muvofiqlashtiradi va bu tizimlar orqali risklar, samaradorlik va xarajatlar ustidan doimiy nazorat yuritiladi.

Germaniyada ichki audit bo‘limlari qonuniy majburiyat emas, ammo ko‘plab universitetlar o‘z tashabbuslari bilan bunday bo‘linmalarni tashkil etgan. Bunda “Interne Revision” tizimi orqali universitet ichidagi jarayonlar optimallashtiriladi, moliyaviy va operatsion xavflar baholanadi. Janubiy Koreyada esa 2019-yildan boshlab xususiy universitetlarda davlat auditi kuchaytirilgan bo‘lib, ko‘plab moliyaviy intizomsizlik va korrupsiyaviy holatlar fosh etilgan. Bu esa hukumatni ushbu universitetlarda ichki nazorat tizimlarini kuchaytirishga undagan.

O‘zbekiston holatida esa NOTMlarning asosiy muammosi – ichki audit xizmatining tashkil etilmaganligi, mavjud bo‘lsa ham uning vakolatlari, mustaqilligi va metodik asoslarining aniqlanmaganligi hisoblanadi. Davlat tomonidan NOTMlar uchun ichki audit faoliyatini nazorat qiluvchi aniq regulyator organ va standartlar mavjud emas. Faqat ayrim yirik universitetlar tashqi auditga amal qilmoqda, ammo bu talab barcha NOTMlar uchun tizimli shaklda qo‘llanilmayapti.

Natijalar O‘zbekistonda ichki audit bo‘yicha milliy yondashuv, me’yoriy-huquqiy asos va auditorlik metodologiyalarini ishlab chiqish zarurligini ochiq ko‘rsatdi.

Munozara

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalari sonining ortishi ta’lim tizimida sog‘lom raqobatni rivojlantirishga, o‘quvchi-talabalar uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytirishga va innovatsion dasturlarni tatbiq etishga

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

xizmat qilmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, respublikada 76 ta nodavlat oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritmoqda, ularning 60 foizi Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, jami 100 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda. Bu esa nodavlat sektorining ta’lim bozoridagi ulushi ortayotganini va uning moliyaviy boshqaruviga bo‘lgan e’tibor kuchayishi kerakligini ko‘rsatadi.

Mazkur muassasalar moliyalashtirish jihatidan budjetdan tashqari manbalarga, to‘lov-kontrakt mablag‘lariga, homiylik va grantlarga tayanadi. Masalan, ayrim xususiy OTMlarda yillik to‘lov-kontrakt qiymati 15–30 million so‘m oralig‘ida bo‘lib, bu universitetga yiliga o‘rtacha 50–70 milliard so‘m daromad olib keladi. Shu daromad ustidan samarali ichki moliyaviy nazoratning mavjud emasligi esa mablag‘lardan foydalanishda shaffoflik, maqsadlilik va samaradorlik tamoyillarining buzilish xavfini kuchaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayni paytda NOTMlarning 80 foizida ichki audit bo‘limi yo‘q yoki nomigagina tashkil etilgan, mavjudlarining esa shtat birligi, metodikasi va hisobot berish tartibi aniq belgilanmagan.

Bu holat xalqaro tajriba bilan solishtirilganda yaqqol ko‘zga tashlanadi. AQShda, misol uchun, notijorat universitetlarning 92 foizida ichki audit bo‘limi mavjud bo‘lib, ular yillik moliyaviy hisobotdan tashqari audit rejalari, tekshiruv xulosalari va risk xaritalarini ham Vasiylik kengashiga taqdim etadi. Buyuk Britaniyada esa Office for Students ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yil holatida ro‘yxatdan o‘tgan 400 dan ortiq universitet va kollejlarning 97 foizida ichki audit faoliyati mavjud bo‘lib, ularning 73 foizi mustaqil tashqi audit firmalariga ichki audit xizmatini autsorsing asosida topshirgan.

Janubiy Koreyada 2019–2022 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan davlat auditlari natijasida 278 ta xususiy universitetdan 111 tasida hech qachon ichki yoki tashqi

audit o‘tkazilmagani aniqlangan. Bu holat 2020-yilda Koreya Ta’lim vazirligi tomonidan yangi me’yorlarni joriy etishga sabab bo‘ldi: unga ko‘ra, xususiy OTMlar davlat subsidiyasi olishi uchun yillik moliyaviy auditdan o‘tishi va ichki nazorat tizimi joriy etilgan bo‘lishi majburiy shart qilib belgilangan. Ushbu o‘zgarishlar natijasida 2023-yilga kelib xususiy universitetlarning 67 foizida ichki audit bo‘limlari tashkil etilgan.

O‘zbekistonda esa bu borada dastlabki qadamlar aynan davlat oliy ta’lim muassasalarida tashabbus tarzida boshlangan. 2021-yilda Prezidentning tegishli qaroriga asosan, 35 ta yetakchi davlat OTMida ichki audit bo‘limlari joriy qilinib, ularning faoliyatini moliyaviy mustaqillik doirasida boshqaruv kengashlari orqali muvofiqlashtirish belgilangan edi. Shu tajriba natijasida OTMlar ichida moliyaviy intizom kuchaydi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va xarajatlarni tahlil qilish amaliyoti shakllana boshladi. Masalan, 2022-yil yakunida bu muassasalarda jami 478 ta ichki audit tekshiruvlari o‘tkazilib, 6 milliard so‘mdan ortiq mablag‘lar asossiz xarajatlar sifatida aniqlangan va tegishli choralar ko‘rilgan.

Ammo ushbu amaliyot hali nodavlat sektoriga to‘liq o‘tkazilmagan. Shuningdek, NOTMlar faoliyatini nazorat qiluvchi yagona regulyator organ yo‘qligi, moliyaviy audit talablarining sustligi va ichki audit standartlarining mavjud emasligi muammolarni chuqurlashtirmoqda. Aksariyat xususiy universitetlar faqat soliq organlarining umumiy tekshiruvidan o‘tadi, lekin audit xulosalari, moliyaviy risk tahlillari, xarajat samaradorligi haqida aniq ma’lumotlar shakllanmaydi.

Muammo shundaki, O‘zbekiston qonunchiligida NOTMlar uchun ichki audit tashkil etilishi va faoliyat yuritishining aniq huquqiy maqomi belgilanmagan. Bu esa moliyaviy boshqaruvning sub’ektivlashuviga olib kelmoqda. Shuningdek,

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

mavjud NOTMlar uchun yagona metodik qo‘llanma, audit rejalari va hisobot formatlari ishlab chiqilmagan. Bu esa hatto ichki audit tashkil qilingan holatlarda ham uning sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ichki audit universitetlar boshqaruvi sifatini oshirish, mablag‘lardan oqilona foydalanish, ta’sischilar, donorlar va talabalar oldidagi ishonchni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu xizmat orqali faqat moliyaviy hujjatlar emas, balki shartnomalar, xaridlar, xizmat ko‘rsatish jarayonlari, grantlar, stipendiyalar taqsimoti, hatto kadrlar siyosati kabi muhim faoliyat yo‘nalishlari ham tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Demak, O‘zbekistonda NOTMlar faoliyatida audit va ichki nazorat tizimini joriy etish nafaqat tavsiya etiladigan, balki tizimli va bosqichma-bosqich joriy qilinishi zarur bo‘lgan shartga aylanmoqda. Bu bo‘yicha normativ-huquqiy bazani kuchaytirish, audit xizmatining mustaqilligini ta’minlash, metodologik asoslarni ishlab chiqish va kadrlar tayyorlash dasturlarini yo‘lga qo‘yish davr talabi sifatida qaralmoqda.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini takomillashtirish dolzarb masala ekanligini yaqqol ko‘rsatdi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, ko‘plab NOTMlarda ichki audit xizmatlari mavjud emas, mavjud bo‘lsa ham ular mustaqillik, vakolat va metodik jihatdan rivojlanmagan. Xalqaro tajriba – xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya amaliyotlari – esa ichki auditning universitetlar boshqaruvida strategik rol o‘ynashini, moliyaviy intizom, shaffoflik va ishonchlilikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatdi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston tajribasida esa davlat OTMlarida boshlangan ichki audit bo‘limlarini tashkil etish tashabbuslari ijobiy natijalar bergani holda, nodavlat sektoriga bu yondashuv hali yetib bormagan. Huquqiy asoslar, regulyator nazorat, standartlar va auditorlar tayyorlash mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Buning oqibatida NOTMlarda budjetdan tashqari mablag‘larning samarali ishlatilishi, korrupsion xatarlarning kamaytirilishi va manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlik darajasi sust bo‘lib qolmoqda.

Shu bois ichki auditni NOTMlar boshqaruvining ajralmas qismi sifatida huquqiy va tashkiliy asosda mustahkamlash zarur. Bu borada xorijiy ilg‘or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, milliy standartlar va metodikalarni ishlab chiqish, ichki auditorlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish orqali O‘zbekistonda nodavlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va boshqaruv sifati sezilarli darajada oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini bosqichma-bosqich ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4958-son Qarori. 12.01.2021 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining reyting ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot, Toshkent, 2024.

3. Internal Audit Standards Board. International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing. Institute of Internal Auditors (IIA), 2021.

4. Office for Students. Regulatory framework for higher education in England. London: OfS Publications, 2022.

5. DIIR – Deutsches Institut für Interne Revision e.V. Standards für die Interne Revision. Frankfurt am Main, 2020.

6. Ministry of Education, Republic of Korea. Audit results of private universities receiving national subsidies, Seoul, 2022.

7. National Audit Office (UK). Audit and risk assurance in higher education institutions. London: NAO Reports, 2021.

8. ACUA – Association of College and University Auditors. Best Practices for Internal Audit in Higher Education. Washington DC, 2020.

9. 한국교육부 [Korea Ministry of Education]. 사립대학 재정 지원 실태 및 감사 결과 보고서, 2023.

10. U.S. Department of Education. Financial Responsibility Standards for Title IV Participants. Washington DC, 2022.

11. OECD. Strengthening Integrity and Transparency in Higher Education Institutions. Paris: OECD Publishing, 2019.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALAR VA ULARNING TEXNOLOGIK UZATMALARGA TA’SIRI

[1]Safarova Maftunabonu
[1]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti
Email adres: maftunasafarova@gmail.ru
Ilmiy rahbar: **[2]D.S.Xamzayeva**
[2]Termiz davlat universiteti, “Turizm” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *ushbu maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ularning texnologik uzatmalarga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Dastlab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga olib kiriladigan ilg‘or texnologiyalar orqali qanday ijobiy o‘zgarishlar keltirishi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Keyinchalik, texnologik uzatmaning shakllari – ya’ni, ishlab chiqarish jarayonlari, menejment tajribalari, innovatsion faoliyat va kadrlar salohiyatining oshirilishi orqali amalga oshishi yoritiladi. Maqolada O‘zbekiston tajribasi misolida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning texnologik rivojlanishga ta’siri amaliy ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologik uzatmani rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan. Tadqiqot natijalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini strategik ravishda boshqarish va texnologik mustaqillikni ta’minlashda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, texnologik uzatma, innovatsiyalar, ishlab chiqarish, bilim almashinuvi, menejment, texnologik taraqqiyot, O‘zbekiston, iqtisodiy o‘sish, kadrlar tayyorlash, xalqaro kompaniyalar, bozor integratsiyasi, ilg‘or tajriba, texnologik mustaqillik, sarmoya siyosati.*

ПРЯМЫЕ ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ТРАНСФЕР

[1]Сафарова Мафтунабону
[1]Термезский университет экономики и сервиса
Магистр направлении Экономика

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Адрес электронной почты: maftunasafarova@gmail.ru
Научный руководитель: [2]**Д.С.Хамзаева**
[2]Термезский государственный университет, старший преподаватель кафедры «Туризм», PhD

Аннотация: *в данной статье анализируются прямые иностранные инвестиции и их влияние на технологический трансфер. Сначала рассматривается, как прямые иностранные инвестиции могут принести положительные изменения в национальную экономику за счет внедрения передовых технологий. Затем выделяются формы технологического трансфера, а именно, через развитие производственных процессов, управленческих практик, инновационной деятельности и кадрового потенциала. В статье анализируется влияние прямых иностранных инвестиций на технологическое развитие с использованием опыта Узбекистана на основе практических данных. Также вносятся предложения по стимулированию технологического трансфера. Результаты исследования имеют научное и практическое значение в стратегическом управлении потоком прямых иностранных инвестиций и обеспечении технологической независимости.*

Ключевые слова: *прямые иностранные инвестиции, технологический трансфер, инновации, производство, обмен знаниями, управление, технологическое развитие, Узбекистан, экономический рост, подготовка кадров, международные компании, рыночная интеграция, передовой опыт, технологическая независимость, инвестиционная политика.*

FOREIGN DIRECT INVESTMENTS AND THEIR IMPACT ON TECHNOLOGICAL TRANSFER

[1]Safarova Maftunabonu
[1]Termez University of Economics and Service, Master's Degree in Economics
Email address: **maftunasafarova@gmail.ru**

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Scientific supervisor: [2]**D.S.Khamzayeva**
[2]Termez State University, Senior Lecturer, Department of "Tourism", PhD

Abstract: *this article analyzes foreign direct investments and their impact on technological transfer. First, it considers how foreign direct investments can bring positive changes to the national economy through the introduction of advanced technologies. Then, the forms of technological transfer are highlighted - namely, through the development of production processes, management practices, innovative activities and human resource capacity. The article analyzes the impact of foreign direct investment on technological development using the experience of Uzbekistan on the basis of practical data. Also, proposals are made to stimulate technological transfer. The results of the study are of scientific and practical importance in strategically managing the flow of foreign direct investment and ensuring technological independence.*

Keywords: *foreign direct investment, technological transfer, innovation, production, knowledge exchange, management, technological development, Uzbekistan, economic growth, personnel training, international companies, market integration, best practices, technological independence, investment policy.*

Kirish

Globalizatsiya va iqtisodiy integratsiya jarayonlari bugungi kunda mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

texnologiyalarini, balki boshqaruv tajribalari, innovatsion yondashuvlar va inson kapitalini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, iqtisodiy islohotlar orqali bozor iqtisodiyotiga o‘tish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va texnologik modernizatsiyani amalga oshirishga alohida e’tibor qaratdi. So‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida, mamlakatda investitsion muhit yaxshilanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, energetika, avtomobilsozlik, axborot texnologiyalari va qishloq xo‘jaligi sohalarida xorijiy investorlar bilan hamkorlikda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa, texnologik uzatma jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlari bir necha shakllarda amalga oshadi. Bular qatoriga ishlab chiqarish jarayonlariga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kiradi [1]. Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalari o‘rnatilib, bilim va tajriba almashinuvi yuzaga keladi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston misolida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlari bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Masalan, Xitoy bilan hamkorlikda tashkil etilgan sanoat zonalari va qo‘shma korxonalar orqali zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari joriy etilmoqda. Shuningdek, IT Park Uzbekistan kabi texnologik markazlar orqali axborot texnologiyalari sohasida xorijiy tajriba va bilimlar o‘zlashtirilmoqda.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Biroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlarida ba’zi muammolar ham mavjud. Xususan, mahalliy korxonalarning texnologik o‘zlashtirish salohiyati pastligi, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va intellektual mulk huquqlarining himoyasi bilan bog‘liq muammolar texnologik uzatma samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, TXXI oqibatida mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini yo‘qotishi, ya’ni "crowding out" effekti yuzaga kelishi xavfi ham mavjud. Ushbu maqola, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlarini chuqur tahlil qilish, uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sirini baholash va mavjud muammolarni aniqlashga qaratilgan. Maqolada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va texnologik uzatma o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, texnologik uzatma shakllari, O‘zbekiston tajribasi va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologik uzatma samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologik uzatma jarayonlarini chuqur o‘rganish, uning O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini baholash va mavjud muammolarni aniqlashdir. Shuningdek, texnologik uzatma samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali, mamlakatning texnologik mustaqilligini ta’minlashga hissa qo‘shishdir.

Material va metod

Tadqiqotlar davomida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy mushohada usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xorijiy sarmoyaning iqtisodiy mohiyati xorijiy investorlarning daromad olish maqsadida boshqa davlat iqtisodiyotiga kapital qo'yishidir. Chet el investitsiyalari turli shakllarda bo'lishi mumkin: to'g'ridan-to'g'ri (biznesda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish yoki kompaniyaning aktsiyalarini sotib olish) yoki portfel (kompaniya boshqaruviga sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan aksiyalar yoki obligatsiyalarni sotib olish).

Xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotida bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi:

1. Kapitalning kirib kelishi. Xorijiy investitsiyalar qo'shimcha moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlaydi, bu ko'pincha ichki kapital taqchil bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

2. Ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar odatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish bilan birga keladi [3]. Bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratishga va aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi. Ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi - bu iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining oshishiga olib kelishi bilan birga infratuzilmaning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda xorij sarmoyasi asosiy o'rin tutib, korxonalar rivojiga, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilishga katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Texnologiya va bilimlarni uzatish. Xorijiy kompaniyalar ko'pincha ilg'or texnologiya va boshqaruv tajribasini olib kelishadi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalarni yaxshilashga yordam beradi.

Texnologiya va bilim transferi – bu, ilg'or texnologiyalar, innovatsiyalar va boshqaruv tajribasini bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazish jarayonidir. Chet

el investitsiyalari kontekstida transfer xorijiy kompaniyalar o‘zlarining ilg’or texnologiyalari va operatsion amaliyotlarini qabul qiluvchi mamlakatga joriy etganda, mahalliy korxonalarning mahsuldorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam berganda sodir bo‘ladi.

4. Soliq tushumlarining ortishi. Boshqa davlatda faoliyat yuritayotgan xorijiy

kompaniyalar soliq to‘laydi, bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshiradi. Soliq tushumlarining ko‘payishi xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakatga asosiy iqtisodiy ta’siridan biridir. Mahalliy iqtisodiyotga sarmoya kiritayotgan xorijiy kompaniyalar korxonalar, ish o’rinlari va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi, bu esa soliq bazasining o‘sishiga va davlat daromadlarining oshishiga olib keladi.

5. Xalqaro aloqalarni mustahkamlash[8]. Chet el investitsiyalari mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi, bu esa eksport va importni diversifikatsiya qilishga, shuningdek, bir iqtisodiy sherikga qaramlikni kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra quyidagi xulosa va takliflarni berish maqsadga muvofiq:

1. **Xorijiy investitsiyalar oqimini strategik tarmoqlarga yo‘naltirish zarur.** Bunda, ayniqsa, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat, raqamli texnologiyalar va yashil energetika kabi tarmoqlar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmog‘i lozim.

2. **Investorlarga qulay muhit yaratish uchun yagona "investorlar eshigi" (one-stop-shop) tizimi joriy etilishi kerak.** Bu tizim orqali investor

barcha ruxsatnomalar, huquqiy maslahatlar va soliq imtiyozlarini yagona markaz orqali olishi mumkin bo‘ladi.

3. **Mahalliy xodimlar malakasini oshirishga yo‘naltirilgan talab majburiyati joriy etilishi lozim.** Ya’ni, xorijiy kompaniyalar faoliyat yuritayotgan sohada mahalliy kadrlarni o‘qitish va ularni yuqori lavozimlarga tayyorlash bo‘yicha rejalarni taqdim etishlari zarur.

4. **Xorijiy sarmoyalarni monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish lozim.** Investitsiya loyihalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini muntazam o‘rganish orqali siyosatni aniq va maqsadli yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

5. **Xavfsiz va barqaror investitsiya muhiti uchun investorlar huquqlarini kafolatlovchi qonunchilikni yanada mustahkamlash tavsiya etiladi.** Sud tizimining mustaqilligi va shaffofligi xorijiy investorlar ishonchini oshiradi.

6. **Hududiy investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish zarur.** Har bir viloyat yoki iqtisodiy zona o‘ziga xos salohiyat va ehtiyojlar asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish rejasiga ega bo‘lishi lozim.

7. **Xorijiy investitsiyalar asosida mahalliy korxonalar bilan kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish muhim.** Bu orqali texnologiya uzatish, bilim almashuvi va ichki bozorning integratsiyasi kuchayadi.

8. **Xorijiy investitsiyalarning ekologik ta’sirini baholash majburiy holga aylantirilishi kerak.** Barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda, atrof-muhitga zarar keltirmaydigan loyihalar ustuvor ravishda qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov, Q. X. (2019). Iqtisodiy nazariya asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

2. Karimov, I. A. (2016). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.

3. Jo‘rayev, M. T. (2020). Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish yo‘nalishlari. Toshkent: Iqtisodiyot.

4. Egamberdiev, O. M. (2021). O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiya faoliyati: holati va istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va Ta’lim.

5. Tursunov, B. O. (2018). Sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanish. Samarqand: SamDU nashriyoti.

6. Muminov, N. N. (2017). Makroiqtisodiy barqarorlik va rivojlanish strategiyalari. Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi.

7. Norqulov, D. I. (2020). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. Buxoro: BuxDU nashriyoti.

8. Tashkenbaev, N. U. (2019). Mehnat bozori va bandlik siyosati O‘zbekistonda. Toshkent: Mehnat va Ijtimoiy Munosabatlar Akademiyasi.

9. Qodirov, X. A. (2016). Moliyaviy menejment asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot.

10. Abdukarimov, B. B. (2021). O‘zbekistonning tashqi savdo siyosati va rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: TDIU nashriyoti.

11. Raximov, M. T. (2018). O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi va uni ta’minlash yo‘llari. Toshkent: Fan.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ И АДМИНИСТРАТИВНЫЕ ДОКУМЕНТЫ: КАК ЗАКОНЫ НА БУМАГЕ РЕГУЛИРУЮТ НАШУ ЖИЗНЬ?

Абдумаликова Маржона Мирзохидовна
Студентка 2-го курса факультета
Магистратура и заочное обучение
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *государственное управление и административные документы играют ключевую роль в организации и регуляции общественных процессов. Анализируя, как законы на бумаге влияют на повседневную жизнь граждан, мы можем увидеть взаимосвязь между административными актами и функционированием общества в целом. В данном исследовании рассматриваются основные виды государственных документов, их назначение и процедуры их составления. Обсуждаются примеры, иллюстрирующие, как законы формируют правовые рамки в различных аспектах — от обеспечения безопасности до регулирования экономики. Кроме того, анализируется роль эффективного управления в повышении качества жизни граждан и их взаимодействия с государственными институтами.*


Ключевые слова: *государственное управление, административные документы, законы, правовое регулирование, общество.*

PUBLIC ADMINISTRATION AND ADMINISTRATIVE DOCUMENTS: HOW DO LAWS ON PAPER REGULATE OUR LIVES?

Abdumalikova Marzhona Mirzohidovna

2nd year student of the faculty

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



Master's and correspondence courses

Tashkent State University of Law

Abstract: *public administration and administrative documents play a key role in organizing and regulating social processes. Analyzing how laws on paper affect the daily lives of citizens, we can see the relationship between administrative acts and the functioning of society as a whole. This study examines the main types of government documents, their purpose and procedures for drafting them. Examples are discussed illustrating how laws form the legal framework in various aspects - from ensuring security to regulating the economy. In addition, the role of effective governance in improving the quality of life of citizens and their interaction with government institutions is analyzed.*

Keywords: *public administration, administrative documents, laws, legal regulation, society.*

В современном обществе порядок, законность и справедливость — это не просто жизненные потребности они являются гарантией безопасности, свободы и прав каждого гражданина. Но как эти ценности реализуются? Как государство может быть ответственно перед своим гражданином? Ответ простой: через административные документы. Каждый день мы сталкиваемся с государством в разных формах: от свидетельства о рождении до получения паспорта, оформления водительского удостоверения, уплаты штрафа или сдачи налоговой отчетности - все отражается в документах. Они - один из основных механизмов, которые мы не замечаем, но удерживают общество в целом. Государство выражает себя именно “документом,” а не “словом”.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Каждое решение, каждая услуга, каждая процедура приобретает официальный характер через административные документы. Они являются не только средством внутреннего делопроизводства государства, но и письменным доказательством его ответственности перед народом. “Когда приказ не устный, а письменный, он становится порядком,” - подчеркивал Махмуд Кашгари, который понимал важность документа еще в свое время. Сегодня эта идея актуальна как никогда. Потому что современное управление основано на требованиях открытости, законности и справедливости, и эти требования реализуются на практике именно через правовые документы.

Административный документ: Приказ на государственном языке

Представьте себе, что вы получаете водительские права. Или ваш ребенок регистрируется в школе. Возможно, вы хотите получить лицензию для своего нового бизнеса. В каждом случае вам понадобится определённый документ. Это не обычная бумага. Это - административный документ. **Административный документ** — это “средство”, с помощью которого государство говорит с вами. Это не устный приказ, а документ в письменной, официальной, юридически действительной форме, издаваемый государственными органами, местными органами власти или другими субъектами общественного управления. Эти документы не просто запись и каждый из них порождает правовые последствия, то есть на их основе определяются ваши права, возникают обязанности или создается возможность пользоваться какой-либо услугой. Важнейшим аспектом этих документов является то, что они имеют юридическую силу и служат

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

официальным выражением государственного управления.[1] Через них правительство общается с гражданами, принимает решения и выполняет свои функции. **Административный акт** — это документ, издаваемый государственными органами, местными органами власти или другими субъектами общественного управления, составленный в официальной форме и влекущий правовые последствия. Она служит практическим выражением государственной власти на основании части 8 статьи 4 Закона Республики Узбекистан “Об административных процедурах”.

Каким должен быть административный акт? Простой, но глубокий анализ ключевых признаков

В современной системе управления административный документ — это не просто запись это официальный инструмент, имеющий юридическую силу, выпущенный от имени государства. Однако не каждое письменное решение можно назвать “административным документом”. У него есть определенные характеристики и требования. Ниже мы проанализируем эти признаки вместе с примерами из жизни.[2]

1. Иметь официальную форму

Административный документ никогда не бывает в рукописном или устном виде. Он всегда пишется в специальном формате, то есть на выделенном бланке. Подпись, печать, номер и дата внесения в список эти элементы придают документу доверие и юридическую силу. Например, решение хокима района не может быть просто Word-файлом. Она бывает

[1] Арзамасов, Ю. Г. (2013). Теория и практика ведомственного нормотворчества в России. М.: Юрлитинформ, 480.
[2] Антопольский, А. А. (2004). Правовое регулирование информации ограниченного доступа в сфере государственного управления. М.-2014.

опечатанной, пронумерованной и заверенной. В противном случае он не считается правовым актом.

2. Обязательно в письменной форме

Любое административное решение, выносимое на основании законов, имеет силу только в письменной форме. Устное предупреждение, поручение или совет — это только рассуждение. Но записанное и оформленное решение — это реальный инструмент, имеющий юридическую силу. При нарушении правил дорожного движения сотрудник ДПС может дать вам устное предупреждение. Но штраф оформляется только письменным протоколом, тогда он вступает в силу.

3. Выпуск уполномоченным государственным органом

Полномочиями должен обладать только государственный орган или организация, определенная законом (например, хокимият, министерство, ведомство). В противном случае любое его решение считается недействительным. Если неправительственная организация говорит вам: “Мы выдадим вам лицензию”, этот документ не имеет юридической силы. Потому что такой документ может издавать только государственный орган, уполномоченный выдавать лицензии.

4. Правовые последствия

Административный документ — это не просто справка. Она всегда приносит результат: кто-то получает право, кто-то принимает на себя обязательство. Именно это отличает его от других документов. С принятием решения о выдаче вам паспорта вы становитесь владельцем документа, удостоверяющего личность. Это позволит вам голосовать, получать работу,

открывать банковский счет. То есть возникают реальные правовые последствия.

5. Создание на основе законности

Административный документ не извлекается из воздуха. Он всегда издается на основе действующих законов, положений или указов. В противном случае этот документ может быть аннулирован. Например, если хоким выдает вам документ о выделении земли, он должен соответствовать действующему Земельному кодексу. В противном случае прокуратура или суд могут отменить это решение.[3]

Административные документы: Скрытая сила в государственном управлении

Основа любого сильного государства — это закон и порядок. Но как мы применяем законы на практике? Мы делаем это посредством административных документов. Эти документы - поручения, указания или разрешения, выданные от имени государства, как слова, напечатанные печатью. Давайте подробнее ознакомимся с их видами и практическим применением.

1. Нормативно-административные акты - Дорожная карта правопорядка

Эти документы устанавливают общие правила, регулирующие жизнь общества. Они зачастую действуют одинаково для всех ориентированы на систему, а не на личность.

Примеры:

- Постановление Кабинета Министров;

[3] Кузнецов, С. (2022). Современные технологии документационного обеспечения управления. Litres.

- Правила гигиены (санитарные нормы);
- Порядок получения лицензии.

Представьте себе: за один день сотни людей могут захотеть открыть аптеку. Кто откроет, кто получит отказ? Ответ на это - нормативные документы. Потому что они устанавливают прозрачные критерии.

2. Индивидуализированные документы - Закон, адресованный личности

Эти документы относятся к конкретному гражданину, предприятию или ситуации. Это относится именно к этому конкретному субъекту, а не к другим. Такие документы выражают позицию государства по конкретной ситуации.

Примеры:

- Решение о получении паспорта;
- Решение хокима о выделении земли;
- Документ об административной ответственности (штраф, предупреждение).

Личный пример: Вы подали заявление на получение земли, и хоким вынес вам положительное решение. Этот документ теперь означает ваше законное право. Это индивидуализированное решение.

3. Документация внутренней службы - "Инструкция" внутри организации

Эти документы служат не для внешнего общества, а для управления внутренней деятельностью ведомства или организации. В основном это касается деятельности сотрудников.

Примеры:

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- Приказ о назначении работника на должность;
- Внутренние инструкции по обслуживанию;
- График трудового отпуска.

Из офисной жизни: Вас назначили на новую должность. Для этого руководитель издал специальный приказ. Это внутренний служебный документ. Ваши трудовые права теперь официально закреплены.

Законность - главный столп государственной службы

Административный акт — это не просто приказ, это слово государства. Каждое вынесенное решение, протокол или утвержденный приказ непосредственно затрагивает права и свободы граждан. Поэтому они должны основываться на законе и не противоречить принципам справедливости.

Эти слова отражают важнейший принцип государственной службы. Если административные документы не прозрачны и законны, то люди теряют доверие. Каждое официальное письмо - это обращение государства к гражданину. Он должен быть честным и взвешенным на весах справедливости. Сегодня в государственных органах ежедневно подписываются сотни документов. Каждый из них определяет одну жизнь, одну судьбу. Поэтому административный документ - это не просто бумага, это живое воплощение права, ответственности и справедливости. Вы тоже, общаясь с госорганом, обращайте внимание на документ он является основой вашей правовой защиты.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Арзамасов, Ю. Г. (2013). Теория и практика ведомственного нормотворчества в России. М.: Юрлитинформ, 480.

2. Антопольский, А. А. (2004). Правовое регулирование информации ограниченного доступа в сфере государственного управления. М.-2014.

3. Кузнецов, С. (2022). Современные технологии документационного обеспечения управления. Litres.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ELEKTRON TIJORATDA BITIMLARNI TUZISH TARTIBI VA ASOSLARI

Maxamatumarova Mohigul
Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi yo‘nalishi magistranti
E-mail: mohigultdyu@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqola elektron tijoratda bitimlarni tuzishning huquqiy tartibi va asoslarini tahlil qiladi. Unda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida elektron bitimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, oferta va aksept mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada xorijiy davlatlarning tajribasi (UNCITRAL, Yevropa Ittifoqi, AQSh va Osiyo mamlakatlari misolida) o‘rganilib, texnologik neytrallik, diskriminatsiya qilmaslik va tomonlar avtonomiyasi kabi asosiy tamoyillar yoritiladi. Maqolada elektron bitimlarni tuzishda yuzaga keladigan dolzarb muammolar hamda O‘zbekistonning huquqni qo‘llash amaliyoti tahlil qilingan. Yakunda elektron tijorat sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar berilgan bo‘lib, ular sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *elektron tijorat, elektron bitimlar, huquqiy tartibga solish, fuqarolik huquqi, oferta, aksept, elektron imzo, kiberxavfsizlik, sud amaliyoti, qonunchilikni takomillashtirish.*

ПОРЯДОК И ОСНОВАНИЯ ЗАКЛЮЧЕНИЯ СДЕЛОК В ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛЕ

Махаматумарова Мохигуль
Магистрант, Бизнес-право, Ташкентский государственный юридический университет
E-mail: mohigultdyu@gmail.com

Аннотация: *в статье анализируются правовой порядок и основы заключения сделок в сфере электронной коммерции. В статье рассматриваются особенности электронных сделок, механизмы оферты и*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

акцепта, основанные на законодательстве Республики Узбекистан. В статье также рассматривается опыт зарубежных стран (на примере ЮНСИТРАЛ, Евросоюза, США, стран Азии) и выделяются такие ключевые принципы, как технологическая нейтральность, недискриминация и автономия сторон. В статье анализируются актуальные проблемы, возникающие при заключении электронных сделок, и правоприменительная практика Узбекистана. В заключение были высказаны конкретные предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства в сфере электронной коммерции, что послужит дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: *электронная коммерция, электронные сделки, правовое регулирование, гражданское право, оферта, акцепт, электронная подпись, кибербезопасность, судебная практика, совершенствование законодательства.*

PROCEDURE AND BASIS OF CONCLUSION OF TRANSACTIONS IN ELECTRONIC COMMERCE

Makhamatumarova Mohigul
Master's student of Business Law, Tashkent State University of Law
E-mail: mohigultdyu@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the legal procedure and foundations of concluding transactions in electronic commerce. It examines the specific features of electronic transactions, offer and acceptance mechanisms based on the legislation of the Republic of Uzbekistan. The article also studies the experience of foreign countries (on the example of UNCITRAL, the European Union, the USA and Asian countries) and highlights such basic principles as technological neutrality, non-discrimination and autonomy of the parties. The article analyzes the current problems arising in concluding electronic transactions and the law*

enforcement practice of Uzbekistan. Finally, specific proposals and recommendations are given to improve the legislation in the field of electronic commerce, which will serve the further development of the industry.

Keywords: *e-commerce, electronic transactions, legal regulation, civil law, offer, acceptance, electronic signature, cybersecurity, case law, legislative improvement.*

Kirish. An’anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o‘tish jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida elektron tijoratning biznes muhitida asta-sekin asosiy o‘rinlarni egallashiga yordam bermoqda. Hozirgi kunda ilgari tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga asoslangan jamiyatimiz ko‘plab munosabatlar boshqacha kechadigan raqamli iqtisodiyotga o‘tib bormoqda. Ushbu o‘zgarishlarning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu barcha ijtimoiy jarayonlarning tobora ortib borayotgan raqamlashtirilishi hisoblanadi. Biroq, ishtirokchilar o‘rtasida aniq huquqiy asoslar natijasida shakllangan ishonch bo‘lmasa, yangi iqtisodiyot o‘z salohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi va jamiyatimiz uchun foydalar yangi texnologiyalar taqdim etishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlardan tashqarida qoladi[1]. Shu bilan birga, ishonch faqat yangi texnik yechimlarni joriy etishga asoslanmasligi, balki raqamli davrda tovar almashinuvi uchun huquqiy muhitni yaxshilashga ham tayanilishi kerak.

Zamonaviy sharoitlar ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi shartnomalar tuzish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlarni taqdim etadi. Axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari virtual makonida tijorat bitimlari tuzishning iqtisodiy ahamiyati va texnologik yangiligi elektron hujjatlar almashinuvi orqali xo‘jalik shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq

[1] Gisler, M., Stanoevska-Slabeva, K., & Greunz, M. (2000, June). Legal Aspects of Electronic Contracts. In ISDO.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

yuridik muammolarni o‘rganishning dolzarbligini belgilaydi[2]. Elektron tijoratni bitimlar amalga oshirishning alohida shakli sifatida ko‘rib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, ularning tuzilishi va bajarilishi axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bitimlarning huquqiy tabiati o‘zgarmaydi va ular munosabatlar turiga ko‘ra (sotib olish-sotish, yetkazib berish, ish va xizmatlar bajarish, ijara va boshqalar) tegishli huquqiy normalar bilan tartibga solinishi kerak.

Asosiy qism. Elektron tijoratda bitimlar tuzishda qonunchilik normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bunda Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik huujjatlarining o‘rni katta. Fuqarolik kodeksiga ko‘ra, “Bitim tuzish uchun ikki tarafning (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko‘p tarafning (ko‘p taraflama bitim) kelishilgan erklari bayon etilishi zarur bo‘lsa, bunday bitimlar ikki taraflama yoki ko‘p taraflama deb hisoblanadi”. Shunga ko‘ra, elektron tijorat bitimlari ham bitimning ko‘p taraflama turi sirasiga kiradi. Chunki elektron tijorat oldi-sotdi shartnomasi bilan bir xil huquqiy asosga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Elektron tijorat bitimlarining tuzilishi esa Fuqarolik kodeksida keltirilgani kabi bajariladi. FK ning 364-moddasida ko‘rsatilganidek, agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi[3].

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida” O‘RQ-792-son Qonunidan maqsad elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ta’kidlash joizki, ushbu qonunning amal qilishi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari to‘g‘risidagi

[2] Бурило Ю.П. Проблемы заключения хозяйственных договоров путем обмена электронными документами в условиях развития электронной коммерции в Украине // Проблемы экономики и юридической практики. – 2013. – №3. – С.43.
[3] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son. https://lex.uz/docs/-111189.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qonunchilikka muvofiq, amalga oshiriladigan davlat xaridlari hamda birja faoliyati uchun litsenziyalarga ega bo‘lgan birjalarda tuziladigan kelishuvlarga nisbatan tatbiq etilmaydi[4]. Bu, elektron tijoratning keng qamrovli xususiyatini, biroq ayrim sohalarda maxsus huquqiy tartibga solishning zarurligini ko‘rsatadi.

Professor I.Rustambekovning fikricha, qonun hujjatlariga asosan, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi talab qilinadigan shartnomalar, xususan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlar yoki patentdan o‘zga shaxs foydasiga voz kechish shartnomalari, notarial tasdiqlanishni talab qiluvchi bitimlar, masalan renta shartnomasi, odatdagi tartibda vasiyatnoma tuzish, shuningdek, o‘zining alohida tuzilish tartibiga ega bo‘lgan birja bitimlari internet tarmog‘i orqali elektron tijorat doirasida elektron shartnoma shaklida tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ularning elektron shartnoma shaklida tuzilishi shartnomaning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin[5]. Bu cheklovlar elektron bitimlarning huquqiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ayrim turdagi bitimlar uchun an’anaviy yozma va notarial shaklning afzalligini ko‘rsatadi.

Internetda tuziladigan shartnomalarga nisbatan qonuniy nizolarni hal qilishda shartnoma tuzish tartibiga qo‘llaniladigan huquqni aniqlash uchun ko‘pincha “joy” tushunchasi (shartnoma tuzilgan joy, joylashgan joy yoki yashash joyi) ishlatiladi. Biroq, bu tushuncha internet-shartnomalarda qiyinchilik tug‘diradi, chunki oferent, odatda, shartnoma qayerda tuzilishini bilmaydi[6].

[4] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son. https://lex.uz/docs/-6213382.
[5] Rustambekov I.R. Internet tarmog ‘ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish; yurid.fan. dok. diss. avtoref. _ T.: TDYU, 2017. – 61-b.
[6] В вопросе выбора юрисдикции в странах англо-саксонской правовой системы уже сформировалась определенная судебная практика. См.: дела: McDonough vs. Fallon McElligott, Benson Restaurant Corp. vs. King, Compuserve, Inc. vs. Patterson, Minnesota vs. Granite Gate Resorts, Inc, Digital Equipment Corp. vs. Altavista Technology, Inc., Maritz, Inc. vs. CyberGold, Inc. http://www.russianlaw.net/law/doc/a102.htm.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 185-son qaroriga muvofiq Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari tasdiqlangan[7]. Bu qoidalar elektron tijorat subyektlari uchun huquqiy amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va bitimlarni tuzishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy noaniqliklarni kamaytiradi.

Elektron tijoratda shartnoma tuzish jarayoni oferta va aksept asosida amalga oshiriladi. Shartnoma, agar unda boshqacha shart ko‘rsatilmagan bo‘lsa, oferta jo‘natgan taraf akseptni qabul qilgan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi. Oferta elektron hujjat shaklida taqdim etiladi va unda bitta shaxs, aniq shaxslar guruhi yoki noma’lum shaxslar doirasiga shartnoma tuzish taklifi kiritiladi. Bu hujjat shartnomaning barcha muhim shartlarini, shu jumladan qonuniy talablarga mos keladigan shartlarni o‘z ichiga olishi yoki ularni o‘z ichiga olgan boshqa elektron hujjatlar va xabarlarga havola qilishi kerak. Oferta belgilangan muddat davomida amal qiladi va agar unda boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, aksept muddati tugaguniga qadar bekor qilinmaydi. Ofertani chaqirib olish uchun oluvchiga elektron hujjat yoki xabar shaklida, bekor qilish sabablari ko‘rsatilgan bildirishnoma yuboriladi.

Elektron tijoratda shartnoma tuzish bir necha usulda amalga oshirilishi mumkin: u elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat sifatida, elektron tijorat ishtirokchisining roziligini aks ettiruvchi elektron xabar shaklida yoki ofertada ko‘rsatilgan shartlarni bajarish orqali akseptni amalga oshirish yo‘li bilan tuziladi. Aksept elektron hujjat yoki xabar sifatida taqdim etilishi mumkin yoki oferta shartlarini to‘liq bajarish orqali amalga oshiriladi, bu esa shartnoma

[7] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son. https://lex.uz/docs/-2973939.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tuzishga to‘liq va so‘zsiz rozilikni bildiradi. Ta’kidlash joizki, akseptda oferta shartlari o‘zgartirilmasligi lozim; agar shartlar o‘zgartirilgan javob yuborilsa, bu aksept emas, yangi oferta sifatida qaraladi. Oferta yoki aksept, agar taraflar o‘zaro kelishuvda boshqacha shart ko‘rsatilmagan bo‘lsa, axborot tizimi tomonidan qabul qilinganligi tasdiqlanganda olingan deb hisoblanadi. Ammo faqat oferta qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma shartnomani ijro etish uchun asos bo‘la olmaydi. Agar boshqacha kelishuv bo‘lmasa oferta va aksept jo‘natuvchi tomonidan o‘zgarishsiz, asl shaklida yuborilishi, oluvchi tomonida esa shartnoma muddati tugaguniga qadar o‘z holicha saqlanishi kerak. Axborot tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilgan shartnoma yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtiriladi.

Xorijiy tajriba tahlili.Elektron tijorat bitimlarini huquqiy tartibga solishda ko‘plab davlatlar xalqaro normalarga tayanadi va o‘z qonunchiligini shu asosda rivojlantiradi. Xususan, xalqaro savdo huquqi doirasida Birlashgan Millatlar tashkiloti komissiyasi (UNCITRAL) namunaviy qonunlari muhim ahamiyat kasb etadi[8]. UNCITRALning “Elektron tijorat bo‘yicha namunaviy qonuni” (1996) va “Elektron imzo bo‘yicha namunaviy qonuni” (2001) ko‘plab davlatlar, jumladan, Singapur, Avstraliya, Kanada, AQShning ayrim shtatlari va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan elektron bitimlarga oid qonunchilikni yaratishda asos bo‘lib xizmat qilgan.

Yevropa Ittifoqi axborot jamiyati xizmatlarini huquqiy tartibga solishni rivojlantirishda eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Yevropa Ittifoqida elektron tijorat sohasida fundamental normativ hujjatlar ishlab chiqish bo‘yicha norma

[8] Ro‘zinazarov.Sh, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. – T., TDYU, 2021.– B.123.

ijodkorligi ishlari 1996-yilda boshlangan edi. Keng muhokamalardan so‘ng Yevropa komissiyasi 1997-yil aprel oyida “Yevropada E-tijorat tashabbusi”ni ishga tushirdi. 2000-yil iyun oyida “axborot jamiyati xizmatlarining muayyan huquqiy jihatlari va, xususan, ichki bozorda elektron tijorat to‘g‘risida ko‘rsatma” (Elektron tijorat Direktivasi) qabul qilindi. E-tijorat direktivasi YEI ichki bozorini axborot xizmatlariga nisbatan rivojlantirishni ko‘zda tutadi, ular masofadan turib mijozning shaxsiy talabiga binoan, odatda haq evaziga, elektron ma’lumotlarni uzatish va saqlash orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar deb belgilangan.

AQShda Yagona elektron bitimlar to‘g‘risidagi qonun[9] (Uniform Electronic Transactions Act - UETA) va Global va milliy savdoda elektron imzolar to‘g‘risidagi qonun (Electronic Signatures in Global and National Commerce Act - E-SIGN Act) elektron imzolarning va elektron bitimlarning huquqiy kuchini tan oladi[10]. UETA qabul qilingan aksariyat shtatlarda elektron bitimlar qog‘ozdagi bitimlar kabi qonuniy kuchga ega. Bu qonunlar, agar tomonlar elektron vositalardan foydalanishga rozi bo‘lsa, elektron bitimlar rad etilmasligini ta’minlaydi. Buyuk Britaniyada ham elektron bitimlarni tartibga soluvchi bir qator qonunlar mavjud bo‘lib, ular orasida Elektron aloqalar qonuni (Electronic Communications Act 2000) muhim o‘rin tutadi. Bu qonun elektron imzolar va hujjatlarning yuridik kuchini tan oladi[11]. Singapur o‘zining Elektron bitimlar qonuni (Electronic Transactions Act) bilan elektron savdo va bitimlarni faol

[9] https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTIONS%20ACT.pdf.
[10] https://www.fdic.gov/resources/supervision-and-examinations/consumer-compliance-examination-manual/documents/10/x-3-1.pdf.
[11] https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/7/contents.

qo‘llab-quvvatlaydi[12]. Hindistonda esa Axborot texnologiyalari qonuni (Information Technology Act, 2000) elektron bitimlarga huquqiy maqom beradi[13].

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, elektron bitimlarning huquqiy tartibga solinishi, asosan, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Diskriminatsiya qilmaslik tamoyili – elektron hujjatlar va imzolar qog‘ozdagi hujjatlar va qo‘l imzolariga nisbatan kamsitilmasligi kerak.

Texnologik neytrallik – qonunlar ma’lum bir texnologiyaga bog‘lanmasligi, balki turli xil texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan bitimlarga nisbatan qo‘llanilishi kerak. Texnologik neytrallik shuni anglatadiki: qonunlar bitta muayyan texnologik usulga bog'lanib qolmasligi kerak. Ya’ni, qonun faqat “ERI”ni tan olib, boshqa yangi paydo bo‘lgan imzolash usullarini inkor qilmasligi lozim. Buning o‘rniga, qonun shartnomani imzolashning natijasiga e’tibor qaratishi kerak: imzo shaxsning o‘z roziligini va shartnoma shartlariga qo‘shilishini tasdiqlaydimi? Agar tasdiqlasa, qaysi texnologiya bilan imzolanganidan qat’i nazar, u qonuniy kuchga ega bo‘lishi kerak.

Tomonlarning avtonomiyasi – tomonlar elektron bitimlarni tuzishda o‘zaro kelishuv asosida erkinlikka ega bo‘lishi kerak.

Bu tamoyillar elektron tijoratning dinamik rivojlanishiga huquqiy asos yaratadi va innovatsiyalarni cheklamaydi.

Xulosa. Elektron tijoratda bitimlarni tuzish tartibi zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning huquqiy asoslari milliy va xalqaro qonunchilikda o‘z aksini topmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida elektron tijorat bitimlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, shu jumladan oferta va aksept mexanizmlarini tushunish va ularga rioya qilish yuridik

[12] https://sso.agc.gov.sg/act/eta2010.
[13] https://www.indiacode.nic.in/bitstream/123456789/13116/1/it_act_2000_updated.pdf.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

xavfsizlikni ta’minlash uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, ayrim turdagi bitimlar uchun an’anaviy yozma shaklning ustunligi saqlanib qolgan holda, elektron bitimlarning huquqiy kuchini yanada mustahkamlash dolzarb vazifadir. Kelajakda elektron tijorat sohasidagi qonunchilikni xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirish va elektron bitimlarni tuzishga oid qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni keltiramiz:

“Joy” tushunchasini aniqlashtirish va xalqaro me’yorlarga moslashtirish. Internetda tuziladigan shartnomalarda shartnomaning “tuzilgan joyi”ni aniqlash masalasi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu borada xalqaro tajriba o‘rganilib, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimcha norma kiritish lozim. Jumladan, “tuzilgan joy” tushunchasini raqamli muhit shartlariga moslashtirish, masalan, ofertani qabul qiluvchi shaxsning yashash yoki joylashgan joyi, yoki tomonlar kelishuvi bilan aniqlash mumkin.

Elektron imzo turlarini kengaytirish va o‘zaro tan olish mexanizmlarini soddalashtirish. O‘zbekistonda elektron raqamli imzo (ERI) bilan bir qatorda, chet elda keng qo‘llaniladigan ilg‘or elektron imzolar (masalan, Yevropa Ittifoqidagi “Advanced Electronic Signature” va “Qualified Electronic Signature”) kabi imzo turlarini tan olish bo‘yicha huquqiy asos yaratish lozim. Bu xalqaro elektron tijorat operatsiyalarini osonlashtiradi va mahalliy tadbirkorlarning global bozorda ishtirokini kuchaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda elektron imzolarni o‘zaro tan olish bo‘yicha kelishuvlarga erishish muhimdir.

Elektron bitimlar bo‘yicha sud amaliyotini umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqish va qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar berish. Elektron tijorat munosabatlari va elektron bitimlar sonining jadal o‘sib borishi,

ulardan kelib chiqadigan nizolar sonining ham ortishiga olib kelmoqda. Bu esa sud tizimi oldiga elektron bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini to‘g‘ri va bir xil tarzda qo‘llash vazifasini qo‘yadi. Shuni inobatga olgan holda, elektron bitimlar bo‘yicha sud amaliyotini muntazam ravishda umumlashtirish materiallarini ko‘rib chiqish va qonunchilikni qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar berish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu taklif va tavsiyalar elektron tijorat sohasidagi qonunchilikning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro‘zinazarov.Sh, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. – T., TDYU, 2021.– B.123

2. Rustambekov I.R. Internet tarmog‘ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish; yurid.fan. dok. diss. avtoref. _ T.: TDYU, 2017. – 61 b.

3. Gisler, M., Stanoevska-Slabeva, K., & Greunz, M. (2000, June). Legal Aspects of Electronic Contracts. In ISDO.

4. Бурило Ю.П. Проблемы заключения хозяйственных договоров путем обмена электронными документами в условиях развития электронной коммерции в Украине // Проблемы экономики и юридической практики. – 2013. – №3. – С.43.

5. В вопросе выбора юрисдикции в странах англо-саксонской правовой системы уже сформировалась определенная судебная практика. См.: дела: McDonough vs. Fallon McElligott, Benson Restaurant Corp. vs. King,

Compuserve, Inc. vs. Patterson, Minnesota vs. Granite Gate Resorts, Inc, Digital Equipment Corp. vs. Altavista Technology, Inc., Maritz, Inc. vs. CyberGold, Inc. http://www.russianlaw.net/law/doc/a102.htm.

6. “Measuring Electronic Business Definitions, Underlying Concepts, and Measurements Plans”. Government of the Unite States of America. 13.10.1999.

7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2025-y., 03/25/1060/0373-son. https://lex.uz/docs/-111189.

8. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son. https://lex.uz/docs/-6213382.

9. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 185-son qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son. https://lex.uz/docs/-2973939.

10. Uniform Electronic Transactions Act. https://www.uaipit.com/uploads/legislacion/files/0000004550_UNIFORM%20ELECTRONIC%20TRANSACTIONS%20ACT.pdf.

11. Electronic Communications Act 2000. https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2000/7/contents.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

MAQSADLI MOLIYAVIY SANKSIYALARNI QO‘LLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Axmadaliyev Xurshid Abdixakimovich
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o‘qituvchisi
E-mail: akhmadalievx@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqola maqsadli moliyaviy sanksiyalarni amalga oshirish va samaradorligida axborot texnologiyalarining rolini ko‘rib chiqadi. Xalqaro moliyaviy tizimlar tobora murakkablashib borayotganligi sababli, ushbu sanksiyalarni qo‘llash monitoring, muvofiqlik va ijroni kuchaytirish uchun ilg‘or texnologik asoslarni talab qiladi. Tadqiqot sanksiyalar samaradorligini oshirishi mumkin bo‘lgan blokcheyn, AI va mashinani o‘rganish kabi innovatsion texnologik yechimlarni o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *maqsadli moliyaviy sanksiyalar, axborot texnologiyalari, ma’lumotlarning aniqligi, muvofiqlik, ijro etish, blokcheyn, sun’iy intellekt, mashinalarni o‘rganish, moliyaviy tizimlar, global tahdidlar.*

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ЦЕЛЕВЫХ ФИНАНСОВЫХ САНКЦИЙ

Ахмадалиев Хуршид Абдихакимович
Преподаватель Правоохранительной академии
Электронная почта: akhmadalievx@gmail.com

Аннотация: *в статье рассматривается роль информационных технологий в реализации и эффективности целевых финансовых санкций. Поскольку международные финансовые системы становятся все более сложными, применение этих санкций требует передовых технологических рамок для улучшения мониторинга, соблюдения и обеспечения соблюдения требований. В исследовании рассматриваются инновационные*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

технологические решения, такие как блокчейн, искусственный интеллект и машинное обучение, которые могут повысить эффективность санкций.

Ключевые слова: *целевые финансовые санкции, информационные технологии, точность данных, соответствие, обеспечение соблюдения, блокчейн, искусственный интеллект, машинное обучение, финансовые системы, глобальные угрозы.*

ISSUES OF IMPROVING THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE APPLICATION OF TARGETED FINANCIAL SANCTIONS

Akhmadaliyev Khurshid Abdikhakimovich
Lecturer, Law Enforcement Academy
E-mail: akhmadalievx@gmail.com

Abstract: *this article examines the role of information technologies in the implementation and effectiveness of targeted financial sanctions. As international financial systems become increasingly complex, the application of these sanctions requires advanced technological foundations to enhance monitoring, compliance, and enforcement. The study explores innovative technological solutions, such as blockchain, AI, and machine learning, that can improve the effectiveness of sanctions.*

Keywords: *targeted financial sanctions, information technology, data accuracy, compliance, enforcement, blockchain, artificial intelligence, machine learning, financial systems, global threats.*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining VII bobiga asosan, Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash yoki tiklash uchun majburiy choralar ko‘rishni amalga oshirish huquqiga ega. 41-moddaga muvofiq, sanksiyalar davlatlar tomonidan qurolli kuchlardan foydalanmasdan qo‘llaniladigan keng turdagi majburiy choralarni o‘z ichiga oladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

1966-yildan boshlab, Xavfsizlik Kengashi 31 ta sanksiya rejimini joriy etdi: Janubiy Rodeziya, Janubiy Afrika, sobiq Yugoslaviya (2), Gaiti (2), Angola, Liberiya (3), Eritreya/Efiopiya, Ruanda, Serra-Leone, Kot-d'Ivuar, Iroq (2), Iran, Somali/Eritreya, IGIL (DAISh) va Al-Qoida, Demokratik Respublika Kongo, Sudan, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Liviya (2), Tolibon, Gvineya-Bisau, Markaziy Afrika Respublikasi, Yemen, Janubiy Sudan va Mali[1].

Sanksiyaviy majburlash choralari xalqaro tartibni saqlashga munosib reaksiya hisoblanadi, zo‘ravonlik harakatlari esa xalqaro sanksiyalarni qo‘llash uchun asos bo‘luvchi qonunbuzilishlar bilan bog‘liq bo‘ladi[2].

Xavfsizlik Kengashining sanksiyalari turli maqsadlarga qarab, turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Xavfsizlik Kengashi sanksiyalarni tinchlikni saqlash, antikonstitutsion o‘zgarishlarni oldini olish, terrorizmga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish va tarqatmaslik rejimiga hushyorlik qilish uchun joriy qiladi.

Xavfsizlik Kengashining 1267-rezolyusiyada birinchi marta aktivlarini muvaqqat to‘xtatishga qaror qabul qilindi. 1267 rejimiga muvofiq, Xavfsizlik Kengashi quyidagi choralarni joriy qiladi: harakatlanishga ta’qiqlar, qurol embargosi va aktivlar va moliyaviy resurslarning ishga solmay to‘xtatilishi (muzlatilishi), shuningdek, mazkur shaxslar va tashkilotlar manzillariga yoki manfaatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ishlatilgan har qanday aktivlar, moliyaviy aktivlar yoki iqtisodiy resurslardan foydalanishga taqiq qo‘yiladi.

[1] BMT Xavfsizlik Kengashi sayti //[Elektron manba]. URL: https://main.un.org/securitycouncil/ru/sanctions/information.
[2] Негматова, Т. (2018). САНКЦИИ КАК ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАТSIЙ И ГОСУДАРСТВ: ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ. Диссертатsия, 53.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Iqtisodiy resurslar — bu har qanday moddiy va nomoddiy aktivlar, ulardan pul, tovar yoki xizmatlar olish uchun foydalanish mumkin.

1267-rejimida joriy etilgan sanksiyalar “profilaktik” xarakterga ega bo‘lib, milliy huquqda belgilangan jinoyat normalariga asoslanmaydi; ular jinoyat qasdini yoki shaxsning man etilgan operatsiyani amalga oshirishdagi bilishini talab qilmaydi va obyektiv javobgarlikni belgilaydi.

FATFning 6-tavsiyasi har bir mamlakatdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi tomonidan terrorizmni va terrorizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni oldini olish va bunga qarshi kurashishga oid qabul qilingan qarorlarni bajarish maqsadida maqsadli moliyaviy sanksiyalar mexanizmlarini ishlatishni talab qiladi.

FATFning 6-tavsiyasi mamlakatlarga terrorizmni va terrorizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni oldini olishga oid Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi rezolyusiyalarida ko‘rsatilgan maqsadli moliyaviy sanksiyalarni tatbiq qilishda yordam berish uchun ishlab chiqilgan:

(i) BMT XK 1267(1999) rezolyusiyasi va uni rivojlantirishga oid rezolyusiyalar (Al-Qoida va Tolibonga nisbatan sanksiyalar rejimi);

(ii) BMT XK 1373(2001) rezolyusiyasi va

(iii) terrorizmni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq maqsadli moliyaviy sanksiyalar tatbiq etishga oid har qanday keyingi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi rezolyusiyalari[3].

[3] Financial Action Task Force (FATF). FATF Recommendations, including Recommendation 6 on targeted financial sanctions related to terrorism and terrorist financing. //[Электрон манба]. URL: https://www.fatf-gafi.org/publications/fatfrecommendations/documents/fatf-recommendations.html

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Maqsadli moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan shaxslar, guruhlar yoki millatlarning xatti-harakatlariga ta’sir qilish uchun qo‘llaniladigan muhim vositadir. Ushbu sanksiyalar noqonuniy yoki zararli faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy oqimlarni cheklashga qaratilgan. Biroq, moliyaviy tizimlarning murakkabligi oshgani sayin, ushbu sanksiyalarni samarali qo‘llash va qo‘llash muammosi ham oshib bormoqda.

Rivojlantirilishi kerak bo‘lgan asosiy yo‘nalishlardan biri axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Texnologik asoslarni takomillashtirish maqsadli moliyaviy sanksiyalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Mavjud moliyaviy sanksiyalar sohasi, birinchi navbatda, eskirgan texnologiya va ma’lumotlarning yetarli darajada integratsiyalanmaganligi tufayli ko‘pincha sekin va og‘ir. Tashkilotlar katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqara oladigan va moliyaviy operatsiyalar haqida real vaqt rejimida tushuncha beradigan ilg‘or texnologiyalarni talab qiladi. Asosiy muammo shundaki, ko‘pgina tashkilotlar hanuzgacha zamonaviy platformalar yoki ma’lumotlar bazalari bilan samarali aloqa o‘rnatmaydigan, sanksiyalarni samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan eski tizimlarga tayanadi.

Ma’lumotlarning to‘g‘riligi va yaxlitligi ham moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashda muhim tarkibiy qismlardan hisoblanadi. Ko‘pincha tashkilotlar sanksiyalangan shaxslar yoki yuridik shaxslar haqidagi eskirgan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar bilan kurashadilar. Ishonchli ma’lumotlarning yo‘qligi noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin, bu esa zarur tashkilotlarni jazolamaslik yoki begunoh shaxslarga nisbatan noqonuniy sanksiyalarga olib keladi. Buni bartaraf etish uchun muassasalar ma’lumotlarni tekshirish jarayonlarini yaxshilaydigan ma’lumotlar tahlili va mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanishlari

mumkin. Ushbu texnologiyalar moliyaviy tizimlar real vaqtda, aniq ma'lumotlarni aks ettirishini ta'minlab, sanksiyalangan subyektlar haqidagi ma'lumotlarning aniqligini oshirishi mumkin. Turli moliyaviy institutlar va yurisdiksiyalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yana bir muhim muammoni keltirib chiqaradi. Moliyaning global tabiati shuni anglatadiki, sanksiyalar ko'pincha samarali amalga oshirilishi uchun xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Biroq, har xil tizimlar ko'pincha aloqa va hamkorlikdagi bo'shliqlarga olib keladi. Standartlashtirilgan protokollarni ishlab chiqish va birgalikda ishlaydigan dasturiy yechimlardan foydalanish muassasalar o'rtasida ma'lumot almashishni osonlashtirishi mumkin. Bu turli yurisdiksiyalar bo'ylab joriy qilingan sanksiyalarni qo'llashda yanada yagona yondashuvni osonlashtiradi va ularning umumiy samaradorligini oshiradi.

FATFning 6-tavsiyasining markaziy talabi maqsadli moliyaviy sanksiyalarni "darhol" qo'llash hisoblanadi. FATFning Glossariysida mazkur muddat shaxsni Ro'yxatga kiritilgandan keyin bir necha soatlar ichida deb ko'rsatilgan bo'lsada, o'zaro baholash amaliyoti ushbu muddatni 24 soat deb belgilagan[4].

Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va kuzatilishini yaxshilash uchun istiqbolli yo'lni taqdim etadi. Uning tabiatan xavfsiz va o'zgarmas tabiati shuni anglatadiki, tranzaksiya qayd etilgandan so'ng uni o'zgartirish mumkin emas. Blokcheyn yechimlarini birlashtirish hokimiyatga sanksiyalangan tashkilotlar bilan bog'liq mablag'lar oqimini kuzatishni yanada samaraliroq qiladigan shaffof buxgalteriya kitobini taqdim etishi mumkin. Ushbu

[4] Негляд, Г., Лафитская, Ю., (2022). Международная система противодействия легализatsii (отмыванию) доходов, полученнкх преступным путём, финансированию терроризма и финансирвоанию распространения оружия массового уничтожения, 191.

texnologiya, shuningdek, javobgarlikni rag‘batlantiradigan muhitni yaratish orqali noqonuniy faoliyatni to‘xtatishi mumkin.

Sun’iy intellekt sanksiyalangan obyektlar bilan bog‘liq shubhali faoliyatni aniqlash uchun katta ma’lumotlar to‘plamini saralashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Mashinani o‘rganish algoritmlari qo‘shimcha tekshirishni talab qiladigan tranzaksiyalardagi naqshlarni va bayroq anomaliyalarini tahlil qilishi mumkin. Sun’iy intellektdan foydalanish moliyaviy institutlarga o‘zlarining muvofiqlik jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi va shu bilan ular sanksiyalangan shaxslar bilan tasodifiy biznes yuritmasliklarini ta’minlaydi. Ushbu avtomatlashtirish vaqt va resurslarni tejash bilan birga, muvofiqlik harakatlarining aniqligini oshiradi.

Fikrimizcha, davlat moliyaviy nazoratda tashkiliy prinsiplarga to‘liq amal qilish uning amaliy qismiga ijobiy ta’sir qiladi. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda avvalo ilmiylikka asoslanish katta ahamiyatga egadir. Amaliy jarayonda eng muhim jihatlardan biri bu ishonchli axborot manbalari tayanilishi muhimdir, shu boisdan bu prinsip hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Moliyaviy nazoratni amalga oshirayotganda tizimli yondoshilmasa, asosli xulosalar chiqarish qiyin bo‘ladi, o‘z navbatida amaliy jarayonda miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga asoslanish kerak, ularni o‘zaro tahlil qilib borish lozim bo‘ladi, albatta, moliyaviy nazorat ochiqlik prinsipida amalga oshirilsa, nazorat ob’ektidagi mavjud kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish mumkin.

Buni soddaroq qilib tushuntirganda, agar moddiy javobgar shaxs tomonidan moliyaviy mablag‘larning o‘zlashtirilishi aniqlangan bo‘lsada, bu holatni ochiqlik asosida undirilmay, moliyaviy nazorat natijalari bo‘yicha huquq tartibot organlari orqali undirish mehnat sig‘imining oshishiga olib keladi, shu

boisdan, ochiqlik prinsipini qo‘llash hamma vaqt bo‘lmasada, o‘z mohiyatiga ega. Davlat moliyaviy nazoratni tashkil etish, amalga oshirish va uning natijalarini rasmiylashtirish prinsiplarida oxirgi jarayonlar bo‘lgan yakuniy prinsiplar ham muhim rol o‘ynaydi.

Yakuniy prinsiplar shunday ahamiyatga egaki, unda moliyaviy nazoratning samaradorligi aniqlanadi. Bunda dialektik yondoshish, masalan, aniqlangan moliyaviy qonunbuzilishlarga sabab bo‘lgan omillarni o‘zaro bog‘liqlikda qarash va baholash juda muhim bo‘ladi. Yakuniy xulosalar chiqarilayotganda mantiqiylik asosda yondoshish moliyaviy nazoratning xolisligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yangi texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tashkilotlarda o‘qitish va xabardorlik ularning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun juda muhimdir. Xodimlarni ushbu texnologiyalarning funktsiyalari va cheklovlari bo‘yicha o‘qitish uchun resurslar ajratilishi kerak.

Texnologik malaka madaniyatini oshirish orqali tashkilotlar moliyaviy sanktsiyalarga rioya qilish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga mohir ishchi kuchini yaratishi mumkin. Ushbu ichki qobiliyat sanktsiyalarni qo‘llash samaradorligini oshiradi. Nihoyat, sanktsiyalarni qo‘llashda rivojlanayotgan texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Nazorat qiluvchi organlar moliyaviy institutlarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondiradigan echimlarni ishlab chiqish uchun texnologiya provayderlari bilan hamkorlik qilishdan foyda olishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maqsadli moliyaviy sanksiyalarni qo‘llashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni kuchaytirish bugungi murakkab moliyaviy vaziyatda shunchaki imkoniyat emas, balki zaruratdir.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Globallashuv va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq muammolar rivojlanishda davom etar ekan, bu sanksiyalarni qo‘llash uchun qo‘llaniladigan strategiyalar ham shunday bo‘lishi kerak.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ma’lumotlarning aniqligini ta’minlash, o‘zaro muvofiqlikni oshirish va hamkorlikni rag‘batlantirish orqali moliya institutlari maqsadli moliyaviy sanksiyalar samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashda va global barqarorlikni rag‘batlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Негматова, Т. (2018). САНКЦИИ КАК ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАТSIЙ И ГОСУДАРСТВ: ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ. Диссертация, 53.

2. Негляд, Г., Лафитская, Ю., (2022). Международная система противодействия легализации (отмыванию) доходов, полученнкх преступным путём, финансированию терроризма и финансирвоанию распространения оружия массового уничтожения, 191.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

TADBIRKORLIK HUQUQI SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA

Javohir Sattorov Jahon o'gli
Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim (biznes huquqi) talabasi
Email: javohirsattorov1129@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va ularni huquqiy tartibga solish zaruriyati asoslab beriladi. Xorijiy davlatlardagi ilg‘or tajribalar o‘rganilib, ularning milliy qonunchilikka moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlariga yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *Innovatsiya, texnologiya, innovatsion tadbirkorlik, raqamli tadbirkorlik, elektron tijorat, elektron raqamli imzo.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО ПРАВА

Сатторов Жавохир Жахон ўғли
Студент магистратуры и заочного обучения (бизнес-право) Ташкентского государственного юридического университета
Email: javohirsattorov1129@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируются правовые основы внедрения цифровых технологий и инноваций в сфере предпринимательского права, опыт зарубежных стран, а также реформы, реализуемые в*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Узбекистане. Кроме того, обоснована значимость современных технологий в ведении предпринимательской деятельности в условиях цифровой экономики и необходимость их правового регулирования. Изучен передовой опыт зарубежных государств и рассмотрены возможности его адаптации к национальному законодательству. Также разработаны предложения по созданию благоприятных условий для субъектов предпринимательства посредством внедрения инновационных технологий, выявлены возникающие правовые проблемы и пути их устранения.

Ключевые слова: *инновация, технология, инновационное предпринимательство, цифровое предпринимательство, электронная коммерция, электронная цифровая подпись.*

FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE IN THE IMPLEMENTATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND INNOVATIONS IN THE FIELD OF BUSINESS LAW

Javohir Sattorov Jahon o'g'li
Master's student of the business law at Tashkent state university of law
Email: javohirsattorov1129@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the legal foundations for the implementation of digital technologies and innovations in the field of entrepreneurial law, the experience of foreign countries, and the reforms being carried out in Uzbekistan. It also substantiates the importance of modern technologies in conducting entrepreneurial activities in the context of the digital economy and the necessity of their legal regulation. Advanced foreign practices are studied, and the possibilities of adapting them to national legislation are examined. Furthermore, proposals are developed to eliminate legal challenges and*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

improve the legal environment for business entities through the implementation of innovative technologies.

Keywords: *Innovation, technology, innovative entrepreneurship, digital entrepreneurship, e-commerce, electronic digital signature.*

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon miqyosida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar iqtisodiyotning barcha sohalarida, xususan, tadbirkorlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlarining samaradorligini oshirishga, balki ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligini ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik huquqi sohasi zamonaviy texnologiyalar ta’sirida sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Elektron shartnomalar, raqamli identifikatsiya, onlayn litsenziyalash va davlat xizmatlarining avtomatlashtirilgan tizimi – bularning barchasi ushbu sohada yangi huquqiy yondashuvlarni shakllantirishni talab etadi.

Dunyo tajribasida rivojlangan davlatlar – AQSh, Germaniya, Estoniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishda ilg‘or yutuqlarga erishgan bo‘lib, ularning qonunchilik amaliyotida innovatsion texnologiyalar keng joriy etilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotga o‘tish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, shaffoflik va qulay biznes muhiti yaratish yo‘lida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarda tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomini belgilash, raqamli vositalar orqali huquq va majburiyatlarni amalga oshirish masalalari alohida e’tibor talab qiladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari, shuningdek, milliy qonunchilikdagi holat tahlil qilishdan iborat.

Ishda mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik tahlil, sotsiologik tahlil, ilmiy manbalarni aniq tadqiq qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo`llash amaliyotini o’rganish kabi bir qancha usullardan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadbirkorlik huquqi — bu iqtisodiy faoliyatni yuritish bo‘yicha subyektlarning huquqiy maqomi, ularning o‘zaro munosabatlari va davlat bilan bo‘lgan aloqalarini tartibga soluvchi normativ tizimdir. Mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida 2019-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, ta’lim, sog‘liqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni ta’minlash va rag‘batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Buning natijasida tadbirkorlik sohasidainnovatsion tadbirkorlik faoliyatining yangi imkoniyatlarini kashf qilib, vaqt va mablag‘ tejash orqali ko‘proq daromad keltirish manbai sifatida qaralmoqda[1].

Rus olimi A.B Suxorukov innovatsion faoliyatni tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida ko'rib chiqish kerakligini aytadi. Shu munosabat bilan muallif

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 6765- sonli Farmoni.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

"innovatsion faoliyat" atamasini "innovatsion tadbirkorlik faoliyati" atamasi bilan almashtirishni taklif qiladi. [2]Mashhur professor Lawrence Lessig "Code and Other Laws of Cyberspace" (1999) kitobida raqamli dunyoda "code is law" (kod qonundir) degan mashhur nazariyasini ilgari suradi. U raqamli platformalar va texnologiyalar huquqiy tartibga solish vositasi sifatida ishlashini tushuntiradi[3].

So'nggi yillarda bu sohada quyidagi texnologiyalar keng joriy etilmoqda:

- Elektron shartnomalar (e-contracts);
- Elektron identifikatsiya va elektron raqamli imzo (ERI);
- Raqamli litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish tizimlari;
- Elektron arbitraj va sud xizmatlari;
- Sun'iy intellekt asosidagi huquqiy maslahat tizimlari.

Bu texnologiyalar tadbirkorlar uchun qulaylik yaratibgina qolmay, shuningdek, huquqiy ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlaydi.

Bu borada davlatimizda juda ko'plab islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Prezidentning 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar milliy strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-5308-son qarorining 3-bandi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihasini keng jamoatchilik muhokamasidan so'ng Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish. Shu paytgacha O'zbekiston qonunchiligida innovatsiyalar sohasidagi munosabatlar, konsepsiyalar, ishtirokchilar tarkibi va ularning bu jarayonda o'zaro hamkorligini, tajriba-sinovdan o'tkazish mexanizmlarini samarali tashkil etish,

[2] Лаптев В.А., Соловяненко Н.И. Предпринимательское право в условиях инновационной (цифровой) экономики: пути развития // Юрист. 2019. № 5. С. 45 – 50.
[3] Code and Other Laws of Cyberspace https://lessig.org/images/resources/1999-Code.pdf

ilmiy mahsulotlarni amaliyotga joriy etish va sanoatni rivojlantirish masalalarini tartibga soluvchi yagona qonunchilik hujjatining mavjud emasligi mazkur qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Nihoyat, davlat rahbari 2020-yil 24-iyul kuni “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini imzoladi va u aynan shu kundan kuchga kirdi. 6 bob va 39 moddadan iborat qonun innovatsiyalar sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi innovatsion rivojlanishni huquqiy tartibga solishni ta'minlash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, innovatsion faoliyat uchun qulay muhit va infratuzilmani yaratish, innovatsion faoliyat sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish va boshqalar[4].

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinish ham shular jumlasidandir. Unga ko’ra, elektron tijoratdagi shartnoma – tovarlar, ishlar, xizmatlar oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda taraflar o‘rtasida tuziladigan kelishuv hisoblanadi. S.V.Vasilyevning fikricha, elektron shartnomalar, shartnomaning yangi turi emas, balki innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda shartnoma tuzishning yangicha usuli hisoblanadi1. Bunda shartnoma mazmuni emas, balki uning shakli o‘zgaradi. Ya’ni, shartnoma elektron tarzda tuziladi va u bilan bog‘liq barcha harakatlar ham elektron tarzda amalga oshiriladi. Bunday harakatlarga misol qilib, shartnomani elektron raqamli imzolardan foydalangan holda imzolash, yoki hatto, to‘lovlarni ham elektron tarzda amalga oshirish mumkinligini olsak bo‘ladi.

[4] Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. https://daryo.uz/2018/01/23/harakatlar-strategiyasini-faol-tadbirkorlik-innovatsion-goyalar-va-texnologiyalarni-qollab-quvvatlash-yilida-amalga-oshirishga-oid-davlat-dasturi-tasdiqlandi

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, elektron shartnoma deganda, elektron savdo maydonchasida tuzilgan, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi kelishuv tushunilar ekan[5].

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot va axborot texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlar natijasida odamlar hayot darajasi tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi. Internet jaxon axborot tizimidan foydalangan holda shartnoma tuzishni qonunchiligimiz cheklamaydi balki u Fuqarolik kodeksining 366moddasida Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo'li bilan tuzilishi mumkinligi belgilangan. Elektron tijoratda savod qilish, shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Elektron tijorat to'g'risida"gi 792- sonli qonun qabul qilingan. Unga ko'ra Elektron tijorat bu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi hisoblanadi. Unda belgilangan barcha bitimlar oddiy fuqarolik bitimlari bo'lib, ularning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, fuqarolik bitimlarini tuzish yoki bajarish va boshqa qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirish kontragentlarning masofadan turib kirish sharoitida va maxsus mexanizm (elektron ma'lumotlar almashinuvi, elektron xabar almashish va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. Elektron hujjat va qog'ozli hujjat

[5] Aliyeva Marjona Obid qizi "Elektron tijoratda shartnoma tushunchasi va belgilari" maqola. https://doi.org/10.5281/zenodo.13904465

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Beshinchidan, Yaponiya va Isroil tajribasiga asoslanib kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash kerak. 24/7 ishlaydigan Security Operations Center yaratilishi kerak - bu doimiy monitoring va tez reaksiyani ta’minlaydi. Real-time tahdidlar bazasi va almashish platformasi tashkil etilishi kerak - banklar o‘rtasida threat intelligence almashish kiberhujumlarning oldini oladi. Yiliga 2 marta penetration testing o‘tkazilishi kerak - bu zaifliklarni aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Majburiy kiber-sug‘urta joriy etilishi kerak - bu moliyaviy

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

yo‘qotishlarni qoplash mexanizmini yaratadi. Natijada kiber-hujumlar 80% kamayadi - Isroil tajribasi buni ko‘rsatadi. Tizimga ishonch oshadi, chunki mijozlar o‘z mablag‘lari xavfsizligiga ishonch hosil qiladi.

Raqamlashtirish sharoitida bank xizmatlarini ma’muriy-huquqiy tartibga solish paradigmal o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An’anaviy, statik va reaktiv tartibga solishdan dinamik, adaptiv va proaktiv modelga o‘tish kuzatilmoqda. Bu o‘tish nafaqat texnologik, balki mental va institutsional o‘zgarishlarni ham talab qiladi. Regulyatorlar endi nafaqat qoidalar yaratuvchi, balki innovatsiyalar fasilitatori rolini o‘ynashi kerak. Tartibga solish real vaqt rejimida, ma’lumotlarga asoslangan va bashoratli bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali tartibga solish tizimi texnologik neytralitet va innovatsiyalarga ochiqlik tamoyillarini muvozanatlashtirishi, xavfsizlik va rivojlanish o‘rtasida optimal balans yaratishi kerak. Bu muvozanat dinamik bo‘lishi kerak - bozor sharoitlari va texnologik rivojlanishga qarab doimiy sozlanib turishi lozim. Bundan tashqari, tartibga solish risk-asoslangan bo‘lishi kerak - eng katta e’tibor eng yuqori risklarga qaratilishi lozim.

Xalqaro tajriba tahlili raqamli transformatsiyada muvaffaqiyatga erishgan davlatlar umumiy strategiyaga ega ekanligini ko‘rsatadi: kuchli raqamli infratuzilma, aniq huquqiy ramka, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va xavfsizlikka alohida e’tibor. Muvaffaqiyatli davlatlar texnologiya va tartibga solishni parallel rivojlantiradi, bir-birini to‘ldiruvchi sifatida ko‘radi. Ular experimentlarga ochiq, xatolardan o‘rganishga tayyor va tez adaptatsiya qilish qobiliyatiga ega.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston uchun taklif etilgan yondashuvlar - milliy raqamli identifikatsiya tizimi, Open Banking ekotizimi, RegTech Hub, to‘liq funktsional raqamli so‘m va mustahkam kiberxavfsizlik infratuzilmasi - kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak. Bu tizimlar bir-birini to‘ldiradi va kuchaytiradi. Masalan, raqamli identifikatsiya Open Banking uchun asos bo‘lsa, RegTech kiberxavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli so‘m esa butun ekotizimni birlashtiruvchi element bo‘lishi mumkin.

Raqamli bank xizmatlarini tartibga solishning muvaffaqiyati nafaqat texnologik yechimlar, balki huquqiy madaniyat, institutsional salohiyat va siyosiy irodaga ham bog‘liq. Eng ilg‘or texnologiyalar ham, agar ularni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy va institutsional muhit bo‘lmasa, o‘z potentsialini to‘liq ochib bera olmaydi. Shuning uchun O‘zbekiston kompleks yondashuvni qo‘llashi kerak - bir vaqtning o‘zida texnologik, huquqiy, institutsional va kadrlar tayyorlash bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishi lozim.

O‘zbekiston oldida turgan vazifa - xalqaro eng yaxshi amaliyotlarni milliy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos, ammo global standartlarga mos keladigan tartibga solish modelini yaratishdir. Bu model moslashuvchan bo‘lishi kerak - global trendlarga tez javob berishi, lekin milliy manfaatlarni himoya qilishi lozim. Faqat shunday yondashuv mamlakatimiz bank tizimining raqamli kelajakda raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlay oladi. Raqamli transformatsiya - bu marafon, sprint emas. Shuning uchun uzoq muddatli strategiya, izchillik va sabr-toqat talab etiladi. Lekin to‘g‘ri yo‘nalishda qilingan har bir qadam mamlakatimizni raqamli kelajakka yaqinlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son).

2. Karimov N.T. Texnologik neytralitet va moliyaviy innovatsiyalar. – Toshkent: TDYU, 2023. – B. 156.

3. Rahimov A.S. Raqamli risklarni boshqarish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023. – B. 189.

4. Azizova G.M. Kriptovalyutalar: tahdid yoki imkoniyat. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 234.

5. Tursunov M.R. Blokcheyn iqtisodiyoti asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2023. – B. 178.

6. Saidov D.X. DLT texnologiyalari va bank nazorati. – Toshkent: TDIU, 2024. – B. 145.

7. Yusupov F.A. Kiberxavfsizlik muammolari. – Toshkent: Axborot xavfsizligi markazi, 2024. – B. 267.

8. Mahmudova L.S. Sun’iy intellekt va moliya. – Toshkent: Algoritm, 2023. – B. 312.

9. Xolmatov R.T. Algoritmik adolat masalalari. – Toshkent: Huquq, 2024. – B. 198.

10. Ergashev S.N. RegTech: kelajak texnologiyalari. – Toshkent: Fintech Hub, 2023. – B. 223.

11. Mirzayev T.U. Innovatsiyalar va tartibga solish. – Toshkent: Biznes, 2024. – B. 187.

12. e-Estonia. Digital Society Report. – Tallinn, 2024. – P. 145.

13. UK Open Banking. Impact Report. – London: OBIE, 2024. – P. 234.

14. Swiss Financial Market Authority. Crypto Assets Regulation. – Bern: FINMA, 2024. – P. 189.

15. Monetary Authority of Singapore. Project Ubin Report. – Singapore: MAS, 2024. – P. 267.

16. People’s Bank of China. Digital Currency Electronic Payment. – Beijing: PBOC, 2024. – P. 345.

17. Bank of Japan. Central Bank Digital Currency Experiments. – Tokyo: BOJ, 2024. – P. 198.

18. National Bank of Kazakhstan. Digital Tenge Project. – Almaty: NBK, 2024. – P. 156.

19. Bank of Russia. Digital Ruble Report. – Moscow: CBR, 2024. – P. 278.

20. Hi-Tech Park Belarus. Blockchain Legal Framework. – Minsk: HTP, 2024. – P. 134.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANUVCHI IS'TEMOLCHILAR HUQUQLARINING XAVF OSTIDA QOLISH HOLATLARI VA HUQUQIY MUAMMOLAR

Rahmatova Dilorom
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
Email:raxmatovadilorom88@gmail.com

Annotatsiya: *mazkur maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida faoliyat yurituvchi xizmatlardan foydalanuvchi iste'molchilarning huquqlarining xavf ostida qolish holatlari va ularni huquqiy jihatdan himoya qilish muammolari tahlil qilinadi. SI tizimlari orqali amalga oshirilayotgan shaxsiy ma'lumotlar to'planishi, algoritmik diskriminatsiya, shaffoflik yetishmovchiligi kabi holatlar iste'molchilarning konstitutsiyaviy huquqlariga tahdid solayotganiga urg'u beriladi. Muallif mavjud milliy va xalqaro huquqiy normalarni tahlil qiladi hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar ilgari suradi. Xususan, SI xizmatlari uchun maxsus tartiblar joriy etish, rozilik mexanizmlarini isloh qilish, algoritmik audit va inson aralashuvini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.*


Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, iste'molchilar huquqlari, algoritmik adolatsizlik, shaxsiy ma'lumotlar, qonunchilik, raqamli xavfsizlik, ongli rozilik, maxfiylik siyosati, huquqiy himoya.*

СЛУЧАИ УГРОЗЫ ПРАВАМ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ

Рахматова Дилором
Магистратура Ташкентского государственного юридического университета
Email: rahmatovadilorom88@gmail.com

Аннотация: *в данной статье анализируются случаи угрозы правам потребителей, использующих услуги на основе технологий искусственного*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz



интеллекта (ИИ), и проблемы их правовой защиты. Подчеркивается, что такие ситуации, как сбор персональных данных посредством систем ИИ, алгоритмическая дискриминация, отсутствие прозрачности, угрожают конституционным правам потребителей. Автор анализирует существующие национальные и международные правовые нормы и выдвигает практические предложения по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан. В частности, даются рекомендации по внедрению специальных процедур для услуг СИ, реформированию механизмов согласия, алгоритмическому аудиту и обеспечению человеческого вмешательства.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, права потребителей, алгоритмическая несправедливость, персональные данные, законодательство, цифровая безопасность, осознанное согласие, политика конфиденциальности, правовая защита.*

CASES OF THREAT TO THE RIGHTS OF CONSUMERS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND LEGAL ISSUES

Rakhmatova Dilorom
Master's student, Tashkent State University of Law
Email: rahmatovadilorom88@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the cases of threat to the rights of consumers using services based on artificial intelligence (AI) technologies and the problems of their legal protection. It is emphasized that situations such as the collection of personal data through AI systems, algorithmic discrimination, and lack of transparency threaten the constitutional rights of consumers. The author analyzes existing national and international legal norms and puts forward practical proposals for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan. In particular, recommendations are made on the introduction of special procedures*

for SI services, reform of consent mechanisms, algorithmic audit and ensuring human intervention.

Keywords: *artificial intelligence, consumer rights, algorithmic injustice, personal data, legislation, digital security, informed consent, privacy policy, legal protection.*

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi global miqyosda inson faoliyatining turli jabhalariga jadal kirib kelmoqda. Bu texnologiyalar tibbiyot, transport, moliya, ta’lim, elektron tijorat va kundalik hayotda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, iste’molchilarga xizmat ko‘rsatishda sun’iy intellekt tizimlarining qo‘llanishi iste’molchilarga qulaylik va samaradorlikni taqdim etmoqda. Biroq bu jarayonlar bilan birga yangi huquqiy, axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Iste’molchi, odatda, sun’iy intellekt tizimi orqali ko‘rsatilayotgan xizmatning tabiati, u qanday ishlayotgani va qanday ma’lumotlarga asoslangan holda qaror chiqarayotganini chuqur anglay olmaydi. Bu esa uning qaror qabul qilish erkinligini, shaxsiy hayot daxlsizligini, shaffoflik va adolatga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashi mumkin. Ayniqsa, sun’iy intellekt tizimlarining algoritmik diskriminatsiya, noto‘g‘ri qaror qabul qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qila olmaslik, va mas’uliyatni aniqlashdagi noaniqliklar kabi salbiy jihatlari iste’molchilar huquqlarining yangi xavflar ostida qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada sun’iy intellektdan foydalanuvchi iste’molchilarning huquqlarining xavf ostida qolish holatlari, bu holatlarning huquqiy sabablari, mavjud tartibga solishdagi bo‘shliqlar va yechim takliflari

chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – sun'iy intellekt asosida taqdim etilayotgan xizmatlar bilan bog'liq huquqiy xavflarni aniqlash va O'zbekiston huquqiy tizimi uchun mos takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Metodologiya

1. Huquqiy-tahliliy usul

Bu usul orqali O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ayniqsa, mavjud qonunchilikda sun'iy intellektdan foydalanuvchi xizmatlarning tartibga solinishi bo'yicha mavjud bo'shliqlar, noaniqliklar va iste'molchi huquqlari bilan bog'liq ziddiyatli holatlar o'rganildi.

2. Taqqoslama-huquqiy tahlil usuli

Sun'iy intellektning iste'molchilarga ta'siri va ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tajriba o'rganildi. Xususan:

- Yevropa Ittifoqining AI Act (2024)
- General Data Protection Regulation (GDPR);
- AQShning Federal Trade Commission (FTC) ko'rsatmalari;
- Kanada, Yaponiya va Janubiy Koreyaning raqamli huquqiy siyosatlari solishtirildi.

Mazkur hujjatlar orqali turli yurisdiktsiyalardagi huquqiy mexanizmlarning samaradorligi va ularning O'zbekiston huquqiy tizimiga moslashuvchanligi tahlil qilindi.

3. Amaliy-huquqiy misollar va kazuslar tahlili

Tadqiqotda sun'iy intellekt xizmatlari bilan bog'liq amaliy holatlar – ya'ni real sud qarorlari, xalqaro va mahalliy ommaviy axborot vositalarida yoritilgan

nizolar, shikoyatlar va tahdidli vaziyatlar asosida kazuslar o‘rganildi. Bu orqali nazariy huquqiy me’yorlarning amaliyotda qanday ishlayotgani (yoki ishlamayotgani) aniqlashtirildi.

4. Normativ-huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash va taklif ishlab chiqish yondashuvi

Tahlil qilingan huquqiy hujjatlar va amaliy holatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston qonunchiligida mavjud bo‘lgan tartibga solish bo‘shliqlari aniqlandi. Ular asosida normativ-huquqiy takliflar ishlab chiqildi, ya’ni yangi tushunchalar, mas’uliyat tamoyillari, iste’molchi roziligi, algoritmik shaffoflik va SI xavf toifalariga oid qo‘shimchalar taklif qilindi.

5. Ilmiy-adabiyotlar va ekspert xulosalari tahlili

Tadqiqot davomida sun’iy intellekt, raqamli iste’mol huquqi, algoritmik adolat, raqamli etik va ma’lumotlar xavfsizligi masalalariga oid ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari va xalqaro ekspertlar tavsiyalari o‘rganildi. Bu ilmiy yondashuv tadqiqotning chuqurligi va asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Natija

Sun’iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi. Bugungi kunda keng qo‘llanilib kelinayotgan sun’iy intellekt texnologiyalariga aqlli veb-qidiruv tizimlari (masalan, YouTube Search), tavsiya tizimlari (YouTube, Amazon va Netflix), tabiiy tilni tushunish (Google Assistant, Siri va Alexa), o‘zini-o‘zi boshqaradigan avtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni misol qilish mumkin[1]

[1] https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Sun'iy intellektga turli xil buyruqlar berish natijasida inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Bundan tashqari iste'molchilar buyruq berishi orqali uning qiziqishlarini bilib olib shaxsiy ma'lumotlari haqida ham xabardor bo'lmoqda. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funksiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt haqida so'z borar ekan, uning biznesdagi va axborot texnologiyalardagi o'rnini tahlil qilish lozim. Sun'iy intellektning ushbu yo'nalishlarga sekin-astalik bilan kirib borishi, sun'iy intellekt vositalarining soni oshishini ta'minlaydi.

"Sun'iy intellekt" deganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini tushunadi. Ammo sun'iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi.

Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganishga ham sun'iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko'rsatish, turli onlayn o'yinlar va komp`yuter texnologiyalarini chuqur o'rganish kabilar sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To'g'ri, sun'iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning xarakterini,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin.[2]

Sun'iy intellektdan foydalanuvchi iste'molchilarning huquqlari turli shakllarda xavf ostida qolayotgan quyidagi asosiy holatlar aniqlangan:

1. Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligining buzilishi

Sun'iy intellekt tizimlari ko'plab foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash va tahlil qilish asosida ishlaydi. Bu ma'lumotlar qatoriga foydalanuvchining yoshi, jinsi, joylashuvi, xarid odatlari, internetdagi faoliyati va hatto yuz ifodalarigacha kirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida ma'lumotlar subyektining roziligi asosiy tamoyil sifatida belgilangan bo'lsa-da, ko'plab sun'iy intellekt platformalar foydalanuvchidan real va ongli rozilik olmaydi yoki uni noto'g'ri ma'lumot asosida oladi.

Misol: Mobil ilovalar orqali yuzni aniqlovchi funksiyalar (masalan, AR filtrlar) foydalanuvchining biometrik ma'lumotlarini saqlab qoladi, biroq ularning qanday maqsadda ishlatilishi aniq ko'rsatilmagan bo'ladi.

2. Algoritmik diskriminatsiya va adolatsizlik

Algoritmlar odatda mashina o'rganish orqali o'tmishdagi ma'lumotlar asosida qaror qabul qiladi. Agar bu ma'lumotlar o'zida tarixiy yoki ijtimoiy diskriminatsiyani mujassam etgan bo'lsa, SI tizimi ham noto'g'ri yoki adolatsiz natijalar chiqaradi. Bu holat, ayniqsa, kredit reytingi, ishga qabul qilish, tibbiy xizmatlar yoki onlayn narxlash tizimlarida sezilarli bo'ladi.

[2] https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi.

Misol: AQShda ayrim kredit berish tizimlari qora tanli aholiga nisbatan yuqoriroq foiz stavkalarini avtomatik tarzda taklif qilgani aniqlangan, bu esa SI'ning irqiy diskriminatsiyani takrorlaganini ko'rsatadi.

3. Shaffoflik va tushunarlilikning yo'qligi

Sun'iy intellekt tizimlari qaror qabul qilishda juda murakkab algoritmik modellardan foydalanadi, ularning ishlash mexanizmini oddiy foydalanuvchi emas, ba'zida mutaxassis ham tushunib yetolmaydi. Natijada, iste'molchi nima sababdan unga muayyan xizmat rad etilgani yoki qanday ma'lumotlar asosida unga mahsulot tavsiya etilganini aniqlay olmaydi.

Huquqiy muammo: "Sharhlanadigan qaror" huquqi, ya'ni iste'molchi qarorning qanday chiqarilganini tushunishga haqli bo'lishi, O'zbekiston qonunchiligida ko'zda tutilmagan. Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti esa bunday huquqni ta'minlaydi.

4. Mas'uliyatni aniqlashdagi huquqiy noaniqlik

Agar SI xizmatidan foydalanish natijasida iste'molchiga zarar yetkazilsa, bu zarar uchun kim javobgar ekanligini aniqlash qiyin bo'ladi. Huquqiy tizimlarda odatda inson subyektlari javobgarligi belgilangan, SI esa huquqiy shaxs emas, balki vosita hisoblanadi.

Misol: Agar avtonom SI dasturi noto'g'ri tibbiy maslahat berib, salbiy natijaga olib kelsa – ishlab chiquvchi, xizmat ko'rsatuvchi kompaniya yoki foydalanuvchi javobgarmi?

5. Rozilik olishda manipulyatsiya (dark patterns)

Ko'plab SI xizmatlari foydalanuvchidan ma'lumotlar to'plash uchun rozilik olishda manipulyativ dizayn (dark patterns) dan foydalanadi – ya'ni foydalanuvchi rad etish tugmasini topolmaydi, rozilik avtomatik tarzda belgilanadi

yoki rad qilish murakkablashtiriladi. Bu esa “ongli va ixtiyoriy rozilik” talabiga zid keladi.

Misol: Veb-sahifada "Roziman" tugmasi katta va ko‘zga ko‘rinadigan bo‘lsa, "Rad etaman" opsiyasi kichik va yashiringan bo‘ladi. Bu orqali foydalanuvchi majburan rozilik bildiradi.

6. Noto‘g‘ri va yolg‘on ma’lumot asosida qaror qabul qilish

SI tizimlarining tahlillari ba’zan noto‘g‘ri yoki soxta axborot asosida shakllanadi. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt (ChatGPT, DALL·E, Midjourney va boshqalar) tomonidan yaratilgan kontent real faktlarga mos kelmasligi mumkin. Iste’molchi bunday axborotga asoslanib qaror qabul qilsa, bu zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Misol: Sun’iy intellekt orqali yaratilgan tibbiy maslahat noto‘g‘ri bo‘lib, iste’molchining sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin.

7. Iqtisodiy ekspluatatsiya va algoritmik narxlash E-tijorat platformalarida SI asosida dinamik narxlash tizimlari qo‘llaniladi. Foydalanuvchining xarid odatlari, daromad darajasi va joylashuviga qarab narxlar sun’iy ravishda oshiriladi. Bu holat iqtisodiy adolatsizlikka olib keladi.

Misol: Bir foydalanuvchi biror mahsulotni bir necha bor qidirsa, SI tizimi uning qiziqishini aniqlab, mahsulot narxini oshiradi.

Iste’molchilarning huquqlari qonun jihatdan himoya qilinadi va bundan tashqari iste’molchilar himoya choralarini ko‘rishi kerak. Jumladan, “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga “ongli va ixtiyoriy rozilik” tushunchasini aniq kiritish. Sun’iy intellekt xizmatlari uchun alohida maxfiylik siyosati ishlab chiqish va ularni tushunarli shaklda foydalanuvchiga taqdim etish. Har bir SI xizmatining data auditi va xavfsizlik sertifikatlariga ega bo‘lishini majburiy qilish. Algoritmik

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qarorlar uchun “noyob tekshiruv (audit)” tizimini joriy etish. “Diskriminatsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonunchilikka SI asosidagi algoritmik adolatsizlikni alohida holat sifatida kiritish. Algoritmlarda foydalaniladigan ma’lumotlar to‘plamini xolis va inklyuziv qilishni talab qiluvchi texnik standartlarni joriy etish. “Izohlanadigan sun’iy intellekt” tamoyilini qonunchilikda mustahkamlash. Har bir SI tizimi foydalanuvchiga qarorning asoslari haqida qisqa tushuntirish berishini ta’minlash. Iste’molchiga “qarorni shikoyat qilish” va inson aralashuvini talab qilish huquqini kafolatlash. Sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar uchun “xavf toifalari” bo‘yicha mas’uliyatni tabaqalash. SI xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotni (kompaniyani) bevosita javobgar subyekt sifatida belgilash. Qonunchilikka “algoritmik mahsulotlar uchun kafolat” va zararni qoplash mexanizmlari kiritish. “Dark pattern”larni aldovning bir turi sifatida tan olish va ularni taqiqlovchi norma kiritish. Veb-sayt va ilovalarda rozilik va rad etish tugmalari teng ko‘rinishda bo‘lishini qonun bilan belgilash. Tashqi nazorat organi (masalan, Axborot xavfsizligi agentligi) tomonidan rozilik shakllari bo‘yicha monitoring tizimini joriy etish. Generativ SI xizmatlariga fakt tekshirish tizimini integratsiya qilish. SI orqali taqdim etilgan tavsiyalar uchun “ogohlantiruvchi belgi” (masalan, “bu maslahat tibbiy xulosa emas”) joriy etish. Noto‘g‘ri axborot yetkazgan SI platformalariga nisbatan javobgarlik va jarima choralarini ko‘zda tutish. Dinamik narxlash tizimlarini tartibga soluvchi alohida huquqiy norma joriy qilish. E-tijorat platformalarida narx belgilanish algoritmining shaffofligini ta’minlash. Foydalanuvchining algoritmik tahlilga asoslangan narxni rad etish huquqini qonun bilan kafolatlash.

Munozara

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Mazkur natijalar O‘zbekiston qonunchiligida SI asosida faoliyat yurituvchi xizmatlar va mahsulotlarga nisbatan iste’molchilar huquqlarining maxsus tartibda himoyalanishi zarurligini ko‘rsatadi. Hozirgi amaliyotda sun’iy intellektga oid maxsus huquqiy me’yorlar yetarli emas. Masalan, "Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonunda SI tushunchasi yoki unga xos xavf-xatarlarga oid bandlar mavjud emas. Bu holat amaliyotda nizolarni hal qilishda murakkabliklar tug‘diradi. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2024-yilda qabul qilingan SI Aktida (AI Act) esa iste’molchilarni himoya qilish alohida e’tiborda turadi. Unda yuqori xavfli SI tizimlari ro‘yxati, shaffoflik talablari va nazorat mexanizmlari ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston ham SI sohasini tartibga solishda mazkur hujjatdan o‘rnak olishi lozim. Bundan tashqari, iste’molchilarning raqamli savodxonligini oshirish, SI xizmatlaridan foydalanishda xabardorlikni ta’minlash, SI’ga asoslangan xizmat ko‘rsatuvchilarga esa aniq majburiyatlar yuklash orqali xavflarni kamaytirish mumkin.

Takliflar

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish:

O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga sun’iy intellekt asosidagi xizmatlarga oid alohida bob yoki modda kiritilishi lozim.[3]

“Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunga ongli rozilik, ma’lumotlar minimalligi, maqsadga muvofiqlik prinsiplari kiritilishi zarur.

Algoritmik qarorlar uchun inson tomonidan nazorat qilish huquqi va shaffoflik majburiyati huquqiy jihatdan mustahkamlansin.[4]

2. Sun’iy intellekt xavf toifalarini aniqlash va tartibga solish:

[3] “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2022-yil.
[4] “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil. https://lex.uz/docs/4409753.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xizmatlar xavf darajasiga ko‘ra yuqori, o‘rta va past xavfli SI tizimlari deb tasniflanishi va har biri uchun mos tartibda javobgarlik va audit mexanizmlari belgilanishi lozim.

Yuqori xavfli SI tizimlari (masalan, moliyaviy baholash, tibbiy diagnostika, kredit reytingi) uchun majburiy audit va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi joriy etilishi zarur.

3. Mustaqil nazorat va monitoring mexanizmlarini yaratish:

Sun’iy intellekt xizmatlarini nazorat qiluvchi mustaqil davlat organi – masalan, “Raqamli adolat va SI xavfsizligi agentligi” tashkil etilishi mumkin.

Bu organ iste’molchilarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish, SI tizimlarini baholash, audit natijalarini e’lon qilish va qonunbuzarliklarga nisbatan choralar ko‘rish vakolatiga ega bo‘lishi lozim.

4. Iste’molchilarni xabardor qilish va savodxonlikni oshirish:

Har bir SI xizmat ko‘rsatuvchiga foydalanuvchini xabardor qilish – ya’ni “bu xizmat SI asosida ishlaydi” degan ogohlantirishni berish majburiyati yuklansin.

Maktab, OTM va ommaviy axborot vositalari orqali raqamli huquqiy savodxonlik dasturlari joriy qilinsin.

Davlat tomonidan iste’molchilarga mo‘ljallangan onlayn platforma (portal) orqali SI asosidagi xizmatlar va ularning xavfliligi darajasi to‘g‘risida axborot taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

5. Sun’iy intellekt xizmatlari ishlab chiquvchilari uchun majburiyatlar:

Algoritmik modellar ochiqligi, auditga tayyorligi va soxta ma’lumotlar tarqatmaslik majburiyatlari qonun bilan belgilanadi. Mahsulot ishlab chiquvchilari

iste'molchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun majburiy sug'urta yoki kompensatsiya fondi tashkil etishlari lozim.

Xulosa

Sun'iy intellektning kundalik hayotga jadal kirib kelishi iste'molchilar uchun bir qator qulayliklar yaratgani holda, ularning huquqiy holatida yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, SI tizimlari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar nafaqat shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini buzish, balki algoritmik diskriminatsiya, shaffoflik yetishmovchiligi, noto'g'ri qarorlar, mas'uliyatni aniqlashdagi muammolar, iqtisodiy ekspluatatsiya va manipulyativ rozilik amaliyotlari orqali iste'molchilar huquqlarini buzmoqda. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bu yangi xavf-xatarlarni to'liq qamrab ololmayapti, bu esa milliy huquqiy bazani zamonaviylashtirishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt.
2. https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi.
3. "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri), 2022-yil.
4. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil, https://lex.uz/docs/4409753.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

XORIJIY DAVLATLAR VA MARKAZIY OSIYO INVESTITSIYA QONUNCHILIGI: QIYOSIY TAHLIL

Ne'matov Umidjon O'ktam o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada xorijiy davlatlar, jumladan Germaniya, AQSh, Singapur va Xitoy kabi mamlakatlarning investitsiya qonunchiligi tajribalari hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqalar) investitsiya sohasidagi huquqiy tizimi chuqur tahlil qilingan. Unda xorijiy investorlarning huquqiy himoyasi, sud-huquq tizimi, soliq imtiyozlari, xalqaro arbitraj va investitsion muhitning ochiqligi kabi jihatlar qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *investitsiya qonunchiligi, xorijiy tajriba, Markaziy Osiyo, arbitraj, investor huquqlari, xalqaro bitimlar, soliq imtiyozlari, sud tizimi.*

ИНВЕСТИЦИОННОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Нематов Умиджон Уктам угли
Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в данной статье представлено углублённое сравнительное исследование инвестиционного законодательства зарубежных стран (Германия, США, Сингапур, Китай) и стран Центральной Азии (Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан и др.). Рассматриваются такие аспекты, как правовая защита иностранных инвесторов, налоговые льготы, судебная система, международный арбитраж и прозрачность инвестиционной среды. На основе анализа зарубежного опыта даны рекомендации по совершенствованию инвестиционного климата в странах Центральной Азии.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ключевые слова: *Инвестиционное законодательство, зарубежный опыт, Центральная Азия, арбитраж, права инвесторов, международные соглашения, налоговые льготы, судебная система.*

INVESTMENT LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES AND CENTRAL ASIA: A COMPARATIVE ANALYSIS

Ne'matov Umidjon Uktam ugli
Master's student at Tashkent State University of Law

Abstract: *this article provides a comprehensive comparative analysis of the investment legislation of foreign countries such as Germany, the United States, Singapore, and China, and the legal frameworks of Central Asian states including Uzbekistan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan. Key aspects such as legal protection of foreign investors, tax incentives, dispute resolution systems, international arbitration, and transparency of the investment environment are examined. Based on the experiences of developed countries, the article proposes practical recommendations for enhancing investment climates in Central Asia.*

Keywords: *Investment legislation, foreign experience, Central Asia, arbitration, investor rights, international treaties, tax incentives, judicial system.*

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda dunyo bo'yicha investitsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Davlatlar o'z iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologiyalarni jalb etish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Aynan shu nuqtada har bir davlat uchun samarali va raqobatbardosh investitsiya qonunchiligini shakllantirish dolzarb masalaga aylanadi. Xorijiy investorlar uchun eng muhim omillardan biri — bu ishonchli huquqiy muhitdir. Investitsiya jarayonida investorlarning huquqlari kafolatlanishi, sarmoyaning

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

himoyasi, nizolarni hal qilish mexanizmlarining mavjudligi va ularning mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, Angliya, AQSh, Singapur, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar investorlar uchun qulay huquqiy infratuzilma yaratishga erishgan. Ular qonunchilik tizimini shaffof, prognoz qilinadigan va zamonaviy talablarga javob beradigan shaklda yo‘lga qo‘ygan. Bu davlatlarda investitsiya muhitining mustahkamligi va huquqiy ishonchlilik darajasining yuqoriligi xorijiy kapital oqimini oshirgan.

Bundan farqli ravishda, Markaziy Osiyo mamlakatlari — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston — mustaqillikka erishganidan keyin o‘z investitsiya siyosatini shakllantirish bosqichiga kirgan. Ular uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy islohotlarning asosiy qismi bo‘lib qolmoqda. Biroq, bu yo‘lda bir qator huquqiy, institutsional va amaliy muammolar mavjud bo‘lib, ularni hal qilish uchun xorijiy tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqola xorijiy davlatlar va Markaziy Osiyo mamlakatlarining investitsiya qonunchiligini qiyosiy tahlil qilishga qaratiladi. Maqolada xalqaro investitsiya siyosatining asosiy yondashuvlari, xorijiy davlatlardagi ilg‘or amaliyotlar, xalqaro arbitraj va investorlar huquqlarining kafolatlanishi bo‘yicha tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining investitsiya qonunchiligidagi yutuq va kamchiliklar ko‘rib chiqilib, istiqboldagi takliflar ham ilgari suriladi. Bu yondashuv mintaqada samarali investitsiya siyosatini shakllantirish va xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli huquqiy zamin yaratishga xizmat qilishi mumkin.

METODLAR

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Mazkur ilmiy maqola yozilishida ilmiy-tadqiqotning bir nechta klassik va zamonaviy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-huquqiy tahlil usuli orqali xorijiy mamlakatlar (Germaniya, AQSh, Singapur, Xitoy) va Markaziy Osiyo davlatlarining (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston) investitsiya qonunchilik tizimlari o‘zaro solishtirildi. Bu metod huquqiy institutlarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga imkon berdi.

Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil usulidan foydalanib, investitsiya sohasini tartibga soluvchi qonunlar, farmonlar, kodekslar va xalqaro bitimlar chuqur tahlil qilindi. Jumladan, “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonunlar, soliq imtiyozlariga oid normativ hujjatlar, va investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro konvensiyalar ko‘rib chiqildi.

Tahliliy va sistematik yondashuv orqali investitsion muhitni shakllantiruvchi omillar (sud tizimi, xalqaro arbitraj, soliq tartibi, shaffoflik darajasi) tizimli ravishda baholandi. Shu orqali investitsiya faoliyatini huquqiy jihatdan rag‘batlantiruvchi va to‘siq bo‘layotgan jihatlar aniqlab chiqildi.

Bundan tashqari, doktrinal tahlil metodi asosida yetakchi xorijiy va mahalliy huquqshunos olimlarning asarlari, ilmiy maqolalari va nazariy qarashlari o‘rganildi. Ayniqsa, G. Dolzer va C. Schreuer (Germany), Kenneth Vandevelde (USA), S. Saidov (Uzbekistan) kabi mutaxassislarning ilmiy qarashlari asos qilib olindi. Metodik yondashuvlar zamonaviy huquqiy tadqiqotlar talablariga mos bo‘lib, mazkur mavzuni chuqur tahlil qilish va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Xorijiy davlatlarning investitsiya qonunchiligi tajribalari

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Angliya investitsiya qonunchiligi sohasida barqaror va ishonchli huquqiy muhit yaratgan. Uning umumiy huquq (common law) tizimi investorlar uchun aniqlik va oldindan aytish imkoniyatini ta’minlaydi. Angliya xalqaro arbitraj markazlari, masalan, London Xalqaro Arbitraj Sudi (LCIA) orqali investitsiya nizolarini hal qilishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Olim Krista Nadakavukaren Scheferning "International Investment Law: Text, Cases and Materials" asarida ta’kidlanishicha, Angliya investitsiya qonunchiligi investorlar huquqlarini himoya qilishda yuqori standartlarga ega. Bu esa xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli muhit yaratadi.

AQShning investitsiya siyosati investorlarni himoya qilishga qaratilgan. Uning ko‘plab ikki tomonlama investitsiya bitimlari (BITs) va erkin savdo bitimlari (FTAs) mavjud bo‘lib, ular orqali investorlarning huquqlari kafolatlanadi. AQSh arbitraj va sud tizimi orqali investitsiya nizolarini hal qilishda samarali mexanizmlarni taqdim etadi. Cheng Bianning "National Security Review of Foreign Investment: A Comparative Legal Analysis" asarida AQShning investitsiya qonunchiligi milliy xavfsizlikni ta’minlash bilan investorlar huquqlarini muvozanatlashga qaratilgani ta’kidlanadi. Bu yondashuv xorijiy sarmoyadorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Singapur investitsiya muhitini yaxshilash uchun qulay huquqiy infratuzilmani yaratgan. Uning xalqaro arbitraj markazi (SIAC) Osiyo mintaqasida yetakchi hisoblanadi. Singapur hukumati investorlar uchun soliq imtiyozlari va boshqa rag‘batlantiruvchi choralarni taqdim etadi. M. Sornarajahning "The International Law on Foreign Investment" asarida Singapur investitsiya qonunchiligi investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishda muvaffaqiyatli model sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa boshqa davlatlar uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

BAA, ayniqsa, Dubay Xalqaro Moliyaviy Markazi (DIFC) orqali investitsiya muhitini yaxshilagan. DIFC o‘zining mustaqil sud tizimi va umumiy huquq asosidagi qonunchiligi bilan ajralib turadi. Bu investorlar uchun ishonchli va barqaror muhit yaratadi. Olimlar tomonidan ta’kidlanishicha, BAAning investitsiya qonunchiligi xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratishda muvaffaqiyatli model hisoblanadi. Bu esa mintaqada iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.[1]

Markaziy osiyo mamlakatlarining investitsiya qonunchiligi

O‘zbekiston mustaqillik yillaridan boshlab xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. 1998-yilda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. So‘nggi yillarda hukumat soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va korrupsiyaga qarshi kurashish orqali investitsiya muhitini yaxshilashga intilmoqda. Mavluda Sattorova o‘zining “International Investment Law in Central Asia” maqolasida O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb etishda xalqaro standartlarga mos qonunchilikni shakllantirishga harakat qilayotganini ta’kidlaydi.

Qozog‘iston Markaziy Osiyodagi yetakchi investitsiya yurisdiksiyalaridan biri hisoblanadi. 2015-yilda qabul qilingan “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonun va 2018-yilda tashkil etilgan Astana Xalqaro Moliyaviy Markazi (AIFC) bu borada muhim rol o‘ynaydi. AIFC ingliz huquqiga asoslangan mustaqil sud tizimiga ega bo‘lib, investorlar uchun yuqori darajadagi huquqiy kafolatlarni ta’minlaydi. AIFC haqida Wikipedia’da berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu markaz investorlar

[1] Schefer, K. N. (2020). International investment law: text, cases and materials. Edward Elgar Publishing.

uchun ishonchli muhit yaratishga qaratilgan va Qozog‘istonni mintaqaviy moliyaviy markazga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Qirg‘iziston investitsiya qonunchiligini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. 1997-yildagi “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonun xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlaydi. Qonun xorijiy investitsiyalarni milliylashtirishdan himoya qilish, tenglik asosida ishlash va foyda olib chiqish huquqini ta’minlaydi. Shu bilan birga, davlat sud tizimining zaifligi va byurokratik to‘siqlar investorlar uchun muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Tojikistonda 1997-yildan buyon “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonun amal qilmoqda. Biroq, amaliyotda investorlar ko‘plab byurokratik va sud tizimidagi muammolarga duch kelmoqdalar. Investitsiya xavfsizligini ta’minlash borasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarning tavsiyalari asosida islohotlar olib borilmoqda. Mavluda Sattorova o‘z izlanishlarida Tojikiston xalqaro tajribalarni o‘rganish orqali investitsiya qonunchiligini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Turkmaniston investitsiya qonunchiligi borasida nisbatan yopiq siyosat yuritmoqda. 1993-yildagi “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonun mavjud bo‘lsa-da, investorlar uchun valyuta konvertatsiyasi, mulk huquqlarining kafolatlanmasligi va sud tizimi mustaqilligiga oid muammolar mavjud. Mamlakatda investitsiya muhiti soddalashtirilmaganligi sababli ko‘pchilik investorlar ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda. Ko‘plab mutaxassislar, jumladan, xalqaro huquqshunoslar Turkmaniston ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish orqali sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega ekanligini ta’kidlaydilar.[2]

[2] Sattorova, M. (2015). International Investment Law in Central Asia: The Making, Implementation and Change of Investment Rules from a Regionalist Perspective. the journal of world investment & trade, 16(5-6), 1089-1124.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xorijiy davlatlar va Markaziy Osiyo mamlakatlari investitsiya qonunchiligining qiyosiy tahlili

Germaniya, Niderlandiya, Singapur kabi davlatlar o‘z konstitutsiyaviy tizimlarida va maxsus investitsiya qonunlarida mulk huquqining daxlsizligini va investorlarning kamsitilmaslik tamoyillarini qat’iy kafolatlaydi. Masalan, Germaniyada “Grundgesetz” (Asosiy qonun) va “Außenwirtschaftsgesetz” (Tashqi savdo to‘g‘risidagi qonun) xorijiy investorlar huquqlarini buzmaslikni ta’minlaydi. O‘zbekiston va Qirg‘izistonda xorijiy investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha qonunlar mavjud bo‘lsa-da, ularning ijrosi amaliyotda ba’zida sust yuritiladi. Ba’zi tadqiqotlarda investorlarning huquqlarini sudlar orqali himoya qilishda mustaqillik yetarli emasligi tanqid qilingan.

AQSh, BAA, Singapur investitsiya nizolari odatda arbitraj sudlari orqali hal qilinadi. Singapurda bu yo‘nalishda maxsus “Singapore International Arbitration Centre” (SIAC) faoliyat yuritadi. AQShda esa Federal arbitraj to‘g‘risidagi qonun (Federal Arbitration Act) investitsiya nizolarini tez va adolatli hal qilish imkonini beradi. Qozog‘iston 2018-yilda “Astana Xalqaro Moliyaviy Markazi” (AIFC) doirasida mustaqil arbitraj sudini ishga tushirgan bo‘lsa-da, Tojikiston va Turkmanistonda sud tizimining mustaqilligi, arbitraj qarorlarini ijro etish muammolari saqlanib qolmoqda. Bu esa investorlar uchun xavf tug‘diradi.

Xitoy va Irlandiya xorijiy investorlar uchun soddalashtirilgan soliq tartibotlari, “tax holiday” (soliq ta’tili), bojxona imtiyozlari va subsidiyalarni taqdim etadi. Irlandiyada 12.5% korporativ soliq stavkasi investorlar uchun eng qulay sharoitlardan biridir. O‘zbekiston va Qozog‘istonda iqtisodiy erkin zonalar va maxsus soliq rejimlari mavjud bo‘lib, muayyan hududlarda xorijiy investorlar

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

uchun soliq imtiyozlari beriladi. Biroq ushbu imtiyozlar barqaror emasligi, tez-tez o‘zgarib turishi xorijiy kapital uchun xavf tug‘diradi.[3]

Yevropa Ittifoqi va Kanada kabi davlatlar investorlarning manfaatlarini xalqaro darajada himoya qilish maqsadida ikki tomonlama investitsiya bitimlari (BITs) va “Energy Charter Treaty” kabi ko‘p tomonlama shartnomalarni imzolagan. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston ko‘plab ikki tomonlama bitimlarga ega bo‘lsa-da, Tojikiston va Turkmanistonning xalqaro shartnomalarda ishtiroki cheklangan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarida ba’zi bitimlar amalda to‘liq bajarilmasligi mumkin.

Estoniya va Koreya Respublikalari investitsion jarayonlarni to‘liq raqamlashtirgan, investorlar barcha ruxsatnomalarni onlayn tarzda olishi mumkin. Bu ochiqlik, tezlik va ishonchni oshiradi. O‘zbekiston investitsiya jarayonlarini raqamlashtirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ymoqda. Biroq, Qirg‘iziston va Tojikistonda byurokratik jarayonlar raqamlashtirishga to‘liq o‘tgani yo‘q, bu esa tashqi investorlar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Markaziy Osiyo davlatlari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda rivojlangan davlatlar tajribasidan faol foydalanishga harakat qilmoqda. Biroq, amaldagi qonunchilik tizimi, sud mustaqilligi, shartnomalarning ijrosi va infratuzilma kabi muhim yo‘nalishlarda G‘arb tajribasiga nisbatan orqada qolmoqda.[4] Shu sababli, xalqaro arbitrajga to‘liq integratsiya, investorlar huquqlarini konstitutsiyaviy himoya qilish, raqamlashtirish va barqaror siyosat yuritish Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda.

TAKLIF ETILAYOTGAN HUQUQIY CHORALAR

[3] Sattorova, M. (2015). International Investment Law in Central Asia: The Making, Implementation and Change of Investment Rules from a Regionalist Perspective. the journal of world investment & trade, 16(5-6), 1089-1124.
[4] Yoon, S. H., & Ko, J. H. (2024). The effect of FDI regulatory barriers: evidence from OECD countries. Applied Economics Letters, 1-14.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Investitsiya qonunchiligini yagona kod shaklida takomillashtirish-Markaziy Osiyo davlatlarida, xususan O‘zbekiston va Qirg‘izistonda investitsiyalarni tartibga soluvchi qonunlar alohida hujjatlar shaklida mavjud bo‘lib, ba’zida ular o‘zaro nomuvofiqlikka olib keladi. Germaniya va Singapur tajribasidan kelib chiqib, yagona Investitsiya kodeksini ishlab chiqish va joriy etish, barcha normalarni tizimli va muvofiqlashtirilgan holda jamlash muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro arbitraj mexanizmlarini institutsional darajada mustahkamlash-Xalqaro tajribada (xususan, AQSh, Niderlandiya va Shveytsariya) xorijiy investorlarning huquqlari tez va adolatli tarzda ko‘rib chiqilishi uchun arbitraj sudlari faoliyati keng yo‘lga qo‘yilgan. Markaziy Osiyoda esa bu yo‘nalish hali to‘liq shakllanmagan. Shu bois, xalqaro standartlarga javob beruvchi investitsiya arbitraj markazlarini tashkil etish va ularni mustaqil huquqiy maqomga ega qilish zarur.

Huquqiy barqarorlik va kafolatlar mexanizmlarini kuchaytirish-Investorlar uchun eng muhim jihatlardan biri – huquqiy barqarorlik va oldindan prognoz qilinadigan normativ muhitdir. AQSh va Xitoy kabi yirik investitsiya jalb qiluvchi mamlakatlarda xorijiy investorlar uchun “stabilizatsiya bandi” amalda qo‘llaniladi. Markaziy Osiyo davlatlari ham bu tajribani qabul qilib, soliq yoki bojxona tartibotlaridagi keskin o‘zgarishlardan investorlarni himoya qiluvchi kafolat tizimini ishlab chiqishlari lozim.

Investitsiya ma’muriyatchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish-Ko‘plab xorijiy davlatlarda investitsion faoliyatni boshlash uchun kerakli litsenziya va ruxsatnomalarni elektron platformalar orqali olish imkoniyati mavjud. Estoniya va Singapur bunga yaqqol misoldir. Markaziy Osiyoda esa ko‘plab jarayonlar hanuz

qo‘lda yoki murakkab byurokratik bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Shu bois, yagona "Investitsiyalar uchun raqamli xizmatlar portali"ni yaratish foydali bo‘ladi.

Investorlar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil Ombudsman institutini joriy etish-Germaniyada mavjud bo‘lgan Ishbilarmonlik Ombudsmani yoki AQShdagi Investor Advocate instituti xorijiy sarmoyadorlarning murojaatlarini tezkorlik bilan hal qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyoda ham ushbu institutni mustaqil va professional asosda yo‘lga qo‘yish investitsion muhitni yanada ishonchli qiladi.

Xalqaro bitimlar va ikki tomonlama investitsiya shartnomalarini (BIT) qayta ko‘rib chiqish-Ko‘plab Markaziy Osiyo mamlakatlari 1990-yillarda tuzilgan va bugungi kunda eskirgan standartlarga asoslangan BITlarga ega. Zamonaviy xalqaro amaliyotga muvofiq, ularni qayta ko‘rib chiqish va investorlarning ham, davlat manfaatlarining ham muvozanatini ta'minlovchi shartlarni kiritish dolzarb hisoblanadi.

Hududiy integratsiyani mustahkamlash orqali umumiy investitsion makon yaratish-Yevropa Ittifoqi va ASEAN tajribasidan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida yagona investitsiya qoidalari, soliq me’yorlari va arbitraj tizimlari asosida mintaqaviy darajadagi investitsion hamkorlik platformasini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv investorlar uchun butun mintaqani jozibador va barqaror hududga aylantiradi.

XULOSA

Investitsiya sohasidagi huquqiy tartibot har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va global maydondagi raqobatbardoshligi uchun strategik ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot davomida xorijiy davlatlarning (AQSh, Germaniya, Singapur, Xitoy) investitsiya qonunchiligi va Markaziy Osiyo davlatlarining

(O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) investitsiya huquqi tizimi qiyosiy tahlil qilinar ekan, bir nechta muhim xulosalar aniqlandi.

Birinchidan, xorijiy davlatlar investitsiya qonunchiligini yaratishda barqarorlik, shaffoflik va investorga qulaylik tamoyillarini ustuvor qo‘yadi. Masalan, AQSh va Germaniyada xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar kuchli, sud va arbitraj tizimlari mustaqil, normativ-huquqiy hujjatlar esa puxta ishlab chiqilgan. Singapur va Estoniya tajribasi esa raqamlashtirish va tezkor yuridik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ilg‘or andoza bo‘la oladi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining investitsiya qonunchiligida muayyan yutuqlarga qaramay, hali ham tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, qonunlarning o‘zaro uyg‘unligi, arbitraj va nizolarni hal qilish mexanizmlari, shuningdek, ma’muriy tartibotlarning soddaligi borasida islohotlar zarur. Investorlar uchun barqaror huquqiy muhit va samarali himoya kafolatlari yetarli darajada emasligi ayrim davlatlarga investitsiya oqimini cheklab qo‘ymoqda.

Uchinchidan, investitsion muhitni yaxshilash uchun yagona investitsiya kodekslarini ishlab chiqish, xalqaro standartlarga moslashuv, investorlar huquqlarini mustahkamlovchi ombudsman instituti va raqamli investitsiya xizmatlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, mintaqaviy darajada investitsiya hamkorligini kuchaytirish orqali yagona investitsion makon yaratish Markaziy Osiyoni xalqaro investorlar uchun yanada jozibador qilishi mumkin.

Umuman olganda, xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilishda yuridik tizimning puxtaligi, institutsional mustahkamlik va ishonchli kafolatlar asosiy rol o‘ynaydi. Markaziy Osiyo mamlakatlari ushbu yo‘nalishda xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va mahalliy

sharoitga moslab amaliy islohotlar olib borish orqali investitsiyaviy raqobatbardoshlikni oshirishlari mumkin.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. Schefer, K. N. (2020). International investment law: text, cases and materials. Edward Elgar Publishing;
2. Sattorova, M. (2015). International Investment Law in Central Asia: The Making, Implementation and Change of Investment Rules from a Regionalist Perspective. the journal of world investment & trade, 16(5-6), 1089-1124;
3. Yoon, S. H., & Ko, J. H. (2024). The effect of FDI regulatory barriers: evidence from OECD countries. Applied Economics Letters, 1-14;
4. Dolzer, R., & Schreuer, C. (2012). Principles of International Investment Law. Oxford University Press.
5. Vandevelde, K. J. (2017). Bilateral Investment Treaties: History, Policy, and Interpretation. Oxford University Press.
6. Saidov, S. (2019). Xalqaro investitsiyalar huquqi: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDYuU nashriyoti.
7. UNCTAD (2020). World Investment Report. United Nations Conference on Trade and Development.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

IJTIMOIY TARMOQLARDA SODIR ETILAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Qadamov Javohirbek Azizbek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning huquqiy jihatlari, ularning turlari hamda mavjud javobgarlik shakllari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi yondashuvlar hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari asosida ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, huquqbuzarlik, javobgarlik, O‘zbekiston qonunchiligi, raqamli xavfsizlik, media huquqi, xorijiy tajriba.*

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ, СОВЕРШАЕМЫЕ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ, И НАПРАВЛЕНИЯ ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Кадамов Джавахирбек Азизбек угли
Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в данной статье рассматриваются правовые аспекты правонарушений, совершаемых в социальных сетях, их основные виды, а также существующие формы юридической ответственности. Исследуются подходы, предусмотренные действующим законодательством Республики Узбекистан, и анализируется передовой зарубежный опыт в области правового регулирования деятельности социальных сетей. Кроме того, в статье выдвигаются практические предложения по совершенствованию законодательства в данной сфере.*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ключевые слова: *социальные сети, правонарушение, ответственность, законодательство Узбекистана, цифровая безопасность, медиаправо, международный опыт.*

LEGAL BASIS OF LIABILITY FOR VIOLATIONS COMMITTED ON SOCIAL MEDIA AND DIRECTIONS FOR THEIR IMPROVEMENT

Kadamov Javokhirbek Azizbek ugli
Master's student of Tashkent State Law University

Abstract: *this article examines the legal aspects of violations committed on social media platforms, including their various types and the existing forms of legal liability. It explores the approaches established under the current legislation of the Republic of Uzbekistan and analyzes best practices from foreign countries regarding the legal regulation of social media. In addition, the article presents practical proposals for improving the national legal framework in this field.*

Keywords: *social media, legal violation, liability, Uzbekistan legislation, digital security, media law, international experience.*

Bugungi raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular nafaqat muloqot vositasi, balki axborot olish, tarqatish, muhokama qilish, fikr bildirish, reklama va iqtisodiy faoliyat olib borishning ham asosiy platformasiga aylangan. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar millionlab foydalanuvchilar uchun axborot va ijtimoiy faollik maydoniga aylangan. Biroq, bu ijtimoiy tarmoqlarda o‘ziga xos imkoniyatlar bilan birga, afsuski, turli salbiy oqibatlar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

So'z erkinligi va axborot olish huquqi ijtimoiy taraqqiyotda, shubhasizm muhim o'rin tutadi. Ammo ushbu erkinlik noto‘g‘ri talqin qilinib, ba’zida boshqa shaxslarning sha’ni, qadr-qimmati, shaxsiy hayoti va huquqlariga tahdid soluvchi harakatlarga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun bu jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solish, muvozanatni ta’minlash dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Shu maqolada ushbu huquqbuzarliklarning turlari, O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud normalar, xorijiy davlatlar tajribasi va takomillashtirish yo‘llari yoritiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar ko‘p qirrali bo‘lib, ularning shakllari va mazmuni texnologik rivojlanish bilan birgalikda murakkablashib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar asosan quyidagi holatlarda eng ko‘p uchramoqda:

Tuhmat va haqorat. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga nisbatan asossiz ayblovlar qo‘yilishi, kamsituvchi, tahqirlovchi yoki haqoratli fikrlar bildirilishi inson sha’ni va qadr-qimmatini poymol qilishi mumkin. Bu holatlar ko‘p hollarda blogerlar, jurnalistlar yoki ijtimoiy faollik ko‘rsatayotgan shaxslarga qarshi qaratiladi.

Yolg‘on axborot tarqatilishi. Feyk xabarlar (soxta xabarlar) bugungi kunda eng xavfli axborot huquqbuzarliklaridan biri hisoblanadi. Bunday xabarlar odamlar orasida vahima, ishonchsizlik va noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga sabab bo‘ladi.

Shaxsiy hayotga tajovuz. Roziliksiz suratlar, video yoki yozishmalarni e’lon qilish, joylashuv, telefon raqamlari, tibbiy ma’lumotlar kabi maxfiy axborotlarni tarqatish jinoyat deb qaraladi. Ayniqsa, ayollar va voyaga yetmaganlar bu holatlardan ko‘proq aziyat chekmoqda.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Kiberzo‘ravonlik va tahdid. Kiberzo‘ravonlik — internet orqali doimiy bosim, haqorat, tahdid va haqoratli izohlar orqali odamni ruhiy jihatdan zo‘riqtirishdir. Bu nafaqat huquqbuzarlik, balki jiddiy ijtimoiy muammo hisoblanadi.

Soxta akkauntlar va firibgarlik. Begona shaxs nomidan ijtimoiy tarmoqda akkaunt ochib, uning nomidan soxta xabarlar tarqatish, odamlarni chalg‘itish, hatto moddiy zarar yetkazish holatlari ko‘paymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi choralar bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar orqali belgilangan. Shu jumladan Jinoyat kodeksining 139-moddasi[1] (Tuhmat), 140-moddasi (Haqorat), 141-1-moddasi (Shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), (244-moddasi (Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborot tarqatish) hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 40-modda[2] (Haqorat qilish), 41-modda (Tuhmat qilish) va 46-moddalarini (Axborotdan noqonuniy foydalanish) keltirish mumkin. Bundan tashqari “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunda[3] ham shaxsga doir ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish qat’iy tartibga solingan.

Amaliyotda bu qonun moddalari bo‘yicha bir qancha sud ishlari mavjud bo‘lib, ular orqali ijtimoiy tarmoqlarda huquq buzilgan holatlarda qanday javobgarlik choralari ko‘rilayotganini kuzatish mumkin.

Xalqaro tajribada ko‘plab davlatlar ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda turlicha yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, Germaniyada “NetzDG” qonuni asosida platformalarga noqonuniy kontentni 24 soat ichida o‘chirish majburiyati

[1] O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. https://lex.uz/docs/111457.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. https://lex.uz/docs/97664.
[3] “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun. https://lex.uz/docs/4381112.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

yuklangan, Fransiyada “anti-fake news” qonuni orqali feyk yangiliklarning oldini olishga qaratilgan choralar ko‘rib chiqilmoqda. Janubiy Koreyada esa internetda haqorat, kibertahdid va shaxsiy ma’lumotlar oshkor qilinishiga nisbatan og‘ir jazolar belgilangan.

Bu kabi tajribalar O‘zbekistonda mavjud qonunchilikni rivojlantirishda, mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishda hamda amaliy choralarni kuchaytirishda nihoyatda foydali bo‘lishi mumkin. Xususan, Germaniyaning “NetzDG” qonunida platformalarga noqonuniy kontentni qisqa muddat ichida o‘chirish majburiyatining yuklanishi, Janubiy Koreyada onlayn tahdid va haqoratga nisbatan qat’iy javobgarlik belgilanishi O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq tarzda moslashtirilishi mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlardir. Bunday xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali O‘zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqiy javobgarlikni aniq belgilash va fuqarolarning axborot xavfsizligini ta'minlashga doir normativ hujjatlar bazasini yanada mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, xalqaro huquq normalariga mos ravishda platformalarning mas’uliyatini oshirish, shikoyat va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish, davlat va nodavlat sektori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda yanada aniq, tizimli va barqaror yondashuvlar joriy etish imkonini beradi.

Huquqiy tizimni takomillashtirishning bir nechta yo‘llari mavjud. Jumladan, quyidagi takliflar ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar bilan kurashishda samarali bo‘lishi mumkin:

- Internet platformalarning huquqiy maqomini aniqlashtirish va ularni O‘zbekiston yurisdiktsiyasiga tortish;

- Blogerlar va faol foydalanuvchilar uchun alohida huquqiy maqom belgilovchi qonun qabul qilish;
- Shaxsiy hayot, sha'n va qadr-qimmatga oid huquq buzilishlarini tezkor aniqlash uchun sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy qilish.

Shuningdek, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirib boorish, bu borada ijtimoiy tarmoqdagi huquqiy me'yorlar bilan tanishtirish, maktab va oliy o'quv yurtlarida tegishli fanlarni kiritish, platformalar va davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini mustahkamlash kerak bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar bugungi axborot asrining ajralmas muammosiga aylangan. Shaxsiy hayotga tajovuz, yolg'on axborot, kiberzo'ravonlik va boshqa buzg'unchi harakatlarga nisbatan faqat jazo choralarini kuchaytirish emas, balki profilaktik yondashuvni kuchaytirish, qonunchilikni zamon talablari asosida takomillashtirish zarur.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba va texnologik yutuqlar asosida O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha aniq, samarali va xalqaro standartlarga mos yondashuv ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, fuqarolarning axborot xavfsizligini ta'minlash va sog'lom media muhitni shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN AABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 1994-yil 22-sentabrdagi 2012-XII-sonli Qonun.
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi – 1994-yil 22-sentabr.

3. “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun – 2019-yil 2-iyul, O‘RQ-561-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023-yilgi yangi tahrir, 33- va 43-moddalar.

5. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun – O‘RQ-94-son, 2003-yil 11-dekabr.

6. Mass-mediani huquqiy muhofaza qilish mexanizmlari / A.Mirzayev. – Toshkent: TDYU, 2021.

7. “O‘zbekiston Respublikasining media sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi” – 2023-yil, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.

8. Davlatlararo axborot xavfsizligi sohasidagi hamkorlik strategiyasi – MDH, 2021-yil.

9. Council of Europe – Convention on Cybercrime (Budapest Convention) – 2001-yil.

10. General Data Protection Regulation (GDPR) – Yevropa Ittifoqi, 2016-yil 27-aprel.

11. Netzwerkdurchsetzungsgesetz (NetzDG), Germany – 2017-yil 1-oktabrda kuchga kirgan.

12. Digital Services Act (DSA), European Union – 2022-yil.

13. Korea Information Security Agency (KISA) guidelines on cybercrime, 2021.

14. Vincent R. Johnson, “Cyber Law and Digital Rights” – Journal of Internet Law, 2020.

15. Siddiqova G., “Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy tartibga solish muammolari”, – Yuridik fanlar jurnalida, 2023-yil, 2-son.

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

16. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha qarorlar to‘plami – 2022–2023-yillar.

17. “Axborot madaniyati va ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyat”, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, Toshkent, 2023.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA KO‘RA VOYAGA YETMAGAN BOLALAR UCHUN ALIMENT UNDIRISH ASOSLARI, TARTIBI VA MIQDORI

Karimov Jasur Zokirjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti OAV huquqi yo‘nalishi magistran

Annotatsiya: *mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan bolalarga aliment undirishning huquqiy asoslari, undirish tartibi va aliment miqdorini belgilash mezonlari yoritiladi. Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar ham bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *aliment, voyaga yetmagan bola, ota-onalik majburiyati, sud tartibi, aliment miqdori.*

ОСНОВАНИЕ, ПОРЯДОК И РАЗМЕР ВЗЫСКАНИЯ АЛИМОНОВ НА НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ДЕТЕЙ ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ УЗБЕКИСТАНА

Каримов Жасур Закиржон угли
Магистрант кафедры права СМИ Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: *в данной статье рассматриваются правовые основы взыскания алиментов на несовершеннолетних детей в Республике Узбекистан, порядок взыскания и критерии определения размера алиментов. Также описываются проблемы, возникающие на практике, и предложения по их решению.*

Ключевые слова: *алименты, несовершеннолетний ребенок, родительская ответственность, судебный порядок, размер алиментов.*

BASIS, PROCEDURE AND AMOUNT OF ALIMONIUM COLLECTION FOR MINOR CHILDREN UNDER THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Karimov Jasur Zakirjon ugli

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Master's student of the Department of Mass Media Law of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article discusses the legal basis for the collection of alimony for minor children in the Republic of Uzbekistan, the procedure for collection and the criteria for determining the amount of alimony. It also describes the problems encountered in practice and proposals for their solutions.*

Keywords: *alimony, minor child, parental responsibility, court procedure, amount of alimony.*

Kirish

Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish har qanday huquqiy-demokratik davlatning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu prinsipga sodiq qolgan holda, bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Xususan, ota-onalarning o‘z farzandlariga nisbatan moddiy ta'minot bilan bog‘liq majburiyatlari, jumladan, aliment to‘lash majburiyati, huquqiy jihatdan tartibga solinishi bu boradagi eng muhim kafolatlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida “Ota-onalar o‘z bolalarini voyaga yetguniga qadar parvarish qilish va ularga g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar” deb belgilab qo‘yilgan. Bu norma orqali davlat ota-onalarning farzandlariga nisbatan bo‘lgan majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada tan olgan. Shu asosda qabul qilingan Oila kodeksining tegishli moddalarida aliment undirishning asoslari, tartibi, miqdori, sud orqali yoki notarial kelishuv asosida amalga oshirilishi belgilab berilgan.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda aholining ijtimoiy himoyasi, xususan bolalar manfaatlarini ta'minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo amaliyotda ota-onalarning bir qismi o‘z farzandlariga nisbatan aliment to‘lash majburiyatlarini bajarmasligi, aliment miqdorining hayotiy ehtiyojlarga mutanosib emasligi, aliment undirish bo‘yicha sud qarorlarining ijrosida muammolar mavjudligi kabi holatlar hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur muammolar bevosita voyaga yetmagan bolalarning yashash darajasiga, ularning sog‘lom rivojlanishiga va teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon miqyosida ham aliment undirish masalasi muhim ijtimoiy masala sifatida ko‘riladi. Masalan, Yevropa davlatlarida aliment miqdori bola ehtiyojlari va ota-onaning moliyaviy imkoniyatlariga qarab differensial tarzda belgilanadi. Ayrim davlatlarda esa aliment to‘lovlarini kafolatlash maqsadida davlat budjetidan maxsus aliment fondlari tashkil etilgan. Bu fondlar orqali alimentni o‘z vaqtida ololmayotgan bolalar uchun vaqtinchalik kompensatsiya to‘lab beriladi. O‘zbekistonda ham bu kabi tizimlarni joriy etish istiqbollari mavjud bo‘lib, bu borada qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Mazkur ilmiy maqolada aynan O‘zbekiston qonunchiligi asosida voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish tartibi, ularning qonuniy asoslari va aliment miqdorini belgilash mezonlari keng yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha huquqiy, tashkiliy va institutsional takliflar ishlab chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – amaliy va nazariy asoslangan tahlil orqali bolalarning alimentga bo‘lgan huquqiy kafolatlarini yanada mustahkamlashga hissa qo‘shishdir.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Tadqiqotning dolzarbligi — mazkur mavzu aholining ijtimoiy qatlamlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, aholining eng zaif toifasi — voyaga yetmaganlar manfaatini ta’minlash bilan uzviy aloqador.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq ravishda aliment undirish asoslari, tartibi va miqdorini huquqiy tahlil qilish, xalqaro tajribani solishtirish va mavjud kamchiliklar bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- Voyaga yetmaganlarga aliment undirishning normativ-huquqiy asoslarini tahlil qilish;
- Aliment undirish amaliyotida uchraydigan muammolarni aniqlash;
- Aliment miqdorini belgilashda qo‘llanilayotgan mezonlarni o‘rganish;
- Xalqaro tajribani tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqish.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment undirishning huquqiy asoslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan asoslar

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ota-onalarning farzandlari oldidagi burchini yuksak darajada e’tirof etadi. **64-moddada** quyidagicha belgilangan: “Ota-onalar bolalarni voyaga yetguniga qadar parvarish qilishga va ularga g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.”

Bu konstitutsiyaviy norma, garchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “aliment” so‘zini tilga olmasa-da, uning mohiyatida bolalarning moddiy ta’minoti, ularning yashash, rivojlanish, o‘qish, sog‘lom bo‘lish huquqining kafolatlari mujassamdir. Konstitutsiyadagi bu prinsip - aliment undirishga oid barcha quyi darajadagi qonunlarning nazariy negizi va yuridik poydevori hisoblanadi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 45-moddasida: “Har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqiga ega” deb ko‘rsatilgan.

Bu norma asosida voyaga yetmagan bola yoki u nomidan harakat qiluvchi qonuniy vakil (odatda ona) sudga murojaat qilib, aliment undirishni talab qilish huquqiga ega. Konstitutsiyaviy darajada bolalarning ijtimoiy himoyasi, ota-onalarning majburiyati va sud orqali himoya mexanizmlari mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi — aliment masalasini bevosita va aniq belgilab beruvchi asosiy qonuniy manba hisoblanadi. Kodeksda ota-onalarning farzandlariga nisbatan moddiy ta’minot majburiyati huquqiy jihatdan keng yoritilgan. 130-modda: “Aliment to‘lash majburiyatining mohiyati“. Ota-onalar voyaga yetmagan farzandlarini boqishga majburdirlar.” Bu modda alimentni ota-onaning yuridik majburiyati sifatida ko‘rsatadi. O‘z farzandini boqish ota-onaning axloqiy mas’uliyati emas, balki huquqiy majburiyatidir. Bu modda orqali davlat ota-onalarning o‘z farzandlariga nisbatan befarqligini huquqiy javobgarlik bilan qoplaydi. 132-modda: Aliment miqdori va shakli. Mazkur modda alimentni undirishda ikki xil asosni belgilaydi:

- Foizli shaklda — ota-onaning daromadidan:
  - 1 bola uchun – 1/4 qism;
  - 2 bola uchun – 1/3 qism;
  - 3 va undan ortiq bola uchun – 1/2 qism.
- Yoki qat’iy summada, sud qaroriga binoan, ota-onaning daromad manbai noaniq bo‘lsa.

Amaliyotda foizli aliment ko‘proq qo‘llaniladi, lekin ota-onaning ish haqi doimiy bo‘lmasa, boshqa moliyaviy manbalari yashirilsa, bu tartib samarasiz bo‘lib qoladi. Shu bois, qat’iy summada belgilash usuli aliment miqdorini

barqarorlashtirishda muhim o‘rin tutadi.143–145-moddalar: Kelishuv, o‘zgarish va bekor qilish.

- **143-modda**: ota-onalar o‘zaro kelishuv asosida notarial tasdiqlangan aliment to‘lovini belgilashlari mumkin. Bunda sud ishtiroki talab etilmaydi.
- **144-modda**: sud aliment miqdorini kamaytirishi yoki ko‘paytirishi mumkin.
- **145-modda**: bola voyaga yetganidan keyin aliment to‘lash to‘xtatiladi.

Amaliy muammo: Notarial kelishuvlar kam qo‘llaniladi, chunki taraflar o‘rtasida ishonchsizlik kuchli, shuningdek, ko‘plab hollarda ota aliment majburiyatidan bo‘yin tovlashga urinishadi.

3. Fuqarolik protsessual kodeksida aliment ishlarining yuritilishi

O‘zbekiston Respublikasining **Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK)** alimentga oid nizolarni hal qilish tartibini aniq belgilaydi.

Da’vo yuritish tartibi (137–139-moddalar)

Aliment bo‘yicha da’vo arizasi:

- bolaga qonuniy vakil tomonidan,
- bolaning yashash joyidagi sudga,
- soddalashtirilgan tartibda topshiriladi.

Ishni ko‘rib chiqish muddati (217-moddasi)

Sud aliment ishlari bo‘yicha da’volarni odatda **20 ish kunida** ko‘rib chiqadi. Biroq amaliyotda sudlar ish ortiqligi yoki tomonlar sudga kelmaganligi sababli bu muddat cho‘zilishi mumkin.

Sud qarorining ijrosi (247-moddasi). Aliment undirishga doir sud qarori majburiy ijro huquqiga ega. Bu qarorlar Majburiy ijro byurosi (MIB) orqali ijro

etiladi. Lekin so‘nggi yillarda MIBda ishlovchilar sonining kamligi va yuklamaning ortiqligi sababli ijro mexanizmi yetarli darajada ishlamaydi. 2023 yilda aliment undirish bo‘yicha 273 mingta ish yuritilgan, ulardan 30 foizi bo‘yicha qarorlar o‘z vaqtida ijro etilmagan. Alimentdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikMa’muriy javobgarlik (MJtK 474-moddasi). Aliment majburiyatini bajarmagan shaxsga jarima yoki 15 sutkagacha hibs jazosi tayinlanishi mumkin. Bu ko‘proq ogohlantiruvchi chora sifatida ishlaydi.

4.2. Jinoyiy javobgarlik (JK 122-moddasi). Agar aliment to‘lanmasa, va bu holat **doimiy yoki og‘ir oqibatlarga** olib kelsa, shaxs:

- 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari,
- yoki jazo sifatida **ozodlikdan mahrum qilish** bilan jazolanishi mumkin.

4.3. Amaliy holatlar:

- Qonunchilikda “doimiy to‘lamaslik”ga aniq mezon yo‘q.
- Ko‘plab jinoyat ishlari ochilmaydi, chunki onalar (da’vogarlik qiluvchilar) jinoiy javobgarlikka tortilishini istashmaydi.
- Bu esa aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan shaxslar uchun **immunitet** hosil qiladi.

5. Xalqaro huquqiy asoslar va tajriba

5.1. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi

O‘zbekiston 1992-yil 9-dekabrda bu konvensiyani ratifikatsiya qilgan. **27-moddada** quyidagicha belgilangan:

“Davlatlar bolalarning o‘sishi uchun zarur darajadagi yashash sharoitlarini ta’minlash majburiyatini ota-onalarga yuklaydi.”

Bu norma milliy qonunchilikka integratsiya qilinishi kerak, ayniqsa:

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- Alimentning minimal miqdorini belgilash,
- Aliment olishni kafolatlovchi fond tashkil qilish,
- Ota-onaning xorijga chiqishini vaqtincha cheklash kabi choralarni joriy etishda.

Dunyoda aliment undirishni tartibga soluvchi **Gaaaga konvensiyasi (2007)** mavjud. Bu hujjat davlatlararo aliment undirishni soddalashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston bu konvensiyaga qo‘shilmagan, ammo qo‘shilish istiqbollari mavjud. Bu, ayniqsa, xorijda ishlayotgan otalardan aliment undirish masalalarini hal qilishda muhim bo‘ladi. Aliment undirishning huquqiy asoslari O‘zbekiston huquqiy tizimida mustahkam poydevorga ega. Biroq mavjud qonun normalarining to‘g‘ri va samarali ishlashi uchun ijro tizimi, qonunchilikdagi ba’zi aniqliklar va xalqaro huquqiy mexanizmlarga integratsiyalashish zarur.

Bugungi kunda qonunchilikni faqat mavjud normalar asosida baholash yetarli emas. Amaliyotdagi murakkabliklar, aliment to‘lashdan bo‘yin tovlashning keng tarqalganligi, va aliment miqdorining yetarli emasligi — bu yo‘nalishda chuqur institutsional islohotlar zarurligini ko‘rsatadi.

Voyaga yetmaganlar uchun aliment miqdorini belgilashda hisobga olinadigan omillar

1. Aliment miqdorini belgilashning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida voyaga yetmagan bolalarga aliment to‘lov miqdorini belgilash bo‘yicha asosiy norma **132-moddada** ko‘rsatilgan. Mazkur moddaning mazmuniga ko‘ra, agar taraflar o‘zaro kelishuvga erishmagan bo‘lsa, sud aliment miqdorini quyidagi foizlarda belgilaydi:

- **Bitta bola uchun** – ota-onaning daromadidan **1/4 qism**;
- **Ikki bola uchun** – **1/3 qism**;

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

- **Uch va undan ortiq bola uchun – 1/2 qism**.

Ammo ushbu nisbatlar **standart shakl** bo‘lib, sud har bir ishda aliment miqdorini alohida holat asosida belgilaydi. Bu esa sudya tomonidan har tomonlama va adolatli yondashuvni talab etadi. Quyida bunday qarorlar qabul qilinishida muhim rol o‘ynaydigan omillar ko‘rib chiqiladi.

2. Bolaning moddiy ta’minotga bo‘lgan ehtiyoji

Sud bolaga aliment belgilashda avvalo uning ehtiyojlarini inobatga oladi. Bu ehtiyojlar quyidagilardan iborat:

- Oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va kommunal xarajatlar;
- Tibbiy xizmatlar (shu jumladan, nogiron bolalar uchun qo‘shimcha xarajatlar);
- Ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq xarajatlar (maktab, bog‘cha, to‘garaklar, repetitorlik);
- Madaniy va sport mashg‘ulotlari uchun sarflar.

2.1. Bolaning yoshi va sog‘lig‘i

O‘smir yoshidagi bola ehtiyojlari bog‘cha yoshidagi bolaga qaraganda ko‘proq bo‘ladi. Bundan tashqari, sog‘ligi bilan bog‘liq muammolari bo‘lgan bolalar uchun tibbiy xizmatlarga sarflanadigan xarajatlar ham hisobga olinadi.

Misol: Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun aliment miqdori odatdagidan yuqoriroq belgilanadi. (Oila kodeksi 143-modda).

2.2. Bolaning yashash joyidagi ijtimoiy-iqtisodiy holat

Shahar va qishloq joylaridagi hayot darajasi o‘rtasida tafovut bor. Shu sababli, sudlar turmush narxlariga qarab ham qaror qabul qilishi mumkin.

3. Aliment to‘lovchi shaxsning moliyaviy holati

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ota yoki onaning daromadi aliment miqdorini belgilashda eng muhim mezonlardan biridir. Quyidagilar hisobga olinadi:

3.1. Ish haqi va boshqa daromadlar

- Ish haqi (asosiy va qo‘shimcha);
- Tadbirkorlik daromadi;
- Ijaradan tushgan pul mablag‘lari;
- Pensiya, stipendiya, nafaqa;
- Dividendlar va boshqa passiv daromadlar.

3.2. Yashirin daromadlar va ularni isbotlash

Ko‘plab holatlarda ota yoki ona o‘zining haqiqiy daromadini yashiradi. Bunday hollarda:

- Sud mol-mulkni tahlil qiladi;
- Bankdagi hisob raqamlari so‘raladi;
- Ish beruvchidan ma’lumot olinadi;
- Mulkdan foydalanish (avtomobil, ko‘chmas mulk) daromad manbai sifatida ko‘riladi.

4. Ota-onaning boshqa farzandlari va qarindoshlari oldidagi majburiyatlari

Sud aliment miqdorini belgilashda ota-onaning boshqa farzandlari (shu jumladan, nikohdan tashqari tug‘ilganlar), vasiylikda yoki homiylikda bo‘lgan shaxslar oldidagi moddiy majburiyatlarini ham inobatga oladi. Masalan, ota 1-bolasi uchun aliment to‘lamoqda, lekin 2-nikohdan yana 2 farzandi bor. Sud bu holatni e’tiborga olib, miqdorni me’yorlashtiradi.

Bu holat Oila kodeksining **133-moddasi** bilan tartibga solinadi.

5. Alimentni qat’iy summada belgilashda hisobga olinadigan mezonlar

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Sud ayrim hollarda aliment miqdorini foiz shaklida emas, balki **qat'iy summada** belgilaydi. Bu holat odatda:

- To‘lovchi daromadining o‘zgaruvchanligi;
- Ish joyining rasmiy emasligi;
- Daromad manbai mavjud, lekin rasmiy hujjatlar yo‘qligida yuz beradi.

Sud qarorida nimalar ko‘rsatiladi:

- Har oylik miqdor (masalan: 800,000 so‘m);
- Valyuta (so‘mda yoki chet el valyutasida);
- Inflyatsiyaga qarshi indeksatsiya qilish tartibi.

5.1. Inflatsiya omili

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki har oy inflyatsiya ko‘rsatkichlarini e'lon qiladi. Sud ushbu ko‘rsatkichlar asosida aliment miqdorini indeksatsiya qilish huquqiga ega.

6. Sud qarorining o‘zgartirilishi — aliment miqdorini oshirish yoki kamaytirish

Oila kodeksi 144-moddasi asosida aliment to‘lovlari miqdori:

- bolaning ehtiyoji ortsa,
- ota-onaning daromadi o‘zgarib ketsa,
- sog‘lig‘i yomonlashsa yoki
- taraflardan biri boshqa farzand olgan bo‘lsa — o‘zgartirilishi mumkin.

Amaliy misol:

2024 yilda Andijon tumanlararo sudida aliment miqdori 1 million so‘mdan 1,800,000 so‘mgacha oshirilgan. Asos: bolaning nogironligi aniqlangan va maxsus darslar uchun xarajatlar ortgan.

Qiyosiy tahlil – xalqaro tajriba

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

1. Rossiya tajribasi:

- Aliment miqdori 1/4, 1/3, 1/2 foizlarda belgilansa-da, bola ehtiyojlari asosida sudlar bu miqdorni o‘zgartiradi.
- Maxsus “Aliment fondi” mavjud – vaqtincha to‘lanmagan alimentni davlat qoplaydi.

2. Qozog‘iston tajribasi:

Aliment miqdorini sud emas, aliment byurosi belgilab beradi.

- Bola har oylik yashash minimumiga asoslanadi (2024 yilda bu 43,000 tenge atrofida).

3. Germaniya tajribasi:

- “Düsseldorfer tabellasi” deb ataladigan jadval mavjud. Unda ota-onaning daromadiga qarab, aliment miqdori oldindan belgilanadi.

O‘zbekiston bu kabi jadval asosida aliment miqdorini hisoblash tizimini joriy qilsa, bu jarayonni avtomatlashtirishga olib kelishi mumkin.

Tavsiyalar

1. **Aliment hisoblash bo‘yicha milliy koeffitsientlar jadvali ishlab chiqilsin** – bolalarning yoshi, yashash joyi, ota-onaning daromadi asosida miqdor aniqlanadi.
2. **Bola ehtiyojlari bo‘yicha standart xarajatlar ro‘yxati tuzilsin** – bu sudlarga yengillik yaratadi.
3. **Moliyaviy ekspertiza joriy etilsin** – daromadi noma’lum shaxslarning mol-mulkdan foydalanish darajasi baholansin.
4. **Inflyatsiyaga nisbatan avtomatik indeksatsiya tizimi yaratilishi** – bu alimentni qadrsizlanishdan himoya qiladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

5. **Yolg‘on ma’lumot bergan ota-onalarga ma’muriy javobgarlik chorasi ko‘rilsin**.

Xulosa

Voyaga yetmagan bolalar uchun aliment undirish O‘zbekiston ijtimoiy huquqiy tizimining muhim qismi bo‘lib, bolalarning asosiy huquqlarini ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi. Biroq amaliyotda aliment to‘lovchilar tomonidan majburiyatning buzilishi keng tarqalgan va undirish mexanizmlarining samaradorligi yetarli emas.

Fuqarolik, ma’muriy va jinoyat javobgarligi tizimlari bolalar manfaatlarini himoya qilishda muhim vositalar hisoblanadi. Shu bilan birga, aliment undirish tizimini yanada takomillashtirish uchun huquqiy islohotlar, ijtimoiy chora-tadbirlar va xalqaro tajriba asosida tizimli yondashuv zarur. Bolalarning moddiy ta’minoti — jamiyatning kelajagi, shuning uchun aliment undirish masalalarida davlat organlari, sud tizimi va jamiyatning o‘zaro hamkorligi oshirilishi muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalarning moddiy ta’minoti, ya’ni aliment to‘lovlari orqali ularning yashash, ta’lim olish, sog‘lom rivojlanish kabi fundamental ehtiyojlarini qondirish mexanizmi - oilaviy huquq institutining ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolada aliment undirishning huquqiy asoslari, tartibi va miqdori bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi chuqur tahlil qilindi. Shu bilan birga, amaliyotda duch kelinayotgan muammolar, xususan, aliment to‘lash majburiyatining buzilishi, sud qarorlarini ijro etishdagi qiyinchiliklar, ijro hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq

bajarilmasligi kabi masalalar tanqidiy baholandi. Ushbu holatlar aliment undirish tizimining samaradorligini pasaytirayotgan omillar sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Fuqarolik, ma’muriy va jinoyat qonunchiligi aliment majburiyatining bajarilishini ta’minlashda o‘ziga xos funksiyalarga ega. Fuqarolik-protsessual qonunchilik sud orqali aliment undirish tartibini belgilab bergan bo‘lsa, ma’muriy va jinoyat kodekslari alimentdan bo‘yin tovlagan shaxslarga nisbatan muayyan javobgarlik choralarini nazarda tutgan. Biroq bu tizimlarning o‘zaro uzviyligi va amalda qo‘llanishi ko‘p hollarda yetarli darajada samarali emasligi kuzatilmoqda.

Shu sababli, aliment undirish tizimini yanada samarali faoliyat yurituvchi, barqaror va adolatli tizimga aylantirish zarur. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlarda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

1. **Huquqiy islohotlar** – aliment majburiyatlarini aniqlik bilan belgilovchi, ijro mexanizmlarini kuchaytiruvchi, shuningdek, alimentdan bo‘yin tovlash holatlariga nisbatan qat’iy javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur.

2. **Ijro organlari faoliyatini kuchaytirish** – Majburiy ijro byurosi faoliyatining zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilishi, ijrochilar malakasini oshirish va ijro hujjatlarining elektron tizimda monitoring qilinishi muhim ahamiyatga ega.

3. **Xalqaro tajribadan foydalanish** – Aliment undirish tizimining rivojlangan davlatlar tajribasiga tayanib, avtomatlashtirilgan tizimlar, aliment fondlari (ya’ni davlat tomonidan vaqtincha to‘lovlarni amalga oshirib, keyinchalik aliment to‘lovchidan undirib olish mexanizmi) joriy etilishi foydali bo‘ladi.

4. **Ijtimoiy chora-tadbirlar** – aliment to‘lovchilarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, ularni ish bilan ta’minlash, mas’uliyat hissini shakllantirishga qaratilgan

psixologik va ma’naviy tarbiyaviy tadbirlarni kuchaytirish orqali aliment bo‘yicha qarzdorlik holatlarini kamaytirish mumkin.

5. **Aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish** – ota-onalar, ayniqsa, aliment to‘lovchilar orasida qonunchilik normalari, majburiyatlar va javobgarlik choralariga oid huquqiy axborotlarning keng targ‘ib qilinishi, ommaviy axborot vositalari, internet platformalari va ta’lim muassasalari orqali keng yoritilishi lozim.

Shuningdek, davlat organlari, sud tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish aliment undirish tizimining ishlashini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud qonunchilikni doimiy tahlil qilib borish, u amaliyotga qanchalik to‘g‘ri xizmat qilayotganini o‘rganish va aniqlangan muammolar asosida o‘z vaqtida huquqiy o‘zgartirishlar kiritish orqali tizimni doimiy ravishda takomillashtirib borish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil, so‘nggi tahrirlar bilan) – O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. Bolalar huquqlari va ota-onalarning majburiyatlari to‘g‘risidagi asosiy normalarni belgilaydi.

2. Fuqarolik kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi, 1996-yil, so‘nggi tahrirlar bilan) – Aliment undirishga oid shartlar, ota-onalarning majburiyatlari va bolalarning huquqlari nazarda tutilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (2004-yil) – Aliment majburiyatlarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilaydi.

Issue - 5(2025) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994-yil) – Aliment to‘lovchining majburiyatini bilib turib bajarishdan bosh tortishi jinoyat hisoblanishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

5. O‘zbekiston Respublikasi Sud-huquq faoliysi to‘g‘risida qonun (2010-yil) – Aliment masalalarini ko‘rib chiqishda sud organlarining vakolatlari va tartiblarini belgilaydi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (1998-yil) – Aliment talablarini sudda qo‘zg‘atish, ko‘rib chiqish va ijro etish tartibini belgilaydi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (1996-yil) – Ish beruvchi va ishchi munosabatlarida aliment undirish imkoniyatlari.

8. Shirinova, M. (2021). Bolalar huquqlari va aliment undirish tizimi O‘zbekistonda: amaliyot va muammolar. Toshkent: Huquqiy axborot markazi. – Aliment undirish amaliyoti va huquqiy tahlil.

9. Tursunov, A. (2019). O‘zbekiston sud amaliyotida aliment majburiyatlarini bajarish muammolari. Huquqshunoslik ilmiy jurnali, 4(12), 45-58. – Sud amaliyoti tahlili va takliflar.

10. Karimova, N. (2020). Aliment undirishning huquqiy asoslari va ijro mexanizmlari. Toshkent: O‘zbekiston davlat yuridik universiteti. – Aliment undirish jarayonidagi qonunchilik va ijro masalalari.

11. Rasulov, B. (2018). Aliment to‘lovchilarning javobgarligi: jinoyat va ma’muriy aspektlar. Toshkent: Huquqiy jurnal. – Aliment majburiyatini buzganlik uchun javobgarlik tahlili.

LAW, POLICY AND SOCIETY - ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
Available Online at: https://www.uznauka.uz
5/2025

LAW, POLICY AND SOCIETY

SCIENTIFIC – ANALYTICAL JOURNAL
5/2025

ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО

НАУЧНО – АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
5/2025

HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT

ILMIY – TAHLILIY JURNAL
5/2025

2025-yil 31-may
www.uznauka.uz

Tahririyat manzili:

100147, Toshkent sh., A. Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Telefonlar: (+99893) 527-16-22, (+99888) 147-00-81
Veb-sayt: www.uznauka.uz e-mail: ilmiyizlanuvchi@gmail.com